

50  
B.S. SAYFULLAYEV, V.K. RUSTAMOV

# MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH MAHORATI

TOSHKENT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**B.S. SAYFULLAYEV, V.K. RUSTAMOV**

**MADANIY TADBIRLARNI  
TASHKIL ETISH  
MAHORATI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan  
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

**TOSHKENT – 2016**

UO\*K: 304.44(075)

KBK 77ya7

S-23

S-23 B.S. Sayfullayev, V.K. Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. –T.: «Fan va texnologiya», 2016, 180 bet.

ISBN 978–9943–11–376–3

Tavsiya etilayotgan ushbu qoʻllanmada madaniy tadbirlarni tashkil etishning oʻziga xos xususiyatlari, uning nazariy va amaliy jihatlari, sahnalashtirish sanʼati, tadbirlar turlari va spetsifik xususiyatlari, tadbirlarni tashkil etishning usul va vositalari, madaniy tadbirlar dramaturgiyasi (ssenariynavislik mahorati), badiiy jamoalar bilan ishlash, bir soʻz bilan aytganda madaniy tadbirlarni tashkil etishning ijodiy va tashkiliy jarayonlari keng yoritilgan.

Mazkur oʻquv qoʻllanma sanʼat va madaniyat sohasi boʻyicha shugʻullaniuvchilar hamda keng kitobxonlar ommasiga moʻljallangan.

\*\*\*

В рекомендуемом учебном пособии широко раскрывается особенности организации культурных мероприятий, теоретические и практические основы мастерства организации, искусство постановки, виды культурных мероприятий и её специфические особенности, методы и средства организации, драматургия культурных мероприятий (сценарное мастерство), работа с художественными коллективами, одним словом указаны творческие и организационные процессы проведения культурных мероприятий.

Учебное пособие предназначено студентам занимающихся изучением вопросов культуры и искусства, а так же широкой массе читателей.

UO\*K: 304.44(075)

KBK 77ya7

*Taqrizchilar:*

N.Aliqoriyev – Mirzo Ulugʻbek nomidagi OʻzMU professori.

R.K.Yusupova – Mirzo Ulugʻbek tuman madaniyat va sport ishlari boʻlimi boshligʻi.

ISBN 978–9943–11–376–3

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016.

*Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir.<sup>1</sup>*

**I.A.Karimov**

## KIRISH

Mamlakatimizda mustaqillik shabadalari esa boshlagan davrdan boshlaboq, olib borilayotgan barcha iqtisodiy, siyosiy jarayonlarning asosida ham ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy va tarbiyaviy ishlarning hamohangligini kuzatish mumkin. Shu jihatdan olib qalqanda, madaniyat va san'atga aloqador bo'lgan sohalarda yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, komil inson kabi tushunchalar talqini muhim ijodiy va tashkiliy jarayonlarni qamrab oladiki, unda madaniyat xodimlari, san'at sohasi vakillari zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi. Aholini ma'naviy kamol toptirish, madaniy bilimlarini oshirish, ularni pok va halol yashashga chaqirish, mustahkam e'tiqodga ega bo'lish kabi xususiyatlarni shakllantirishda madaniy tadbirlar tashkilotchilariga alohida bilim, ko'nikma, mahorat va mehnat talab qilinadi.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishdan asosiy maqsad – milliy va dunyo madaniyatlarining eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish va ommalashtirish, o'sib kelayotgan avlodni, zamonaviy yoshlarni ma'naviy tarbiyalash, millatiga, tarixiga, insoniyatga bo'lgan hurmatni uyg'otish va saqlash, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarda faol ishtirok etishdir. Zotan, xalqlarning o'ziga xosligi va

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T. Ma'naviyat. 2008.47-b.

betakrorligini saqlash, tarixan shakllangan qadimiy milliy madaniyatlar, san'at va xalq ijodiyoti, yuz yillar davomida tarkib topgan milliy an'ana va urf-odatlarining o'zaro yaqinlashuvi va bir-birini boyitishi uchun, dunyoda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida o'zaro hurmat muhitini qaror toptirish uchun madaniy tadbirlarning ahamiyatini alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

Madaniy tadbirlarda shaxs o'z insoniy fazilatlarini shakllantira boshlaydi, yashirin, betakror, individual xususiyatlari, qobiliyatlarini kashf etadi, ularni o'stiradi va rivojlantirib boradi, jamiyat, hayot bilan muloqotga kirishadi. Murakkab ijtimoiy voqelik sifatida bu tadbirlarning o'ziga xosligi shundaki, u insoniyat avlodlarining mehnati va bilimlarini o'ziga singdirib oladi, saqlaydi, doimiy boyitib boradi va ularni kelgusi avlodlarga yetkazib beradi. Mana shunday ulkan ishlarni amalga oshirishda madaniy tadbirlarni tashkil etish va bu orqali yoshlarni tarbiyalash –hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Undan tashqari, madaniy tadbirlar milliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar asosida vujudga kelgan bo'lib, har bir odamni mehr-shavqatli, mehr-oqibatli bo'lishiga da'vat etadi, yer yuzida barqarorlik, birdamlik va ahillik tabiatini uyg'otadi, xalqlarning madaniyatlarini o'zaro birlashtiradi, boyitadi, insonlarning millati, tili va dinidan qat'i nazar, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Bir so'z bilan shuni aytish mumkinki, shaxsning ma'naviy yuksalishi uning ijtimoiy faolligini oshiradi va jamiyat taraqqiyotini tezlashtiradi. Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov taraqqiyotning rivojlanish qonuniyatlarini chuqur anglagan holda, «Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi»,<sup>2</sup> deb ta'kidlagani bejiz emas, albatta. Insonlar ongida ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan tushunchalarini kengaytirish, jamiyatning faol a'zosiga aylanish, Vatanni sevish, tinchlik, mustaqillikning qadriga yetish kabi qadriyatlar – madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Darhaqiqat, «ma'naviyatni yuksaltirish shu kunning dolzarb vazifalaridan biri. Kelajak poydevori bo'lmish

---

<sup>2</sup> I.Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. Asarlar, 6-jild. T. O'zbekiston, 1998, 125-bet.

yoshlar qalbi va ongiga boy ma'naviy merosni singdirish asosida barkamol avlodni shakllantirish esa undan ham dolzarbroqdir. Chunki Vatanimiz kelajagi, xalqimiz oldida turgan ulkan maqsadlarga erishish, avvalo yoshlarimizga, ularning har tomonlama barkamol inson bo'lib yetishishga bog'liqdir». <sup>3</sup> Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, komil inson tarbiyasidagi ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy va tarbiyaviy ishlarining samaradorligiga erishish muhim vazifalardandir.

Tadbirlar tur (janr)lariga qarab turlicha tashkil etishni taqozo etadi. Masalan, madaniy tadbirlarning eng ko'p tarzda qo'llanilayotgan turlaridan biri davra suhbatini olaylik. Davra suhbatini tashkil etish ijodiy jihatdan katta mehnat talab qilmaydi. Ammo tashkiliy tomondan juda ko'p mehnat qilishga to'g'ri keladi. Yoki madaniy tadbirlarning eng faol turlaridan biri ommaviy bayramlarni oladigan bo'lsak, bu o'ziga xos ijodiy va tashkiliy jarayonlarning uyg'unligini talab etadi. Har qanday holatda ham madaniy tadbirlarning turlaridan kelib chiqqan holda tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ammo bu ikkala holatda ham asosiy maqsadni tarbiyaga yo'naltirish eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

Davlatimiz tomonidan chiqarilayotgan madaniyat, san'at, ta'lim, tarbiya masalalariga oid qaror, farmon va boshqa hujjatlarni targ'ib qilish, ularni xalqqa yetkazishda, kishilar ongiga ta'sir qilishda ko'proq madaniy tadbirlarni o'tkazishga ehtiyoj seziladi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yurtimizda ma'naviyatni yuksaltirishga katta e'tibor berilishi bejiz emas. Chunki, iqtisodiy rivojlantirish, mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatni jahon siyosati sahnasiga olib chiqish kabi vazifalarni ma'naviyatni yuksaltirmay turib amalga oshirish mumkin emas. Zero, barkamol avlodni tarbiyasi ham bunday ulug' maqsadlarga erishishning asosi hisoblanadi. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida va axloq qoidalari asosida tarbiyalash, yosh avlodda hayotga qat'iy ishonch va qarashni, mentalitetimizga yot bo'lgan zararli ta'sir va oqimlarga qarshi tura olish qobiliyatini rivojlantirish barcha pedagoglar va madaniy-ma'rifiy ishlar mutassadilarining asosiy ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Shu

---

<sup>3</sup> To'plam. «Ma'naviyat -jamiyat taraqqiyotining bosh mezoni». T.. 2011, 342-bet.

jihatdan ham barkamol avlod tarbiyasida madaniy tadbirlarning tashkil etishni maqbul usullaridan foydalanish, madaniy tadbirlarda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan manbalar va usullarni mahorat bilan qo'llay olish, insonlar ongiga ta'sir qilish, bir so'z bilan aytganda, komil inson tarbiyasiga qaratilgan barcha jarayonlardan maksimal foydalanish mazkur o'quv qo'llanmaning maqsadlarini belgilaydi. Tadbirlarni tashkil etish, uning dramatik asosini yaratish, sahnalashtirish, tomoshabinga tatbiq etish va tarbiyaviy asoslarga yo'naltirish, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan manbalarni qo'llay olish, odob, axloq, jamiyat taraqqiyoti masalalariga ongli yondashish, ularni bilimli, ilmiy qilish, ma'naviyat bilan qurollantirish, komil insonni tarbiyalashga qaratilgan vazifalar madaniy tadbirlarni mahorat bilan tashkil etilishiga asos bo'la oladi.

Fuqarolarni ma'naviy kamol toptirish, kishilarning bo'sh vaqtini sermazmun o'tkazish, ma'naviy boyitish, aholini madaniy, ma'rifiy, ijodiy, faoliyatlari uchun shart-sharoitlar, imkoniyat va qulayliklar yaratish, joylarda xalq madaniyatini taraqqiy ettirish hamda rivojlantirish kabi maqsad va vazifalarni o'zida qamrab oladigan madaniy tadbirlarni tashkil etish masalalari mazkur fanning mazmunini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligining 2010-yil 15-fevraldagi «Vazirlikning madaniyat yo'nalishidagi muassasa va tashkilotlarni me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash to'g'risida»gi 126-son buyrug'iga asosan Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik hamda axborot markazi tomonidan nashrga tayyorlangan «Madaniyat sohasiga oid me'yoriy hujjatlar to'plami», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 25-iyundagi «2013-2018-yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 178-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2011-2015-yillarda madaniyat va istirohat bog'larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi 322-son qarori va boshqa hujjatlar – joylarda maqsadli, tarbiyaga yo'naltirilgan madaniy tadbirlarni tashkil etishga qaratilganligi bilan e'tiborga molikdir.

«Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati» fani ham talabalarni madaniy tadbirlarni tashkil etish, ssenariysini yaratish, barcha ijodiy, tashkiliy hamda sahnalashtirish ishlarini amalga oshirishga yordam beradi.

«Madaniy tadbirlarni tashkil etish va boshqarish» ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun «Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati» fanini o'qitishdan asosiy maqsad – madaniy tadbirlarni tashkil etish, o'tkazish, ularning bu soha bo'yicha dunyoqarashlarini kengaytirish, sahnaviy didini o'stirish, tafakkurini rivojlantirish, mustaqil ravishda tadbirlarni tashkil eta olish, sahnalashtirish qobiliyatiga ega bo'lish va boshqa jarayonlar nazarda tutiladi. Mazkur fan madaniy tadbirlar turlari, ularning spetsifik xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish, aktyorlik, rejissyorlik, ijodkorlik, tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirish, nazariy va amaliy jihatdan hamda tarkibiy qismlari sohasi bo'yicha bilimlar berib, madaniy tadbirlarni yuqori darajada tashkil etish, uning mazmunini ochishga, tarbiyaviy ahamiyatini kengaytirishga, turli ifodaviy va ta'sirchan vositalardan foydalanish, sahnalashtirish asoslarini o'rganishga yordam beradi.

Fanni o'zlashtirishda talabalar madaniy tadbirlarni tashkil etish bo'yicha barcha tashkiliy va ijodiy jarayonlarni, tashkil etish usullari, qo'llaniladigan vositalar, tadbirlar dramaturgiyasi, badiiy bezak va boshqa jihatlarini o'zlashtirmog'i lozim, shu bilan bir qatorda madaniy tadbirlarni tashkil etishning nazariy asoslarini, uni amalda qo'llash usullarini, tadbirlarni g'oyaviy yo'naltirish, mazmunan boyitish, chuqur tahlil qila olish, ommaga yetkazish yo'llari, uning ta'sirchan va ifoda vositalari haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtirmog'i hamda shu mavzuga oid manbalar bilan tanishib chiqishliklari maqsadga muvofiqdir. Undan tashqari, mazkur fanni o'zlashtirishdan maqsad - bakalavr bosqichida ta'lim olayotgan talabalarni yetuk kasbiy malakaga ega bo'lishiga tayyorlashda sifatli yondashib, o'qitish jarayonida madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati darsining birinchi darajali yakuniy natijaga buysunadigan fan sifatida qaralishiga, tadbirlarning turlari, tashkil etish usullari, vositalari va sahnalashtirish uslublari haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi nazarda tutilgan.



Madaniy tadbirlarni tashkil etishning amaliy jihatlari, uning tarbiya vositasi sifatidagi vazifalari, bilimlarining mukammallashib borishida va keyingi kasbiy faoliyatida tutgan o'rnini – ushbu fanning naqadar muhim ahamiyatga egaligidan dalolat beradi. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati fanini o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar – talabalar turli yo'nalishlardagi bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Talabani madaniy tadbirlarni tashkil etish, o'tkazish, sahnalashtirish borasidagi tushuncha, tasavvurlarga ega bo'lishi, tadbirlarni tashkil etishning asoslarini o'rganishi uning istiqboldagi rejalarini amalga oshirishida qo'l keladi.

Komil inson, barkamol avlod tarbiyasida madaniy tadbirlarning roli benihoyadir. Madaniy tadbirlar haqida umumiy tushunchalar, uni tashkil etish, sahnalashtirish ishlari, unga ijodiy yoki pedagogik nuqtayi nazardan yondashish, inson tarbiyasida tutgan roli va boshqa masalalar juda ko'p tadqiqotchilarni o'ziga tortgan. Ammo bir narsani eslatib o'tish joizki, sobiq ittifoq davrida yozilgan bir qancha manbalardan boshqa bu soha, ya'ni madaniy tadbirlarga oid bo'lgan o'zbek tilidagi manbalar juda kam. Professor U.Qoraboyevning «Madaniy tadbirlar», «Badiiy ommaviy tadbirlar» kitobida bu mavzularga oid ma'lumotlarni topish mumkin. Oliy ta'lim uchun aynan madaniy tadbirlar to'g'risida manba yo'q. Ammo madaniy tadbirlarning asl mohiyatini, ularning genezisi haqidagi ma'lumotlarni B.Sayfullayev tomonidan yaratilgan «Tomosha san'ati tarixi va nazariyasi» (T., 2014), M.Umarovning «Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi» (T., «Yangi asr avlodi», 2009), tadbirlar dramaturgiyasi bo'yicha H.Muhammadning «Ssenariynavislik asoslari» (T., Fan va texnologiya, 2008), sahnalashtirishga oid manbalarni esa B.Sayfullayev hamda J. Mamatqosimovlar hammuallifligida yaratilgan «Aktyorlik mahorati» (T. Fan va texnologiya, 2012) kabi qo'llanmalardan topish mumkin.

Talabalar tomonidan o'zlashtirilayotgan madaniy tadbirlarni tashkil etishga qaratilgan jarayon aniq bir tizimga solinishi maqsadga muvofiqdir. Bu tizim ta'lim dasturi bo'lib, unda:

– «Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati» fani bo'yicha ijodiy, tashkiliy hamda texnologik yondashuvlar o'rganilib, tahlil

qilindi; tadbirlarni tashkil etish mahoratini o'rgatish jarayoni, mazmuni o'rganib chiqildi.

Hozirgi zamon yoshlari talab darajasida bilim va yangiliklarga chanqoq o'quvchilardir. Fan va texnika taraqqiy etgani sayin ularda axborot olish manbalarining turlari ko'payib ketganligi – o'qitishni an'anaviy usullaridan farqliroq usullarni qo'llashni talab qiladi. Shuning uchun ham mazkur fan bo'yicha pedagog V.Rustamov tomonidan tuzilgan modulning ahamiyati kattadir. Talabalarni modul tizimi orqali o'qitish yuqorida sanab o'tilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga xizmat qilishning eng maqbul usullaridanidir.

*Modul haqida qisqacha ma'lumot:* Ushbu tayyorlangan modulning ahamiyatli jihati shundaki, bu modul asosida o'qitilganda talabalar faqatgina matnni o'qimasdan, rasmlarini ham ko'rishlari, audio va video vositalaridan foydalanishi, fan bo'yicha o'quv uslubiy majmua, ma'ruzular matni, nazorat topshiriqlari, test savollari, glossariy, adabiyotlar ro'yxati va boshqa barcha kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin. Undan tashqari, AKT, multimediya vositalari, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali mavzuni o'zlashtirishga keng imkoniyatlar yaratiladi. Eng asosiysi, talabalar mustaqil ravishda darslarni tayyorlash ko'nikmalariga ham ega bo'ladilar. Mazkur modul fanni o'rgatish doirasida xalqaro-jahon tajribasini sohaga tatbiq etishga hamda chet tilini o'zlashtirishga kerakli ulushini qo'sha oladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, madaniy tadbirlar - aholini ma'naviy kamol toptirish, madaniy saviyasini oshirish, bilimni o'stirish, dunyoqarashini kengaytirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, bo'sh vaqtini samarali o'tkazishga qaratilgan ijodiy va tashkiliy jarayonlardir. Ammo madaniy tadbirlarni tashkil etish funksiyalarining ilmiy asoslanishi muhimdir. Shuning uchun yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalarga tayangan holda talabalarda ijodiy va tashkilotchilik dunyoqarashini shakllantirish, boyitish, ularning tadbirlarni tashkil etish va g'oyaviy yo'naltirish bo'yicha tafakkurini rivojlantirish, tadbirlarni tashkil etish bo'yicha bilimlar berib, tadbirlarni o'tkazish va sahnalashtirish asoslarini o'rgatish fanning oldida turgan muhim vazifalardandir.

## **I bob. «MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH MAHORATI» FANINING NAZARIY ASOSLARI**

### **Madaniy tadbirlarning jamiyat ma'naviy hayotida tutgan o'rni**

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, kishilar ongi, dunyoqarashi, tafakkuri, maqsad va intilishlari, bir soʻz bilan aytganda ma'naviy-mafkuraviy olamida, ruhiy tabiati va hatto qiyofasida ulkan oʻzgarishlar paydo boʻla boshladi. Bu borada hukumatimizning ma'naviyat, ma'rifat, mafkura, madaniyat, san'at va g'oyaviy yoʻnalish borasida olib borilayotgan hayotiy va odilona siyosati muhim omil boʻlib xizmat etmoqda. Zero, gap ma'naviyat, mafkura, g'oya, san'at, madaniyat va ma'rifat haqida borar ekan, unda madaniy tadbirlarning jamiyat taraqqiyotidagi muhim ahamiyati beqiyosligini hech kim inkor etolmaydi. Ommaviy san'at asarlari hisoblangan teatr, kino yoki ommaviy tadbirlarni mazmunli, maqsadli niyatga erishishda san'atning barcha turlaridan foydalaniladi va tomoshabinlarga taqdim etiladi. Ammo deyarli tashkil etiladigan barcha tadbirlarning asosida ma'naviy, tarbiyaviy va axloqiy, ma'rifiy jarayonlarning yotganligiga shubha yoʻq.

Madaniy tadbirlarning jamiyat ma'naviy hayotida tutgan o'rni beqiyosdir.

Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati» fani ham madaniy tadbirlarni tashkil etishning nazariy, amaliy hamda uslubiy jihatlarini oʻrgatadi. Rejalashtirilgan va oʻtkazilishi lozim boʻlgan madaniy tadbirlarning asosiy vazifasi – milliy va dunyo madaniyatlarining eng yaxshi namunalarini keng targʻib qilish va omma-lashtirish, oʻsib kelayotgan yosh avlodni, zamonaviy yoshlarni ma'naviy tarbiyalash, millatiga, tarixiga, insoniyatga boʻlgan hurmatni uygʻotish va saqlash hisoblanadi. Zotan, xalqlarning oʻziga xosligi va betakrorligini saqlash, tarixan shakllangan qadimiy milliy madaniyatlar, san'at va xalq ijodiyoti, yuz-yillar davomida tarkib topgan milliy an'ana va urf-odatlarining oʻzaro yaqinlashuvi

va bir-birini boyitishi uchun, dunyoda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida o'zaro hurmat muhitini qaror toptirish uchun madaniy tadbirlarning ahamiyatini alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, madaniy tadbirlarda shaxs o'z insoniy fazilatlarini shakllantira boshlaydi, yashirin, betakror, individual xususiyatlari, qobiliyatlarini kashf etadi, ularni o'stiradi va rivojlantirib boradi, jamiyat, hayot bilan muloqotga kirishadi. Murakkab ijtimoiy voqelik sifatida bu tadbirlarning o'ziga xosligi shundaki, u insoniyat avlodlarinig mehnati va bilimlarini o'ziga singdirib oladi, saqlaydi, doimiy boyitib boradi va ularni kelgusi avlodlarga yetkazib beradi.

Mana shunday ulkan ishlarni amalga oshirishda madaniy tadbirlarni maqsadli tashkil etish, uni tarbiyaviy jarayonlarga yo'naltirish –hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir.

Joylarda o'tkaziladigan juda ko'p tadbirlarning saviyasi past darajada o'tishi tadbir tashkilotchilarining – madaniy tadbirlarni tashkil etish asoslarini bilmasliklari, tashkil etishning usul va vositlaridan to'laqonli foydalanmaganliklari, ijodiy hamda tashkiliy ishlarning uyg'unligiga erisholmaganliklari, sahnalashtirish ishlari, g'oyaviy talqin masalalarini yaxshi bilmasliklaridadir.

O'zbekiston davlati mamlakatda insonlarning yashash shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlarga bilim berish, bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish va buning natijasida jamiyat hayotida faol ishtirok etish, oilasi, kasbi, Vatanini sevisish kabi ijobiy xislatlarni jo qilishga katta e'tibor qaratmoqda. Undan tashqari, madaniy tadbirlar milliy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar asosida vujudga kelgan bo'lib, har bir odamni mehr-shavqatli, mehr-oqibatli bo'lishiga da'vat etadi, yer yuzida barqarorlik, birdamlik va ahillik tabiatini uyg'otadi, xalqlarning madaniyatlarini o'zaro birlashtiradi, boyitadi va eng asosiysi – insonlarning millati, tili va dinidan qat'i nazar, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi.

Sobiq sho'rolar davrida (avvallari madaniyat uylari, madaniyat saroylari, klublar deb atalgan) madaniyat maskanlarida olib boriladigan ishlarning asosini ko'ngil ochar dasturlar egallaganligini ochiq aytish mumkin. To'g'ri, juda ko'p madaniy tadbirlar o'tkazilgan, ammo, bu tabirlarning asosida yotishi lozim bo'lgan asosiy g'oya – yoshlar tarbiyasi masalalari o'ta sust darajada

ko'rilganligi achinarli holdir. Har qanday tadbir ma'lum bir g'oyaga yo'naltirilishi, insonlarga o'zi xohlagan nimanidir olishiga imkon berishi, dam olishi, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi, tarbiyalanishi, jamiyatga foydasi tegadigan insonga aylanishi, davlat siyosatining mohiyatini anglashi kabi maqsadlar asnosida tashkil etilishi kerak.

Inson tarbiyasida, ayniqsa, yoshlar tarbiyasida madaniy tadbirlarning o'rni muhimdir. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida va axloq qoidalari asosida tarbiyalash, yosh avlodda hayotga qat'iy ishonch va qarashni, mentalitetimizga yot bo'lgan zararli ta'sir va oqimlarga qarshi tura olish qobiliyatini rivojlantirish barcha pedagoglar va madaniy-ma'rifiy ishlar mutasaddilarining asosiy ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Shu jihatdan ham madaniy tadbirlarni tashkil etish, uning dramaturgiyasini yaratishda ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan manbalarni qo'llay olish, unda odob, axloq, jamiyat taraqqiyoti, insonlarni bilimli, ilmi qilish, ma'naviyat bilan qurollantirish, komil insonni tarbiyalashga qaratilgan vazifalar dolzarbligini yo'qotmaydi.

Xo'sh, shunday ekan, madaniy tadbir degan tushunchaga qanday izoh bersak maqsadga muvofiq bo'ladi?

O'zbek tilining izohli lug'atida «*tadbir*» – biron ishni, maqsadni amalga oshirish, ro'yobga chiqarish vositasi – shuning uchun puxta o'ylab tuzilgan, ishlab chiqilgan amaliy choralar majmuidir, deyilgan. Madaniy tadbirlar to'g'risida shu soha olimlari turli fikr mulohazalarni aytib o'tganlar. Ular bu tushunchani badiiy ommaviy tadbirlar deb, yana boshqalar madaniy-oqartuv, madaniy-ma'rifiy ishlar deb yuritganlar. Madaniy tadbirlar esa bu jarayonlarning barchasini o'zida qamrab oladigan ijodiy va tashkiliy jarayondir. Madaniy tadbirlarni kengroq ma'noda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ommaviy bayramlar, konsert dasturlari, tematik kechalar, turli mavzudagi musiqiy, badiiy, publitsistik, xoreografik kompozitsiya va h.k.lar, bog'lar, maydonlarda o'tkaziladigan turli janrlardagi tadbirlar umumiy nom bilan madaniy tadbir tushunchasiga teng bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda ijodiy, uslubiy jihatdan mukammal, puxta tayyorlangan, to'g'ri tashkil etilgan dasturlar madaniy tadbir desak to'g'ri bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, har qanday madaniy tadbir ijodiy va tashkiliy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ijodiy ishlarga tadbirning ssenariy rejasini tuzish, ssenariysini yozish, sahnalashtirish, badiiy jamoalar bilan ishlash, tadbir o'tadigan joyni bezash kabi ishlar kirsa, tashkiliy ishlarga esa ana shu ijodiy ishlarni amalga oshirish uchun qilinadigan barcha ishlar kiradi. Masalan, badiiy jamoalar bilan ishlash uchun mikrofonlar, texnik jihozlarni tayyorlash kabi vazifalar shular jumlasidandir. Yoki, sahnani bezash uchun rassom ijodiy nuqtayi nazardan yondashganda ham unga aynan duradgor kerak bo'ladiki, u sahnani bezagi uchun kerakli jihoz yoki materiallardan foydalanadi, ya'ni reyka, taxta, mix va boshqalardan sahna uchun kerakli figura, shakl va boshqalarni tayyorlab beradi.

Madaniyat muassasalaridagi ma'naviy - ma'rifiy tadbirlar turli yoshdagi aholining ma'naviy - axloqiy, milliy-ma'naviy ruhda tarbiyalashga qaratilgan.

Madaniy tadbirlar – eng avvalo milliy g'oya asosida xalqni birlashtirish, jipslashtirish, yosh avlod ongi va qalbida ezgu g'oyalarga sadoqat tuyg'ularini tarbiyalashga, shuningdek, kishilarni ma'naviy tajovuzlardan ogohlikka chorchash, ularning mohiyatini anglab yetishga qaratilgan tizimli shakllar, usullar, vositalar va maqsadli amaliy harakatlar majmuidir. Yuqorida aytib o'tganimizdek, biron-bir asarni asar mazmuni tashkil etilayotgan janri aniqlanganidek, madaniy tadbirlar ham muhim tadbirning mohiyatidan, ichki mazmunidan kelib chiqqan holda turli shakllarga ega bo'ladi. Yoshlarga ko'p bilim, ma'rifiy tadbir deb ozuqa berishga qaratilgan turini ma'naviy - ma'rifiy tadbir deb atasak, to'g'ri bo'ladi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ham ta'lim - tarbiyaning muhim yo'nalishi sifatida uning asosiy maqsadi muayyan masala bo'yicha bilim berish bilan birga anglangan xatti - harakatga yo'naltirishdan iboratdir. Bunday tadbirlarni tashkil etishning ikkita asosiy yo'nalishini ko'rsatib o'tish muhimdir:

Birinchi, insoniy fazilatlarini ulug'lash, yuksak ma'naviyatli kishilar hayoti va faoliyatini ta'riflash, ularni ibrat, namuna qilib ko'rsatish orqali amalga oshiriladi. Ikkinchi, ularni o'zlaridan esa - muayyan illatlarni qoralash, ulardan xalos bo'lishga davlat, targ'ibot qilish orqali amalga oshiriladi va bunda erishilgan yutuqlarni xolisona

e'tirof etib, yo'l qo'yilgan kamchiliklar xolisona nuqtayi nazardan baholanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tadbirlarda ulug' ajdodlarimizning hayot yo'li, qoldirgan merosini beryoqlamalikka berilmay, to'g'ri va haqqoniy aks ettirishga, faqat o'tmishdagi siymolar bilan cheklanib qolmasdan, bugungi kunda yon - atrofimizda faoliyat ko'rsatayotgan ilg'or zamondoshlarimizni o'rnak sifatida ko'rsata bilish muhim ahamiyatga egadir. O'tmish va kechagi kun bilangina yashab qolmasdan, bugungi kundagi murakkab voqelikka tayanib, jamoatchilik fikrini shakllantirishning eng zamonaviy, ta'sirchan usullari va vositalaridan foydalangan holda ish olib borish hayotning qat'iy talabidir. Madaniy tadbirlarda bugungi murakkab an'naviy, jarayonlarni ilmiy - amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, buzg'unchi g'oyalarning kimga va nimaga qarshi qaratilganligini aniqlash, ma'naviy -tajovuzlar mohiyatini ochib berish alohida ahamiyatga ega. Ana shundagina ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mazmun - mohiyati bilan odamlar qalbiga va ongiga yetib boradi.

Yurtimizda har yili Respublikamiz «yil»larga mos tadbirlarning ishlab chiqilishi, shu-yillarga mo'ljallangan davlat dasturlari, rejalar va vazifalarning bajarilishining negizida ham asosan tadbirlarni tashkil etish orqali amalga oshirish lozim bo'lgan ishlarni nazarda tutish maqsadga muvofiqdir. Yil dasturlari – yurtimizdagi barcha jarayonlarni qamrab olganligi bilan alohida mazmunga egadir. Davlat dasturlari asnosida turli tadbirlarni tashkil etish esa biz madaniyat va san'at xodimlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Yil davomida o'tadigan tadbirlarni shu mavzularga yo'naltirish, yilning davlat dasturida belgilangan vazifalarini hayotga tatbiq qilish, dasturda belgilangan maqsad va vazifalar mohiyatini aholi (yoshlar, katta yoshdagilar, keksalar) ongiga singdirish - madaniy tadbirlar tashkilotchilarining asosiy qilishlari kerak bo'lgan vazifalaridandir.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini uyg'unlashtirish, tashkilotchilik hamda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan maqsadlar sari intilish – mazkur fanni o'zlashtirishda pedagogning oldiga juda katta mas'uliyat yuklaydi.

Tadbirlarni to'g'ri, maqsadli tashkil etishga qaratilgan jarayonlarni tizimli ravishda qayta ko'rib chiqish payti kelganligini vaqt qo'rsatmoqda.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Madaniy tadbirlarni tashkil etish asoslari haqida gapirib bering.
2. «Tadbir» tushunchasini izohlab bering.
3. Davlatimiz tomonidan ishlab chiqarilayotgan shu sohalariga oid me'yoriy hujjatlar haqida ma'lumotlar bering.
4. «Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati» fanining o'ziga xos jihatlarini aytib bering.

### **Mustaqil ish uchun mavzu va vazifalar:**

1. Madaniyat va san'at sohasi xodimlarining madaniy tadbirlarni tashkil etishdagi maqsad va vazifalari.
2. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida madaniy tadbirlarni tashkil etishga oid ishlar xususida.
3. Davlatimiz tomonidan ishlab chiqarilayotgan shu sohaga oid (masalan, Vazirlar Mahkamasining 178 hamda 322-sonli Qarori) hujjatlar bo'yicha ma'lumot tayyorlang.
4. Respublika Prezidenti tomonidan har yili e'lon qilinadigan «Yillar»ni ketma-ketlikda sanab o'ting hamda reja va dasturlar mohiyati bo'yicha ma'lumot tayyorlang.

### **Madaniy tadbirlarni tashkil etishning pedagogik aspektlari**

Har bir tadbir o'zining xususiyati jihatidan pedagogik asosga ega. Chunki pedagogika ham asosan tarbiyaviy jarayonlarni boshqaradi. Insonlarga ta'sir qilish, bola tarbiyasi, ibrat, ma'naviy ozuqa, bilimli-ilmli bo'lish, ustozlarga, kattalarga xurmat, kichiklarga izzat, mehr-oqibat va boshqa barcha shu kabi tushunchalarni pedagogika sohasida yanada chuqur o'rganiladi. Madaniy tadbirlarda esa pedagogik mahoratni qo'llash katta samaralarga erishishga yo'l olchadi. Mashhur rejissyorlardan Nemirovich – Danchenko



rejissyorni uchta fazilati, ya'ni rejissyor-oyina, rejissyor-pedagog, rejissyor-tashkilotchi» ekanligi to'g'risida yozib o'tgan. Aynan manashu fazilatlarini madaniy tadbirlarni tashkil etish jarayonlarida qo'llash ham tadbirning salmog'ini oshirishga xizmat qiladi. Tadbir tashkilotchisining ta'lim bilan tarbiya uyg'unligiga erishishda uning pedagogik mahorati ham katta rol o'ynaydi. Rejissyorning pedagogik faoliyati haqidagi uning aytgan fikrlaridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, rejissyor-tushuntiruvchi, u boshqaruvchi hamda tashkilotchi hamdir. Madaniyat xodimi ham aynan shu fazilatlarini o'zida jo qilishi lozim.

Mazkur fan doirasida shuni hisobga olish zarurki, teatrlarda professional aktyorlar, ijodkorlar faoliyat yuritsalar, joylarda o'tkazilgan tadbirlar samarasi xalq orasidan chiqqan iqtidorlarning mehnati natijasida ko'rinadi. Buning uchun to'garaklar ishini to'g'ri tashkil etish, san'atni sevadigan, iqtidorlarni qo'llash, rag'batlantirish, to'g'ri yo'llanma berish kabi ishlar madaniyat va sohasi vakillari zimmasiga katta mas'uliyat yuklabgina qo'ymasdan, uni amalga oshirish yo'lida katta mehnat qilishiga to'g'ri keladi. Tadbir tashkilotchisi tashkilotchilik, boshqaruvdagi mahorati, ijodiy jarayonlardagi faolligi, pedagogik qobiliyati, muomala madaniyati bilan boshqalardan ajralib turishi kerak.

Tadbir tashkilotchilarining pedagogik fazilatlarga ega bo'lishi juda ko'p masalalarni hal qila oladi. Chunki, birinchidan, to'garakka kelgan har bir yigit-qiz shu yerda o'zining o'rnini sezishi kerak. Ikkinchidan, to'garak rahbari o'zining muomala madaniyati, bilimi bilan yangi kelgan ishtirokchining didiga mos kelishi kerak. Uchinchidan, madaniyat va san'at sohasi xodimi bilan ishtirokchi (to'garak qatnashchisi) o'rtasida yaxshi, jiddiy va do'stona munosabat o'rnatilishi kerak. To'rtinchidan, to'garakka kelgan ishtirokchi har gal kelganda yangi ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Beshinchisi, tadbir tashkilotchisi, to'garak rahbari bu qatnashchilarni o'tkaziladigan tadbirning faol ishtirokchilariga, tashkilotchilaridan biriga aylantirishga muvaffaq bo'lishlariga erishish lozim.

Jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati, ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish,

yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi.

O'qitishning yangi pedagogik texnologiyalarga asoslanishi talabalarga an'anaviy usullardan farqli o'laroq, bilim berishning yangicha yondashuvini anglatadi. Pedagogik texnologiyalarni rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi - talabada o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ta'limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talab talabaning dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir. Jahon pedagogik tajribasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning dars jarayonida qo'llanilishi, talabalarni fanlarga qiziqitirishga, ularning mustaqil ishlashda faolliklarini oshirishga katta ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Ta'limning bugungi vazifasi talabalarni kun sayin oshib borayotgan axborot - ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur.

Talabalar tomonidan bilimlarni o'zlashtirishni hozirgi kun nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo'lsak, talablarni kuchaytirish, mavzu bo'yicha auditoriyada hamda mustaqil tayyorgarlik ko'rishga majbur qiladigan yo'llarni izlash har bir pedagogning oldida turgan muhim vazifalaridandir. An'anaviy shaklda o'tilgan mashg'ulotdan so'ng talaba oddiy o'qituvchi aytib bergan yoki yozdirgan mavzusi bo'yicha tayyorlanib keladi. Internetdan qo'shimcha manbalar, boshqa tadbirlar bilan taqqoslash, tahlil qilish kabi ishlarni bajarmaydi. Uning tayyorgarlik darajasi shu qog'ozda yozilgan birikki betlik o'qituvchi «yozdirgan» mavzu qobig'ida qoladi. Bugungi

kunda esa ta'lim tizimida – o'qish hamda o'qitishga talab juda jiddiy qo'yilganligi bilan ajralib turadi. Talaba-yoshlarning bilimliligi jamiyatning salohiyatini belgilashga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'lim borasida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, AKT, chet tillarini o'zlashtirish, me'yoriy hujjatlar, innovatsion ta'lim texnologiyalari bilan ishlash (yoki o'qitish) butun dunyoda keng yoyilgan. Bu o'qitish uslubi talabani (o'qituvchini ham) izlanishga, darsni faollashtirishga, fikrlashga va tafakkurini oshirishga, tadbirlarni tashkil etish asoslarini yaxshi o'zlashtirish bo'yicha bilim va ko'nikmalariga ega bo'lish, mavzu va vazifani chuqur o'zlashtirishga undaydi. Ayniqsa, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga ko'chayib bormoqda. Bunday bo'lishini sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Tadbirda qo'llanilayotgan har bir janr ma'lum bir g'oyani ilgari surib, insonlar ongiga ta'sir qilishi lozim. Bunda g'oyaviy talqin masalasiga jiddiy e'tibor berish kerak bo'ladi. Chunki, sahnaga chiqib aytilgan har bir so'z tomoshabinga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi va natijada u xulosalar chiqara boshlaydi. Bunda tanlangan asar tarbiyaviy ahamiyati bilan tomoshabinni o'ylantirishi kerak. Tomoshabin e'tiboriga havola etilayotgan voqelikdan u to'g'ri xulosalar chiqarishini ta'minlash –bu bizning zimmamizdagi eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Tomoshabinda «nima bo'пти» degan savolga o'rin qoldirmaslik kerak. G'oyaviy talqinga nisbatan to'g'ri yondashish, qo'yilayotgan, sahnalashtirilayotgan asarning qimmatini oshiradi

Har qanday sohada tarbiyaviy faoliyat, tarbiyaviy-jarayon sezilib turishi lozim. Chunki, tarbiyalangan har qanday jamoaning mehnatlari natijalari samarali bo'ladi.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida tarbiya haqida shunday yozilgan:

«Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chor-tadbirlar yig'indisi. Tarbiya – insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki, odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi.

Tarbiya har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdur. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak».

Demak, bundan xulosa shuki, tarbiyaga faqatgina shaxsga qaratilgan, uning ma'naviy, axloqiy, estetik jihatdan yetuklik darajasinigina emas, balki uni keng ma'noda ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi sifatida ham qaralishini taqozo etadi.

Tarbiya jarayoni – shaxsni shakllantirishga maqsadli yo'naltirilgan, tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchilar hamkorligi uchun maxsus tashkil etilgan, boshqariladigan va nazorat qilinadigan, o'zining pirovard maqsadi sifatida shaxsni shakllantiradigan jarayondir.

Tarbiya jarayonining eng asosiy natijasi –har tomonlama va uyg'un kamol topgan yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishdir.

Madaniy tadbirlar ham tarbiya jarayonining muhim bo'laklaridan hisoblanib, asosiy maqsad qilib, barkamol avlod tarbiyasini birinchi navbatga qo'yishi lozim. Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayondir yoki boshqacha qilib aytganda insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lidagi chora-tadbirlar yig'indisi, desak ham bo'ladi.

«Tarbiya» atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye, matbuot va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi.

Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi, biroq har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy-ma'naviy sifatleri qaror topishi ham tezlashadi. Shuning uchun ham «Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa, ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash sharqona hayot falsafasi»dir.<sup>4</sup> Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim», – deb uqtiradi Respublikamizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov.

Demak, tarbiya – shaxsni shakllantirishga maqsadli yo'naltirilgan, tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchilar hamkorligi uchun maxsus tashkil etilgan, boshqariladigan va nazorat qilinadigan, o'zining pirovard maqsadi sifatida shaxsni shakllantiradigan jarayondir.

Tarbiya jarayonining eng asosiy natijasi – har tomonlama va uyg'un kamol topgan yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishdir. Tarbiya jarayoni – tarbiyaviy ishlar, tadbirlarning doimiy harakatdagi zanjiridan iborat.

Tadbirlar bo'yicha so'z borganda, tarbiyaviy tadbirlar degan tushunchaga duch kelamiz. *Tarbiyaviy tadbirlar* – turli xil moddiy

---

<sup>4</sup> I.Karimov. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T., Ma'naviyat, 2008. 38 b

va ma'naviy ehtiyojlarga javob beruvchi tarbiyaviy maqsadlarning yagona majmuasiga bo'ysundirilgan, bir-biri bilan o'zaro hamkorlik qiluvchi, o'zida bir butun ta'limni ko'zda tutgan tarbiyaviy ta'sir majmuidir. Ta'lim jarayoni alohida darslardan tashkil topgani kabi tarbiyaviy tadbirlardan tarbiya jarayoni vujudga keladi. Tadbirlar, tarbiyaviy ishlar – tarbiya jarayonining bir bo'lagidir.

Tarbiya mavzusi katta, keng qamrovli mavzu. Bu mavzu alohida o'rganishga molik. Uning tarbiyaviy ishlar, tarbiyaviy ishlarning manbalari, tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish uslublari, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, ularni tashkil qilishning asosiy qoidalari, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishni boshqarish, pedagogik ta'sir etish usullari, pedagogik texnologiyalarni qo'llash va boshqalarni o'rganish, chuqur bilish, amalda qo'llash juda muhimdir.

Turli mavzuda tashkil etiladigan tadbirlar, masalan, «Ichkilik va giyohvandlikka qarshi kurash», «Jinoyatchilikka qarshi kurash», «Diniy eksterimizm» mavzulariga bag'ishlangan, gigiyena yoki reproduktiv salomatlik bo'yicha davra suhbatlari, TTJda va ijarada yashovchilar bilan ishlash kabi mavzu va rejalar madaniy tadbirlar tashkilotchilarining asosiy ishlaridan hisoblanib, yoshlar tarbiyasi, ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, vatanparvarlik, mehnat-sevarlik, fidoyilik, mehr-oqibat kabi tushunchalarni kengaytirishga xizmat qilishi lozim.

Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, «Aslida ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotning chegarasi yo'q. Toki hayot davom etar ekan, ta'lim ham, tarbiya ham zamon o'rtaga qo'yayotgan yangi-yangi talablarga ko'ra mustaqil ravishda o'zgarib-yangilanib boraveradi».<sup>5</sup> Respublikamizda «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash Milliy dastur» va «Davlat ta'lim standart»lari talablariga mos keladigan yangi ta'lim texnologiyalarini yaratish dolzarb muammoga aylandi. An'anaviy ta'lim tizimidan farqli ravishda, pedagogik texnologiyalar ta'limdagi boshqa innovatsiyalar bilan kirishib va rivojlanib keta olishi ilg'or davlatlar tajribasida allaqachon o'z isbotini topgan.

---

<sup>5</sup> Karimov I. A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari» T., O'zbekiston, 1998 y. - 62 b.

Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda olib borilgan darslar samarali natija berib, o'quvchilarni bevosita o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Xuddi shu maqsadlardan kelib chiqib, talabalarni mazkur fanni o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion – pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, CD, video, proyektor, tarqatma materiallar, elektron materiallar hamda kompyuter dasturlaridan foydalaniladi. Yakka darslarda ham talabalarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, ularga mos ravishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Pedagogik faoliyatda «texnologiya» atamasining qo'llana boshlanganligi pedagogik amaliyot, uning nazariy jihatlari hamda ular haqidagi bildirilayotgan mulohazalar birmuncha yuqori ilmiy darajaga ko'tarilmoqda. Pedagogik texnologiya – hozirgi zamondagi didaktika va pedagogika taraqqiyotining mahsuli. Uni pedagogikaning hozirgacha mavjud bo'lgan hamda takomillashib kelayotgan barcha asosiy yo'nalishlari bo'yicha amaliy vazifalarni yanada yuqoriroq darajada amalga oshirish yo'lidagi yangi bosqich deb hisoblash mumkin. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba, interfaol metodlar talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiya ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini, pedagogik mahorat esa– bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o'rganadi. Pedagogik mahorat – ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkurdir.

«Texnologiya» – yunon (tehne) so'zidan olingan bo'lib, mahorat, hunar va «logos» – tushuncha, ta'limot ma'nosini anglatadi. Texnologiya samarali vositalar yordamida ta'lim sifatining o'zgarishiga olib keluvchi tizimli usullar yig'indisidir.

«Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati» fanida nazariy va amaliy mashg'ulotlar paytida pedagogik texnologiyalarning juda

ko'p metod va vositalaridan unumli foydalanish darsni o'zlashtirishga katta samara beradi. Mashg'ulotlarni o'zlashtirish jarayonida «Aqliy hujum», «Baliq suyagi», «Klaster», «Men kimman», «Venn diagramma», «SWOT tahlil» va boshqa pedagogik texnologiyalar talabalarda qisqa vaqt mobaynida ko'p ma'lumotlarga ega bo'lish, eng asosiysi mavzuni yaxshi eslab qolish imkoniyatlarini kengaytiradi. Mazkur fanni o'qitish doirasida eng ko'p qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalardan biri – «Keys – stadii»dir. Bu texnologiya fanni o'zlashtirishda ham vosita, ham metod vazifasida qo'llanilib keladi. Bu texnologiya sahnalashtirish san'atida juda ko'p ishlatiladigan «Agar-da», «Berilgan shart-sharoitda», «Sahnaviy diqqat», munosabat, aktyorlik mahorati, rejissyorlik sohasining elementlarini, tashkilotchilik, sahnalashtirishga oid tushunchalarini to'ldirishga, kengaytirishga hamda undan maqsadli foydalanish imkonlarini beradi.

«Innovatsiya» – inglizcha, innovation (yangilik kiritish, yangilik yaratish, novatorlik) so'zidan olingan. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonlar, o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni zamirida yangi pedagogik, axborot kommunikatsion, texnologik jarayonlar va boshqa metodlardan maqsadli foydalanish yotadi. Innovatsiyalar fanni o'zlashtirish mobaynida talabalarni fikrlashga, psixo-fizik holatlarini topishlarida, o'zlariga berilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirishda, mashqlarni amaliy jihatdan bajarishlarida, bir so'z bilan aytganda nazariy va amaliy ish uyg'unligiga erishishda yordamga keladi.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanish katta samaralarga erishishni kafolatlaydi. Chunki, talabalarda an'anaviy, o'zi bilgan ma'lumotlardan tashqari, yangiliklar, yangi ma'lumotlar olish imkoniyatlari kengayadi, mavzularni eslab qolishga asos bo'ladi. Talabalarning faolligiga erishish har qanday soha bo'yicha mashg'ulot olib boruvchilarning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi faollikni interfaol metodlarda kuzatish mumkin.

Interfaol metodlar bu – jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali



amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

1. O'qituvchi va talabaning hamkorlikdagi faoliyati va samarali natija.

2. Talabaning o'z bilimini tadbirni tashkil etishga ijodiy yondashgan holda yo'naltirilishi.

3. Talabalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, bilimlarni rivojlantirishga intilishini qo'llab-quvvatlash.

4. Talabani mustaqil fikrlash, izlanishga va ijod etishga yo'naltirish.

5. Tashkil etmoqchi bo'lgan tadbirni ijodiy va tashkiliy jihatlarni aniq rejaga asoslantirish asosida ish yuritishga o'rgatish mazkur ta'lim metodining asosini tashkil etadi.

Bu pedagogik hamkorlik jarayonini qo'llashdan maqsad: talabaning bilim saviyasini, natijaga erishishda to'g'ri pedagogik texnologiyalar tanlashdir. Hozirgi kunda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni to'laligicha amaliyotga tatbiq etila olmagan achinarli holat, bunga sabab, ayrim oliy ta'lim muassasalarini elektron vositalar, kompyuterlar bilan to'liq ta'minlanmagan, internet va boshqa axborot tarmoqlariga yetarlicha ulanmaganligi, o'qituvchi va talabalarni zamonaviy kompyuter texnikasidan foydalanish malakasi yetishmasligi, rahbariyatni shu sohaga jiddiy e'tibor bermasligidadir. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun yangi innovatsion texnologiyalarni o'qituvchi, talabalarga mukammal o'rgatish, o'qituvchilarga multimediyaga o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqishda ko'mak berish, o'qituvchi - talabalar bilan zamonaviy axborot texnologiyalari haqida ko'proq ilmiy taushitiruv ishlarini olib borish katta samara beradi. Bugungi kunda zamonaviy ta'limni rivojlantirish talablariga jismoniy, ruhiy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish, talabalarga nazariy bilimlarni, yangi pedagogik metodlar orqali yetkazib, ularda ko'nikma, malakalarni hosil qilish, egallagan bilimlarini nazorat qilish, baholash - o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat va ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab qiladi.

Zamonaviy pedagogik metodlardan biri bo'lgan interfaol metodi - talabalar bilan hamkorlikda ishlash, darning samaradorligini oshirish, talabalarda mustaqil fikrlashni, munosabat bildirishni talab

etadi. Interfaol metodda talaba o'zi faol ishtirok etgan holda yakka, o'qituvchi bilan juftlikda savollarga javob topishga, fikrlashga undaydi.

Dars o'tish jarayonida o'qituvchi o'qitishning ilg'or zamonaviy usullaridan, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalardan foydalanishi kelajakda yuksak natijalarga erishishni ta'minlaydi. Bu borada o'qituvchi o'z shogirdini zamonaviy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishi, xorijning ilg'or tajribalarini o'rganishi va ta'lim amaliyotiga tatbiq etishi, amaliy va nazariy maslahatlari juda muhimdir.

Rejissura o'z ixtisosliklariga ega bo'lgani (qo'g'irchoq teatri rejissyorligi, televideniye va radio rejissyorligi, kino rejissyorligi, ommaviy bayramlar rejissyorligi) kabi madaniy tadbirlarni ham turlari jihatdan xilma-xildir. Ularni tashkil etish ham o'ziga xos bo'lgan yondoshuvni talab etadi. Masalan, davra suhbatini olaylik. Davra suhbatini o'tkazish uchun maxsus rejissyor taklif qilish shart emas. Uni tezlikda va birpasta repititsiyalarsiz tashkil etish mumkin. Asosan tashkiliy ishlarga e'tibor qaratiladi va o'tkaziladi. Ammo davra suhbatlarini ham ma'lum bir ssenariy asosida, turli teatrlashtirish usullarini qo'llagan holda, sahnaviy ko'rinishlar, kuy-qo'shiqlar va boshqa badiiy chiqishlar asnosida ham tashkil etish katta samara beradi.

Talabalarni mazkur fanni o'zlashtirishlari kelajakda tadbir ishtirokchilariga tadbirning mazmun-mohiyatini ochib berishda, tashkilotchilik va ijodiy hamda boshqaruvchilik qobiliyatlarini shakllantirishda asqotadi. Mazkur fan doirasida bitta mashq misolida oladigan bo'lsak, bu mashq talabaning, ya'ni bo'lajak tadbir tashkilotchisining tadbirni o'tkazmoqchi bo'lgan noprofessional ijrochilarga tadbirning mazmun-mohiyati, tarbiyaviy ahamiyati, tadbirning maqsadi va boshqalarni tushuntirishida juda katta samara beradi. Bu «Fikrni bayon eta olish qobiliyatini rivojlantirishga oid mashqlar» bo'limida ishlab chiqilgan bo'lib, talabalaning har qanday holatlarda ham mavzu bo'yicha fikrlashga undaydi.

Guruhlarga ajratish, innovatsion-pedagogik texnologiyalarni qo'llash, talabalarni qiziqtirishga oid takliflarni ishlab chiqish, mavzuni yoritishning yangicha usullarini ishlab chiqish bo'yicha

izlanishlar olib borish har bir pedagogning diqqat markazida bo'lishi lozim.

Mana shunday vazifalarni amalga oshirishda interfaol va no-an'anaviy pedagogik texnologiyalar juda qo'l kelishini tadqiqotchilar tomonidan turli ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan ko'pgina pedagogik tajribalarining natijalari tasdiqlanmoqda. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar o'z sohalari bo'yicha olib borayotgan mashg'ulotlarda innovatsion texnologiyalarni o'z o'rnida qo'llashni bilishlari o'ta zarur.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, madaniy tadbirlar – har tomonlama kamol topayotgan yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Unga pedagogik, texnologik va innovatsion nuqtayi nazardan yondashish esa tadbirning g'oyaviy, badiiy, intellektual salohiyatini belgilaydi.

Madaniy tadbirlarni tashkil etish bo'yicha xorijiy tajribalar haqida so'z borganda, O'zbekistonda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar davlat darajasida tashkil etilayotganligi haqida yuqorida qayd etib o'tgan edik. Qiyoslash nuqtayi nazardan oladigan bo'lsak, O'zbekiston sharoitida olib borilayotgan va o'tkazilayotgan tadbirlarning asosiy maqsadi, tarbiya, ma'naviyat rivojiga, davlatimiz taraqqiyotiga hissa qo'shishga qaratilganligidir.

Mazkur o'quv qo'llanmani tayyorlash mobaynida quyida nomlari keltirilgan manbalardan foydalanish jarayonida shu narsaga amin bo'ldikki, juda ko'p shu sohaga oid adabiyotlarda xorijiy tajribalarim o'rganish masalalariga katta e'tibor berilganligi e'tiborimizni qaratdi. Jumladan:

1. Дуликов В.З. Социально-культурная работа за рубежом: Учебное пособие. – М.: МГУКИ, 2003.

2. Энтони Эверетта. «Как управлять культурой: интегрированное культурное планирование и культурная политика» / В сб.: «Культурная политика в Европе: выбор стратегии и ориентиры». М., 2002/.

3. Волобуев В.А. Основные концепции искусства в западноевропейской эстетике: Монография. – М.: МГУКИ, 2001.

4. Доронкина Е.Г. Проблемы профессиональной подготовки кадров сферы досуга: зарубежный опыт // Социально-культурная деятельность: проблемы, поиски, перспективы: Сб. статей. – М., 1999.
5. Дуликов В.З. Социальные аспекты культурно-досуговой деятельности за рубежом: Уч. пособие. – М.: МГУК, 1999.
6. Зарубежный и отечественный опыт социальной работы: Уч.-метод. пособие. – М., 1999.
7. Киселева Т.Г. Теория досуга за рубежом. – М., 1992.
8. Киселева Т.Г. Глобализация общества и культура мира. – М.: МГУКИ, 2002.
9. Культурная политика в Европе: выбор стратегии и ориентиры: Сб. материалов/Сост. Е.И.Кузмин, В.Р.Фирсов. – М., 2002.
10. Культурная политика в Норвегии // Культура в современном мире: опыт, проблемы, решения: Науч.-инф. сб. – М., 2002, 59–75 с.
11. Стеббинс Р.А. Свободное время: к оптимальному стилю досуга (взгляд из Канады) // №7. 2002.
12. Теория и практика досуговой деятельности за рубежом: Метод, рекомендации по спецкурсу для студентов ф-та культуроведения / Сост. Е.Г.Доронкина. – М.: МГУК, 1997.
13. Celebrating recreation and parks month //Parks and recreation. 2002. - №7. Рекреационные, спортивные и культурно-познавательные программы для детей и подростков в парках США.
14. Popple K. Community work: (2) // Brit. J. of social work. 2000.
15. Richon S., Lombard M. Le luxe dans tous ses etats / Pref. de Godet. – М.-Paris: Eonomia, 1999. Качество жизни, отдых и развлечения в европейских странах.
16. Rose S., Selwyn J. Child neglect: An English perspective // Intern. s. work. 2000. - Vol. 43. №2. - P. 179 - 192 va boshqalarni misol tariqasida ko'rsatib o'tish mumkin.

Bu manbalar nomlanishidan ko'rinib turibdiki, xorij davlatlarining ilg'or texnologiyalarini tahlil qilish asnosida yaratilgan-

ligiga yana bir bor ishonch hosil qildik. Hattoki, alohida olingan mamlakatlarning madaniy sohalarini tahlil qilish bo'yicha ham adabiyotlar mavjud ekan. Masalan, «Канадская культура в глобальном мире» (Культура в современном мире: опыт, проблемы, решения: Nauch.-inf. sb. Vip.5.-M.,2002), Dalla Bernardinaning «Отдых молодёжи и проведений летних праздников в Великобритании, Франции и Италии» (La nature sauvage et ses consommateurs: Le Game Fair // Ethnologie française. 2001) kabi adabiyotlar shular jumlasidandir.

Haqiqatan ham juda ko'p manbalarda rivojlangan davlatlarning tajribasini o'rganish, ulardagi eng maqbul tomonlarini olish va amalda qo'llash masalalariga juda katta e'tibor berilganligi O'zbekistondagi har bir sohani o'qitishga jiddiy yondashish kerakligini anglatmoqda.

Xorijda madaniy tadbirlarni tashkil etish asosan 2ta: ya'ni birinchisi, «hordiq» (dosug) va ikkinchisi «rekreatsiya» tushunchalari orqali tushuntirilib kelingan. Ko'p holatlarda bu ikkita tushuncha bir xil ma'noda ishlatiladi. Aslida, hordiqiy jarayonlar ko'proq tijorat-ko'ngilochar maqsadlarga, umumiy ma'noda olib qaraladigan bo'lsa, «chet ellarda madaniy tadbirlarni asosan hordiqiy-rekreasion maqsadlarga qaratilganligi, «rekreatsiya» esa tijorat maqsadida emas, balki ijtimoiy xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi».<sup>6</sup>

Xulosa qilib shuni aytish mumkin:

Birinchidan, xorij tajribasini o'rganish uchun avvalo chet tilini o'rganish.

Ikkinchidan, shu soha bo'yicha aniq ma'lumotlarga ega bo'lish va uni taqqoslay olish qobiliyatiga ega bo'lish.

Uchinchidan, yuksak salohiyatga, katta tajribaga ega bo'lgan, tan olingan davlatlarning maktablarni tanlay olish.

To'rtinchidan, xorij tajribasini zo'rma-zo'raki tiqishtirish emas, uning afzalliklarini isbotlagan holda, qo'llash uchun asoslash asnosida yondashish maqsadga muvofiqdir.

---

<sup>6</sup> Е.Г. Доронкина. «Организация досуга за рубежом». Культурно-рекреационная деятельность. Учебник / Под ред. А.Д. Жаркова и В.М. Чижикова. - М.: МГУ, 1998. - с. 430-434.

Bir soʻz bilan aytganda, madaniy tadbirlarni tashkil etishda pedagogik nuqtayi nazardan yondashish tadbirning mazmunini boyitishga asos boʻla oladi.

### **Takrorlash uchun savollar:**

*1. Madaniy tadbirlarni tashkil etishning pedagogik asosi deganda nimani tushunasiz?*

*2. «Pedagogika» tushunchasini izohlab bering.*

*3. «Pedagogik jarayon» deganda nimani tushunasiz?*

*4. Madaniyat, sanʼat va pedagogika tushunchalariga izoh bering. Ularda qanday uygʻunlikni kuzatish mumkin?*

### **Mustaqil ish uchun mavzu va vazifalar:**

*1. Madaniyat va sanʼat sohasi xodimlarining madaniy tadbirlarni tashkil etishda pedagogik maqsad va vazifalari.*

*2. Madaniyat va aholi dam olish markazlarida oʻtkaziladigan tadbirlarda pedagogik jarayonlarni tashkil etish.*

*3. Pedagogik tamoyillarga tayangan tadbir rejasini tuzing (yoki ssenariysini yarating).*

### **Madaniy tadbirlarda qoʻllaniladigan metod va vositalar**

Har qanday tadbirni tashkil etishda metodlardan toʻgʻri foydalanish katta samara beradi. Tashkil etishning usullari, uslublarini aniqlash va uni maqsadli qoʻllash tadbirlarni muvaffaqiyatini taʼminlaydi.

«Metod» (yunoncha *metodos* – tadqiqot yoki bilish yoʻli, nazariya, taʼlimot) voqelikni amaliy yoki nazariy oʻzlashtirish toʻplamidir. Boshqa manbalarda «metod» soʻzi – «bayon qilish», «bajarish usuli» degan maʼnoni bildiradi, deb berilgan. Har ikkala taʼrif ham metod soʻzining biron ishni samarali amalga oshirish jarayonida qoʻllanishiga aloqador ekanligini uqtiradi. Madaniy tadbirlarni tashkil etishning metodi deyilganda, madaniy tadbirlarning spesifik xususiyatlarini aniqlash, tashkil etish (sahnalashtirish)ning oʻziga xos usullarini yaratish, tadbir oʻtkazish (tashkil

etish)ning omma uchun qulay va tushunarli yoʻnalishlarini aniqlash va ilmiy asoslash usullari tushuniladi. Metod aslida inson amaliy faoliyatining negizida yuzaga kelgan. Metodlar shu sohalarga tegishli boʻlgan tushunchalar, ilmiy, amaliy tajribalar asnosida yuzaga keladi. Fan metodining asosiy mazmunini avval amaliyotda sinalgan ilmiy nazariyalar tashkil etadi: har qanday nazariya boshqa nazariyani yaratuvchi yoxud amaliyot mazmunini yoki izchilligini belgilovchi metod vazifasini bajaradi. Hozirgi zamon fanlarning metodlari ilmning oʻzi kabi turli-tumandir. Taqqoslash, analiz va sintez kabi tushunchalar umumiy xarakterga ega boʻlgan metodlardan hisoblanib, madaniy tadbirlarni tashkil etishda ham qoʻllaniladi.

Manbalarda metodologiya deyilganda, avvalo, ilmiy bilish metodologiyasi, yaʼni ilmiy bilish faoliyatining shakllari va metodlari tushuniladi. Fan metodologiyasi ilmiy tadqiqot komponentlari – uning obyekti, analiz mavzui, tadqiqot vazifalari, ularni hal etish uchun zarur boʻlgan vositalarni ifodalaydi, shuningdek, masalani hal etish jarayonida tasdiqlovchi faoliyatining izchilligi haqida tasavvur hosil qiladi. Masalani qoʻyish, tadqiqot mavzuini va ilmiy nazariyani shakllantirish, shuningdek, olingan natijani uning haqiqiyliги, yaʼni oʻrganilayotgan obyektga muvofiqligi jihatidan tekshirish metodologiyani qoʻllanilishini eng muhim tomoni hisoblanadi.

Umuman olganda, metodlar haqidagi masala – oʻqitishda yuqori taʼlim va tarbiyaviy natijalarga erishish uchun qanday oʻqitishi kerakligi haqidagi masalalardir. Oʻqitish metodi tushunchasi metodikaning asosiy tushunchalaridan biridir. Oʻqitish metodlari oʻqituvchi va oʻquvchilarning birgalikdagi faoliyat usullari boʻlib, bu faoliyat yordamida yangi bilimlar, malakalar va koʻnikmalarga erishiladi. Oʻqituvchilarning qobiliyati, tafakkuri rivojlanadi. Shuning uchun oʻqitish metodlari *oʻzlashtirish, tarbiyalash va rivojlantirish* kabi uchta asosiy funksiyani bajaradi. Maʼlum oʻqitish metodlaridan taʼlimining yangi mazmuniga va vazifalarga mos keladiganlarni tanlab olish uchun oldin hamma oʻqitish metodlarining klassifikatsiyasini oʻrganish kerak boʻladi. Bu metodlar koʻproq pedagogika sohasiga aloqadordir. Ammo fanni oʻzlashtirish jarayonida, bu metodlarni qoʻllash yaxshi samaralarga erishishga

yo'l ochib beradi. To'g'ri tanlangan metodlar qisqa muddat ichida hajmi bo'yicha eng ko'p axborot va ma'lumotlarni berish, talabalar oldiga jumboqlar qo'yish, ularni hal qilish yo'llarini ko'rsatish imkonini beradi. Bu esa talabalarning tafakkurini rivojlanishiga sharoit yaratadi.

Qisqacha o'qitish metodlari to'g'risida to'xtalib o'tmoqchimiz, zero, biz pedagoglar talabalarni o'qitishda mana shu metodlardan bevosita foydalanib kelimiz.

*Tushuntirish* metodida pedagog materialni bayon qiladi, talabalar esa bilimlarni tayyor holda qabul qilib olishadi. O'quv materialining bayoni aniq, tushunarli va qisqa bo'lishi kerak. Tushuntirish metodidan ma'lumotlar tariqasidagi nazariy materiallar bilan tanishtirish, tadbirlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ma'lumotlar, tashkil etishda e'tibor qaratish lozim bo'lgan asosiy tushunchalar haqida ma'lumotlarni berib o'tish mumkin.

*Suhbat* ham eng ko'p tarqalgan va yetakchi o'qitish metodlaridan hisoblanadi. Undan darsining har xil bosqichlarida, har xil maqsadlarda foydalanish mumkin, ya'ni yangi materialni bayon etishda, mavzuni mustahkamlashda, takrorlashda uyga berilgan topshiriqlarni, mustaqil ishlarni tekshirish va boshqalarda qo'llanilishi mumkin. Suhbat – bu o'qitishning savol-javob metodidir, bunda pedagoglar talabalarning bilimlarini o'zlashtirilganliklari va amaliy tajribalariga tayangan holda maxsus tanlangan savollar sistemasi va ularga beriladigan javoblar yo'li bilan talabalarni qo'yilgan ta'limiy va tarbiyaviy masalalarini hal qilishga olib keladi.

*Hikoya* – talabalarga bilimlarni tushuntirish hikoya shaklida amalga oshiriladi.

Malaka va ko'nikmalarni shakllantirish va mukammallashtirish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan metodlar *amaliy metodlardir*. Bunga turli mashqlar, amaliy laboratoriya ishlari, mustaqil ishlarining ba'zi turlari kiradi. Mashqlar deganda, biror bir xatti-harakatni o'zlashtirish yo mustahkamlash maqsadida rejali ravishda tashkil qilingan takroriy bajarishga aytiladi. Mashqlar ijrochilarni sahnada erkin xatti-harakat qilishlariga zamin hozirlaydi. Mashqlar yengildan murakkabga o'tish prinsipiga amal qilingan holda ishlatilishi kerak.



*Izohli-illyustrativ metod* orqali pedagog tayyor ma'lumotni har xil vositalar yordamida beradi, talabalar esa bu ma'lumotni qabul qiladilar, tushunib oladilar va eslab qoladilar. Ma'lumot berishni pedagog (og'zaki (gapirib berish, tushuntirish), yozma (darslik, qo'shimcha qo'llanmalar), ko'rgazmali (chizmalar, rasmlar, sxemalar) orqali amalga oshirishlari mumkin. Talabalar o'z bilimlarini yuqori darajada o'zlashtirishlari uchun zarur bo'ladigan faoliyatini bajarishadi, tinglashadi, sezishadi, o'qishadi, kuzatishadi, yangi ma'lumotni ilgari o'rganilgan material bilan taqqoslashadi va eslab qoladilar.

*Reproduktiv metod.* Bu metodning asosiy belgisi faoliyat usulini tiklash va o'qituvchining topshiriqlari bo'yicha takrorlashdan iborat. Bu metod yordamida talabalar malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

Undan tashqari *induksiya, deduksiya va analogiya, qisman izlanish, evristik, tadqiqot, rag'batlantirish* va boshqa metodlar ham borki, ulardan samarali foydalanish mavzularni o'zlashtirishda katta yordam beradi.

Tadbirlarning ta'sirchanligini oshirishda metod va vositalardan unumli foydalanish katta samara beradi. Madaniy tadbirlarda tashkilotchi avvalo, o'z oldiga maqsad va vazifalarni to'g'ri qo'yishi zarur. Tadbirni tashkil etish vazifasini olishi bilan rahbar ishni nimadan boshlaydi?

Tadbirni to'g'ri tashkil etishda turli uslub va vositalarning to'g'ri tanlanishi katta ahamiyat kasb etadi.

Maqsadga erishish yo'lida qilingan har bir xatti-harakat samarasiz bo'lmaydi. Shuning uchun ham maqsadga erishish uchun bajariladigan har bir ish jarayoni, jumladan, madaniy tadbirlarni tayyorlash jarayoni ham, kerakli va ma'lum yo'l-yo'riqlarni, usul-uslublarni yoki metodlarni qo'llashni talab qilladi. Belgilangan tadbirni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun qanchalik samarali metodlar topilsa, uni amalga oshirish jarayoni shunchalik oson bo'ladi. Shuning uchun madaniy tadbirlar tashkilotchisi metodlar haqidagi ta'limotni bilishi, ularni tanlashni va foydalanish yo'llarini mukammal o'zlashtimog'i kerak.

Yuqorida «metod» so'zi – «bayon qilish», «bajarish usuli» degan ma'noni bildiradi, dedik. Uning zamonaviy ma'nosi ma'lum

faoliyatda maqsadga erishish uchun topilgan, bajarilayotgan va amalga oshirilayotgan usul, yo'l-yo'riq demakdir. Darhaqiqat, biron-bir ishni amalga oshirish jarayonida turli metodlarning biridan yoki bir nechtasidan foydalanamiz, chunki, madaniy tadbirlar ko'p qirrali faoliyat bo'lgani uchun, unda juda ko'plab metodlardan foydalanishga to'g'ri keladi.

Madaniy tadbirlar – bu tarbiyaviy, ma'rifiy, ijodiy va dam olish ishlarining o'ziga xos birlashuvi natijasida vujudga keladi. Shu sababli ularda, eng avvalo, pedagogikadagi tarbiyaviy ishlarga oid bo'lgan va ma'rifiy (bilim berish, axborot tarqatish) faoliyatga mansub metodlarga murojaat qilmaslikning iloji yo'q. Shuningdek, ularda dam olish (hordiq chiqarish) va ijodiy jarayonni tashkil etish metodlaridan foydalanilmasa, tadbirlardagi asosiy vazifalarning ba'zilar yo'qolib ketadi.

U. Qoraboyevning «Badiiy ommaviy tadbirlar» nomli kitobida madaniy tadbirlarni tashkil etish foydalaniladigan metodlar to'g'risida juda ko'p qimmatli fikrlar berilgan. Unda ushbu soha bo'yicha ish olib borishda quyidagi metodlardan, ya'ni tarbiyaviy, ta'limiy, hordiq chiqarish va ijodiy jarayonni tashkil etish, tashkiliy metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqligini aytib o'tadi.<sup>7</sup>

Hozirgi kunda olib borilayotgan, tashkil etilayotgan barcha jarayonlar ta'lim va tarbiya asosiga qurilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqarilayotgan dasturlarimizning asosini ham mana shu ikki jarayon asosida tuzilgan deyishimiz mumkin. Sababi, yoshlar tarbiyasi, ma'naviyat masalalari, ta'lim berish kabi vazifalar davlatimiz tomonidan ishlab chiqilayotgan qaror, farmon va farmoyishlarida o'z aksini topganligi barchamizga ayon. Shu bois, ta'lim va tarbiya masalalari davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan ekanligini barchamiz to'g'ri anglashimiz zarur.

Respublikamizning Birinchi Prezidenti «Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omil –bu ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir», deb aytganlari aynan mana shu sohaning vazifalarnini to'g'ri anglashga undaydi.<sup>8</sup>

<sup>7</sup> U. Qoraboyev, «Badiiy ommaviy tadbirlar», O'qituvchi nashr., 1986 y., 59 b.

<sup>8</sup> I. Karimov «Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch» T., 2008, 60 b.

Shu jihatdan ham tarbiya masalasi barcha masalalardan yuqori turishliklarini anglash qiyin emas. «Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi –bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir. Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot –yo halokat, yo saodat – falokat masalasidir» degan chuqur ma'noli so'zlarni eslayman»,<sup>9</sup> degan so'zlari ta'lim va tarbiya sohasining o'ta muhimligini yana bir bor ta'kidlaydi. Madaniy tadbirlarlarni tashkil etishdan asosiy maqsad ham insonlarga to'g'ri tarbiya berishdir. Madaniy tadbirlar – bu, eng avvalo, tarbiyaviy jarayon bo'lgani uchun ularda pedagogikaga oid tarbiyaviy metodlardan foydalanish qonuniydir. Lekin bu ularni to'g'ridan-to'g'ri, ko'r-ko'rona qo'llash, degan gap emas.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda tomoshabinni (tadbir ishtirokchilarini) voqelikka ishontirish katta mahorat talab qiladigan jarayondir.

*Ishontirish metodining* asosiy vazifasi auditoriyaga ta'sir ko'rsatishdir. Buning uchun tadbirning mazmunini ishonarli, haqqoniy qilib tuzish kerak. Omma tashkilotchilarning fikriga qo'shila olmasa, berilgan ma'lumotlarga ishonmasa, u holda tadbirning maqsadi amalga oshmaydi. Bunga yo'l qoymaslik uchun tadbirda hujjatlar, faktlar, ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari, siyosiy arboblari va olimlarning fikrlari hamda statistik ma'lumotlardan foydalanish kerak. Ular haqqoniy, mantiqli, ishonarli va qiziqarli shaklda aks ettirilmog'i kerak. Misol uchun, odam savdosiga qarshi kurash mavzusi asosida tayyorlangan «Adashgan yo'llar» kompozitsiyasini (V.Rustamov tomonidan sahnalashtirilgan va 2011-yil sobiq Abdulla Qodiriy nomidagi TDMI anjumanlar saroyida namoyish etilgan) tayyorlashdan asosiy maqsad u yerlarga, ya'ni o'zga yurtlarga borib, ko'p pul topishni istagan yoshlarga buning hammasi safsata ekanligiga ishontirish, u joydagi shart-sharot va ahvolning naqadar ayanchli ekanligini ko'rsatish, o'z yurtining qadriga yetish kabi vazifalarni qo'yan holda tomoshabinlar e'tiboriga havola etilishi ko'pchilikning to'g'ri xulosa chiqarishiga sabab bo'la oldi deyishimiz mumkin. Shu birgina odam savdosiga

---

<sup>9</sup> I.Karimov «Yuksak ma'naviyat – yangi ilmiy kuchi» T, 2008, 62 b.

qarshi kurash mavzusi atrofida kechadigan tadbirlarni bir necha xil variantlarda tashkil etish mumkin (insenirovka qilish, hujjatlarni badiiyashtirish, aniq faktlar asosidagi ma'lumotlar asosida kompozitsiyalar tayyorlash va h.k.).

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, U. Qoraboyev *namuna* metodi haqida ham o'z fikr mulohazalarini bayon etib o'tadi. Hozirgi kunda bu metod asosini «Zamonaviy qahramon obrazini yaratish» masalalaridan kelib chiqqan holda yondoshish maqsadga muvofiqdir. Namuna metodi orqali kishilarining eng yaxshi fazilatlarini tarannum etiladi. Vatanimizning eng yaxshi o'g'lonlarini va mahalliy sharoitda samarali ish ko'rsatayotgan mehnat ilg'orlarining hayoti va faoliyatini boshqalarga namuna qilib ko'rsatish madaniy tadbirimizning tarbiyaviy qiymatini oshirib, ommani ulardan o'rnak olishga, halol ishlashga undaydi. Ular mehnatini munosib taqdirlash ham tadbirda foydalanish mumkin bo'lgan usullardan hisoblanadi. Taqdirlash usuli ham insonlarni mehnatini qadriga yetayotganliklarini, moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llanayotganliklarini va buning asnosida yanada ko'proq mehnat qilishga, qilayotgan mehnati natijasiz qolmasliklarini, Vatanga foydasiga tegayotganligi va qilayotgan mehnatining samarasi, natijasi o'zi uchun, qolaversa, jamiyat taraqqiyoti uchun ekanligini anglashga undaydi. Undan tashqari, taqdirlash usulining yana bitta afzalligi shundaki, uning atrofida mehnat qilayotganlar ham shu e'tiborlarga erishishga intilib mehnat qiladilar.

Ma'rifiy metodlar ham madaniy tadbirlarning asosini tashkil etadi, desak yanglishmaymiz. Chunki, madaniy tadbirlarning asosiy vazifalaridan biri ommaga yangi axborot va bilim berishdan iboratdir. Bu jarayonda ham pedagogikadagi ma'rifiy metodlardan ijodiy foydalanish katta samara beradi. Professor M.Bekmurodov o'zining rahbarlik pozitsiyasida bitta g'oyani ilgari suradi. Barcha pedagoglar, madaniyat targ'ibotchilari ilmiy, bilimli va ma'rifatli bo'lishlari lozimdir, deydi. Buning uchun nima qilish kerak? M.Bekmurodov o'zi rahbarlik qilayotgan kafedra professor-o'qituvchilarini kitob o'qish majburiyatini qo'yib, ularga aniq muddat berib, savol-javob kechalarni o'tkazish orqali ma'rifatli qilish yo'lidan bordilar. Buning natijasi pedagog kitobni yuzaki emas, kitobning ichiga kirib o'qishga, uning mazmuni va mohiyatini

anglab olishga undaydi. Mana shunday usullarni joylarda qo'llash albatta katta samaralar beradi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida muntazam o'tkazilib kelianayotgan turli mavzularga bag'ishlangan lektoriylar ham ma'rifiy tadbirlar turkumiga kirib, undan ma'rifiy metodlardan unumli foydalanib kelinmoqda.

Tadbirlarda keng qo'llanishi mumkin bo'lgan ma'rifiy metodlar – bu bayon etish va namoyish qilishdir. Bayon etish metodining asosiy maqsadi shundan iboratki, u tadbirning g'oyasi, mazmuni, axborot va faktlarini auditoriyaga jonli so'z orqali bayon qilish shaklida yetkazib beradi. Ommaviy tadbirlar tarkibida ko'pincha shunday faktlar va ma'lumotlar bo'ladiki, ular albatta batafsil tushuntirishni talab qiladi. Xuddi shunday daqiqalarda bayon etish metodi katta yordam beradi. Bu metod yordamida ma'lumotlarning mohiyati ochiladi, xususiyatlari yoritiladi va to'liq bilim beriladi. Bayon qilish metodi, ayniqsa, og'zaki jurnallarda, tematik kechalarda ko'proq qo'llaniladi.

Bugungi kunda texnika taraqqiyoti jadal rivojlanayotgan bir paytda namoyish qilishning turli usullarini qo'llash unchalik katta qiyinchilik tug'dirmaydi. Bu usulning yaqqol misoli sifatida J.Mamatqosimov tomonidan sahnalashtirilgan «Qordagi qizg'aldoq» deb nomlangan badiiy-publitsistik kompozitsiyani aytish mumkin. Slaydda tayyorlangan qatag'onlar hayotiga oid hujjatlar asosida tayyorlangan tasvirlar aktyorlar ijrosi bilan uyg'unlashib ketadi va yagona kompozitsiyaga ega bo'ladi. Namoyish qilish metodi tadbir mazmunidagi voqealarning obrazli tasvirini ko'rgazmali shaklda auditoriyaga yetkazishga yordam beradi. Bunda barcha ma'lumotlar obrazli kuzatish (ko'rish) orqali qabul qilinadi. Namoyish qilish metodi, asosan, ta'sirchan vositalar oraqli bajarilib, unda voqealar yoki kecha qahramonlarining hayotiga oid ma'lumotlar hujjatli, real aks ettiriladi. Masalan, portret kechasida ma'lum kishining hayoti va mehnati suratlar, filmlar, hujjatlar orqali ko'rgazmali namoyish qilinadi. Bu esa berilgan ma'lumotlarni emotsional-obrazli idrok etishga yordam beradi va ular haqidagi taassurotlarni uzoq vaqt esda saqlab qolishga imkon beradi.

Hammamizga ma'lumki, madaniy tadbirlar kishilarning ishdan bo'sh, dam olish vaqtida ijodiy jarayonga qo'shilishi natijasida vujudga keladi. Eng avvalo, havaskorlar o'zlarining ishdan bo'sh vaqtlarida ijodiy jarayonga tadbir tayyorlashadi va buning natijasida keng ommani hordiq chiqarishga, qolaversa, ularni ham ijodiy faoliyatga tortishadi. Shuning uchun hordiq chiqarish va ijodiy jarayonga qo'shilish metodlarini bir-biridan ajratish qiyin.

Madaniy tadbirlarni tashkil etish ko'p repetitsiyalar asnosida amalga oshiriladi. Tadbirni tayyorlash uchun havaskorlar tashkilotchi boshchiligida ko'p mashq qilishadi. Bu jarayonni tashkil qilish uchun ham alohida metod, ya'ni mashq qilish metodi kerak. Bu metod boshqa metodlardan shu bilan farq qiladiki, u faqat tadbirni tayyorlash jarayonida qo'llanadi. Shuni unutmaslik kerakki, mashq qilish metodi, asosan, tadbir tayyorlovchi rejissyorning havaskorlar bilan ishlash jarayonida amalga oshiriladi. Biroq bu metod faqat birgina tadbir tayyorlash uchun kerakli harakatlarni va so'zlarni o'zlashtirish uchun zarur bo'lib qolmaydi, balki har bir mashq jarayonida havaskorlar madaniy tadbirlar sohasiga oid bilimlarni o'zlashtirishi, so'z va harakat mahoratini amaliy o'rganishi, o'z qobiliyatini o'stirishi lozim. Bu boradagi qonun-qoidalarni chuqur anglagan va o'zlashtirgan kishilargina ijodiy faoliyat ko'rsata oladi. Hordiq chiqarish va ijodiy jarayonga qo'shilish metodlari ichida auditoriyani faollashtirish va ommani tadbir qatnashchisiga aylantirish metodi muhim o'rin tutadi. Chunki bu jarayonlarsiz tadbir qatnashuvchilari passiv tomoshabinlarga aylanib qoladi. Buning natijasida ular na yaxshi hordiq chiqarishadi va na ijodiy jarayonga qo'shilishadi.

Tadbir auditoriyasini faollashtirish barcha sanab o'tilgan metodlardan samarali foydalanish natijasida ham o'z-o'zidan vujudga kelishi mumkin. Tadbir voqealarini yaxshi bayon etish, diqqatga sazovor ma'lumotlarni namoyish qilish, namunaviy faoliyatlarni aks ettirish, ilg'orlarni ma'naviy taqdirlash, qoloqlarni tanqid qilish va mazmunni ishonarli qilib ko'rsatish kabi holatlarning samarali bajarilishi ommani so'zsiz faollashtirib yuboradi. Lekin shu bilan birga, ommanaviy tadbirlarda maxsus faollashtirish metodi ham qo'llanishi mumkin. Buning uchun tadbir qatnashchilaridan intervyu olish, ular bilan savol-javob uyushtirish,

ba'zilarni so'zga chiqarib, fikrini bilish, viktorina uyushtirish va boshqa shu kabilarni bajarish mumkin. Ba'zi sahnaviy harakatlarni zal, omma ichiga ko'chirish ham auditoriyani faollashtirishga ko'maklashadi. Shuni unutmaslik kerakki, faqat aktiv auditoriya tadbir qatnashchisiga aylanishi mumkin. Tadbir qatnashchisiga aylantirish metodi – bu oily va eng samarali metod hisoblanadi. Mazkur usulni bajarish uchun ham boshqa barcha metodlardan samarali foydalanish bilan birga, maxsus harakatlardan foydalanish ko'zda tutiladi. Masalan, auditoriya ichida ashulalar aytish, ommaviy raqslar tashkil qilish, xalq o'yinlaridan foydalanish, umumiy qarorlar qabul qilish va boshqa harakatlar, so'zsiz, auditoriyani tadbir qatnashchisiga aylantirib yuboradi.

Har qanday tadbirni tashkil etishda rahbardan juda katta mehnat talab qilinadi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, tashkiliy ishlar ijodiy ishlar bilan bir xil darajada turadi. To'g'ri, ijodiy sharoitlarning ham o'ziga xos ishlash uslublari bor, ammo mana shu ijodiy jarayonni amalga oshirishning tashkiliy tomonlarini hisobga olish muhimdir. Oddiy misol qilib oladigan bo'lsak, bitta musiqiy nomerni sahnaga olib chiqish uchun ham unga bir qancha tashkiliy ishlarni amalga oshirish kerak bo'ladi, masalan, ansambl uchun joy tayyorlash, mikrofon qo'yish, xonanda va musiqachilar uchun liboslar tanlash va h.k. Madaniy tadbirlarni uyushtirishning o'ziga xos xususiyatlari faqat uning o'ziga mansub tashkil etish metodlarini talab qiladi. Tashkil qilish metodlari deganda, tadbirni vujudga keltirish uchun qo'llaniladigan usul, uslub va vositalardan foydalanish yo'llari tushuniladi. Qisqa qilib aytganda, bu metodlar ta'sirchan vositalardan foydalanish usullari bilan ko'proq bog'liqdir.

Hozirgi kunda o'tkazilayotgan madaniy tadbirlarda eng faol ishlatiladigani – bu *ilyustratsiyalash* metodidir. Bu metod – tadbirdagi so'z mazmuniga (boshlovchilar matni, boshqaruvchilar fikri va boshqalar) va maqsadiga mos keladigan turli-tuman badiiy hamda san'at vositalaridan foydalanishdir. Bunda foydalaniladigan vositalarning sintezlashib, bog'lanib ketishi shart emas. Ilyustratsiyalashtirilgan tadbirda asosiy urg'u og'zaki so'zga beriladi. Boshqa badiiy materiallar esa uni kuchaytirish va to'ldirish uchun xizmat qiladi. Muzika, qo'shiq, raqs, she'r, monolog, proza,

kinokadrlar va boshqa vositalardan illyustratsiya sifatida foydalaniladi.

Ilyustratsiyalashtirish metodini sof ilmiy tadbirlarda ham qo'llash mumkin (odatda, ilmiy tadbirlar ko'proq ma'ruza shaklida bo'ladi). Masalan, leksiyaning illyustratsiyalashtirish, ya'ni unga konsert nomerlarini yoki kinolardan lavhalar qo'shish natijasida leksiya-konsert yoki kino-leksiya vujudga kelishi mumkin.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda bir usul borki, bu usul tadbirni to'laqonli g'oyaviy jihatdan to'liq yoritilishiga, mavzuni aniq tushunishga, yordam beradi. Bu – *teatrlashtirish* deb ataladi. Teatrlashtirish – teatr dramaturgiyasi qonuniyatlariga asoslanib, ma'lum voqea asosida amalga oshiriladi. Bu metod alohida maqsadga qaratilgan, badiiy obrazli tashkil etilgan, teatr qonuniyatlari asosida, dramaturgiya talablariga javob bera oladigan tadbirlarda o'z ifodasini topadi. Bunda tadbir jarayonida qo'llaniladigan barcha g'oyaviy emotsional vositalar hamda og'zaki chiqishlar kompleks tarzda birlashadi va yagona sujet liniyasini vujudga keltiradi. Teatrlashtirilgan tadbirlarning alohida qismlari mexanik tarzda birlashmaydi, balki organik tarzda sintezlashadi. Bu qismlar endi na faqat tadbir temasi va g'oyasi asosida, balki kompozitsion holda ham birlashadi. Ko'p joylarda madaniy-ma'rifiy ishlar tashkilotchilarining tipik xatosi shundan iboratki, ular tadbirlarda, asosan, dramatik lavhalardan hamda boshqa san'at vositalaridan, ashula va raqslardan foydalanib, uni «teatrlashtirilgan shakl» deb nomlashadi. Bu, albatta, teatrlashtirish metodini qo'llash talablaridan biridir.

Teatrlashtirilgan tadbirlar yagona g'oyaviy-badiiy sujet va kompozitsion tuzilishga ega bo'lishlari kerak. «Kompozitsion tuzilish» (lotincha «qurmoq»)- asar qismlarining tuzilishi, mantiqiy joylashishi va uning o'zaro bog'lanishi, degan ma'noni anglatadi) o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- prolog (voqealarning boshlanish qismi, adabiyotda ekspozitsiya, kirish yoki muqaddima);
- (asardagi tub burilish yasaydigan qismi);
- voqealar rivojlanib borgan sari u kulminatsion nuqtaga chiqadi (kulminatsiya – harakat rivojlanishining eng yuqori nuqtasi);



– yechim – asarning nihoyasi nima bilan tugaganligini anglatuvchi qism (yechimda xulosa qismi sifatida epilog berilishi mumkin); A.D.Silin o‘zining «Rejissyorning ochiq maydonlarda va noan’anaviy sahnaviy kengliklarda ishlashi» kitobida, kopozitsion tuzilish prolog, epizodlar qatori va finaldan iborat bo‘ladi, deb ko‘rsatib o‘tgan.<sup>10</sup>

Teatrlashtirilgan tadbirlarga real qahramon obrazi yoki badiiy asarlardan olingan obrazlar kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Ko‘pgina tadbirlarda boshqaruvchi hayotimizning real vakili sifatida chiqadi. Lekin hanuzgacha teatrlashtirilgan tadbirlarda badiiy yoki tarixiy obrazlar kam uchramoqda. Ulardan foydalanish tadbirning badiiy qiymatini oshiradi.

Teatrlashtirilgan tadbirlarda omma oddiy tomoshabin emas, balki tadbir qatnashchisiga aylanib ketishi kerak. Yuqorida qayd qilingan talablarni hisobga olgan ommaviy shakllarni teatrlashtirilgan tadbirlar deb atash mumkin. Teatrlashtirilgan tadbirni vujudga keltiradigan teatrlashtirish metodi murakkab, ko‘p ishlashni, chuqur ijodiy yondashishni talab qiladigan usuldur. Yengil, oson bajariladigan ishning har doim samarasi kuchli bo‘lavermaydi.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, illyustratsiyalashtirish metodini ham, tetrlashtirish metodini ham xohlagan shaklga nisbatan ishlatib bo‘lmaydi. Har bir metodning o‘zi talab qiladigan tadbirlari bor. Masalan, illyustratsiyalashtirish metodini ommaviy bayramga nisbatan qo‘llasak, ko‘p narsa yutqaziladi. Ma’ruza yoki suhbatni tetrlashtirishning hojati bo‘lmasa kerak.

Ilyustratsiyalashtirish metodidan tashkil qilinishi oson, har kuni o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan shakllarga nisbatan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tetrlashtirish metodini esa shaxsiy-madaniy qiymati balandroq bo‘lgan kompleks shakllarda foydalanish zarur. Uni ayniqsa, ommani hayajonlantiradigan, buyuk sanalarga va bayramlarga bag‘ishlangan tadbirlarda qo‘llash lozim. Bir so‘z bilan aytganda, madaniy tadbirlarni tashkil etish mobaynida usullarni to‘g‘ri tanlash, ulardan oqilona foydalanish – tadbirning to‘laqonligini ta’minlaydi, saviyasini oshirishga xizmat qiladi.

<sup>10</sup> A.D.Silin. «Rejissyorning ochiq maydonlarda va noan’anaviy sahnaviy kengliklarda ishlashi». M., 1988y. 77b

*Madaniy tadbirlarda foydalaniladigan vositalar.* Manbalarda yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, madaniy tadbirlarda asosan og'zaki, ko'rgazmali, texnik, matbuot hamda san'at vositalari qo'llaniladi, deb berilgan. Darhaqiqat, bu kabi vositalarning har biri o'ziga xos usullar, xususiyatlar va shakllarga egadir. Og'zaki vositalar ma'ruzalar, suhbatlar, turli ma'lumot va axborot xabarlarini, savol-javob kechalari tashkil qilib o'tkaziladi. Ko'rgazmali vositalarda esa turli mavzulardagi plakatlar, maxsus tayyorlangan ko'rgazma vositalari, shior va chaqiriqlar, diagramma va ma'lumot ko'rsatkichlaridan, texnik vositalarda esa ovoz kuchaytirish apparatlari, radio, televideniye, kino, video va audio apparatlari, minidisk, magnitofon va fotoapparatlardan foydalanish mumkin. Voyaga yetmaganlar bilan ishlash va ular uchun turli tadbirlarni tashkil qilib o'tkazishda, yuqorida ko'rsatilib o'tilgan vositalardan tashqari rang-barang shakllar ham qo'llaniladi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, o'tkaziladigan tadbirlarning usul va shakllari vaqtlar o'tgan sari zamonaga moslashib yangilanib boraveradi.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda tashkilotchi rahbar xilma-xil usullardan foydalanish bilan bir qatorda, turli xil vositalardan ham foydalanadi. Madaniy tadbirlarni g'oyaviy emotsional vositalarsiz also tasavvur qilib bo'lmaydi. Maxsus materiallarsiz uy qurib bo'lmaganidek, vositalarsiz tadbirni tashkil qilib bo'lmaydi. Agar imorat sement, yog'och, mix, oyna va shunga o'xshash materiallar asosida vujudga kelsa, madaniy tadbirlarni ham o'ziga xos so'z, san'at va texnik vositalarsiz tashkil qilib bo'lmaydi. Vositalar tadbirning tarkibiy qismi, asosiy komponentlari va mexanizmlari sifatida xizmat qiladi.

Vosita tushunchasi deganda, kishilarning hissiyotiga, psixologiyasiga va ongiga ta'sir etuvchi va bilim olish samaradorligini oshiruvchi goyaviy-hissiy usullar, qurollar, asbob-uskunalarni tushunamiz.

Madaniy tadbirlarda quyidagi vositalardan samarali foydalanish katta samara berishi mumkin:

– tadbirga mazmun beruvchi vositalar (badiiy bezak, musiqiy bezak, sahnaviy bezak);

– texnik (mul'timediya, ovoz kuchaytirgich, DVD, CD, mikrofonlar, nootebook va boshqa) vositalar;

- ko‘rgazmali vositalar;
- adabiyot va san‘at vositalari;
- matbuot vositalari;
- tanishtiruvchi vositalar (afisha taklifnoma, dasturlar va boshqalar).

Tadbirlarni tashkil etishda bir vaqtning o‘zida bir nechta vositalardan foydalanish ham mumkin.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda biz bevosita turli vositalarning ishtirokiga amin bo‘lamiz. Madaniy tadbirlarda qo‘llaniladigan vositalarning diapazoni juda keng va ularning soni ko‘pdir. Tadbirlarda *jonli so‘z, matbuot, ko‘rgazmali qurollar, adabiyot va san‘at, har xil texnik apparatlar* kabi vositalardan to‘g‘ri foydalanish – tadbirlardan ko‘zlangan asosiy maqsadni, tadbirlarning g‘oyaviy-emotsional ta‘sirchanligini, uning mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Undan tashqari, *metafora, allegoriya, ramz* kabi ifoda va ta‘sirchan vositalari borki, ular ham tadbirlarning badiiyligini oshirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Metafora, allegoriya va ramz tushunchalarini ko‘proq bayramlarda qo‘llanishi haqida rejissyor-pedagoglardan B.Sayfullayev, F.Ahmedov, J.Mamatqosimovlar o‘zlari yaratgan qo‘llanma va darsliklarda aytib o‘tganlar.

Tadbirning g‘oyaviy va emotsional-obrazli kuchini oshiradigan, ommaning qiziqishini orttiradigan vositalardan samarali foydalanish – bu tashkilotchilar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Madaniy tadbirlar tashkilotchisi mavjud bo‘lgan barcha ta‘sirchan vositalardan yaxshi xabardor bo‘libgina qolmasdan, balki ulardan samarali foydalanish metodikasini ham bilmog‘i lozimdir.

Madaniy tadbirlarda eng ko‘p foydalaniladigan ta‘sirchan vositalardan biri – so‘z san‘atining qo‘llanishidir. Jonli so‘z barcha tadbirlarda asosiy vosita sifatida qo‘llanilib, o‘zgarimas komponent sifatida xizmat qiladi. Madaniy tadbirlarda jonli so‘z faqatgina mazmunni yoritishda xizmat qilmasdan, balki sujet bilan ommaviy harakatlarni ham bir-biriga uyg‘unlashtirib boradi. Aynan jonli so‘z voqea ma‘nosini tomoshabinga yetkazadi, bir epizodni ikkinchisiga bog‘laydi, boshqaruvchining auditoriya bilan muloqotda bo‘lishi uchun sharoit yaratadi. Jonli so‘zning yana bir afzallik tomoni shundaki, ba‘zan fikrni hech qanday ta‘sirchan vosita tomoshabinga yetkazib bera olmaydigan daqiqalarda, jonli so‘z yordamga keladi.

Soʻz sanʼatining dargʻalaridan A.Nosirova oʻzining «Jonli soʻz sanʼati asoslari» deb nomlangan kitobida shunday deb yozadi: «Masalaning muhim tomoni shundaki, yangi bosqich xalq bayramlarida jonli soʻz mavqei nihoyatda kengaydi, teranglashdi, yuksaldi. Shuni aytish lozimki, istiqbol xalq bayramlarining badiiy soʻz qatlami jonli soʻz ijrochilik sanʼatining barcha tur va janrlarini qamrab oldi. Bunday yuksak mavqeli xalq ommaviy bayramlari eng yuksak unvonli va yuksak isteʼdodli professional sanʼatkorlarning Shekspir, Shiller kabi jahon klassiklari asarlaridan keltiriladigan monologlaridan boshlab jahon va milliy adabiyotning eng sara asarlarigacha, folklor durdonalaridan toki ichakuzdi askiyalarigacha qamrab oladi».<sup>11</sup> Darhaqiqat, bu soha oʻziga xos sanʼat turi boʻlib, madaniy tadbirlarni taʼsirchanligini oshiradi.

Madaniy tadbirlarda boshlovchi (yoki boshqaruvchi)ning soʻzi asosiy oʻrinni egallaydi, baʼzi hollarda esa u kechaning boshidan to oxirigacha yetakchi vosita sifatida qoʻllaniladi. U kirish soʻzi (monolog) shaklida yoki muqaddima sifatida yaxshi xizmat qilishi mumkin. Tadbir davomida esa boshqaruvchi, komentatorga, hikoyachiga yoki intervyu beruvchiga aylanib, jonli soʻzdan foydalaniladi. Tadbirlarda jonli soʻzdan foydalanish imkoniyatlari juda koʻp. Ammo bir narsani hisobga olish muhimdir. Sahnalashtirish sanʼatida koʻpincha soʻz oʻrnini harakat bilan almashtirish variantlari izlanadi, yaʼni soʻzning ekvivalenti harakat bilan almashtiriladigan holatlarni ham kuzatish mumkin.

Taʼsirchan vositalardan biri *badiiy soʻzdir*. Badiiy soʻz aytilmoqchi boʻlgan fikrni badiiy-emotsional tarzda yetkazib berishga xizmat qiladi. Madaniy tadbirlarda badiiy soʻzning sheʼr oʻqish, prozaik va sheʼriy monologlar, juft yoki koʻpchilik tomonidan oʻqiladigan deklamatsiyalar kabi turlaridan keng foydalaniladi.

Badiiy oʻqish boshqa materiallar bilan bir vaqtda ijro etishi mumkin. Masalan, sheʼr oʻqilayotgan bir vaqtda sheʼrning maʼnosiga mos keladigan kino lavhalar koʻrsatilishi mumkin. Shuni unutmaslik kerakki, umumiy toʻqima gaplar bilan aholini hech qachon qiziqtirib boʻlmaydi.

---

<sup>11</sup> «A.Nosirova. «Jonli soʻz sanʼati asoslari».T., 2003 y, 9-bet.

Madaniy tadbirlarda *dramatik parchalardan* ham mohirona foydalanish yaxshi samara beradigan vositalardan hisoblanadi. Dramatik parchalarni tayyor pyesalardan olish ham mumkin yoki mavzuga oid turli badiiy asarlarni inssenirovka qilish orqali ham ishlatish mumkin. Unda ko'pincha havaskorlik teatr jamoalarining ijod mahsullari asqotadi. Mahalliy (faktlarga asoslangan) muammolarga qaratilgan turli intermediya, hajviy ko'rinishlarni ijrochilar o'zlari to'qib, yozib, sahnalashtirib tomoshabinlar e'tiboriga havola etishlari mumkin. Bunday usuldan foydalanish tomoshabinlarni tarbiyasiga ijobiy ta'sir qilishi mumkin.

«Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati» fanining asosiy maqsadi ham joylarda o'tkaziladigan tadbirlarni tashkil etishda ijodiy va tashkiliy jarayonlar uyg'unligiga erishish, rejissura, aktyorlik mahorati, mizanssena, badiiy bezak va boshqa shu sohaga aloqador mavzularni yoritishga qaratilgan bo'lib, to'liq sahnalashtirish jarayonlarini qamrab oladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, teatrda maxsus malakaga ega bo'lgan professional aktyor yoki rejissyor ishlasa, madaniyat va aholi dam olish markazlari, maktab, kollej yoki turli tashkilotlarda o'tkaziladigan tadbirlar asosan havaskorlar ijodiga tayanadi. Turli xil to'garaklarda (masalan, drama to'garagi) o'rgangan mahoratini qo'llab turli sahnaviy chiqishlarni amalga oshiradilar. Dramatik asarlardan parchalar olib sahnalashtirishga harakat qiladilar, ya'ni rol o'ynab, obraz yaratishga harakat qiladilar. Tadbir tashkilotchilari esa bunday obrazni yaratish, sahnaviy asarni tomoshabinga taqdim etish uchun esa o'zlari shu sohani yaxshi tushunishlari, sahnalashtirishga oid tushunchalarni bilishi lozim.

Avvallari madaniy tadbirlarni tashkil etishda eng ko'p qo'llaniladigan vositalardan biri - *ko'rgazmali vositalardan* foydalanishdir, deb hisoblanardi. Ammo hozirgi texnika taraqqiyotining jadal rivojlanayotgan bir davrida ularning o'rnini kompyuter texnologiyalari, multimediya vositalari egallab bormoqda. Ko'rgazmali vositalardan foydalanish tadbir mazmunining yaxshiroq yoritilishiga yordam bergan, tomoshabinning kayfiyatini ko'tarib taassurotlarini boyitgan.

Tomoshabinni bo'lajak tadbir bilan ilk bor *tanishtiruvchi vositalar* - bu afishalar va taklifnomalardir. E'lonlarda faqat tadbir

bo'lishi haqidagi xabarning o'zinigina yozib qoyish kifoya qilmaydi, balki uning tuzilishiga qarab badiiy bezash mumkin. Bu tomoshabinning tadbirga qiziqishini oshiradi. Tadbir boshlanishdan avval tematik ko'rgazma ham tashkil etish mumkin. Teatrlashtirilgan kechalardan oldin har xil ko'rgazmalarni tashkil qilish ko'p joylarda an'ana bo'lib qolgan. Shunday qilish kerakki, bu ko'rgazma bo'lajak tadbirning mazmun ko'prigi vazifasini o'tasin. Ko'rgazmali vositalar tomoshabinda tadbirning mazmuni va xarakteriga mos psixologik kayfiyat uyg'otadi. Tadbirlarda karta, sxema, diagramma, plakatlar, shiorlar va sahna harakatida foydalaniladigan boshqa predmetlar ham tadbir mazmunini ochib berishga yaxshi yordam beradi. Ko'rgazmali vositani qulay va yengil qilib, almashtirishga tayyorlash lozim.

Xulosa qilib aytganda, madaniy tadbirlarni tashkil etishda ta'sirchan vositalardan unumli foydalanish tadbirning salohiyatini ko'taradi, saviyasini oshiradi va badiiyligini ta'minlaydi. Ammo bu vositalardan foydalanish tadbir tashkilotchilardan boy va ijodiy fantaziyani talab qiladi.

Madaniy tadbirlarda san'at vositlaridan mohirona foydalanish katta samara beradi. Bunday tadbirlar san'atning deyarli barcha turlaridan fodalaniшни taqozo etadi. Raqs, teatr, rejissura va aktyorlik, arxitektura, rassomchilik, dizayn, teatr, kino, konsertlar va boshqalar shular jumlasidandir. Shuning uchun madaniy tadbirlarda eng ko'p qo'llaniladigan vositalardan biri – *musiqa* san'ati haqida alohida to'xtalishni ma'qul topdik.

Turmushning hamma qirralarida, moddiy va nomoddiy sohada ham musiqa san'ati kishilarni ezgulikka, yaxshilikka, ulug'likka chorlovchi, mehnatga undovchi, insonlarda estetik zavq uyg'otuvchi vosita sifatida qaraladi. Musiqaning nazariy asosi yettita notadan iborat bo'lsa ham, uning ustida tom-tom ilmiy va nazariy xulosalar chiqarish borasida haligacha izlanishlar olib borilmoqda. U insonlarning og'ir damlarida dardkash, quvonchli kunlarida hamroh bo'lib, ularning ma'naviyatini yaxshilik tomonga yo'naltirishga xizmat qiladi. Faqat san'at jabhalarida emas, balki hayotning boshqa sohalarida ham musiqa muhim rollardan birini bajaradi.

Lekin teatrdam ham, radio, televideniyeda ham musiqa yordamchi komponentlardan biri hisoblanadi, deyishadi. Bu bilan musiqa

san'atlar ichida ikkinchi darajali ekan, degan fikr kelib chiqmasligi lozim. Musiqa san'ati – bu alohida san'at turi bo'lib, san'atning boshqa turlariga singib ketgan. Raqs, teatr va boshqa san'at turlarini musiqasiz tasavvur qilib ko'rish mumkinmi? Albatta mumkin emas.

«Musiqa» – yunoncha «musa» turli-tuman tovushlar bilan badiiy obraz yaratib beruvchi, g'oyaviy emotsional mazmunga ega bo'lgan san'atning bir turidir. Qisqacha qilib aytganda, musiqa – tovushlar yig'indisi, degan ma'noni anglatadi.

Madaniy tadbirlarda musiqaning turli janrlari ishtirok etishi mumkin. Undan tashqari, bunday tadbirlarda musiqali jamoalar, vokal cholg'u ansambllari, musiqalardan parchalar, alohida musiqali nomerlar, boshqaruvchilarning chiqishlari uchun musiqa, xullas, voqeaning rivojlanishi uchun, tadbir yoki tomoshaning tempo-ritmini ushlab turishi uchun musiqa san'atidan foydalaniladi.

Musiqadan tadbirlar janrlaridan kelib chiqqan holda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tadbirni tashkil etish va sahnalashtirishda musiqa quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:

- musiqa – qatnashuvchilar, ishtirokchi obrazlarini xarakterlab beradi;

- harakat vaqti, joyini ifodalashi mumkin;

- tomoshabinga ko'rinmayotgan voqealarni ilg'ab olishga, tez tushuna olishiga ko'maklashadi;

- harakat, voqeada sahnaviy muhit yaratadi;

- monolog va dialoglarning emotsionalligi (hissiyot, hayajonliligini) kuchaytiradi;

- so'z bilan ifodalash qiyin bo'lgan daqiqalarni tasvirlay bera olishi mumkin;

- xatti-harakat, voqealarni to'ldirishi, boyitishi mumkin;

- pauzalar o'rnini to'ldirishi mumkin;

- vaqtni tejash yoki cho'zish va boshqa muhim vazifalarni bajarishi mumkin.

Biron-bir madaniy tadbir uchun alohida musiqa yozish qiyin kechadigan jarayondir. Shuning uchun ko'pgina tashkilotchilar tayyor musiqa asarlarini tanlaydilar va shu musiqa asosida ish olib boradilar.

Repetitsiyalar mobaynida musiqali nomerlar ham bir necha marta o'zgarishi mumkin. Ba'zan tez fursatda yangi musiqa asari yaratishga to'g'ri keladi. Bunday sharoitda rejissyor va bastakorning qarashlari, nuqtayi nazarlarining bir-birlariga mos kelishi yangi asarni tez va muvaffaqiyatli yaratilishiga asos bo'la oladi.

Sahnada ijro etilayotgan barcha xatti-harakatlar musiqa jo'rligida amalga oshirilishi – bu yangilik emas. Agar rassom ijodi tasvirlash orqali, ko'z bilan ko'rish va estetik zavqlanish imkoniyatini bersa, musiqa san'atidan esa eshitish orqali zavqlanish mumkin. Boshlovchilarning chiqishlari, kuy-qo'shiqlar, tantanali qutlovlar, dialog va monologlardagi hazin musiqalar, raqslar va boshqa barcha ijodiy jarayonlar musiqa jo'rligida, musiqaning hamohangligida ifodalanadi.

Respublika miqyosida o'tkazilayotgan barcha bayram va tomoshalarni sahnalashtirish uchun kuy, qo'shiq va musiqa tanlash eng asosiy ish bosqichlaridan hisoblanadi. Musiqa va kuylarning turli variantlari tanlangach, ularning ijrochilari taklif etilib, qisqartirish yoki qo'shimcha matn qo'shish (muallif roziligi bilan), xullas, montaj ishlari amalga oshiriladi. Musiqiy montaj ishlari amalga oshirilgach, shu asosda repetitsiyalar boshlanadi.

Musiqa albatta plastika, raqs, chiroq va boshqa ta'sirchan vositalar uyg'unligida ham badiiy obraz yaratish imkoniyatlariga ega. Musiqalashtirilmagan tadbir tomoshabinga kerakli effektни bera olmaydi. Musiqaning to'g'ri tanlanishi, uni kerakli joyda ishlatilishi, uning g'oyaviy va mavzu jihatdan tomosha ruhiyatiga mos kelishi bastakorning tadbir yoki tomoshani oliy maqsadini to'g'ri anglay olganligidan dalolat beradi.

Alohida musiqiy nomer, tadbir kayfiyatini beruvchi musiqa, boshlovchilar chiqishlariga musiqa, sahnalashtirilgan parchalar uchun musiqa, qahramonlar xatti-harakatini ifodalovchi musiqa, chorlov, raqslar musiqasi va h.z.lar – tadbir yoki spektaklning mazmunini boyitishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda eng asosiy vositalardan yana biri – *texnik vositalardan* unumli va samarali foydalanishdir. Texnik vositalariga ovoz kuchaytirgichlar, mikrofonlar, miksher pultlari, minidisk yoki kompyuterlar va boshqalar kiradi.



Madaniy tadbirlarni sifatli texnik apparaturalarda o'tkazish tinglovchilarga ham ijrochilarga ham katta quvvat beradi. Buning sababi shundaki, toza, ortiqcha shovqinlarsiz kolonkalardan chiqayotgan tovush, ovoz tadbir ishtirokchilariga yoqimli kayfiyatni beradi. Agar karnaylardan chiqayotgan musiqa shovqinli bo'lib, toza chiqmayotgan bo'lsa, u har qanday insonga yomon ta'sir qilishi, asabiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Kichik auditoriyalarda o'tadigan tadbirlarda texnik jihozlarga ehtiyoj kam bo'ladi. Masalan, kutubxona (ARM)da tashkil etiladigan «Yoshlarda mutoala madaniyatini shakllantiraylik» mavzusida o'tadigan tadbirda mikrofon yoki musiqiy apparaturalardan foydalanmasliklari mumkin. Ammo shunda ham taqdimotlar uchun juda bo'lmaganda kompyuterlardan foydalanishga to'g'ri keladi.

Texnik vositalarga ovoz kuchaytirgich apparaturalaridan tashqari, turli chiroqlar, sahnani harakatga keltirishda ishlatiladigan texnik moslamalar, turli disk, flejka (planshet, telefon va h.k) larni o'qiydigan qurilma yoki moslamalar, bir so'z bilan aytganda, elektr toki bilan ishlaydigan juda ko'p moslamalar hozirgi kunda deyarli barcha tadbirlarda faol qo'llanib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, madaniy tadbirlarni tashkil etishda vositalardan to'g'ri va unumli foydalanish tadbirning saviyasi va badiiy qiymatini oshiradi.

### **Takrorlash uchun savollar:**

*1. Metod, metodologiya, usul va uslub, vosita tushunchalarini bir-biridan farq qiladigan jihatlarini aytib bering.*

*2. Ishontirish, namuna, illyustrativ metodlari haqida gapirib bering.*

*3. «Teatrlashtirish» deganda nimani tushunasiz?*

*4. «Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati» fanidan qaysi usul va uslublardan ko'proq foydalaniladi?*

*5. Madaniy tadbirlarda foydalaniladigan vositalarni sanab bering.*

*6. Vosita tushunchasiga izoh bering.*

7. *Ta'sirchan vositalar, san'at vositalari, ko'rgazmali vositalar, texnik vositalar tushunchalarini izohlab bering.*

8. *Musiqa san'ati madaniy tadbirlarni tashkil etishda qanday vosita vazifasini o'taydi?*

9. *Texnik vositalarga nimalar kiradi?*

### **Mustaqil ish uchun mavzu va vazifalar:**

1. *Ta'sirchan vositalar tushunchasi.*

2. *Madaniy tadbirlarda foydalaniladigan vositalarning o'ziga xosligi.*

3. *Musiqa –madaniy tadbirlarda qo'llaniladigan eng muhim san'at vositasi sifatida*

4. *Madaniyat va san'at sohasida ma'rifiy, ishontirish, namuna, illyustrativ, teatrlashtirish uslublarining qo'llanishining o'ziga xosligi.*

5. *Tadbirlarning kompozitsion tuzilishi.*

6. *Biron-bir madaniy tadbirni kompozitsion tuzilishi nuqtayi nazardan tahlil qiling.*

7. *O'zingiz ko'rgan (yoki qatnashgan) biron-bir tadbirda foydalanilgan usul va uslublar haqida referat tayyorlang.*

### **Madaniy tadbirlar turlari va ularni tashkil etishning spetsifik xususiyatlari**

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, kishilar ongi, dunyoqarashi, tafakkuri, maqsad va intilishlari, bir so'z bilan aytganda ma'naviy-mafkuraviy olamida, ruhiy tabiati va hatto qiyofasida ulkan o'zgarishlar paydo bo'la boshladi. Bu borada Prezidentimiz va hukumatimizning ma'naviyat, ma'rifat, mafkura, madaniyat, san'at va g'oyaviy yo'nalish borasida olib borilayotgan hayotiy va odilona siyosati muhim omil bo'lib xizmat etmoqda. Zero, gap ma'naviyat, mafkura, g'oya, san'at, madaniyat va ma'rifat haqida borar ekan, unda madaniy tadbirlarning jamiyat taraqqiyotidagi muhim ahamiyati beqiyosligini hech kim inkor etolmaydi. Ommaviy san'at asarlari hisoblangan teatr, kino yoki ommaviy tadbirlarni mazmunli, maqsadli niyatga erishishda san'atning barcha turlari dan

foydalaniladi va tomoshabinlarga taqdim etiladi. Ammo, deyarli tashkil etiladigan barcha tadbirlarning asosida ma'naviy, tarbiyaviy va axloqiy, ma'rifiy jarayonlarning yotganligiga shubha yo'q.

Rejalashtirilgan va o'tkazilishi kerak bo'lgan madaniy tadbirlarning asosiy vazifasi – milliy va dunyo madaniyatlarining eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish va ommalashtirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni, zamonaviy yoshlarni ma'naviy tarbiyalash, millatiga, tarixiga, insoniyatga bo'lgan hurmatni uyg'otish va saqlash hisoblanadi. Zotan, xalqlarning o'ziga xosligi va betakrorligini saqlash, tarixan shakllangan qadimiy milliy madaniyatlar, san'at va xalq ijodiyoti, yuz yillar davomida tarkib topgan milliy an'ana va urf-odatlarining o'zaro yaqinlashuvi va bir-birini boyitishi uchun, dunyoda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida o'zaro hurmat muhitini qaror toptirish uchun madaniy tadbirlarning ahamiyatini alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, madaniy tadbirlarda shaxs o'z insoniy fazilatlarini shakllantira boshlaydi, yashirin, betakror, individual xususiyatlari, qobiliyatlarini kashf etadi, ularni o'stiradi va rivojlantirib boradi, jamiyat, hayot bilan muloqotga kirishadi. Murakkab ijtimoiy voqelik sifatida bu tadbirlarning o'ziga xosligi shundaki, u insoniyat avlodlarinig mehnati va bilimlarini o'ziga singdirib oladi, saqlaydi, doimiy boyitib boradi va ularni kelgusi avlodlarga yetkazib beradi.

Mana shunday ulkan ishlarni amalga oshirishda madaniy tadbirlarni maqsadli tashkil etish, uni tarbiyaviy jarayonlarga yo'naltirish –hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir.

«Ma'naviy tadbirlar» – eng avvalo milliy g'oya asosida xalqni birlashtirish, jipslashtirish, yosh avlod ongi va qalbida ezgu g'oyalarga sadoqat tuyg'ularini tarbiyalashga, shuningdek, kishilarni ma'naviy tajovuzlardan ogohlikka chortlash, ularning mohiyatini anglab yetishga qaratilgan tizimli shakllar, usullar, vositalar va maqsadli amaliy harakatlar majmuidir. Ma'naviy - ma'rifiy tadbir ta'lim - tarbiyaning muhim yo'nalishi sifatida uning asosiy maqsadi muayyan masala bo'yicha bilim berish bilan birga anglangan xatti - harakatga yo'naltirishdan iborat bo'lib, ma'naviy - ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishning ikkita asosiy yo'nalishi mavjuddir. Birinchidan, insoniy fazilatlarini ulug'lash, yuksak

ma'naviyatli kishilar hayoti va faoliyatini ta'riflash, ularni ibrat, namuna qilib ko'rsatish orqali kechadi. Ikkinchidan esa – muayyan illatlarni qoralash, ulardan xalos bo'lishga da'vat, targ'ibot qilish orqali amalga oshiriladi va bunda erishilgan yutuqlarni xolisona e'tirof etib yo'l qo'yilgan kamchiliklar xolisona nuqtayi nazardan baholanishi muhim ahamiyatga egadir. Ma'naviy - ma'rifiy tadbirlarda ulug' ajdodlarimizning hayot yo'li, qoldirgan merosini biryuqlamalikka berilmay, to'g'ri va haqqoniy aks ettirishga, faqat o'tmishdagi siymolar bilan cheklanib qolmasdan, bugungi kunda yon - atrofimizda faoliyat ko'rsatayotgan ilg'or zamondoshlarimizni o'rnak sifatida ko'rsata bilish muhim ahamiyatga egadir. O'tmish va kechagi kun bilangina yashab qolmasdan, bugungi kundagi murakkab voqelikka tayanib, jamoatchilik fikrini shakllantirishning eng zamonaviy, ta'sirchan usullari va vositalaridan foydalangan holda ish olib borish hayotning qat'iy talabidir. Ma'naviy - ma'rifiy tadbirlarda bugungi murakkab an'naviy, jarayonlarni ilmiy - amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, buzg'unchi g'oyalarning kimga va nimaga qarshi qaratilganligini aniqlash, ma'naviy - tajovuzlar mohiyatini ochib berish alohida ahamiyatga ega. Ana shundagina ma'naviy - ma'rifiy tadbirlar mazmun - mohiyati bilan odamlar qalbiga va ongiga yetib boradi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, ma'naviy-ma'rifiy, musiqiy, adabiy-badiiy va h.k.larni umumiy nom bilan madaniy-tadbirlar deb aytish to'g'ri bo'ladi.

Madaniy tadbirlar turlari to'g'risida gap borganda, ma'lum ssenariy asosida o'tkaziladigan barcha tadbirlar majmuini - madaniy tadbirlar deyish mumkin. Turli janrlarda tashkil etilgan konsertlar, davra suhbatlari, uchrashuvlar, mavzuli kechalar, viktorina, ya'ni ko'rik-tanlovlar, debat, badiiy-sport tomoshalari, bayramlar va boshqalar madaniy tadbirlar turlaridir. Madaniy tadbirlarni tashkil etish – ularning turlaridan kelib chiqqan holda yondoshilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Masalan, *davra suhbatini olaylik*. Davra suhbatini, rasmiy bo'lmagan holatda, kichik auditoriyalarda, ma'lum bir mavzu atrofida suhbat tariqasida tashkil etiladi. Shunga ko'ra madaniy tadbirning bu turida katta tayyorgarlik ko'rishga unchalik ham hojat bo'lmasa kerak. Sababi, bunda bir yoki ikki kishi asosan, o'sha

mavzu bo'yicha qisqacha ma'lumot beradi (yoki ma'ruza qilishi ham mumkin) va undan keyin savol-javob tariqasida fikrlar almashinib, birgalikda xulosalar chiqariladi. Masalan, «Reproduktiv salomatlik» bo'yicha o'tkaziladigan davra suhbatiga o'sha soha bo'yicha mutaxassislar taklif etiladi va yosh oilalar yoki qizlar ishtirokida tashkil etiladi. Bunda tashkiliy yoki ijodiy ishlarga katta mehnat sarf qilinmasligi ham mumkin. Ya'ni rassom chaqirib sahna bezagi, rejissyor taklif qilib dastur ketma-ketligini va boshqa ishlarni amalga oshirish shart emas. Buni har qanday sharoitda, hattoki oddiy sharoitda (kichik auditoriyalarda) ham o'tkazib yuborish mumkin. Lekin tadbirga badiiy va ijodiy jihatdan yondashish tadbirning salmog'ini oshiradi. Masalan, o'sha hududga tegishli bo'lgan madaniyat va aholi dam olish markazlarida tashkil etilgan havaskorlik jamoalari ishtirokida shu mavzuga mos repertuarlardan kiritilsa, tadbir yanada ta'sirchan bo'lishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, davra suhbatlarida ma'ruzalar o'qish asnosida ham tadbirlar tashkil qilinishi mumkin. Turli mavzularda tashkil etiladigan ma'ruza va suhbatlar komil insonni shakllantirishda katta samara beradi. Ilmiy ma'ruzalar ko'pincha ma'lum mavzuni ilmiy ravishda yoritishga qaratilgan bo'lib, aniq auditoriyani qamrab oladi. Ma'ruza va suhbatlar insonlarni ilmi, bilimni qilishga yo'naltirilgan bo'lib, ularni umumiy bilimlari doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. Og'zaki, davra suhbatlari ham insonlarni bir-biri bilan yaqinlashtiradi, ularni hamjihatlikka undaydi. Ayniqsa, yoshlar bilan o'tkaziladigan og'zaki suhbatlar katta samara beradi. Suhbat o'tkazayotgan ma'ruzachi o'z tinglovchilari bilan uzluksiz bog'lanib, yaqin munosabatda bo'ladi. Tinglovchilarning yoshlari va qiziqishlariga qarab, zarur masalalarni muhokama qilishda ularni ham bevosita jalb etadi. Ma'ruzachi o'zi bayon etayotgan mavzuni ta'sirchan va tushunarli bo'lishi uchun harakat qiladi. Tarbiyaviy, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy, tibbiy, ekologiya kabi yo'nalishlar bo'yicha suhbat, savol-javoblar bolalarning bilim darajasi, dunyoqarashi va turli sohalar bo'yicha savodini oshirishda o'z mahsulini bermay qolmaydi. Undan tashqari, muhim muammolarni hal qilishda, to'g'ri qaror qabul qilishlarida ham ma'ruza va davra suhbatlarining roli kattadir.

Madaniy tadbirlarning juda ko'p qo'llaniladigan turlaridan biri —*konsertlarni va spektakllarni tashkil etishdir*. «Konsert» tushunchasi lotinchadan «o'zishaman» degan ma'noni anglatadi. Konsertlar o'z tuzilishiga qarab turlicha bo'ladi. Yakkaxon (solo) konsert, guruhlar, gala konsert va h.k. U.Qoraboyev o'zining «Badiiy ommaviy tadbirlar» kitobida konsertlarni 3 turini, ya'ni oddiy (filarmonik) konsert, teatrlashtirilgan konsert hamda ma'lum bir mavzu asosida o'tkaziladigan konsert turlarini ko'rsatib o'tadi.

Oddiy filarmonik konsertda boshlovchi tomonidan konsert dasturi e'lon qilib boriladi. Kuy-qo'shiqlar bir-biriga mavzu jihatidan turlicha, bir-biriga bog'lanmagan bo'lishi mumkin. Konsertning bu turi insonlarni dam olish, hordig'ini chiqarish, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda ko'p qo'llaniladi.

Teatrlashtirilgan konsertlar esa murakkab ijodiy va tashkiliy jarayonlarni talab qiladigan turlaridan hisoblanadi. Bunda konsert ma'lum bir g'oya, mazmun va voqeaning qizil chizig'iga joylashtiriladi. Hamma kuy-qo'shiqlar ham bunda tadbirga mos kelavermaydi. Masalan, «Navro'z» bayramida gruzincha «Lezginka», ruscha «Katyusha» yoki «G'alaba kuni» kabi kuy-qo'shiqlar mos kelmaydi. Teatrlashtirilgan konsertlarning o'ziga xosligi shundaki, bunda dastur teatr dramaturgiyasi qonuniyatlariga asoslangan holda tashkil etilishi lozim bo'ladi.

Ma'lum bir mavzu asosida o'tkaziladigan konsert turlarini tashkil etishda tadbirga ijodiy yondashuv talab etiladi. Bunda dastur aniq mavzu asosiga quriladi. Masalan, 8-mart Xalqaro xotin-qizlar bayramida ko'proq onalar, qizlar, ayollarni ulug'lashga qaratilgan kuy-qo'shiqlar, Mustaqillik bayramlarida Vatan, Ona yurtni madh etuvchi kuy-qo'shiqlardan iborat bo'lgan repertuarlardan foydalaniladi. Ammo bu degani, tadbirni faqat bitta mavzu atrofida yuritish kerak desak, tomoshabin, tinglovchini zeriktirib qo'yishimiz mumkin. Asosiy mavzu chizig'i saqlanib qolib, uning atrofida turli, rang-barang repertuarlardan foydalanish ham mumkin.

Ammo ko'pgina tadbirlarda shu hududda tuzilgan, o'sha joydagi to'y-tomoshalarda xizmat qilib yurgan ansambllar taklif qilinib, konsert dasturlarida ishtirok etadilar. To'y boshqa, madaniy tadbirlarni tashkil etish o'ziga xos boshqacha yondashuvni talab

etadi. Shuning uchun ham konsert dasturini tayyorlaganda uning tarbiyaviy jihatlarini hisobga olish zarurdir.

Konsert va spektakllar tadbirlar ichidagi eng ta'sirchan shakllaridan hisoblandi. Mazmun va g'oyaviy tomondan yetuk, yoshlar va bolalar muammolarini hal qilishda ko'maklashuvchi, ularni vatanga muhabbat, insonlarga mehr-muruvvatli bo'lishga chorlovchi spektakllar, yuksak darajada ijro etilgan bolalar badiiy jamoalarining konsert dasturlari yoshlarning ko'ngildagidek dam olishlarini tashkil qilish hamda ularda estetik saviyani o'stirishda va san'atning ko'plab yo'nalishlari bo'yicha qiziqishlarini orttirishda alohida o'rin egallaydi. Bolalar badiiy jamoalarining konsert dasturlari va ular uchun sahnalashtirilgan spektakllarni muntazam ravishda ko'rib borgan bolalarda ushbu san'at turlariga bo'lgan qiziqish o'sib, o'zlarida ham qo'shiq aytish, raqsga tushish, musiqa asboblarda kuy ijro etish yoki biror-bir bolalar spektaklida o'zi sevgan timsolni yaratish ishtiyoqi paydo bo'ladi. Bu havas va ishtiyoq ularni turli badiiy havaskorlik to'garaklariga qatnashishga yetaklaydi. Maqsad va ma'nosi, ijro uslublari milliy qadriyatlarimiz, ma'naviyatimizga zid bo'lgan shovqin-suronli qo'shiq va raqslar nafaqat ijrochi yoshlarga, balki ularni tomosha qilayotgan bolajonlarimizga, hattoki katta yoshdagi kishilarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadbir va konsert dasturlarimizda ona vatanni, xalqlar do'stligi, milliy o'zligimiz, el-yurt tinchligi, azaliy qadriyatlarimizni madh etuvchi hamda ulug'lovchi qo'shiqlarga keng yo'l berilishi lozim. Ayniqsa xalq ijodiyoti asosidagi folklor qo'shiqlarimiz, milliy raqslarimizning ijrosi, farzandlarimizda azaliy qadriyatlarimizga hurmat hamda milliy o'zligimizga bo'lgan e'zozni kuchaytiradi.

Madaniy tadbirlar orasida eng ko'p qo'llaniladigan shakllardan biri ***mavzuli kechalardir.***

Mavzuli kechalarda ijrochilar va boshqa qatnashchular bir butunlikni tashkil qilganligi uchun o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy bayramlarga yaqin turadi. Mavzuli kechalarda jamiyat jamoa uchun ijtimoiy jihatdan muhim hisoblangan voqealarga, sanalarga bagishlab o'tkaziladi. Masalan, «Ishid fitnasi», «Qullikka rozi bo'lmang», «Milliy qadriyatlar – bizning qadriyatlar», «Ommaviy madaniyat tahdidi va unga qarshi kurash zaruriyati», «Giyohvandlik umr zavoli», «Ichish, chekish va zararli odatlarga qarshi

kurashaylik!», «Giyohvanlikning salbiy oqibatlari», «OITS kasalligining oldini olish», Diniy eksterimizm, missionerlikning mohiyati» kabi va undan tashqari mamlakatimiz ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayotidagi kundalik voqea-hodisalarga, mehnatga bag'ishlangan mavzuli kechalarni tashkil etish orqali insonlar ongiga ta'sir qilish va ularda salbiy oqibatlarga nisbatan qarshi tura olish immunitetni shakllantirish kabi vazifalar qo'yilgan holda yondashish maqsadga muvofiqdir.

Madaniyat va san'at maskanlarida o'tkaziladigan mavzuli kechalarni o'tkazishda belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishga ijrochilardan tashqari boshqa qatnashchi-tomoshabinlar ham jalb qilinadi. Bunda tadbirning samaradorligiga erishishda tadbir ishtirokchilarini passiv kuzatuvchi emas, balki tadbirlarning faol qatnashchilariga aylanishiga erishish tadbirning saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Tadbirni tashkil etishdan asosiy maqsad, sog'lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, barkamol insonni voyaga yetkazish kabi vazifalar qo'yiladi.

Hozirgi kun madaniyat va aholi dam olish markazlarida, ma'rifat tarqatuvchi maskanlarda, maktab-kollej va boshqa tashkilotlarda madaniy tadbirlarni samarali tashkil etishni talab qiladi. Chunki, har bir tadbir tashkil etilishida ma'lum bir maqsadga qaratilgan bo'ladi.

Zamon jadal rivojlanayotgan bir davrda internet ma'lumotlaridan to'g'ri foydalanish ham yuqorida sanab o'tilgan tushunchalarni mohiyatini anglagan holda yondashishni talab etadi. Ko'pincha internet saytlarida «niyati buzuq»larning maqsadlari xaspo'shlanib, harakatlarini ma'naviy va ahloqiy jihatdan oqlash, ya'ni go'yoki majbur bo'lganliklarini asoslashga harakat qiladilar. Bunday saytlar ularning faoliyatini oqlovchi «qahramonligini» kuylovchi qo'shiqlar, kliplar bilan uyg'unlikda berilishidan maqsad ularning mafkuraviy va hissiy ta'sir quvvatini oshirishdan iboratdir. Bunday sharoitda masalaning yana bir muhim jihatiga e'tiborni qaratish alohida ahamiyatga egadir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'quv dargohlarida, balki radio - televediniya, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni



olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rmab-chirmab, uni ko'rma, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonnining talabiga ham, bizning ezgu maqsad muddolarimizga ham to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganmiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz».<sup>12</sup> «Kimki axborotga ega bo'lsa, u dunyoga egalik qiladi», degan fikr bugungi kunda barcha tomonidan e'tirof etilgan. Shunday ekan, bugungi kunda qatnashchilarda axborotni qabul qilish madaniyatini tarbiyalash ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir. Har bir tinglovchida axborotni eshitar ekan: «Bu axborotni kim uzatayapti?», «Nima uchun uzatayapti?», «Qanday maqsadda uzatayapti?», «Nima demoqchi, maqsadi nima?» kabi savollarni o'z - o'ziga berishga va unga asosli javob topish ko'nikmasini shakllantirish zarurdir. Ana shundagina muayyan g'oyalar ta'siriga tushib qolishning oldini olish uchun shunday tadbirlarni tashkil etish, uyushtirish maqsadga muvofiqdir.

Ba'zi manbalarda tematik kechalar madaniy kechalar ham deb berilgan. Bunday tadbirlarni o'z navbatida mavzuli kechalar, xayriya kechalari, ezoz kechalari, xotira kechalari, uchrashuv kechalari, badiiy-musiqiy kechalar, askiya va kulgu kechalari, yubiley kechalari, savol-javob kechalari, bitiruv kechalari deb atash ham mumkin.

Tadbirlarni yana bir turlaridan *debat* – ikki tomonlarning dolzarb mavzular bo'yicha oshkora fikr almashinuvi asosida maxsus tashkillashtiriladigan tadbir shakli. Bunda ishtirokchilar o'zlarining haq ekanliklarini bir-birlariga emas, balki uchinchi tomonga tushuntirishliklari va isbotlashliklari nazarda tutiladi.

Debatlarni aniq bir mavzu atrofidagi ikki yoki undan ortiq insonlar yoki guruhlar o'rtasidagi ochiq tortishuvlar, fikr, mulohazalar, bahs-munozaralar asnosida tashkil etilishiga qaramay uning ahamiyatli jihatlari kengdir. Insonlar (tinglovchi, tomoshabin) muammolarni o'rtada fikr almashinayotgan, bahs-munozara

<sup>12</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2011.-152 b.

yuritayotganlarning fikrlarini tahlil qilish asosida ko'p narsalarni eslab qoladilar.

Debatning masalan, davra suhbatidan farqi shundaki, davra suhbatida asosan bitta yoki ikkita ma'ruzachi yoki shu mavzu bo'yicha fikrlarni rivojlantiruvchi bo'lsa, xulosa chiqarish tinlovchi (yoki tomoshabin)ning o'zlariga qoldiriladi. Debatda esa aynan shu masala, o'zi ilgari surayotgan g'oyani uchinchi tomonga (tomoshabin, tinglovchi va h.k) tushuntirib, isbotlab berishi talab etiladi. Ishtirokchining mavzuni aniq tushuntirib berishi va isbotlash uchun esa ana shu mavzuga tegishli bo'lgan barcha savollarga tayyor turishi kerak bo'ladi.

Masalan, sahna san'ati bo'yicha o'tkaziladigan debatlarida sahnalashtirishga oid tushunchalarning xilma-xilligi, o'xshash tomonlari, bir rejissyorning fikriga ikkinchisining qo'shilmasligi yoki aksincha uni qo'llab-quvvatlashi, sahnalashtirilayotgan asarlardagi kamchiliklar, yutuqlar haqida fikr almashinish asnosida tashkil etiladi. Ikkita guruh (bular san'atkorlar va tanqidchilar, shofyorlar va DAN xodimlari va h.k) o'rtasidagi aniq mavzu atrofidagi bahs-munozarani boshlovchi boshqarib turishi mumkin.

Debatlar tadbirlarning eng sinalgan turlaridan bo'lib, ko'proq savol-javob shaklida tashkil etiladi. Madaniy tadbirlarning bu ko'rinishini ko'proq televideniya kuzatish mumkin. Boshlovchi bir mavzu bo'yicha o'rtaga fikrni tashlaydi, ishtirokchilar esa mavzu bo'yicha o'z-fikr mulohazalarini bildiradilar. Shuni unutmaslik kerakki, barcha tadbirlar nihoyasida xulosa chiqarish lozim bo'ladi. Debatlarda ham mavzu bo'yicha oxirgi so'zni xulosa sifatida berish kerak bo'ladi. Xorij TVlarida bu ko'proq siyosiy tus olganligi bilan ajralib turadi. Unda hukumat nomidan ishtirok etayotgan shaxsga turli savollar beriladi.

Aslida, debatlar ko'proq ilmiy mazmun olsagina ko'proq samara beradi, ta'siri katta bo'ladi. Chunki, debatlarida aniq savollar va unga aniq javob kerak bo'ladi. Undan tashqari, debatlarini o'tkazish uchun maxsus joy tanlanmaydi. Uni har qanday sharoitda ham tashkil etish mumkin (ba'zi tadbirlarni o'tkazish uchun aniq auditoriya va joy kerak bo'ladi, masalan, konsert uchun sahna, sport tadbirlari uchun sport zal kabi).

O'zbekistonda **badiiy sport tadbirlarini** tashkil etish bo'yicha bir qancha tadbirlarni sanab o'tish mumkin. Sport va san'at sohalari mamlakatimizni dunyoga tarannum qiluvchi o'ta katta qudratli vositalardan biri ekanligi hammamizga ma'lum.

Badiiy sport tadbirlarini tashkil etishdan maqsad – sog'lom turmush tarzi, insonlar salomatligi, ularning ham ma'nan ham jismonan yetuk bo'lishlari, bir so'z bilan aytganda – insonlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularga ma'nan hamda jismonan madad berish,

Yurtimiz mustaqillikka erishgach sport tomoshalarining badiiy jihatlariga katta e'tibor berila boshlandi. Shu jihatdan olib qaralganda yurtimizda sport ishlarini yanada takomillashtirish borasida ko'plab xayrli ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston televideniyasida «Sport» kanalining faoliyati bunga misol bo'la oladi.

Jamiyatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar insonlar hayotining asosiy qismini qamrab olganligi bois ma'naviy va jismoniy sog'lomlik jamiyatda ish yuritayotgan, faoliyat ko'rsatayotgan barcha shaxslarga nisbatan eng oliy ne'mat hisoblanadi.

Sport va san'at – bu mamlakatni boshqa yurtlarga tanishtiruvchi vosita, elchi hisoblanadi. Shuning uchun ham davlatimiz siyosatida sport va san'atni rivojlantirishga qaratilgan bir qancha qaror va farmonlar, farmoyishlariga guvoh bo'lamiz. «Sog' tanda sog'lom aql» deganlaridek, jamiyat uchun ham sog'lom insonlar zarurdir.

Badiiy sport tomoshalarini yaratishda senarist rejissyor va sportchi-murabbiy bilan maslahatlashgan holda ularning xatti-harakatlarini qog'ozga tushirishga harakat qiladi. Bunday tadbirlar asosan, musobaqa shaklida o'tkaziladi. Unga teatrlashtirish usullarini qo'llash esa tadbirning badiiy jihatlarini yanada ko'chaytirishga, faollashtirishga sabab bo'ladi va natijada tomoshabin o'zi kutmagan rohatbaxsh manzaralarga duch keladi, tomoshaga nisbatan faolligi oshib boradi.

San'at noziklikni, mayinlikni, jozibadorlikni, sport esa qat'iyatni, jismoniy baquvvatlikni, qattiqqo'llikni talab qiladi. Tashqaridan qaraganda bu ikki hodisani bir-biriga bog'lash mumkin

emasday tuyuladi. Bunday muvaffaqiyatli uyg'unlikka faqat teatrlashtirish usullari orqali erishish mumkin.

Teatrlashtirilgan sport tomoshalariga ko'plab misollar keltirish mumkin. Afinada bo'lib o'tgan Olimpiada oyinlarining ochilish va yopilish qismlaridagi teatrlashtirish usullarining yuksak mahorat bilan qo'llanganligi bunga misol bo'la olishi mumkin.

Har bir tadbir tomoshasini sahnalashtirish jarayonida rejissyor o'z oldiga oliy maqsadni qoyadi. Ya'ni bunday tadbirlar tomoshalarining bir-biriga beg'araz, nafrat ko'zi bilan qarashiga yo'l quymasliklari, bir-birlariga nisbatan dushmanga aylanib qolmasliklari, bir-birlarini raqib sifatida emas, do'st, aka-uka sifatida qabul qilishga, mag'lubiyatni tan olib, yanada ko'proq mehnat qilishlarini tushunib olishlari va eng asosiysi bir-birlariga hurmat nuqtayi nazarida munosabatda bo'lishlariga erishish lozim.

Badiiy sport tomoshalarining yaqqol namunalarini turli sport musobaqalari, Olimpiada o'yinlarining ochilish yoki yopilish marosimlarida kuzatish mumkin.

Sport va san'at alohida soha bo'lsa ham ularning asl maqsadlari bir xildir.

Badiiy sport tomoshalarini tashkil etish asosan musobaqa, bellashuvlar asnosida tashkil etiladi. Bu jarayonda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- sport maydonini, ya'ni tadbir o'tadigan joyni o'rganish;
- sportchilar va san'atkorlar chiqishlarini ketma-ketligini ishlab chiqish;
- sport va san'at uyg'unligiga erishish;
- sport sohasini badiiylashtirishga oid usullarni ishlab chiqish;
- repititsiyalarni tashkil etish va boshqa ish jarayonida yuzaga keladigan vaziyatlarni tahlil qilish va ishlarni rejalashtirish.

Badiiy sport tomoshalarini o'tkazishda tadbir tashkilotchilari sport va ijod sohaslarining uyg'unligiga erishishlari lozim bo'ladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda sport tadbirlarining eng yorqin namunalarini «Barkamol avlod», «Umid nihollari» va «Universiada» sport o'yinlarida ko'rish mumkin.

**Ko'rik tanlovlar** ham madaniy tadbirlarning eng qiziqarli turlaridan hisoblanadi. Ko'rik-tanlovlar asosan musobaqa shaklida tashkil etiladi. Bunday tadbirlarda tomonlarning bir-biri bilan turli

mavzular bo'yicha tortishuvlar, bahs-munozaralar, bellashuvlar orqali namoyon bo'ladi. Masalan, «O'zbekiston –vatanim manim» qo'shiqchilar ko'rik tanlovi ham eng yaxshi ijrochilarni tanlash asnosida uyushtiriladi. Bunda ijrochi o'zini-o'zi tarbiyalaydi, o'z ustida ishlaydi, g'alaba qilish uchun turli vositalarni qo'llay boshlaydi. Bu esa uning yangicha yo'nalishlarni kashf etishiga, yangilik yaratishga undaydi. Eng asosiysi Vatan, ona yurt, ota-ona, mehr-οqibat, yurt sog'inchi kabi mavzular asosida yaratilgan kuy-qo'shiqlar uning repertuaridan asta-sekinlik bilan joy egallay boshlaydi. Avvalari yengil-elpi, bachkana, qo'shiqlarni aytib yurgan bo'lsa, endi u o'zgaradi. Kuy-qo'shiqlarning ma'no-mazmunini tushunib, uni tomoshabinga, tinglovchiga yetkazish usullari haqida o'ylaydi, bir so'z bilan ta'sir qilish usullarini ishlab chiqadi. Bu esa madaniy-tadbir tashkilotchisining bosh maqsadlaridan biri bo'lmog'i lozim. Doirachilarning «Zarb-2015» ko'rik-tanlovida ijro etilgan nomerlar kishini o'yantirib qo'yadi. Avvallari doira faqat usul berib turishda kuy-qo'shiqlarga jo'r bo'lib turuvchi vosita, deb qaralgan. Aslida, bu qarash to'g'ri. Lekin «Zarb-2015» ko'rik tanlovida yosh doirachilarning chiqishlarida faqat usul berish maqsad qilib qo'yilmaganligi ma'lum bo'lib qoldi. Doirachilar turli usullar uyg'unligida alohida asar yaratish darajasida chalishlari barchani qoyil qoldirdi. Bir so'z bilan aytganda, ko'rik-tanlovlar ham madaniy tadbirlarning eng zamonaviy ko'rinishlaridan biri bo'lib, tanlov ishtirokchilarini ham tomoshabinlarni ham tarbiyalaydi.

Ko'rik-tanlovlar nafaqat san'at yo'nalishida, balki faoliyatlarining barcha ko'rinishlarida tashkil etish mumkin.

Ko'rik tanlovlarning eng ko'p qo'llaniladigan shakli sport tomoshalarini tashkil etishda namoyon bo'ladi. Teatrlashtirilgan futbol, yugurish bo'yicha marafonlar, tosh ko'tarish, akrobatika, gimnastika, suzish va boshqalar shular jumlasidandir.

Ko'rik-tanlovlar xalq o'yinlarida ham namoyon bo'ladi. Ko'p-kari, xo'roz, it, qo'chqor urishtirish, kurash, tosh ko'tarish, sirk tomoshalari va boshqalar xalqimizning avloddan-avlodga, nasldan-naslga o'tib kelayotgan tadbirlaridandir. Bunday tadbirlar asnosida milliy g'urur, Vatanga foydasi tegadigan ham jismonan, ham aqlan kuchlilar timsoli yotadi.

Bunday ko'rik-tanlovlarni tashkil etishda maqsadni aniq belgilash muhimdir.

Televideniyeda o'tkazilayotgan turli shou ko'rinishini olgan ko'rik-tanlovlar ham insonlarni tarbiyalashni maqsad qilib qo'ymog'i lozim.

Yoshlar tarbiyasida ko'rik tanlovlarni nazorat qilish muhimdir. Ba'zan, shunday holatlarga duch kelamizki, masalan, qiziqchi, askiyachilar ko'rik-tanlovlarida tomoshabinni kuldirish uchun turli xil bachkana qiliqlar, «qog'ozga o'rashga harakat qilingan uyatsiz so'zlar», arabcha raqsga tushyapman, deb o'ylab, o'zini kimligini oshkora qilib qo'ygan yosh o'zbek qizlarining ochiqdan-ochiq raqs harakatlarini ko'rik-tanlov deb bo'lmaydi. Buni rostakam o'zini namoyon qilish musobaqasi deb qarash mumkin. Aslida esa, ko'rik-tanlovlar o'sha hududning, jamoasini manfaatlarini himoya qilishlari kerak. Jamoa uchun harakat qilib, g'alaba sari intilishi kerak bo'ladi. Bachkana qiliqlar esa ishtirokchini ham, uning jamoasini ham uyaltirib qo'yadi. Bundan tashqari, bunday xatti-harakatlar yoshlar tarbiyasiga, tomoshabinlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatish mumkin.

Mustaqillik sharoitida madaniy tadbirlarni bevosita ta'lim va tarbiya jarayonida hamda bo'sh vaqt sharoitida o'tkazishning mohiyatini ifodalaydigan, uning yo'nalishi, mazmuni hamda shakllarini belgilaydigan hayotiylik, ta'lim-tarbiyaga yo'naltirganlik nuqtayi nazardan yondashish maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, ko'rik-tanlovlar asosan taqqoslash, solishtirish, baho berish nuqtayi nazardan qaralib, ko'proq musobaqalar shaklida tashkil etiladi. Tadbirlarning bu turini juda ko'p sohalarda qo'llash mumkin. Sport, san'at, texnika, ishlab chiqarish, ijtimoiy-gumanitar va boshqa barcha sohalarni o'z ichiga olgan ko'rik-tanlovlar insonlarni soha bo'yicha oldinga intilishlariga, o'z faoliyatlarini kengaytirishlariga, uni mazmunan boyitishga, bilimlarini orttirishga, rag'batlantirishga, oldinga intilishiga katta turtki bo'ladi.

Ko'rik-tanlovlar – insonlar ko'zi bilan ko'rib, tomosha qilib, o'rganib, tahlil qilish asosida baholanib boradi. Ko'rik-tanlovlar o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Uni aniq dastur asosida tashkil etish kerak bo'ladi.

Ayniqsa bayram tadbirlarida ko'rik-tanlovlarning bir necha xil shakllaridan unumli foydalaniladi. Masalan, birgina Navro'z bayrami misolida oladigan bo'lsak, Navro'z taomlari, turli sport yo'nalishi bo'yicha, jonivorlar musobaqalari (xo'roz, qo'chqorlar musobaqasi, ko'pkari va h.k.), polvonlarning kurash, turnik, tosh, shtanga ko'tarish va boshqalar, san'atkorlar orasidagi ko'rik tanlovlar (eng yaxshi qo'shiq, raqs, she'r ijrochisi va boshqalar)ni qo'llash orqali tadbirlarning keng qamrovliligiga erishish mumkin.

Respublikamizda iqtidorlarni, tashabbuskorlarni, shu aziz Vatan uchun sidqidildan xizmat qilayotgan insonlarni rag'batlantirish, ular faoliyatini yanada rivojlantirishga yordam berish, xizmatlarini haqiqiy baholash nuqtayi nazaridan ham turli ko'rik-tanlovlar tashkil etilgan. Masalan, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tashkil etilgan «Yilning yangi yaxshi darslik va o'quv adabiyoti muallifi», Yilning eng yaxshi pedagogi», institutlararo «Eng yaxshi kafedra», «Yilning eng yaxshi ma'naviyat va ma'rifat targ'ibotchisi» va boshqa bir qancha ko'rik-tanlovlar shular jumlasidandir.

Yurtimizda o'tkazilayotgan festival va ko'rik-tanlovlarni tashkil etishning ham o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyati bor. Festival va ko'rik-tanlovlar badiiy ijodiyot, ayniqsa, bolalar va yoshlarga bo'lgan ijod va mahoratni ommalashtirishda alohida o'rin tutuvchi ish shaklidir. Ma'lumki yurtimizda faoliyat ko'rsatib kelayotgan madaniyat, san'at va xalq ta'limi muassasalarida millionlab bolalar ijodiyotning turli xil yo'nalishlari bo'yicha o'z iqtidorlarini namoyon qilib bormoqdalar. Ularning ijodiy faoliyatiga keng yo'l ochish, yaqindan yordam ko'rsatish, yosh iste'dodlarni aniqlash va elga tanitish, ijodiy ishlarini davom ettirish uchun imkoniyat yaratish, ijodiyot maskanlarini texnik va musiqa vositalari, rang-barang liboslar bilan ta'minlash ham zaruratdir.

**Viktorinalar** – bilimlarning turli sohalariga oid savollarga og'zaki yoki yozma ravishda javoblar berish tartibida tashkil etiladigan o'yinlar asosiga qurilgan tadbirlardan hisoblanadi. Viktorinalar bir-birlaridan savollar turi va murakkabligi, yurish ketma-ketligi, g'oliblarni aniqlash va rag'batlantirish tartibi bilan bog'liq o'yin qoidalariga ko'ra farqlanadi.

Viktorinalarda oldindan tayyorlangan savollar majmuidan ham foydalanish mumkin.

«Viktorina» tushunchasi 1920-yillarda jurnalist va yozuvchi Mixail Kolsov tomonidan gazetalarda berilgan savollar, rebuslar, topishmoqlar sahifasining umumiy nomi sifatida muomalaga kiritilgan. Bu ko'ngilochar sahifani Viktor ismli xodim tayyorlaganligi sababli, uning ismi, ya'ni «Viktor» nomi bilan atalgan. Keyinchalik bu atamani «pobeda», ya'ni g'alaba so'zi bilan bog'laganlar, chunki lotinchada «Viktor» so'zi «g'olib» ma'nosini bildiradi. Televizion viktorinalar. Televizion shou dasturlarining ko'pchiligi teleboshlovchining savollariga javob berish tariqasida amalga oshiriladi. Javoblar ba'zan yakka, ba'zida esa jamoa bilan kengashgan holda berilishi mumkin. Masalan, «Zakovat», «Intellektual ring», «Imkon shou», «Кто хочет стать миллионером?» va testlar topshirish bo'yicha ham turli intellektual o'yinlar shular jumlasidandir. Hozirda internetning paydo bo'lishi bilan maxsus saytlarda Onlayn-viktorinalari ham tashkil etildi. Hozirgi kunda «Ginneslar kitobi»ga kiritilgan eng katta viktorina 2010-yilda Belgiyaning Gent shahrida o'tkazilgan bo'lib, unda 2280 nafar ishtirokchi qatnashgan.

**Lektoriy** – (lot. *lectorium*, nem. *Letzner*) - qadimiy katolik cherkovlarida ibodat paytida qo'yiladigan baland yog'och minbar. Lektoriyalar XI asrda Italiyada, keyinroq Germaniya va Fransiyada paydo bo'lgan. Hozirda lektoriylar – ko'proq ilmiy tadbirlarga oid bo'lib, ma'lum bir mavzu asosida ilmiy fikr almashinadi.

**Shou** (ingl. *show* – namoyish etmoq, ruscha - pokaz, predstavleniye) – ko'ngil ochar xarakteriga ega bo'lgan tadbirlardan hisoblandi. Shou-dasturlar tashkillashtirish xususiyatiga ega bo'lib, insonlarni yig'ib ularni ko'ngilochar dasturlar, turli qiziqarli chiqishlar, kuy-qo'shiq, raqslar, har xil o'yinlar asnosida o'tkazish mumkin. Shou-dasturlar uchun maxsus ssenariylar yozilib, repititsiyalar tashkil qilinadi. Tadbirlarning bunday turi ko'pincha televideniya namoyish etiladi.

Chet ellarda tashkil etiladigan shou-dasturlarining asosiy maqsadi ko'proq mablag' topishga qaratilgan. Mablag'ni qoplash uchun esa ular pulni ayamay sarf qiladilar va yaxshi natijalarga



erishadilar ham. Tomoshabinni jalb qilish uchun maxsus kishilar shug'ullanadilar.

O'zbekistonda tashkil etiladigan shou-dasturlar o'zining ma'naviyatga boy, milliy qadriyatlar ufurib turganlik darajasida tashkil etilishi bilan ajralib turadi. Masalan, «Imkon shou», «Navo-shou», o'zining aktyorlik layoqatini namoyish qiluvchi dasturlardan «Obraz shou» va h.k., turli taqdimotlar, hisobot konsertlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Shou tushunchasini nafaqat san'at, balki boshqa sohalarda ham qo'llash mumkin. Masalan, avia-shou, tele-shou, muz ustidagi shou (muz ustida figurali uchish), chiroqlar shousi, lazer shou va h.k.

**Kino** –bu alohida san'at turi hisoblanadi. Ammo bugungi kunga kelib, kino san'atidan aynan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish an'anaga aylanishi quvonchli holdir. Ma'lum mavzuga bag'ishlangan filmlar orqali madaniy tadbirlarni tashkil etilishi – bu insonlarni, ayniqsa, yoshlar tarbiyasiga qaratilgan mavzular uyg'unligidagi samarali ishlardandir. Masalan, tadbir boshlanishidan oldin, film namoyish etiladi va shundan so'ng film bo'yicha suhbat-munozara o'tkaziladi. Hozirda O'zbekiston ham kino yaratish bo'yicha dunyoda nufuzli o'rinni egallab bormoqda. Bunday san'at asarlarini yaratishda ssenarist, rejissyorlar, rassom, operator va boshqa ijodiy guruhlar samarali mehnat qilmoqdalar.

Milliy mumtoz badiiy filmlardan «Tohir va Zuhra» (rej. N.G'aniyev), «O'tkan kunlar» (A.Qodiriy asari), «Sen yetim emassan», «Mahallada duv-duv gap» (rej. Sh.Abbosov), diniy ekstremizm, aqidaparastlik va terrorizmga qarshi kurash hamda ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish mavzuidagi badiiy filmlar «Tuzoq» (rej. B.Aynazarov), «Arosat» (rej. M.Abduxoliqov), «Sotqin» (rej. R.Sa'diyev), «Aldangan ayob» (rej. H.Nasimov), harbiy vatanparvarlik va terrorizm, odam savdosiga qarshi kurash mavzuidagi badiiy filmlardan «Sardor -1, 2» (rej. Sh.Mahbubov), «Qasamyod» (rej. M.Boymuhamedov), «Haqiqiy erkaklar ovi» (rej. J.Isoqov) kabi filmlar madaniy tadbirlardan oldin qo'yilib, ana shu filmlardagi voqealarni tahlil qilish asnosida turli tadbirlarni samarasini yanada oshirish mumkin.

Undan tashqari, mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, qo'lga kiritilayotgan

yutuqlar hamda ulkan bunyodkorlik ishlari haqidagi hujjatli filmlar, o'zbek adiblarining hayoti va ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan hujjatli filmlar, buyuk ajdodlarimiz hayoti va ijodiga bag'ishlangan hujjatli filmlar, diniy ekstremizm, aqidaparastlik va terrorizmga qarshi kurash hamda ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish mavzuidagi hujjatli filmlar, harbiy vatanparvarlik mavzuidagi hujjatli filmlar, g'iyohvandlik va OITS muammolari haqidagi hujjatli filmlar, reproduktiv salomatlik haqidagi badiiy filmlar, sport va yoshlarni sog'lomlashtirish mavzusiga oid va boshqa turli mavzularni qamrab olgan badiiy va hujjatli filmlar – tadbirlarning samaradorligini oshirishdagi eng zo'r vositalardandir. Ulardan unumli foydalanish tadbirning saviyasini, uning ta'sirchanligini yanada oshiradi.

Ammo shuni ham aytib o'tish joizki, madaniy hayotdagi, ko'pgina kamchiliklar, jumladan, ayrim kinolarimizdagi bachkana tasvirlar, teatrlarimizda qo'yilayotgan spektakllarning talab darajasida emasligi, milliy estradamizda g'arbona andozalarga taqlidning kuchayib borayotganligi, sariq matbuotdagi oldi-qochdi sahifalar, yalang'och maqolalar ham yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir etmoqda.

Muzeylar, madaniyat va san'at maskanlariga, teatr, konsertlar, tomoshagohlarga, ziyoratgohlarga, dam olish maqsadida, ekologiya masalalari bo'yicha tabiat qo'yniga *ekskursiyalar-sayohatlar* tashkil etish ham madaniy tadbirlar turlaridan hisoblanadi. Bunday tadbirlar ayniqsa ahamiyatlidir. Chunki, bunda yoshlar, ajdodlarimiz merosini, tarixni o'rganadilar, moziyga nazar tashlaydilar, o'sha davrlarni hozirgi kun bilan taqqoslaydilar, hozirgi kun uchun shukronalik aytadilar.

Mustaqillik sharoitida madaniy tadbirlarni bevosita ta'lim va tarbiya jarayonida hamda bo'sh vaqt sharoitida o'tkazishning mohiyatini ifodalaydigan, uning yo'nalishi, mazmuni hamda shakllarini belgilaydigan hayotiylik, ommaviylik, ixtiyoriylik va ilmiylik tamoyillariga asoslanishini qayd etish mumkin.

Hozirgi kunda Respublikamizda bir qancha tadbirlar yuqori daraja tashkil etilib, insonlarga estetik zavq bag'ishlab, ularning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etishga xizmat qilib kelmoqda. Masalan, turli mavzularda tashkil etilayotgan tantanali kunlar madaniy-ma'rifiy ishlarning o'ziga xos shakli sifatida insonlarda

milliy g'ururni saqlashga, Vatanni sevish, mehnatning qadriga yetish va boshqa ijobiy xislatlarni o'zida jo etishga undaydi. Tantanali kunlar tadbir qatnashchilarida ma'lum bir yo'nalish va mavzu bo'yicha kayfiyat kun davomida hukmronlik qiladi hamda bu kun ularning hayotlari davomida uzoq saqlanib qoladi. Kunlar o'tkazish rejasiga kirgan barcha tadbirlar mavzuga asosan tuzib chiqiladi. Tantanali kunning o'zi alohida ish shakli bo'lsada, bayramlarga o'xshab, boshqa ko'plab shakl va usullar yig'indisidan tashkil topadi.

*Ko'rgazmalarni tashkil etishning* ham o'ziga xos muhim jihatlari bor. Madaniyat va istirohat bog'larida o'tkaziladigan ko'rgazmalar ilmiy, texnikaviy, tibbiy, badiiy kabi ko'plab yo'nalishlar bo'yicha tashkil qilinib, yoshlar va bolalarga ta'sir qilishning ibratli va qiziqarli vositalaridan hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy loyihalar, madaniy tadbirlar yoshlarimizning jamiyatdagi o'z o'rnini aniqlab olishiga va o'ziga munosib o'rin topishiga, o'z manfaat va maqsad-muddalarini shakllantirishiga hamda ongli, mustaqil pozitsiyaga ega fuqarolar bo'lib voyaga yetishiga ijobiy turtki bo'ladi. Ixtiyoriy, o'zining faolligidan kelib chiqib, bunday jarayonlarda ishtirok etish har bir yosh yigit-qizga o'z qobiliyat va salohiyatlarini to'la namoyish etish bilan birga, jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkonini ham yaratadi. Jamiyatning demokratlashuv darajasi nodavlat notijorat tashkilotlarning soni bilan belgilanmaydi va aksincha, ularning samarali faoliyatigina yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishga, jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashga va ularda fuqarolik jamiyati ko'nikmalari hosil bo'lishiga xizmat qilishi mumkin.

Ushbu mavzudan ma'lum bo'lib turibdiki, O'zbekistonda madaniy tadbirlar muntazam ravishda davlat darajasida tashkil etilib, insonlarga ma'naviy ozuqa berish, ularni ma'rifat bilan qurollantirish, bo'sh vaqtlarni to'g'ri tashkil etish kabi muhim vazifalarni bajarib kelinayotganligidan dalolat bermoqda.

Yuqorida qayd etilgan tadbirlar yirik loyihalardan hisoblanib, insonlarni ma'naviy, madaniy bilimlarini oshirishga, saviyasi,

dunyoqarashlarini kengaytirishga, yurtimiz muvaffaqiyatlarini jahon hamjamiyati e'tiboriga taqdim etishga qaratilgandir.

Madaniy tadbirlar nafaqat keng masshtabda, balki tor doira atrofida ham tashkil etilishi mumkin. Masalan, institut yotoqxonasida istiqomat qiluvchi qizlar bilan «Qizlar odobi bilan go'zal» mavzusida davra suhbatini tashkil etish mumkin. Ushbu bo'limda 7 ta yoki ko'pi bilan 10 ta talaba qiz yotoqxonada (TTJ)da istiqomat qilishi mumkin. Ammo tadbirlarni tashkil etishda, uning tor yoki keng masshtabda tashkil etilishi muhim emas. Muhimi, insonlarga o'zlari uchun kerakli ma'lumotni olishlari, tadbirdan to'g'ri xulosa chiqarishlari, vaqtini foydali mashg'ulotlarga sarf qilishlari va boshqa ijobiy, tarbiyaviy, ta'limiy jarayonlarda faol ishtiroki, ertangi kelajak uchun qayg'urishlari, Vatanni sevish, mustaqillikni qadriga yetish, ota-onaga nisbatan mehr-muruvvatli bo'lish, ustozlarni, yon atrofdagilarga hurmatda bo'lish kabi fazilatlarni qalbiga joylashtirishdir.

### **Takrorlash uchun savollar:**

- 1. Madaniy tadbirlar turlarini sanab bering.*
- 2. Debat nima?*
- 3. Ko'rik-tanlovlar qanday tashkil etiladi?*
- 3. Filmlar namoyishi madaniy tadbirlarni tashkil etishda qanday vazifani o'taydi?*
- 4. Konsert dasturlari madaniy tadbirlarda qanday qo'llaniladi?*
- 5. Respublika miqyosida o'tkaziladigan madaniy tadbirlarni sanab bering va tahlil qiling.*

### **Mustaqil ish uchun mavzu va vazifalar:**

- 1. Guruhingiz bilan debat uchun mavzu tanlang va tashkil eting.*
- 2. Tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan filmlar haqida ma'lumot tayyorlang.*
- 3. Biron-bir sport turiga oid tadbir ssenariysini yarating va tashkil eting.*
- 4. Respublika miqyosida o'tkaziladigan madaniy tadbirlarni aniqlang va tahlil qiling.*

## Madaniy tadbirlar dramaturgiyasi

Har qanday tadbirni o'tkazish yoki tashkil etishda ssenariy yaratish eng asosiy jarayonlardan biri hisoblanadi. Bayram, tomosha, tadbirlarni tashkil etishda ssenariylarni yaratish mobaynida tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan, barkamol avlod tarbiyasiga hissa qo'shadigan, insonlarga har tomonlama ta'sir qiladigan materiallarni topish tadbir tashkilotchisidan katta mahorat va bilim talab etadi. Madaniy tadbirlarni asosi ssenariy hisoblanib, mamlakatimizda yangicha munosabatlarning taraqqiyoti, tadbirlar dramaturgiyasining turli usul va ko'rinishlari, tashkil etilayotgan madaniy tadbirlarning inson tafakkuriga ta'siri va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishdagi ahamiyatini tahlil etish maqsad qilib qo'yilsa, tadbirlar tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Madaniy tadbirlar dramaturgiyasining asosiy komponentlarini, tadbirda qo'llaniladigan ta'sirchan vositalar, hujjatlar va faktlar bilan ishlashning o'ziga xosligi, tadbirlarda qo'llaniladigan inssenirovkalar, obrazlilik, bir so'z bilan aytganda, madaniy tadbirlarni tashkil etishdagi birinchi qadam bo'lmish ssenariyning amaldagi ijrosi (sahnalashtirish, ijodiy va tashkiliy ishlar) masalalarini tahlil etish jarayonlaridagi muammolarni hal qilish orqali yondashuv tadbirning tarbiyaviy salmog'ini yanada oshiradi. Tarbiyaviy ahamiyatga ega manbalarni manashu, ya'ni uning dramaturgiyasini yaratish jarayonidan boshlab izlash, topish kerak, desak xato qilmagan bo'lamiz.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, insonlarning ma'naviyatini oshirish, ularga ma'naviy ozuqa berish, yaxshi, farovon turmush sharoitlarini yaxshilash, o'z yurti, oilasi, kasbini sevish, ularni ilmi, bilimli, ma'rifatli, komil inson qilish va boshqa ezgu maqsadlarga qaratilgan juda ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz tomonidan ishlab chiqarilayotgan qator-qator dasturlarning asosiy mohiyati ham ana shunday ulkan maqsadlarga yo'naltirilgan. O'z navbatida, madaniyat va san'at maskanlarida faoliyat yuritayotgan madaniy-ma'rifiy ishlar xodimlarining ham bu boradagi amalga oshirish zarur bo'lgan vazifalari ko'pdir. Turli mavzulardagi tadbirlarni tashkil etish, ularni xalq ommasiga yetkazguncha tadbir tashkilotchilari ish jarayonlarini bir necha bosqichda olib boradilar. Eng birinchisi, yuqori tashkilotlardan

qaysidir tadbirni o'tkazish vazifasini oladi. So'ng mana shu tadbirni o'tkazish uchun ishchi guruhlari tuziladi. Ishchi guruhlari esa vazifalarni aniq taqsimlab oladilar va mas'ullar bilan birga ish boshlaydilar. Ijodiy va tashkiliy ishlarni bir paytning o'zida boshlagan ma'qul. Chunki, tashkiliy jarayonlar ham o'ziga xos bir necha bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin. Ijodiy ishlarni esa kechiktirmasdan bajarish lozim. Chunki ijodiy ish qanchalik ko'p ishlansa, shunchalik uning turli qirralari kashf etilaveradi.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda uning dramatik asosini badiiy jihatdan mukammal qilib tayyorlash katta ahamiyat kasb etadi. Spektaklning dramatik manbai – pyesa bo'lsa, madaniy tadbirlarda esa ssenariy yoziladi. Har qanday sahnaviy asar tomoshabin e'tiboriga havola etilgunga qadar 3ta asosiy jarayonni boshidan kechiradi, ya'ni:

1. Sahnalashtirish uchun asosiy manbani tanlash (pyesa, ssenariy, inssenirovka kabi);

2. Sahnalashtirish (barcha ijodiy jihatlar, ya'ni aktyorlarni tanlash, stol atrofida o'qish (chitka), mizanssenalar, obraz va rol ustida, rejissyorlik g'oyalari va topilmalari ustida ishlash va boshqa ijodiy ishlar);

3. Tashkiliy ishlar (professional teatrlarda va respublika miqyosida o'tkaziladigan tadbirlarda tashkiliy ishlarning deyarli ko'pchiligini ma'muriy bo'limlar bajaradilar, ammo joylarda tashkil etilgan havaskorlik teatr jamoalarida, madaniy tadbirlarni tashkil etishda bu vazifani ijodiy guruh rahbarlari o'zlari bajaradilar).

Sahnalashtirish uchun material quyidagi jihatlariga qarab tanlanadi:

1. Asar mavzusining dolzarbligi (ijtimoiy ahamiyati, zamon talablariga mos kelishi).

2. Asarning tarbiyaviy ahamiyati (har qanday ijodiy jarayonlar asosida tarbiyaviy masalalar yotishi zarur).

3. Asar qahramonlarining faol xatti-harakatlari (insonlarning har qanday to'siqlarni yengib o'tishlari va o'z maqsadlariga erishishlarini badiiy vositalarda yetkazish).

4. Aktyor-talabalarni kasb nuqtayi nazardan tarbiyalash jihatlari (madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati, aktyorlik mahorati va

rejissyorlik maktabini o'rganayotgan talabalarning fanu o'zlashtirishiga asos bo'ladigan jihatlariga qarab);

5. Buyurtma asosida (ko'pgina holatlarda asarlar buyurtma asosida sahna yuzini ko'radilar).

Spektaklning dramatik asosi pyesadir. Pyesa (fr. «riese») – butun yoki ulush so'zidan olingan bo'lib, xilma-xil sahna asarlarining umumiy nomidir. Ko'pgina teatr san'ati haqida yaratilgan adabiyotlarda dramatik manba (pyesa, inssenirovka), aktyor va rejissyor teatr san'atining asosini tashkil etadi, deb aytilgan. Bir jihatdan olib qaralganda, bu fikrga qo'shilish mumkin. Ammo bitta spektaklni sahnalashtirish uchun bir qancha san'at turlaridan foydalaniladi, undan tashqari texnik, ma'muriy xodimlar, badiiy rahbariyat, ijodiy xodimlar (masalan, birgina Alisher Navoiy nomidagi O'zbek Davlat Akademik katta teatri jamoasining umumiy soni 500 kishidan ortiq) va boshqalarning ham hissalarini haqida gapirsak, unda boshqacha fikr yuritishimizga to'g'ri keladi. Ammo ikkala holatda ham spektakl yaratish mumkin.

Dramaturgiyaning barcha qonun-qoidalariga rioya qilingan holda yaratilgan asarlar to'laqonli asarlardan hisoblanadi. Pyesa tanlangach, ijodiy guruh bilan tahlil qilinadi va sahnalashtirish ishlari amalga oshiriladi. Madaniy tadbirlarda asosiy manba ssenariy hisoblanib, u tadbirni tashkil qilishdagi ilk jarayondir.

«Ssenariy» so'zi, U.Qoraboyev o'zining «Badiiy-ommaviy tadbirlar» kitobida yozishicha, italyanча so'zdan olingan bo'lib, «asarning plani, sxemasi»ni anglatadi.<sup>13</sup> Lug'atlarda esa ssenariy:

1) kinossenariy;

2) teatrdagi qo'yiladigan dramatik asarning rejasi, sujet chizig'i, operadagi dramatik harakatning tasviri, baletda – sujetning barcha raqs va mimikalarini o'z ichiga olgan mukammal bayoni;

3) pyesada ishtirok etuvchilarning sahnaga chiqish payti va tartib ko'rsatilgan yo'l-yo'riqdir, deb izoh etilgan.

Yana boshqa manbalarda - «Ssenariy» (italyanча «Scenario» - adabiy-dramatik asar degan ma'noni anglatadi), tadbir mazmunini adabiy ta'svirlash bo'lib, bunda jiddiy ketma-ketlik asosida harakat elementlari bo'lmish mavzu va g'oya, bir bo'lakdan ikkinchisiga

<sup>13</sup> Qoraboyev U.X. Badiiy-ommaviy tadbirlar. T., «O'qituvchi», 1986. 36 b.

bezaklar, matnlar to'liq ko'rsatiladi, deb yozilgan. Ammo har qanday holatda ham ssenariy – o'tkaziladigan tadbirning to'liq yozma bayonidir, deb ta'riflash maqsadga muvofiqdir.

ssenariyni yaratishda quyidagi vazifalarni bajarish kerak bo'ladi:

- 1. tadbir o'tkaziladigan joy o'rganiladi;
- 2. mahalliy sharoitdan mavzu, tadbir g'oyasidan kelib chiqqan holda manbalar izlanadi;
- 3. hujjatli materiallar badiiylashtiriladi;
- 4. sahnaviy usullardan, foydalanish yo'llari izlanadi, ta'sirchan vositalar tanlanadi.

Rejissuraning ixtisosliklari ko'p bo'lganidek, (masalan, teatr rejissurasi, televidenie rejissurasi, radio rejissurasi, qo'g'irchoq teatri rejissurasi, ommaviy bayram va tomoshalar rejissurasi va h.k. kabi) ssenariy ham turli ixtisosliklari va tabiati bo'yicha bir qancha turlarga bo'linadi. Masalan:

1. Kino ssenariy – (badiiy filmlar ssenariysi, hujjatli filmlar ssenariysi, ilmiy-ommabop filmlar ssenariysi, qo'g'irchoq va multafilmlar ssenariysi).

2. Televizion ssenariylar – (adabiy-badiiy ko'rsatuvlar ssenariysi, publitsistik – axborot ko'rsatuvlar ssenariysi, ma'naviy-ma'rifiy ko'rsatuvlar ssenariysi, ijtimoiy-siyosiy ko'rsatuvlar ssenariysi, o'yin-kongilochar ko'rsatuvlar ssenariysi, televizion filmlar ssenariysi, musiqiy ko'rsatuvlar ssenariysi va h.k.).

3. Radioeshittirishlar ssenariysi – (ijtimoiy-siyosiy eshittirishlar ssenariysi, adabiy - badiiy eshittirishlar ssenariysi, publitsistik-axborot eshittirishlari ssenariysi, musiqiy eshittirishlar ssenariysi, ma'naviy-ma'rifiy eshittirishlar ssenariysi, o'yin-kongilochar eshittirishlar ssenariysi va h.k.).

4. Sirk tomoshalari ssenariysi – (Turli sport tomoshalari, akrobatlar, hayonlarning chiqishlari, masxaraboz va yakka nomerlar, dorbu va h.k. nomerlarining ketma-ketligidan iborat bo'ladi).

5. Madaniyad birlar ssenariysi (bu tushuncha ko'proq ommaviy bayram va tomoshalarga mos keladi) – (klublar, madaniyat uylari, maydonlarda otkaziladigan ommaviy teatrlashtirilgan tomosha, konsert, adabiy-badiiy, adabiy musiqali kompo-



zitsiyalar, marosim tomoshalari, ommaviy sport tomoshalari, suvda, muzda o'tkaziladigan tomoshalar, karnaval, xalq tomoshalari, badiiy-publitsistik kompozitsiyalar va h.k.lar ssenariylari kiradi).

Ssenariychilik mahorati asosan uchta tamoyilga tayanadi, ya'ni ijodiy kuzatishning shakllanishi (ssenariychi uchun juda ham kerak bo'lgan hayotiy materiallarni topib, ajrata olish), dramatik fikr qilishni rivojlantirish – (ssenariy ustida ishlashda zarur bo'lgan dramaning umumiy nazariyasiga rioya qilgan holda sujetlar ketma-ketligi va tadbirning kompozitsion tuzilishini to'g'ri belgilash), ijodiy tasavvur va obrazli hal etish.

Tadbirlarni tashkil etish muhim ijodiy jarayonlardan hisoblanadi. Ssenariyning yaratilishi va uni ma'lum kompozitsiya shakliga keltirish va sahnalashtirish, (tadbir tashkilotchisi rahbarligida) rejissyor va ssenaristning shu tadbir yoki tomoshani tashkil etishdagi qarashlarning mehnatlarini natijasi sifatida qaralmog'i lozim.

Birinchidan, bu ikki ijodning mohiyatini bir-biridan ajratish mumkin emas. Alohida yozilgan tayyor ssenariylar uchun ham sahnalashtirish ishlarini amalga oshirish mumkin, lekin rejissyor bilan ssenaristning birga yaratgan ijod mahsuli samaraliroqdir. Chunki rejissyor tadbir, bayram, teatr tomoshaning g'oyasini, uning ijtimoiy-siyosiy, tarbiyaviy ahamiyatini, oliy maqsadini uqtirsa, ssenarist esa badiiy estetik matnning jozibali, ifodaviy qarashlari orqali rejissyor fikrini boyitib to'ldiradi, natijada to'laqonli tadbir amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, madaniy tadbirlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tadbir tayyor jihozlangan binoda emas, balki ochiq havoda, maydonlarda, bog'(park)larda, xullas, bir so'z bilan aytganda noan'anaviy sahnaviy sharoitlarda o'tkazilishini hisobga olish zarur. Sahnaviy imkoniyatlarning yo'qligi (sahna, jihozlar, aktyorlar, chiroq, dekoratsiya va h.k.) rejissyor va ssenaristdan ishni «nob»dan boshlashiga to'g'ri keladi. Undan tashqari, doimiy repetitsiyalar o'tkazish imkoniyati kamligi, tadbirning bir martagina o'tishini, xatolarni to'g'rilashning deyarli imkoni yo'qligini hisobga olib tashkilotchi, rejissyor va ssenarist har bir chiqishlarida xatoga yo'l qo'ymasliklarini hisobga olgan holda yondashishi zarur.

Uchinchidan, ssenariy yaratilishida, rejissyor o'zining obrazli – sahnalashtirish yechimini belgilovchi rejissyorlik g'oyalari, bo'lajak

tadbirning yoʻnalishi, yaʼni yetakchi xatti-harakat, tadbir shakli, muhit va stilni aniqlab olishi lozim. Bunday rejissyorlik gʻoyalarning vujudga kelishiga - oʻtkaziladigan tadbirning aniq berilgan shart-sharoiti, yaʼni uning mavzusi, gʻoyasi va oliy maqsadi, oʻtkaziladigan joy, ijodiy guruhlarining mavjudligi, tashkil etishdagi moddiy jihatlar, hujjatlar, afsonalar va boshqalar asos boʻla oladi.

Toʻrtinchidan, ssenariy yaratilishida hujjatli, mahalliy materiallarga tayanish - tadbirning effektli, taʼsirchan chiqishini taʼminlaydi. Bunda minoralar, toshlar, daraxtlar, devor va boshqalar majoziy maʼnoda badiiy obraz shaklida namoyon boʻlishi mumkin. Real dalillar, raqamlar, buyumlar, fotorasmlar, hujjatli kinofilmlardan foydalanish, shu tadbirga aloqador qahramonlarning oʻzlarining bevosita ishtiroklari va boshqa original topilmalar tadbirning taʼsirchanligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, urf-odat, anʼana, marosim va qadriyatlarni tadbir oʻtkazilayotgan hudud muhitiga moslashtirish, ulardan unumli va toʻgʻri foydalanish va buni tadbir gʻoyasiga singdirish orqali yoshlarni qadriyatlarimizni asrash va ulugʻlash ruhida tarbiyalash ssenariy yaratishdagi eng eʼtibor qaratish zarur boʻlgan qismlardan biridir.

Oltinchidan, oʻtkaziladigan tadbir faqat soʻz, sheʼr, matndan iborat boʻlib qolsa, u juda zerikarli oʻtadi. Shuning uchun rejissyor va ssenarist soʻzning oʻrniga uning tomoshaviy ekvivalentini<sup>14</sup> (masalan, musiqali, plastik va h.k.), plastik obraz yaratish orqali, bir soʻz bilan aytganda, «soʻz» oʻrniga «harakat» bilan ifodalash vositasini topsa koʻzlagan natijalarga erishishi mumkin. Masalan, statistik maʼlumotlarni deklomatsiya sifatida namoyish etgandan koʻra, u plastik yechim, yaʼni harakat orqali namoyon etilsa, tomoshabin uchun qiziqarli boʻladi.

Yettinchidan, ssenariy yaratish jarayonida bir epizodni ikkinchi epizodga bogʻlashda «gʻoyaviy koʻprik»ni toʻgʻri tanlash muhimdir. Baʼzan bu vazifani «boshlovchilar» amalga oshiradilar. Lekin bu oddiy, sodda variantdir. Nomerlarni, epizodlarni bir-biriga sahna

---

<sup>14</sup> А.Д.Силин. Специфика работы режиссёра при постановка масс. театрализованных представлений под открытым небом и на нетрадиционных сценических площадках. М. 1986 г. 82 стр.

ortidan e'lon qilish, boshlovchilar, masxarabozlar, qo'g'irchoqlar, turli asarlar qahramonlari va boshqa obraz va vositalar orqali ham bog'lash mumkin.

Keyingi paytlarda keng miqyosda nishonlanayotgan tadbirlarda fonogrammalarni montaj qilish asosida bir-biriga bog'lashga harakat qilinyapti. Nomerlar yoki epizodlarni bog'lash vositasi bo'lmish «g'oyaviy ko'prik»ni to'g'ri belgilash - tadbirdagi ortiqcha pauzalarning oldini oladi, o'rni to'ldiradi, shuning bilan birga sahna jihozlarini almashtirish yoki keyingi nomerga tayyorlanib olish imkoniyatini beradi, eng asosiysi tomoshabinni tadbir g'oyasidan fikrini «uzilib» qolishidan saqlaydi. Shuning uchun ham «yaxshi, puxta va mukammal yozilgan ssenariy – tadbirning yarim muvaffaqiyatidan dalolat beradi».<sup>15</sup>

Hozirgi kunda respublika miqyosida o'tkazilayotgan barcha bayramlarda yurtimizning ko'zga ko'ringan ijodkorlari Abdulla Oripov, Bahodir Yo'ldoshev, Nosir Otaboyev, Baxtiyor Sayfulayev, Rustam Shamsutdinov, Rustam Hamidov, Marat Azimov va boshqalar ssenarist hamda ssenariy hammualliflari bo'lib ishtirok etib kelmoqdalar. Ular yurtimizda bo'layotgan chuqur o'zgarishlarni, O'zbekiston kelajagi buyuk ekanligiga ishonish, Vatanni sevish, o'z ishiga, Vataniga, oilasiga mehr-oqibatli bo'lish, mamlakatning rivojlanishida yoshlarning o'rni belgilash, qariyalarga hurmat e'tiborda bo'lish kabi xususiyatlarni turli badiiy vositalar orqali o'z ssenariylariga jo qilib, tomoshabinlar e'tiboriga havola etishga intilmoqdalar va buning uddasidan ham chiqmoqdalar. Ular sahnalashtirgan bayram va tomoshalari orqali O'zbekiston timsolini ko'klarga ko'tarib, uning ravnaqiga katta hissa qo'shmoqdalar.

Yuqorida qayd etganimizdek, spektakl yaratilishida asosiy manba pyesa hisoblanadi yoki boshqacha qilib aytganda, spektaklning dramatik asosi pyesadir. Rejissyor spektaklni sahnalashtirishda tayyor manba – pyesaga murojaat qiladi va sahnalashtirish jarayonlarini boshlaydi. Bu bilan spektakl sahnalashtirish juda oson ekan, degan fikrdan yiroqdamiz, zero, spektaklni sahnalashtirishning o'ziga xos murakkab jihatlari bor. Madaniy tadbirni

---

<sup>15</sup> Rustamov V. Q. Ommaviy bayramlar rejissurasi va sahnalashtirish asoslari. T., 2008.

masalan, ommaviy bayram va tomoshalarni sahnalashtirishda esa tayyor dramatik manba yo'q. o'tkaziladigan joy an'anaviy emas, unda chiroqlar, dekoratsiyalar, xullas, hech qanday sahna jihozlariyu, anjomlari yo'q. Faqat madaniy tadbirlar tashkilotchisining yuqori tashkilotlardan yoki rahbarlardan shu tadbirni o'tkazish to'g'risidagi «zakazi», ya'ni buyurtmasi bor, xolos.

Madaniy tadbir tashkilotchisining birinchi galdagi vazifasi shu tadbirga rejissyor topish va vazifani tushuntirishi kerak bo'ladi.

Rejissyor esa bu «buyurtma»ni san'at darajasiga ko'tarib, yaxlit bir «spektakl» shakliga keltirishi zarur. Nega endi spektakl shaklida, degan o'rinli savol tug'iladi. Chunki, spektaklday bo'lishi uchun uning mavzusi, g'oyasi, janri, qarama-qarshiliklar, voqealar qatori, kompozitsion tuzilishi (prolog, tugun, qarama-qarshilik, yechim), oliy maqsadi, xullas, dramaturgiyaning barcha komponentlari ishtirokini ta'minlash lozim.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda ham xuddi shu shartlarga e'tibor berish zarur. Tadbirning rejissurasidagi eng qiyin jarayon tadbirni yagona mavzu chizig'iga yo'naltirishdir. Shu mavzuga mos manbalar izlash, sahna, ya'ni tadbir o'tadigan joyni jihozlash, ishtirokchilarni to'plash, vazifalarni tushuntirish va repetitsiyani boshlashdan oldin ssenariy rejissyorning qo'lida bo'lishi shart.

Ssenariyni yozishda tadbir uchun o'tkaziladigan joyni aniqlash va uni o'rganish muhimdir. Sababi, ssenariyga kiritilayotgan barcha jihatlar shu sahna sharoitiga moslashtiriladi. Undan tashqari, tadbirda qo'llaniladigan hujjatli ma'lumotlar, harakat joyini tanlash bilan uzviy bog'liq bo'lib, mahalliy ma'lumot, odatdagidek, tomoshabinga yaqin, tushunarli bo'lib, ularga his - hayajonli ta'sir etishi shart. Shuning uchun ham ssenariy yozishdan oldin ssenariy muallifi yoki sahnalashtiruvchi rejissyor mahalliy ma'lumotlar yig'ishi, mavjud arxiv va o'lkashunoslik muzeylari bilan, u yerdagi ma'lumotlar bilan atroflicha tanishish lozim. Undan tashqari kerakli adabiyotlar o'qiydi, mahalliy aholi bilan suhbatlar quradi. Tanishuv va suhbat jarayonidagi ma'lumotlar tadbirning asosiy mag'zini belgilaydi. Ish jarayonida ssenariy bir necha marotaba o'zgarishi ham mumkin. Ertangi topiladigan yangi ma'lumot, bugungi rejani tubdan o'zgartirib yuborishi hollari ham amaliyotda bir necha marotaba o'z tasdig'ini topgan. Shuning uchun ham ijodiy ish

jarayonidagi eng qiyin vazifa – ma'lumotlarni sinchiklab tanlashdir.<sup>16</sup>

«Qiziqarli ma'lumotlar ummoni ro'parasida hovliqish va unga shaydo bo'lmaslik zarur. Bu, albatta, qiyin narsa, ya'ni tayyor ma'lumotlar dengizida cho'kib ketmaslik uchun seneriy yozuvchi bo'lajak tadbirning «qovurg'asini» ko'z oldida saqlashi, har doim uning oliy maqsadini esda tutishi zarur».<sup>17</sup> Kerakli mahalliy hujjatlar yig'ib bo'linsa, ma'lumotlarni ssenariy uchun montaj bosqichi boshlanadi. Yana shuni unutmaslik kerakki, ssenariy muallifi mahalliy ma'lumotlarni, ya'ni voqea-hodisalarni o'zgartirmasdan, tarixda bo'lmagan voqealarni kiritishi, hujjatdagi dalillarni o'zgartirishi mumkin emas. Faqat sinchiklab tanlash va montaj jarayonida uning aniq fuqarolik nuqtayi nazari katta rol o'ynaydi. Ayrim holatlarda umumiy xulosa aniqlikdan - tipiklikka, noqonuniylikdan - qonumiylikka o'tishi, bu – hujjatlar montajidagi prinsipial zaruratdir. Bu ijodkorning amaliy ishida dalildan obraz tomonga yo'ldir, ya'ni hujjatni badiiy ishlab chiqish, uni badiiy tasvirlashdir.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, muvaffaqiyatli saralangan, aniq montaj qilingan va mohirlik bilan shoirona tus berilgan hujjat ssenariyda va ommaviy teatrlashtirilgan tadbirda eng harakatchan, eng kuchli taassurot tug'diradigan vositaga aylanadi.

Ssenariyni 3 xil toifaga ajratish mumkin, ya'ni oddiy ssenariy (mavjud materiallarni ketma-ketligi belgilanib, boshqaruvchi bog'lovchi sifatida ishtirok etadi), yig'ma ssenariy (turli xil ssenariylardan ishlatilgan materiallardan foydalangan holda yoziladi) va original ssenariy (tomoshabin ko'z oldida o'zi kutmagan turli burilishlarga, to'qnashuvlarga, hissiyotlarga duch keladi va natijada u zerikmaydi, tadbirdan estetik zavq oladi). Barcha joylarda tadbirlar turli shakllarda o'tkaziladi. Tomoshabinning ko'z o'ngida o'zi orzu qilgan shart-sharoitlarni yaratish, tasavvuridagi ruhiyatga erishish ssenaristning yelkasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Original ssenariy yaratish barcha ssenarist-

---

<sup>16</sup> J.Mamatqosimov. «Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati». T.: «Fan va texnologiya», 2009.

<sup>17</sup> Dushamov J. Ommaviy tadbirlar rejissurasi T.2002.

larning qo'ldan kelavermaydi. Buning uchun ssenaristning dunyoqarashi keng, saviyasi o'ta kuchli va yuqori darajada bo'lmog'i lozim. Shuning uchun ham sahnalashtirish, ya'ni rejissyorlik faoliyatda ssenarist bilan ishlash jarayoni eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

Ssenariyning kompozitsion tuzilishini to'g'ri belgilashda ssenarist, ayniqsa rejissyor juda sinchkov bo'lishi zarur. Chunki ssenariyning kompozitsion tuzilishi tadbir yoki tomoshaning yaxlitligini ta'minlaydi. «Kompozitsiya» deyilganda, san'at asarlarining tuzilishi, ichki elementlarining ma'no jihatdan o'zaro bog'lanishi, mantiqan joylashishi va birlashishi tushuniladi.

Kompozitsion tuzilish quyidagi bo'laklardan iborat bo'ladi. Adabiy asarda voqeaning boshlang'ich qismi muqaddima, ekspozitsiya yoki kirish, rejissura sohasida esa xatti-harakat bilan bog'liq bo'lganligi uchun *prolog* deb nomlanadi. Demak, *kirish (prolog), tugun, voqealar rivoji, kulminatsion nuqta, yechim* - adabiy va dramatik asarlarning kompozitsion tuzilishini tashkil etadi. Ba'zan tadbir ssenariysining kompozitsion tuzilishini prolog, epizodlar qatori va final bilan belgilash mumkin. Chunki ko'pgina bayram, tomosha, teatrlashtirilgan konsert va boshqa tadbirlarda voqea bir mavzu ustida emas, bir necha epizodlardan iborat bo'lib tashkil qilingan bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham har qanday bayram yoki tomosha ssenariysining kompozitsion tuzilishini to'g'ri belgilash o'tkazilayotgan tadbirning mohiyatini to'laqonli yoritib berishga xizmat qiladi.

Hayot turli qarama-qarshiliklardan iborat. Dramaturgiyada ham qarama-qarshiliklarsiz yozilgan ssenariylar bizning nazarimizda juda zerikarli bo'lib, tomoshabinni qiziqтира olmaydi. Ular ichki, tashqi, tor ma'nodagi va keng ma'nodagi qarama-qarshiliklar turlariga bo'linadi.

Ichki qarama-qarshilik qahramonlarning ichki, psixologik, ruhiy xatti-harakatlari orqali namoyon bo'ladigan tushuncha. Tashqi qarama-qarshilik esa qahramonlarning tashqi fizik, jismoniy xatti-harakatlari orqali namoyon bo'ladi.

Tor ma'nodagi qarama-qarshilik juda kichik mashtabda amalga oshirilgan ziddiyatlar tushuniladi. Masalan, Tohir bilan Bobur urishib qolishdi. Keng ma'nodagi qarama-qarshilik esa - ziddiyatlar

ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Demak, to'qnashuv ham dramaturgiyaning muhim jihatlaridan hisoblanadi.

Ssenariyning badiiy jihatdan mukammalligi va pishiqligiga erishish – tadbirning yuqori saviyada o'tishiga kafolatdir. Rejissyor va ssenaristning izlanuvchanligi tadbirning tempo-ritmini saqlab turishda ham muhim rol o'ynaydi.

Ssenariyda asosiy ifoda vositalarini - obrazli yechim, original usullar, teran matn va mahorat bilan qurilgan kompozitsion tuzilishlarda kuzatilishi mumkin. Bunga 1998-yilda o'tkazilgan teatrlashtirilgan «Futbol–shou» dasturi (rej. B.Sayfullayev tomonidan yozilgan) ssenariysini misol tariqasida keltirish mumkin. Unda yurtimizning mashhur qiziqchi va estrada xonandalaridan iborat san'atkorlarning mohir futbolchilar bilan maydonga tushishining o'zi bir o'zgacha topilmadir. Chorlov musiqasi yangragach, sahnaga diametri ikki metrga yaqin keladigan ramziy futbol to'pining maydon uzra yengil xatti-harakatlari tomoshabinda chuqur taassurot qoldirishini ssenariy yozilishidayoq payqab, uni qanday ifodalash yo'llari izlangan. To'pni harakatlantirishning turli variantlari o'ylab ko'rildi. Oxiri bir to'xtamga kelindi, ya'ni bitta aktyorga xuddi maska shaklida boshiga moslab kiydirildi va u sahna uzra tez harakat qilib, turli plastik harakatlar orqali tomoshaning prolog qismini boshlab berdi.

Inssenirovkalar odatda, ko'proq spektakllarni sahnalashtirish uchun qilinishi hammamizga ma'lum. Ammo, inssenirovkalar madaniy tadbirlarda ham unumli qo'llanib kelmoqda. Tadbirlarni tashkil etishda tayyor dramatik manbalar juda kam bo'lganligi bois, tadbir tashkilotchilari inssenirovkaga murojaat qilishadi.

*Inssenirovka.* Madaniy tadbirlarni tashkil etishda ko'pincha dramatik asrlarga muhtojlik sezilib qoladi. Ammo, o'tkaziladigan mavzuga mos tayyor dramatik asarning yo'qligi tadbir tashkilotchilarini o'ylantirib qo'yadi. Shuning uchun ham sahnalashtirish uchun asar tanlanayotganda faqat dramatik, tayyor pyesalarga emas, balki adabiyotning barcha turlariga murojaat qilish ham mumkin. Buni badiiy asarlarni inssenirovka qilish orqali bajarsa bo'ladi. Ko'pgina dramatik bo'lmagan asarlarni sahnaga qo'yishga ehtiyoj tug'ilganda inssenirovka usuli qo'l keladi.

*Inssenirovka* – lotinchadan olingan bo‘lib, biror asarni sahnaviy qilib o‘zgartirish, sahnaga qo‘yish uchun moslashtirish degan ma’noni bildiradi. Lug‘atlarda, inssenirovka – adabiy asarlarni teatr uchun qayta ishlash, deb berilgan.<sup>18</sup>

Inssenirovka bu – badiiy asarni dramatik asarga aylantirishdir, ya’ni sahnaga moslashtirilgan holda yoziladi. Inssenirovka qilinganda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. Asar to‘liq o‘qib chiqilib, uning mazmuni va mohiyati o‘rganiladi.

2. Asardagi muallif tomonidan berilgan so‘z, ta’riflar, xullas ifodalash qahramonlarga bo‘lib beriladi.

3. Asardagi qahramonlar aniqlanadi, ularga so‘z, matnlar bo‘lib beriladi.

4. Monolog va dialoglarga ajratiladi.

5. Sahnalashtirishning barcha qonuniyatlariga tayanadi.

Inssenirovka qilinayotganda asarning ichki mazmunini to‘g‘ri tushunish kerak. Aks holda inssenirovka qilingan asarning mazmuni buzilishi mumkin.

Bir qancha sahna asarlari inssenirovka qilish orqali sahna yuzini ko‘rgan. Masalan, Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» romani ham inssenirovka qilinib, rejissyor Bahodir Yo‘ldoshev tomonidan sahnalashtirilgan. «Kelinlar qo‘zg‘oloni» asarning ham avvalgi shakli «hikoya» bo‘lgan. U ham inssenirovka qilinib sahnalashtirilgan, ya’ni komediyaga aylantirilgan.

Inssenirovka mavzusiga to‘xtalganimizning boisi – ko‘pgina hollarda oliygohlar, tashkilotlarda «zakaz» bilan ssenariylar yozishga to‘g‘ri keladi, masalan, institutlararo «Quvnoqlar va zukkolar» ko‘rik tanlovini olaylik. Ko‘rik tanlovda berilgan shartlar uchun tayyor dramatik asarlar deyarli yo‘q. Bunday holatlarda adabiy asarlarni inssenirovka qilish usullariga tayanish mumkin. Yoki Alisher Navoiyning tavallud topgan kuniga bag‘ishlab, «She’riyat mulkinging sultoni» deb nomlangan tadbir o‘tkazilishi kerak bo‘lsa ham ifodalashning turli vositalaridan foydalanib, inssenirovka qilingan holda ssenariylar yaratishga to‘g‘ri keladi.

---

<sup>18</sup> S.E.S.A.Proxorov tahriri ostida. M., 1990y, 506bet.



San'atning asosini tarbiya tashkil etadi. Sahnadan turib aytilgan har so'z tomoshabin uchun qonuniyatga aylanib qoladi, ya'ni tomoshabin qahramonni gaplariga ishonadi, undan o'ziga kerakli ma'naviy madad oladi. Shuning uchun sahnadan turib qilingan barcha xatti-harakatlar haqqoniy tarzda amalga oshirilishi kerak.

Yoshlarni tarbiyalashda davlatimiz tomonidan turli vazifalar belgilangan. Ana shulardan bittasi teatr san'ati tomonidan amalga oshiriladigan ishlar haqida yuqorida qayd etgan edik. Haqiqatan ham tarbiya vositalari ichida sahnalashtirish san'atining roli boshqa san'at turlariga qaraganda ancha kattadir. Chunki sahna tomoshabin bilan aktyorlarning yuzma-yuz uchrashuvini amalga oshiruvchi vositachilardan biridir, deb aytish mumkin.

Insenirovka usulidan foydalanish rejissyorga o'zi xohlagan mavzuga murojaat qilishiga imkoniyat beradi. Ammo har qanday holatlarda, har qanday ijodiy ishlarda o'zgartirish va yangiliklar kiritishda mualliflik huquqlari me'yorlari va dramaturgiya qonuniyatlariga rioya qilinishi shart. Madaniy tadbirlarning shakli bir tomondan teatr xususiyatlarini namoyon qilsa, sujet qurilishi, ssenariy yozish usullari jihatdan kinodramaturgiya prinsipiga suyanadi. Hujjatli ssenariyning nazariy va amaliy asoslarini ilmiy-ommabop yo'l bilan hal etishda monolog va dialoglar, remarka, qatnashuvchilar ssenariyda namoyon bo'ladi. Demak, ssenariy muallifi kinodramaturgiya, radiodramaturgiya va teledramaturgiya, insenirovkalarga tayanishi tabiiydir. Madaniy tadbirlar dramaturgiyasida notiqlik san'ati, tasviriy san'at, musiqa san'atining qonun-qoidalariga katta e'tibor talab etiladi. Madaniy tadbirlar ssenariysini yaratishda musiqa va tadbir mazmuniga singdirilgan qo'shiqlarni tanlashga katta e'tibor berish kerak. Chunki kuy va qo'shiqlar his-hayajon uyg'otishdan tashqari, tadbirdagi mavzuli epizodlarni bir-biridan ajratish yoki bog'lash uchun ham xizmat qiladi.

Ssenariyning tili ravon, obrazli va ta'sirchan bo'lsa, tadbir tomoshabin qalbiga kiradi. Madaniy tadbirlar dramaturgiyasi – ssenariyda xalqimizning milliy g'oyasini hisobga olishi shart. Shunday ekan yuqoridagi barcha talablar tadbir uchun tanlangan materiallarni badiiylashtirish jarayonida, ya'ni insenirovka holatiga keltirishda e'tiborga olinmog'i lozim.

«Inssenirovka» soʻzi turli manbalarda har variantlarda berilgan. Masalan, baʼzi manbalarda «inssenirovka» - «sahnada» soʻzidan olingan boʻlib, ikki maʼnoda qoʻllanadi.

1. Drama shaklida yozilmagan adabiy asarni sahnada qoʻyishga moslab qayta ishlash, bunday asarni radioda, televideniye yoki teatrdan qoʻyilishiga qarab, radioinssenirovka, teleinssenirovka deb yuritiladi. Inssenirovka adabiy asarning oʻz muallifi tomonidan ham boshqa shaxslar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Adabiy asar inssenirovka qilinganda, sahnaga moslashtirib baʼzan uning sujetiga oʻzgartirishlar kiritish mumkin. Inssenirovka XIX-XX asrlarda ayniqsa keng taraqqiy etdi. Bunga A.Qahhor, G.Gʻulom, H.Olimjon, T.Malik, P.Qodirov, O.Umarbekov kabi ijodkorlarning koʻplab asarlari misol boʻla oladi.

2. Tarixiy voqealarning epizodlari asosida 1920-yillarda yuzaga kelgan va keng tarqalgan ommaviy-tashviqiy teatr shakllaridan biri, deyilgan.<sup>19</sup>

Teatrlashtirilgan kichik nasriy asarlar ssenariy mazmunini boyitadi. Hatto tomoshabinga havola etilayotgan voqea, mavzu gʻoyani qiziqarli vositasi boʻlib xizmat etadi.

Shu oʻrinda «inssenirovka qanday paydo boʻlgan?» degan savol tugʻiladi. Bu savolga mantiqan oʻylab, javob beradigan boʻlsak, inssenirovka teatr sanʼati paydo boʻla boshlagan davrdanoq rivojlana boshlagan. Teatr uchun ilk yozilgan pyesalar ham inssenirovka asosida shakllangan. Tarixdan maʼlumki mashhur dramaturglar ham pyesa yaratishdan oldin ilk mashgʻulotlarini inssenirovkalar ustida ishlash bilan boshlagan. Hayotiy bir misol: Oʻzbek Milliy teatrining yetakchi dramaturgi Erkin Hushvaqtoev ham ilk sahnaviy ijod mahsulini buyuk adib Abdulla Qodiriyning «Oʻtkan kunlar» romani inssenirovkasidan boshlagan. Mazkur ishning yutugʻidan ilhomlangan dramaturgning «Chimildiq», «Qalliq oʻyin», «Qirmizi olma», «Andishali kelinchak» kabi pyesalari inssenirovka qilish jarayonida orttirilgan tajribaning ijodiy mevasidir.

Madaniy tadbirlarda qoʻllaniladigan inssenirovkani shartli ravishda uch turga ajratishimiz mumkin. Ular quyidagilar:

---

<sup>19</sup> J.Mamatqosimov, «Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati». T.: «Fan va texnologiya». 2009.

1.Oddiy inssenirovka – bunda kichik bir adabiy asar olinadi va asar mazmunidan kelib chiqib dramatik shaklga keltiriladi.

2.Yig‘ma inssenirovka – bunda bir qancha kichik hajmdagi badiiy asarlar olinib, ularni mazmunan va g‘oyaviy ko‘prikchalar orqali bir-biriga bog‘lab dramatik asar shakliga keltiriladi.

3.Murakkab inssenirovka – bunda biror bir katta badiiy asar olinib, undagi voqea-hodisalarni bir sahnaga moslashtirib dramatik asarga aylantiriladi. (masalan, Pirmqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» asari).

Rejissyor qaysi davrda xoh u spektakl, xoh u bayramda ijod qilmasin, pyesa va ssenariyning asosi sifatida tarixiy hujjatlar, arxiv ma‘lumotlariga suyanadi. Hujjatli va tarixiy ma‘lumotlar asosida badiiy-ifodaviy vositalar orqali yoritilgan sahnaviy asarlar tomoshabinga kuchli ta‘sir etib, hayotiylik prinsipiga asoslanadi.

Inssenirovka mavzusini yanada tushunarli bo‘lishi uchun quyidagi misolni keltirib o‘tish mumkin:

*Sovuq qish kunlarining birida er va xotin bozorga chiqmoqchi bo‘ldilar. Ko‘cha juda sovuq, yo‘llar qorning ko‘p yoqqanligidan ko‘rinmay qolgan, daraxtlar esa xuddi oq ko‘ylaklarini kiyib olgandek qimirlamay turardi. Uzoqdan avtobus ko‘rindi.*

Buni inssenirovka qilish uchun remarka berish mumkin: Remarka – bu avtor tomonidan beriladigan izoh. Ya‘ni:

*Sahnada qish tasvirlangan dekoratsiya. O‘ng tomonda avtobuslarning to‘xtash joyi. Er-xotin chiqib kelishadi.*

Er: Kunning sovuqligini qara, onasi!

Xotin: Nimasini aytasiz, yo‘llar qorning ko‘p yoqqanidan ko‘rinmay qolibdi, daraxtlarni aytmaysizmi, xuddi oq ko‘ylaklarini kiyib olganga o‘xshaydi.

Er: Qara, avtobus kelyapti!

Xuddi shu tariqa muallif (yozuvchi)ning so‘zlari ijrochilarga bo‘lib beriladi. Ammo tadbirning boshidan oxirigacha inssenirovka qilingan asrni to‘liq qo‘yish shart emas. Asosiy mag‘zini olib, tadbirning kerakli joyida qo‘yishni bilish ham o‘ziga xos mahoratdir.

Bir so‘z bilan aytganda, inssenirovkadan samarali foydalanish madaniy tadbirlarning badiiy qiymatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, sahnaning dramatik asosi bo‘lmish pyesa, ssenariy yoki inssenirovkalarining sahna yuzini ko‘rishida

rejissyorning ijodiy guruh bilan olib borgan faoliyati asarning sahnada qancha umr ko'rishini belgilaydi. Sahnada tayyor bo'lgan mahsulotni o'simlik yoki niholga o'xshatish mumkin. O'simlikni yerga eksang, u yerning tafti bilan ko'karadi. Ammo unga suv, o'g'itlar va boshqa minerallar vaqtida berilmasa yoki parvarish qilinmasa, nihol nobud bo'lishi mumkin. San'atda ham xuddi shunday. Dramaturgning asarini olib kelib uning quruq matnini ijro qilib bergani bilan u spektakl yoki tomosha bo'lib qolmaydi. Unga turli badiiy, ifodaviy va ta'sirchan vositalarni o'ylab topish va qo'llashi lozim.

### **Nazorat savollari:**

- 1. «Ssenariy» so'zining lug'aviy ma'nosi nima?*
- 2.Ssenariy turlarini aytib bering.*
- 3.Tadbirlar ssenariysi kinossenariydan qanday farq qiladi?*
- 4.Pyesa, spektakl, ssenariy va tadbir tushunchalarini izohlang.*
- 5.Inssenirovka deganda nimani tushunasiz?*
- 6.Inssenirovka qilish qanday amalga oshiriladi?*
- 5.Dramaturgiya tushunchasi.*

### **Mustaqil ish uchun mavzu va vazifalar:**

- 1. «Ssenariy» tushunchasi va uning turlari.*
- 2.Madaniy tadbirlar dramaturgiyasining o'ziga xosligi.*
- 3.Mavzular bo'yicha ssenariy rejasini tuzing.*
- 4.Biron-bir hikoyani tanlab, uni inssenirovka qiling.*
- 5.Mavzular bo'yicha ssenariy yozing.*
- 6.Ssenariyning kompozitsion tuzilishi.*

### **Bayramlar-madaniy tadbirlar turlaridan biri sifatida**

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, bayramlarni tashkil etishga bo'lgan e'tibor judayam kuchaydi. Bayramlar madaniy tadbirlarning asosiy bo'laklaridan biri sifatida yurtimizning barcha xonadonlarigacha kirib bormoqda. Madaniyat muassasalari va

san'at maskanlarida, umuman, san'at yoki madaniyat sohasiga tegishli bo'lmagan tashkilotlarda ham bayramlarni yuqori saviyada tashkil etishga katta e'tibor berilmoqda. Buning uchun albatda bayram o'tkazishning tashkiliy guruhi tuzilib, ijodiy va tashkiliy jarayonlar boshlanadi.

Bayramlar xalqning xursandchiligi, shodu xurramligini o'zida aks ettiruvchi tadbirlar turiga kiradi. Har bir xalqning tarixiy taraqqiyot davomida shakllanib kelgan o'z bayramlari bo'ladilar. Ularni o'tkazish va tashkil qilish usullari yildan-yilga o'zgarib, yangilanib, zamonaviylashib boraveradi. Bayramlar o'tkazilish jihatidan sintetik shaklga ega bo'lib, uni tayyorlashda tarixiy shaxslar, xalq qahramonlarining timsollari ishtirokidagi sahnalar ko'rinishlar, teatrlashtirilgan lavhalar, fan, madaniyat, san'at arboblari bilan uchrashuvlar, konsert dasturlari, spektakllar, dorboz va qiziqchilarning chiqishlari, sport o'yin va musobaqalari, turli amaliy, tasviriy san'at asarlari, shuningdek, bolalar texnik to'garaklari ishtirokchilari tomonidan yasalgan texnik vositalarining ko'rgazmalari kabi ko'plab shakl va usullarini birlashtiradi.

Bayramlar kishilar hayotidagi eng quvonchli, hissiyotli damlar, xushkayfiyatchog'lar, birdamlik, mehr-oqibat, kelajakka ishonch tuyg'ularini o'zida qamrab olgan buyuk bir ijodiy va tashkiliy jarayondir.

Bayramlar o'z-o'zidan bayram shakliga kelmaydi, uni tashkil etish kerak. Kishilar imkoniyatini hisobga olib, zamon talablaridan kelib chiqib, milliylik, urf-odat, an'analarga sodiq qolgan holda, mavzu va g'oya uyg'unligida tashkil etilgan bayram va tomoshalar yuqori darajada o'tkazilgan tadbirlardan hisoblanadi. Chunki insonlar bayramlarga madaniy hordiq chiqarish uchun, bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish uchun, estetik zavqlanish, kayfiyatini ko'tarish va boshqa ijobiy xislatlarni jo qilish uchun keladi. Bu esa uning ertangi kundagi amalga oshiradigan ijobiy ishlariga qiziqishini yanada orttirishga, o'z mehnatidan zavq olishiga, mehnat unumdorligiga erishishiga, oilasi, Vatanni sevishga, ijtimoiy hayotga munosabatini yaxshilik tomonga o'zgartirishiga olib keladi.

Bayramlarni tashkil etishning asosiy maqsadi ham shunga qaratilgan.

Maydon tomoshalarida bayram rahbari va bosh rejissyor rahbarligida yuzdan ortiq turli toifa sahnalashtiruvchi ijodkorlar – ommaviy tomoshalar bosh rejissyorlari, bosh baletmeyster, badiiy lavhalar bosh baletmeysterlari, orkestrlar va ansambllar rahbarlari, muvofiqlashtiruvchi rejissyorlar, sahnalashtiruvchi rejissyorlar, shuningdek qator sahnalashtiruvchi baletmeysterlar, rassomlar, suxandonlar, ovoz rejissyorlari, ovoz operatorlari, ijodiy-tashkiliy guruh, liboschilar, pardozlovchilar, texnik ta'minotchilar bayramni tayyorlash va o'tkazishdek sermashaqqat ishni amalga oshiradilar.<sup>20</sup>

Bayramlarni tashkil etish uchun rejissyor va uning atrofidagi sahnalashtiruvchi, ishchi guruhlarning hamfikrligi, ularning dunyoqarashlarining bir-biriga mos kelishi va bir-birlarini to'ldirib borishlari va eng asosiysi bayramning mohiyatini keng xalq ommasiga yetkazib berish masalasidagi ularning hamjihatligi ayniqsa muhimdir.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, har qanday bayramni to'g'ri tashkil etish rejissyorning nuqtayi nazari, dunyoqarashi, uning saviyasi va tashkilotchilik qobiliyatining darajasiga bog'liq.

Bayramlar to'g'risidagi fan «eortologiya» – (yunoncha «eorto» bayram va «logos» o'rganish) deb ataladi.<sup>21</sup>

Ushbu sohani o'rganish boyicha Rossiyada I.Snegiryov, I.Saxarov, F.Buslayev, A.Afanasev, Ye.Anichkov kabi olimlar tarix, filologiya va falsafa, K.A.Mardjanov, D.M.Genkin, I.M.Tumanov va boshqalar mutaxassislik nuqtayi nazardan izlanganlar.

Sharq mutafakkirlari Firdavsiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Behbudiy, Fitrat kabi olimu ulamolar ham bayramlar va uning tashkil etilishi to'g'risida, bayramlarning ijtimoiy hayotdagi o'rni va roli haqida turli nuqtayi nazar bilan qaraganlar va o'z fikr va mulohazalarini meros qilib qoldirganlar.

Bayram yoki tomoshani tashkil etishda bitta tashkilotchining o'zi muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Bayram tashkilotchisining asosiy vazifasi shundan iboratki, u o'z atrofiga fikri teran, dunyoqarashi keng, o'z sohasini yaxshi biladigan, o'z ishiga

<sup>20</sup> O'zbekiston san'ati (1991-2001-yillar). O'zbekiston badiiy akademiyasi san'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti. T., Sharq. 2001. 195 b.

<sup>21</sup> Немиро О. Праздничный город. - JL, 1987. стр. 9.

mas'uliyat bilan qaraydigan, Tashkilotchi (rejissyorning) fikri, g'oyasi, oliy maqsadi, nuqtayi nazarini bir qarashda ilg'ab oladigan, tushunadigan ijodkorlar ansamblini yig'ib olishi kerak.

«Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati» o'quv qo'llanmasi bayramlarni madaniy tadbirlarning ma'lum bir bo'lagi sifatida o'rganib, ushbu sohaning amaliy va nazariy jihatlarini o'zlashtirish orqali, bayram va tomoshalarni tashkil etish, bayramlarga oid manbalarni tahlil qilish, umumlashtirish asosida vujudga keldi. Shunday ekan biz «bayram», «tomosha», «tadbir» tushunchalarini bir-biridan ajratib olishimiz zarur.

Bayram deganda, hayotdagi muhim voqea, sanani ko'tarinki ruhda, xursandchilik bilan nishonlash tushuniladi, ya'ni «bayram» turkcha so'zdan olingan bo'lib to'y, marosim, xursandchilik degan ma'noni anglatadi.

Tomosha— tomoshabin ko'z oldida namoyish etilgan, yuqori saviyada badiiy jihatdan bezatilgan, effektli ijro uslublaridan mohirona foydalanilgan, tomoshabin ko'rib estetik zavq oladigan va bevosita shu tadbirda ishtirokchiga aylanadigan madaniy tadbirdir.

Tadbir esa ana shu bayram va tomoshalarning u yoki bu darajada tashkil etilishidir. U ma'lum sanaga, ma'lum bir mavzuga va boshqa jihatlariga bag'ishlangan bo'lishi ham mumkin. Lekin bu uchta tushunchani bir-biridan alohida-alohida ajratmaslik ham mumkin, chunki bular hamisha bir-birlarini to'ldirib turadi.

Hozirgi kunda quyidagi bayramlar asosiy (tub) umumxalq bayramlari hisoblanib, yurtimiz aholisi tomonidan keng nishonlanib kelmoqda. Bular: 1-yanvar (Yangi-yil), 8-mart (Xotin-qizlar kuni), 21-mart (Navro'z bayrami), 9-may (Xotira va qadrlash kuni), 1-sentabr (Mustaqillik kuni), 1 oktabr (O'qituvchi va murabbiylar kuni), 8- dekabr (Konstitutsiya kuni) hamda Ro'za va Qurbon hayitining birinchi kunlaridir. Undan tashqari kasb, tabiat, oilaviy bayramlar, turli yubiley tantanalari va boshqa bayramlarimiz borki, unda madaniyat va san'at sohasida xizmat qiladigan har qanday xodimga muhtojlik seziladi, ya'ni bu soha bilan shug'ullanuvchilarga yil davomida mashg'ul bo'ladilar, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, madaniyat va aholi dam olish markazi xodimi (madaniy tadbirlar tashkilotchilari) yil o'n ikki oy aynan mana shu ishlarni bajarib keladilar. Bularning ichida eng ko'p o'tkaziladigan

bu – bayramlarimizdir. Tadbirlar bir kunda o'tib ketsa ham uni «san'at» darajasiga kelgunicha ularning ancha ter to'kib mehnat qilishlariga to'g'ri keladi. Bitta bayramni tayyorlaguncha oylab vaqt ketadi. Tadbirning ssenariysini yaratish, ijodiy jamoalarni yig'ish, boshlovchilar bilan ishlash, sahna ko'rinishlarini tayyorlash, ansamblarni jalb qilish, sahnani bezash, repitisiyalarni o'tkazish va boshqa tashkiliy ishlar tadbir tashkilotchisini bir zumga ham bo'sh qo'ymaydi. Yangi yildan tortib, Vatan himoyachilari kuni, Hazrat Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Amir Temur, Zulfiyaxonim, Muhammad Yusuf (va h.k.)larning tavallud kunlari, Xotin-qizlar, Navro'z bayramlari, Kulgu kechalari, Xotira va qadrlash, Bolalar kuni, Xalqaro SPIDga qarshi kurash kuni, Mustaqillik, Ustoz va murabbiylar, Konstitusiya, Til bayramlari, Talabalar kuni va boshqalarni tashkil etish va o'tkazishda madaniyat va san'at sohasi xodimlariga katta bilmi, tajriba va mahorat maktabi kerak bo'ladi.

Bayramlar insonlarning ko'ngildagidek dam olishlarini uyushtirish, san'atning ko'plab turlariga qiziqishlarini orttirishi, ularda o'z yurti, uning go'zalligi, ona xalqiga bo'lgan muhabbatini oshirilishi, eng asosiysi, ularning bayram tadbirlari dasturlarida ishtirok etishlari bilan katta ahamiyatga egadir. Har bir bayramni tashkil qilish va o'tkazishdan biron-bir maqsad bo'lib, tadbirni tayyorlovchi mutaxassislar hamda tashkilotchilar tomonidan bayram dasturlari yagona maqsad tizimiga terib chiqiladi, bayramda tashkil qilinadigan turli xil ko'rinishdagi barcha tadbirlar asosiy maqsadga bo'ysundiriladi. Shuningdek, bu tadbirlarning barcha shakllari kabi bayramning ham o'tkazilishi jihatidan o'z vazifasi bo'lib, albatta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

Madaniy tadbirlarni tashkil etish uchun qaysi sohalarga e'tibor berishimiz kerak, degan savolga javob berish asnosida mavzuni davom ettirish mumkin.

Eng avvalo tadbir dramaturgiyasi, ya'ni ssenariysini yaratish;  
ikkinchidan, tadbirning badiiy bezagi;

uchinchidan, san'atning barcha turlaridan, jumladan, musiqa, raqs, teatr va boshqalardan unumli foydalanish;

to'rtinchidan, tadbirlarda badiiy jamoalar, fon guruhlari, ishtirokchilar, aktyor, xonandalar bilan ishlash.



bashinchidan, tashkiliy jarayonlarni amalga oshirish, masalan, kostyumlar tanlash, texnik vositalardan foydalanish va boshqa bir qator hal qilinishi lozim bo'lgan ishlarni amalga oshirish talab etiladi.

O'zbekiston bayramlarga boy mamlakat. Hozirgi kunda Xalqaro va Respublika miqyosida keng nishonlanayotgan bayramlarimizning yuqori saviyada tashkil etilayotganligi hukumatimizning bayramlar va ularni tashkil etishga bo'lgan katta e'tibori mahsulidir. Bu e'tibor o'z o'rnida har qanday tadbir tashkilotchisi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Xulosa qilib aytganda, bayramlarimiz yurtimizning muvaffaqiyatlarini jahonga tarannum qilishida muhim rol o'ynaydi.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. *«Bayram»lar tushunchasi.*
2. *«Eortologiya» qaysi sohani o'rgatadi?*
3. *Bayramlar turlarini sanab bering.*
4. *Madaniyat va aholi dam olish markazlarida bayramlar qanday tashkil etiladi?*
5. *Bayramlar haqida buyuk mutaffakkir va allomalarimiz qanday fikrlarni berganlar?*

### **Mustaqil ish uchun mavzu va vazifalar:**

1. *Bayramlar tushunchasi va turlari.*
2. *Bayramlarni tashkil etishning o'ziga xosligi.*
3. *Siz istiqomat qilayotgan hudud (viloyat, shahar, qishloq)da bayramlar qanday tashkil etiladi?*
4. *Bayramlarni tarbiya vositasi sifatida qaralishiga qanday izoh berasiz?*
5. *Biron-bir bayramning ssenariysini tuzing.*

### **Madaniy tadbirlarda ijodiy (badiiy) jamoalar bilan ishlash**

Madaniy tadbirlar bir qancha san'at turlarining ishtirokida tashkil etiladi. Unda musiqa san'ati, raqs, badiiy bezak, rejissura, ijodkorlik mahorati, turli jamoalarning chiqishlari va boshqalarning

ishtirokida tashkil etilishi haqida yuqorida aytib o'tgan edik. Bitta tadbirda bir qancha san'at turlarining sintezidan foydalanamiz. Madaniy tadbirlarda eng ko'p faoliyat yuritadigan badiiy jamoalardan biri bu havaskorlik teatr jamoalaridir. Xalq orasidan chiqqan, iqtidorli, talantli yigit-qizlar joylarda havaskorlik teatr jamoalarini tuzib, birmuncha katta yutuqlarga ham erishganlar. Ular joylarda tashkil etiladigan madaniy tadbirlarning eng faol ishtirokchilari hisoblanib, tadbir ssenariysini tayyorlashga yordam beradilar, boshlovchilik qiladilar, turli sahna ko'rinishlarini tayyorlaydilar, bir so'z bilan aytganda tadbirni asosiy og'irligini o'z zimmasiga oladilar. Shahar sharoitlarida professional teatr jamoalarining faoliyatidan foydalanish mumkin. Ammo ba'zi bir viloyatlarning chekka qishloq joylarida asosan havaskorlik jamoalarining faoliyati asqotadi. Turli ansambllar, ijodiy guruhlar bilan ish olib borishda tadbir tashkilotchilari ular bilan ishlash usullarini aniq reja va jadval asosida tashkil etishlari lozim. Tadbirda qatnashadigan ijodiy guruhlarini repertuarlari bilan tanishish, tanlash, ma'qul kelganini ustida yana ishlash, tozalash ishlarini tadbir tashkilotchisi vaqtni to'g'ri taqsimlagan holda amalga oshirishi zarur. Chunki, hamma guruhlarini bir vaqtga chaqirib qo'yib, ularni vaqtini bekorga olmaslik uchun tadbir repititsiyalarini boshlashdan oldin ularni alohida-alohida eshitib, ko'rib, repertuarni tasdiqlagandan so'nggina ularni bir paytga chaqirib ishlash kerak. Ko'pgina holatlarda hammani repititsiyaga chaqirib qo'yishadi-da, kimdir kelmay qolgan bo'lsa o'shani kutib o'tiraveradilar. Bunday holatda tadbir tashkilotchisi tadbirning o'ta muhimligini, mohiyatini tushuntirishi va har qanday jamoa san'atda «temir intizom»ni yo'lga qo'ymog'i birinchi galdagi vazifalaridan hisoblanadi.

«Badiiy ijodiy jamoalar deganda, o'z tarkibida bir nechta ijodiy guruhlariga umumiy rahbarlik qiladigan, madaniyat va san'at sohasining turli yo'nalishlari bo'yicha mamlakatimiz aholisiga madaniy xizmat ko'rsatishni muvofiqlashtiradigan hamda madaniy-ma'rifiy va ijodiy-ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etadigan badiiy ijodiy jamoalar birlashmasi tushuniladi.

Masalan, O'zbekiston badiiy jamoalari ijodiy birlashmasida jami 395 nafar xodim ishlaydi. Birlashma tarkibida 10 ta badiiy

ijodiy jamoalar faoliyat yuritadi. Ijodiy birlashmada xalqimiz ardog'idagi taniqli san'atkorlar O'zbekiston xalq artistlari Munojat Yo'lchiyeva, Matluba Dadaboyeva, G'ofur va G'ulom Eshjonovlar, Gavhar Matiyoqubova, Qodir Mo'minov, O'zbekiston xalq hofizi Soyibjon Niyozov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Og'abek Sobirov, Sobirjon Mo'minov, Gulbahor Erqulova, Zarif Azizovlar, shuningdek, birlashma tarkibida G'amijon Toshmatov nomidagi dutorchilar ansambli, Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambli, «Bulbulcha» bolalar xor jamoasi, «Lazgi» ashula va raqs ansambli, Respublikada xizmat ko'rsatgan xor jamoasi, Xorazm maqomchilar ansambli kabi qator taniqli jamoalar bor. O'zbekiston badiiy jamoalar ijodiy birlashmasi «Navro'z», «Mustaqillik», Vatan himoyachilari kuni, 8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni, O'qituvchilar bayrami kabi umumxalq bayramlarida muntazam ravishda ishtirok etadi. Mamlakatimizning chekka hududlarida aholiga madaniy xizmat ko'rsatadi».<sup>22</sup>

Mazkur hujjatda O'zbekiston badiiy jamoalari ijodiy birlashmasining maqsad va vazifalari ham ko'rsatib o'tilgan:

«Respublikada mumtoz musiqa, milliy raqs va estrada, an'anaviy ijrochilik san'atlarini rivojlantirish, taniqli san'at namoyandalarini, ijodiy badiiy jamoalar va alohida ijrochilarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish;

mamlakatimizning barcha hududlaridagi musiqa, raqs, an'anaviy ijrochilik yo'nalishlarini asrash, avaylash, shu asosda badiiy jamoalar faoliyati samaradorligini oshirish, mustaqillik ma'naviyatini va istiqloq g'oyalarini tarannum etuvchi, xalqimizga estetik, zavq bag'ishlovchi zamonaviy o'zbek an'anaviy ijrochilik maktabini yanada rivojlantirish;

birlashma tarkibidagi badiiy jamoalarning tashkiliy, moliyaviy, moddiy-texnik masalalarini hal qilish, ularni musiqa asboblari, raqs liboslari, zamonaviy texnika va zarur anjomlar bilan ta'minlash;

musiqa, raqs, an'anaviy ijrochilik san'atini O'zbekiston xalqi, chet davlatlarda keng targ'ib qilish, badiiy jamoalarning keng ko'lamli dasturlarga asoslangan samarali gastrol-konsert faoliyatini uyushtirish, reklama-tijorat ishlarini yo'lga qo'yish;

---

<sup>22</sup> A.Haydarov. «Ijodiy ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish» fani bo'yicha yaratilgan O'UM.T., 2016y. 89b.

badiiy jamoalar, alohida ijrochilar tomonidan madaniy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish va servis sohasini rivojlantirish;

musiqa, raqs, an'anaviy ijrochilik san'ati sohasida gastrol-konsert faoliyatini muvofiqlashtirish, aholining estetik talab va takliflarini o'rganish;

qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan madaniy va ijodiy hamkorlik qilish.

«Ustoz-shogird» an'alarini rivojlantirish, birlashma tarkibidagi badiiy jamoalar hamda alohida ijrochilar faoliyatini samarali muvofiqlashtirish, ijodiy hamkorlik va tashabbuskorlikni rag'batlantirish».<sup>23</sup>

Professor A.Haydarov Respublika Xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar metodik markazida faoliyat yuritgan davrlardanoq madaniyat va san'at muassasalarida madaniy-ma'rifiy ishlar, badiiy jamoalar faoliyatini tashkil etish, Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan ijodiy guruhlar faoliyatini o'rganish va tahlil qilish bo'yicha katta izlanishlar olib borgan va bu sohaning taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shib kelayotgan olimlarimiz hisoblanadi. A.Haydarov shunday deb yozadi: «Sho'rolar tuzimi davrida sobiq madaniyat uylari va klub muqassasalarida asosiy ishidan ajralmagan holda badiiy ijodning o'zlari yoqtirgan turli yo'nalishlarida havaskor san'atkorlar faoliyat yuritgan. Ular dastlab faqat yirik shaharlar Toshkent, Samarqand, keyinchalik Andijon, Namangan, Kattaqo'rg'on, Yangi Marg'ilonda xonanda, sozanda, raqqosa, badiiy so'z ustasi bo'lib, badiiy havaskorlik to'garaklarida ishtirok etishgan O'zbek xalqi umumiy madaniyatining yuksalishi, oliy va o'rta maktablarning ko'payishi, ommaning savodxon bo'lishi, shahar va qishloqlarda klublarning tashkil qilinishi va boshqa omillar tufayli 20-yillar o'rtasida ishchi-yoshlar teatrlari, 30-yillarda drama va musiqa, keyinchalik estrada va sirk jamoalari, turli ashula va raqs ansambllari, orkestrlar paydo bo'ldi. 1959-yildan ularning eng yaxshilariga «xalq ashula va raqs ansambli», «xalq teatri» kabi unvonlar berila boshlandi. 1968-yildan O'zbekistonning eng yaxshi badiiy havaskorlik jamoalari xorijiy mamlakatlarga gastrolga chiqa boshladi. 70-yillarning ikkinchi yarmi, 80-yillarida ashula va raqs,

<sup>23</sup> A.Haydarov. «Ijodiy ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish» fani bo'yicha yaratilgan O'UM.T., 2016y. 91b.

folklor-etnografik ansambllari badiiy havaskorlik san'atida peshqadamlik qildi. Natijada xalq og'zaki ijodiyotining ko'pgina janrlari, asarlari tiklanib, sahnalar va maydonlarda ijro etildi. «Shalola» (keyinchalik «Boysun»), «Sumalak», «Nozanin», «Beshqarsak», «Doston» kabi o'nlab xalq ansambllari o'z san'atlarini xorijiy mamlakatlarda ham namoyish etishdi. Shu davrda «Paxtaoy» va «Bulbulcha» kabi bolalar ansambllari ham shuhrat qozondi. Bir qator dorbozlar guruhlar ham tashkil topib, xalqimizga tanila boshladi.

O'zbekistonning mustaqilligi tufayli badiiy havaskorlikda ham yangi davr boshlandi. Tarixga, ma'naviy merosga, xalq ijodiyotiga e'tiborning kuchayishi o'z navbatida badiiy havaskorlik rivojiga ham turtki berdi. Ayniqsa, milliy bayram, Navro'zning tiklanishi va mamlakat miqyosida o'tkazilishi natijasida Navro'z bilan bog'liq o'yinlar, tomoshalar, marosimlar tiklandi. Bunda malakali san'atkorlar bilan bir qatorda badiiy havaskorlik jamoalari, xalq ijodkorlarining xizmatlari katta bo'ldi. Bu davrda estrada havaskorligi taraqqiy topdi. Xalq o'yinlarini tiklash va yanada rivojlantirishga qaratilgan bayramlarni o'tkazish an'anaviy tus oldi. Folklor va etnografiya, raqs san'ati, dorbozlik, qo'g'irchoq teatri, askiya, qiziqchilik va masxarabozlik yo'nalishlaridagi jamoalarning faoliyati izchil va samarali bo'ldi. Bolalarning «Tomosha» nomli o'ziga xos musiqali teatri maydonga keldi.

Har yili keng nishonlanadigan Mustaqillik, Navro'z bayramlarining katta tomoshalari dasturida badiiy havaskorlik vakillarining ishtiroki mazkur san'at yo'nalishini yanada rivojlanishida katta turtki bo'lmoqda.<sup>24</sup>

Darhaqiqat, xalq orasidan chiqqan iqtidorlarni aniqlash, ular ijodini targ'ib qilish, badiiy havaskorlik ijodiyotini rivojlantirishda Respublika Xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi xodimlarining mehnatlarini alohida qayd etish maqsadga muvofiqdir.

Xalq orasidan chiqqan san'at shaydolarini birinchi qadami havaskorlik ijodiyoti hisoblanadi. Uning keyingi pog'onasi esa «Xalq» va «Namunali» unvoniga ega bo'lgan badiiy jamoalardir. Havaskorlik teatr jamoalarini oladigan bo'lsak, uning keyingi

---

<sup>24</sup> A.Haydarov. «Ijodiy ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish» fani bo'yicha yaratilgan O'UM.T., 2016y. 91b.

bosqichi xalq teatrlaridir. Xalq teatrlari ham xuddi professional teatrlar singari o'zlarining aniq rejasi, repertuari asosida ish yuritadilar.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tasarrufidagi madaniy-ma'rifiy muassasalarida (2011-yil ma'lumotlari bo'yicha) 362 ta «Xalq» va «Namunali» unvoniga ega bo'lgan badiiy havaskorlik jamoalari faoliyat yuritgan.

Madaniyat va san'at sohasini keng qamrab olish maqsadida badiiy havaskorlik jamoalaridan ham unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki joylarda o'tkaziladigan tadbirlarning barchasiga professional ijodkorlarni taklif qilish imkoniyati bo'lavermaydi. Shu sababli havaskorlik jamoalarining faoliyatlarini yaxshilash lozimdir. Ammo havaskorlik ekan deb, sahnaga bachkana, ishlanmagan, g'oyaviy jihatdan hech narsa bermaydigan, materiallarni olib chiqish mumkin emas. Sahnaga chiqayotgan har bir asarga professional nuqtayi nazardan yondashish talab etiladi. Sahnaga uchun talab bitta: qo'yilgan asar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan g'oyani ilgari surishi, insonlarga estetik zavq ulashishi, insonlarni yaxshilikka, mardlikka chorlashi, ota-onasi, yurti, Vatani sevishga undashi va boshqa ijobiy xislatlarni o'zida jo qilishga qaratilishi lozimdir.

Shunday ekan, yoshlar orasida iqtidorlilarini tanlash, ular ijodini rivojlantirish, ularga to'g'ri yo'nalish berish – havaskorlik jamoalari faoliyatidan boshlanadi.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda musiqiy jamoalarning (estrada, milliy va h.k) faoliyatni ham hisobga olish muhimdir. Hammaga ma'lumki, hech bir tadbirni musiqasiz tasvvur qilish mumkin emas. Musiqiy ansambllar bilan ishlashning o'ziga xosligi shundaki, ular ham tadbirning asosiy yetakchi vositalaridan hisoblanadi. Musiqiy ansambllarning repertuari tasdiqlangandan so'ng ularning texnik jihatlari, kerakli apparaturalar, kostyumlar va boshqalar hal qilinadi. Ba'zi bir xonandalarga xos bo'lgan bir yomon odat borki, men o'z qo'shig'imni yaxshi aytib beraman, repititsiyalarga kelmasam ham bo'ladi, degan noto'g'ri fikrni aytadilar. Aslida tashkilotchi uchun uning qo'shig'idan ham burun, sahnaga kirish-chiqish, joylashishi, o'zini tutishi, salomlashishi, kostyumlarning mosligi, ansambl va tomoshabinlar bilan

munosabatlari, xayrlashib chiqib ketishlari va boshqa tomonlari qayta-qayta ishlab «tozalanishi» muhimdir. Masalan, keng maydonlarda yoki noan'anaviy sahnaviy kengliklarda o'tadigan tadbirlarda repititsiyalarni qayta-qayta o'tkazish imkoniyati bo'lmaydi. Shuning uchun reja puxta ishlanishi kerak va bunda hech kimning adashishga haqqi yo'q.

Bir so'z bilan aytganda, tadbir tashkilotchisi badiiy jamoalarning vazifalarini aniq tushuntirishlari kerak. Turli janrdagi ijrochilarning chiqishlari tomoshabinning ko'z oldida xuddi film ko'rganday o'tishi kerak. Shuning uchun bunda ortiqcha pauzalar, dekoratsiyalarni almashtirishdagi qo'polliklar, bir nomerdan ikkinchi nomerga o'tayotgandagi ijrochilarni tutilib-sutilib ketishlari, sahna pardasi bilan ehtiyotsizliklar, sahnaning orqa tomonidagi ortiqcha shovqinlar va boshqa noqulayliklar tadbirning saviyasini tushirib yuborishi mumkin. Ba'zan ijrochilar mikrofon oldiga kelib, uni ovoz chiqarib tekshirib ko'radilar. Bu ham o'ta xunuk manzarani namoyon etadi. Shunga o'xshash ba'zi noqulayliklarning oldini olish uchun tadbir tashkilotchilari avvalo tushuntirish ishlarini olib borishlari kerak.

Madaniy tadbirlar tashkilotchilari badiiy jamoalar bilan ishlashda o'ta sinchikovlik bilan ish olib borishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Jamoaning dizayni, liboslari, repertuarlarining tadbir mavzusiga mos kelish yoki kelmasligi, tadbir ishtirokchilarining faolligini oshirish, tadbirning mazmunini yoritishda turli ifodaviy va ta'sirchan vositalardan unumli foydalanish va tadbirni boshqarishda tadbir tashkilotchilaridan maxsus bilim va malaka hamda katta tajriba talab qilinadi.

### **Takrorlash uchun savollar:**

- 1. Badiiy havaskorlik jamoalari deganda nimani tushunasiz?*
- 2. Ijodiy jamoa deganda kimlar nazarda tutiladi?*
- 3. Xalq teatrlari professional teatrlardan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?*
- 4. Badiiy havaskorlik jamoalari tarkibiga yana nimalar kiradi?*
- 5. Havaskorlik teatr jamoalarida spektakl sahnalashtirishdagi ish bosqichlarini sanab bering.*

## **Mustaqil ish uchun mavzu va vazifalar:**

- 1. Badiiy jamoalar bilan ishlash uslubiyoti tushunchasi.*
- 2. Havaskorlik jamoalar faoliyatining o'ziga xosligi.*
- 3. O'zingiz istiqomat qiladigan hudud (viloyat, shahar, qishloq)da mavjud havaskorlik jamoalari faoliyatini tahlil qiling.*
- 4. O'zingiz istiqomat qiladigan hudud (viloyat, tuman, shahar, qishloq)da mavjud to'garaklar haqida ma'lumot tayyorlang.*



## **II bob. MADANIY TADBIRLARDA SAHNALASHTIRISH JARAYONLARINI TASHKIL ETISH**

### **Rejissura**

Madaniy tadbirlar asosan ijodiy va tashkiliy jarayonlardan iborat bo'ladi. Ijodiy jarayonlar tadbirlarning ssenariysini yaratish, sahnani bezash, ijrochilar bilan (boshlovchilar, raqqosa yoki xonandalar, ijodiy jamoalar va h.k) ish olib borish bo'lsa, tashkiliy ishlar deganda esa ijodiy ishlarni amalga oshirish uchun qilinadigan barcha ishlar tushuniladi. Masalan, sahnani bezash rassomlik –ijodiy ish hisoblansa, uni bo'yoqlar, materiallar, reyka yoki boshqa sahna bezagi uchun kerakli jihozlarni muhayyo qilish madaniy tadbir tashkilotchisining asosiy yumushlaridan hisoblanadi.

Tadbirlarni tashkil etishda sahnalashtirish jarayonlari deganda, tadbirni yagona bir g'oya chizig'iga joylashtirish, uni oliy maqsadga yo'naltirish, tadbirning ketma-ketligini qurish, mizanssenalar ustida, ijrochilar bilan ishlash, tadbirning badiiyligi ustida ish olib borish nazarda tutiladi. Boshqacha qilib aytganda, sahnalashtirish san'ati – bu rejissuradir.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach san'at, xususan rejissura sohasida ham yangi mazmun va yangicha g'oyada ishlangan asarlarga bo'lgan talab kuchayib bormoqda. Istiqolni kuylash, ijtimoiy hayotni badiiy vositalar orqali tarannum etish, boy o'tmishimiz, o'lmas qadriyat va urf-odatlarimiz hamda zamonaviy qahramon obrazini talqin etish hozirgi kun rejissurasining asosiy maqsadidir. Shunday ekan, g'oyaviy jihatdan mukammal qurilgan, badiiy obrazli tadbirlarni tashkil etish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Keyingi yillarda o'tkazilayotgan «Mustaqillik», «Navro'z», yubiley va sport tadbirlari yuqoridagi fikrlar isboti sifatida tantanali nishonlanib kelinmoqda. Malakali mutaxassislar, ya'ni ssenaristlar, rejissyorlar, baletmeysterlar, musiqachilar, rassomlar va xonandalardan tuzilgan ijodiy guruh tomonidan sahnalashtirilayotgan har

bir bayram va tomoshalarning sifat ko'rsatkichi, puxta rejissura asosida qurilganligi har bir tomoshabin ko'nglida ajoyib taassurot qoldirmoqda.

Aytib o'tganimizdek, tadbirlar dramaturgiyasining asosini ssenariy tashkil etadi. Ssenariy tadbir mazmunini adabiy tasvirlash bo'lib, bunda jiddiy ketma-ketlik asosida harakat elementlari bo'lmish mavzu va g'oya, bir bo'lakdan ikkinchisiga o'tish, bloklar, bezaklar, matnlar to'liq ko'rsatiladi. Rejissyor esa mana shu «qog'ozdagi yozuv»ni sahnaga ko'chirishi kerak.

Sahnalashtirish san'atining asosi –rejissuradir. Rejissyorlikning boshqa san'at turlaridan farq qiladiga jihati shundaki, baletmeyster faqat raqsalarga, bastakor yoki musiqachi musiqiy tomonlariga, dramaturg (ssenarist) ssenariy matniga javob bersa, rejissyor tadbirning boshidan oxirigacha javobgardir. Yaxshi rol ijrochisi «rolni zo'r bajaribdi, chiroyli raqsar yoki ashulachi zo'r ashulalarni aytdi deb, ijrochilarni alohida maqtab aytish mumkin. Lekin ozginagina xatoliklar, masalan, mikrofon buzilib qolsa, aktyor so'zidan adashib qolsa yoki ortiqcha pauzalar bo'lsa rejissyor yaxshi ishlamapti, degan umumiy fikr ketadi. Shuning uchun ham javobgarlik hissi rejissyorda hammadan ko'ra ko'proq bo'lishi kerak. Spektakl yaratish jarayonida rejissyorning eng katta qiladigan ijodiy ishi – aktyorlar bilan ishlashdan iboratdir. Teatrda rejissyor va aktyor o'rtasida ijobiy va ijodiy, do'stona hamkorlik bo'lmas ekan, sahna asarlarining yuqori saviyada ijro etilishiga kafolat bo'lmaydi. Demakki, aktyor uchun mahoratli rejissyor va ahil ijodiy jamoa shart. Rejissyorning xizmati shundan iboratki, u aktyorda bo'lgan qobiliyatni ro'yobga chiqarish, matnda bo'lmagan, lekin topilgan shakl va usullarni namoyon qildirish, puxta jonli xarakterlar yaratishga ko'maklashish. «Rejissyor san'atining asosiy materiali aktyor ijodidir», - deydi buyuk aktyor Abror Hidoyatov. Aktyorlar ijodining muvaffaqiyati to'laqonli rejissyorga bog'liq.

Teatrda spektakllarni sahnalashtirishda asosan maxsus malakaga ega bo'lgan, shu soha bo'yicha professional bilimga ega bo'lgan «tayyor» mutaxassislar ishlaydilar. Shuning uchun undagi ijrochilar mas'uliyatni to'liq o'zlariga oladilar, ya'ni mas'uliyatni yaxshi his qiladilar. Ammo joylarda o'tkaziladigan ko'pgina tadbirlarda rejissyorlar asosan yuqorida qayd etib o'tganimizdek,

professional bo'lmagan ijrochilardan foydalanadilar. Aktyorlik maktabini o'tamagan, o'zginagina iqtidorni anglagan rejissyor havaskor ijrochini tanlab, uning bilan ijro etilishi kerak bo'lgan «rol» ustida ancha mehnat qilishiga to'g'ri keladi. Unga tadbirning asosiy maqsadi, g'oyasi tushuntiriladi, bu «rol» esa bugungi tadbirning eng yuqori kulminatsiyasi ekanligi, agar ijro talab darajasida amalga oshirilsa, tadbir yuqori baholanishini unga anglatish kerak. Buning uchun rejissyor-tashkilotchidan alohida mahorat talaba etiladi.

Rejissyor sahnada dramatik yoki musiqali asarlarni sahnalashtiruvchi, teatrning ijodiy siyosati. Rejissyor spektakl yaratibgina qolmay, hozirgi zamon teatrining ijodiy yo'nalishini belgilaydigan bosh ijodkor, badiiy rahbar hamdir.

Umuman olganda rejissuraning ixtisosliklari ko'p.

«Teatr rejissurasi (professional va xalq teatri)», «Qo'g'irchoq teatri rejissurasi», «Televideniye va radio rejissurasi», «Ommaviy bayram va tomoshalar (estrada) rejissurasi», kinorejissura, estrada, sirk, ovoz rejissyorligi va boshqalar – rejissura san'atining ixtisosliklaridan hisoblanadi.

Har bir san'at uchun «rejissura» kerak. Qolaversa, alohida olingan har bir nomer uchun ham rejissuradan foydalanish faqat yaxshi samara beradi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, uning vazifasi turli faoliyatlar uchun turlicha ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Masalan, teatr rejissurasi bilan ommaviy bayramlarni sahnalashtirishda o'ziga xos alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlari bor.

Teatrda spektaklni sahnalashtirish uchun yuqorida ta'kidlaganimizdek, deyarli barcha shart-sharoitlar yaratilgan bo'ladi. Asar (pyesa) tayyor, maxsus malakaga ega bo'lgan ijrochi (aktyorlar) truppassi mavjud, tayyor sahnaviy shart-sharoitlar (sahna, badiiy bezak va h.k.) bor. Demak, sahnalashtirish ishlarini boshlash mumkin.

Ommaviy bayram va tomosha yoki yubileylarni sahnalashtirishda esa ahvol umuman boshqacharoq. Tayyor yozilgan dramatik manba – ssenariy yo'q (uni yaratishning o'zi alohida bir jarayon). Maxsus jihozlangan sahnaviy kenglik yo'q. Shtatda ishlaydigan maxsus malakaga ega bo'lgan mutaxassislar (senaristlar, aktyorlar,

rassom va boshqa ijodiy ishlarni amalga oshiruvchilar) yo‘q. Undan tashqari, bunday katta bayram va tomoshalar ijrochilarining ko‘pligi bilan ham ko‘p muammolarni keltirib chiqaradi. Ommaviy bayramlar rejissyoriga san‘atning deyarli barcha turlarini bilishi talab qilinadi.

Televideniye san‘atida ham rejissuraning o‘ziga xos ishlash usullari bor. Efirga uzatilmoqchi bo‘lgan «asar», ekran san‘ati xususiyatidan kelib chiqib, minglab tomoshabinlarning ehtiyojlarini hisobga olgan yagona kompozitsiya liniyasiga teriladi. Alohida olingan kadrlarni tanlash, suratga tushirilgan tasvirlarni efirga tayyorlash, montaj qilish va boshqalar TV rejissurasining asosiy ish jarayonlaridir. Tasvirga tushirilayotgan joyni badiiy jihozlash, dekoratsiyalar o‘rnatish, operatorlar, aktyorlar, boshlovchilar, suhandonlar, xonanda-yu, raqqosalar, tomoshabinlar, xullas, ijrochilar bilan ishlash, ularni ekranga moslashtirish kabi ishlarni amalga oshirish TV rejissurasining o‘ziga xos jihatlari.

«Ommaviy axborot vositalari ichida eng navqiron, eng xalqchili va eng oldingi safda turgani – bu televideniye. Xalqimizning estetik tarbiyalanishi va ma’naviy kamol topishida, ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy jihatlarda televideniye o‘rni va roli beqiyosdir. Texnika taraqqiyoti va uning tez rivoji televideniye boshqa aloqa vositalari ichida birinchi o‘ringa olib chiqdi. Televideniye o‘zining tezkorligi, ta’sirchanligi, ommaviyligi va samimiyati bilan shuhrat qozondi. Insonni shaxs sifatida kamol toptirish, ijtimoiy muammo va qarama-qarshiliklar oldida ongini shakllantirish, jamiyat taqdiri oldida inson mas’uliyatini tarbiyalash televideniye asosiy ijtimoiy vazifalaridan biriga aylandi. Ayniqsa, televideniye kishini har tomonlama estetik tarbiyalashda kuchli qurol vositasi ekanligini qayd qilish kerak. Shunday ekan, bu dargohda ishlaydigan yuksak malakali kadrlarni tayyorlash, zamon talablariga javob beradigan mutaxassislarni yetkazish alohida ahamiyat kasb etadi. Televizion ko‘rsatuvlarining g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishi, uning sifati, haqqoniyligi, hayotni to‘g‘ri va aniq aks ettirishda rejissyor shaxsan mas’uldir».<sup>25</sup>

---

<sup>25</sup> M. Mahammedov, «Televidenie va uning rejissyori», «San‘at ta’limi-yilnomasi, 2 jild, 2007 y, 120 bet.

Televideniye san'atida kim birlamchi, operatorni, rejissyorni yoki muharrirni degan savol paydo bo'lishi tabiiy. U yoki bunisi birlamchi deyish, bizningcha noto'g'ri bo'lsa kerak. Operatorning ham, muharrirning ham, rejissyorning ham o'zining alohida o'rni va roli, vazifalari bor. Masalan, informatsion dasturlarda muharrir birinchi o'ringa chiqib qolishi mumkin. Ammo televideniya rejissyor ko'satuvning barcha jihatlari uchun mas'uldir.

Kino yaratishning ham o'ziga xos prinsiplari mavjud. Mavjud kinossenariy asosida ish olib borishgacha, aktyor tanlash, tasvirga tushiriladigan joylarni aniqlash, unga ketadigan sarf-xarajatlar va boshqa jihatlarni o'rganish kino asarini yaratilishining ilk jarayonlarni amalga oshirguncha kino-rejissyorning ancha ter to'kib mehnat qilishiga to'g'ri keladi. Badiiy asar operatorlik mahorati, aktyorlik qobiliyati, rejissyorlik nuqtayi nazarlari bilan uyg'unlashgandagina yaxlit, serma'no asar sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Kino asarining yaratilishi – asar ustida ishlash, tasvirga tushurish, aktyorlar bilan asar matni va ijrochilik usullari hamda boshqa jihatlar ustida ishlash va rejissyorlik faoliyatni o'z ichiga oladi. Bitta filmni yaratish uchun yillab vaqt talab qilingan holatlar ham ko'p bo'lgan. Kino rejissyori faqat bugunni emas, balki kelajakni ham ko'ra oladigan, dunyoqarashi, saviyasi keng, fidoyi inson bo'lmog'i lozim. Undan har bir ko'rinishga alohida mas'uliyat bilan yondashish talab etiladi.

Televideniye rejissurasi bilan kino yaratish rejissurasining ham o'ziga xos o'xshash va farq qiladigan tomonlari bor. Kino asarini yaratish uchun qayta-qayta turli varianlarda tasvirlarga tushurib, montaj qilish orqali mahsulot olish mumkin. Yoqmasa, qaytadan tasvirga tushurish imkoniyatlariga ega.

Televideniya, masalan, jonli efir paytida ijodiy jarayon sardori rejissyor hisoblanadi. Bu haqda iste'dodli rejissyor M. Maxamedov o'zining «Televidenie va uning rejissyori» nomli maqolasida shunday deb yozadi: «Pulda uning yonida rejissyor assistenti, qator texnik muhandislar, orqasida ovoz sozlovchi rejissyorlar, studiyada yordamchi rejissyorlar, tasvirchilar, chiroqchilar va ko'p sonli ishtirokchilar, qarshidagi qator monitorlarda kameralardan kelayotgan sakkiz-o'nta tasvirlar, ularni saralash, keraklisini tomo-

shabinga uzatish mas'uliyati rejissyordan keng ko'lamdagi idrokni, hozirjavoblikni, aqliy safarbarlikni talab qiladi».<sup>26</sup>

Radio rejissurasining ham o'ziga xos bo'lgan ishlash prinsiplari mavjud bo'lib, bunda muharrir va rejissyordan bir xil darajadagi mas'uliyat talab etiladi. Radiodagi barcha ijodiy chiqishlar «so'z» asosiga qurilganligi uchun rejissyor ko'proq texnik jihatlariga e'tiborini ko'proq qaratadi. Bu bilan «radioda rejissyorning unchalik keragi yo'q ekan», degan fikrga kelmasligimiz kerak. Muharrir «so'z, matn»ga javob bersa, rejissyor barcha jihatlar uchun mas'uldir.

Ovoz rejissyorligi haqida gap boradigan bo'lsa, unda aynan, ovoz yozish, uni sozlash, ovoz kuchaytirgich, miksher pulti, mikrofon, minidisklar bilan ishlash, kuy-qo'shiqlarni efirga uzatish yo'llari, bir so'z bilan aytganda, barcha texnik jihatlar to'g'risida gap boradi. Hozirgi texnika taraqqiyoti davrida bunday vositalar bilan ishlashda ovoz rejissyoridan alohida qobiliyat talab etiladi.

Teatr san'ati xalqimizning ma'naviy madaniyatida muhim o'rinni egallab, uni har jihatdan mukammal inson bo'lib yetishishiga xizmat qilib kelmoqda. Turli tarbiya vositalari ichida teatr san'atining roli beqiyosdir. Teatrning paydo bo'lishi insonlar o'rtasida axloq normalarining normallasuvi, ularda bir-birlariga nisbatan hurmat-e'tibor tushunchalarining shakllanib, takomillasuvi bilan belgilanadi. Insonlar bir-birlari bilan obrazlar vositasida munosabatda bo'la boshladilar. Ular ko'pchilik bo'lib yig'ilganlarida, biror bir voqeani bayram qilib nishonlayotganlarida teatr san'atining elementlarini qo'llay boshlaganlar.

Bir so'z bilan aytganda rejissura sohasidagi ijodiy jarayonga ixtisoslik nuqtayi nazardan yondashish katta samara beradi.

Sahna san'ati o'zining insonlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilishi bilan boshqa san'atlardan ajralib turadi. Shu jihatdan olib qaralganda, san'at sohasi insonlarning ruhiy tomonidan qo'llab-quvvatlab, estetik jihatdan zavqlantirib, ma'naviy jihatdan boyitib boradi. Shuning uchun ham davlatimiz rahbarlari tomonidan san'atning barcha turlarini rivojlantirish, takomillashtirish uchun turli farmon, qaror va farmoyishlar ishlab chiqilmoqdaki, ularning

<sup>26</sup> M. Mahammedov, «Televideniye va uning rejissyori», «San'at ta'limi-yilnomasi, 2 jild, 2007 y, 121 bet.

oliy maqsadi jamiyatda sog'lom muhit yaratish, insonlarga to'g'ri yo'llanma berish, ularni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, jamiyatga foydasi tegadigan inson qilib tarbiyalash va boshqa ijobiy xislatlarni jo qilishga qaratilgan. Shu jihatdan olib qaraganda «Rejissura» san'ati ham sahnalashtirish jarayonlari orqali tomoshabinlar bilan «dardlashib» kelmoqda.

«Rejissyor» so'zi fransuzcha «regisseur» – so'zidan olingan bo'lib, «boshqaruvchi», «yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi» degan ma'noni anglatadi. Rejissyorlik san'ati kasb sifatida XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Yevropa davlatlarida rivojlangan.<sup>27</sup> «Rejissyor» so'zini eng birinchi bo'lib nemis faylasufi Gyote tilga olib, rasmiylashtirgan.<sup>28</sup>

Rejissyorlik san'ati bu – spektakl yoki tadbirning barcha elementlarini ijodiy tashkil qilish orqali teatr san'atining garmonik yaxlit, butun badiiy asarni yaratish san'atidir. Karl Gacheman o'zining «Rejissyor» degan kitobida rejissyor ishga muhabbat bilan qarashdan tashqari, axloqiy va amaliy bilimlarni o'zida mujassamlashtirishi shart deb yozadi. Lekin chinakam sahna asari yaratish uchun bu hali yetarli emas. Rejissyorlik pok axloqli va yuksak didli, dramaturgiya sohasiga oid nazariy bilimlar bilan qurollangan bo'lishi hamda teatrning serqirra ko'makchi vositalarini yaxshi bilishi shart.

Teatr san'atining asoschilaridan biri V.I.Nemirovich-Danchenko rejissyorlarning quyidagi fazilatlariga ega bo'lishini ta'kidlagan edi:

– rejissyor-pedagog, u asarning g'oyasini, maqsadini, badiiy obrazning talqinini to'g'ri va mantiqli tushuntirishni bilishi, o'z mahorati, mehnatga bo'lgan hurmati orqali aktyorlarga, xodimlarga o'rnak bo'lishi kerak;

– rejissyor-oyna, u aktyorlarning individual xususiyatlarini, ijodim to'g'ri aks ettirishni bilmog'i kerak;

– rejissyor-tashkilotchi, u butun spektakl yoki tadbirni uyushtirishi va tashkillashtirishi kerak.

<sup>27</sup> M. Mahammedov, «Televideniye va uning rejissyori», «San'at ta'limi-yilnomasi, 2 jild, 2007 y., 121 bet.

<sup>28</sup> Сахповский В. Режиссура и методика ей проведение. Л., «Искусство», стр 19.

Yuqorida sanab o'tilgan fazilatlar teatr rejissyorlariga xosdir. Ammo U.Qoraboyev o'zining «Ommaviy badiiy tadbirlar» kitobida, «rejissyor–ssenarist, rejissyor–bosh ijodkor, rejissyor–ulkan san'atkor, rejissyor–izlanuvchi bunyodkor» kabi fazilatlarini haqida yozib, ularni har birining funksiyalarini izohlab bergan.<sup>29</sup>

Darhaqiqat, madaniy tadbirlar rejissyor-tashkilotchilari ham yuqorida sanab o'tilgan barcha fazilatlarini o'zlarida jo etishlari lozim.

Ba'zida ijrochi o'zini ko'rsatmoqchi bo'lib ayrim didsiz, befarq tomoshabinlar ta'siriga berilsa, san'atning mohiyati yo'qoladi. Demakki, bundan tadbirning asosiy vazifasi tarbiya va ibrat masalalarining susayganligini bilsak bo'ladi. Aktyorning o'z bilganidan qolmasligi, sahnada o'zini o'ta erkin his qilishi, avvalo tomoshabinlarga hurmatsizlik sanalsa, ikkinchi tomonda rejissyorning aktyorlar etikasiga e'tibor qaratmaganligidan dalolat beradi. Rejissyor aktyorning sahnaviy ijrosi va hayotiy yurish-turishigacha mas'uldir. «Aktyorlar orasida ham kosib xilidagilar bo'ladi. Ularning ishi muallif ishini takrorlashdan iboratdir. Aktyor-kosiblar faqat rolni yod olib, uni tayyor qoliplar vositasida tomoshabinga taqdim etadi». Abror Hidoyatovning bu fikrlarida bir qarashda dangasa, o'z ustida ishlamaydigan aktyorlar tanqid ostiga olingan bo'lsa, tub ma'noda barcha ayb rejissyorlarga qo'yilgan. Chunki, aktyorning kosiblik qilishiga rejissyor imkoniyat yaratib bergan, deb qabul qilish mumkin.

Aktyor o'zida sahnaga, san'atga, o'z burchiga nisbatan alohida bir munosabat tuyg'usini tarbiyalashi va tobora mustahkamlab borishi lozim. U san'at nima ekanligini, o'z hayotini nimaga bag'ishlaganligini to'liq anglab yetishi darkor. San'atga, teatrga, sahnaga va uning xizmatchilariga alohida hurmat va munosabatda bo'lish ham maqsadga muvofiqdir.

Shunday aktyorlar ham borki, ular ijro uchun eng muhim bo'lgan sahna mahorati va hayotiy tajribaga ega bo'lmay, o'z ichki dunyosini zarur darajada boyitmay turib, katta rollarda chiqish payida bo'ladilar. Achinarlisi shundaki, ular o'zlarining hali bu darajaga yetisha olmaganliklarini payqamaydilar. Holbuki, jiddiy,

---

<sup>29</sup> U.Qoraboyev, «Badiiy-ommaviy tadbirlar», T., 1986, 49 b.



murakkab rollar ustidagi ish oylar emas, yillar mobaynida takomiliga yetkaziladi. Bunda aktyorlik ko'nikmalari oshirilib, yaratilayotgan obrazga hayotiylik, donishmandlik xususiyatlari singdiriladi. Rol to'la takomiliga yetgach, u tayyor deb hisoblanadi. Pishib yetilmagan rol hech kimga keragi yo'q. Bunday rollar tomoshabinning badiiy didini, san'atga bo'lgan ixlosi va talabini pasaytirib yuboradi. Aktyorlik san'atiga borib taqaladigan yana bir muammo – bu kichik rollar ijrosidir. Ayrim artistlarga kichik rollar tegib qolsa, ranjishadi, xafa bo'lishadi, norozi bo'lib yurishadi. Gap rolni qanday ekanligida emas, uni qanday ijro etishdadir yoki K.S. Stanislavskiy ta'biri bilan aytganda, «Katta» yoki «kichkina» rol bo'lmaydi, faqat «kichik aktyorlar» bo'ladi. Suningdek, «Sen san'atdagi o'zingni emas, balki o'zingdagi san'atni seva bilgin», deya bejiz fikr bildirmagan.

Teatrda rejissyor va aktyor, ustoz va shogird o'rtasidagi ba'zi kelishmovchiliklar yoki yoshi ulug' aktyorlar yosh aktyorlarga e'tibor bermasligi kabi masalalar va ularning oldini olish hamma vaqt ham teatrning kun tartibidagi asosiy vazifa sanalgan. Mannon Uyg'ur xotiralarida bu xususida quyidagi fikrlar bor: «Teatrimizning ishida yuz bergan eng muhim, katta kamchiliklardan biri – yosh avlod bilan lozim darajada ish olib borilmasligidir. Bizda har qanday postanovka tayyorlanganda asosiy rollarni faqat nom chiqargan katta masterlargagina berib, o'rta darajali va yosh artistlarga ahamiyat bermaslik yuz berib kelmoqda. Shuning natijasida bir talay qobiliyatli va ishga chanqagan o'rta darajali va yosh artistlar ko'p vaqt o'z mahoratlarini o'stirish va ko'rsatish imkoniyatidan mahrum qolib kelmoqdalar. Bunday ahvolga xotima berish uchun har bir postanovkada asosiy rollarga dublyorlar tayyorlash masalasiga katta ahamiyat berish kerak. Shu bilan birga yosh avlodning malakasini oshirish, ularni amaliy ishga tortish va o'stirish maqsadida yosh artistlar ishtiroki bilan maxsus spektakl tayyorlash usulini ham tezda amalga oshirish lozim».<sup>30</sup>

Aktyorlar ko'ziga chalinmaydigan narsalarni ham rejissyor ko'ra olishi lozim, bundan tashqari rejissyor ishidagina emas, balki yurish-turishida, muomalada, hatto kiyinishida ham aktyorlarga

---

<sup>30</sup> M.Qodirov. Sahnamiz lochinlari. T.G'.G'ulom., 1986. 30 bet.

ibrat bo'lsagina haqiqiy rejissyor, ya'ni ijodbaxsh ishboshi bo'lishi lozim.

Tomoshabinning san'atga bo'lgan har bir murojaati, rejissyorning qalbiga bo'lgan murojaatdir.

Ushbu sohani o'zlashtirish uchun o'zbek teatr san'atiga tamal toshini qo'ygan M.Uyg'ur, Yetim Bobojonov, Toshxo'ja Xo'jayev kabi rejissyorlarning ijodiy faoliyatini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Undan tashqari hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan Bahodir Yo'ldoshev, Rustam Hamidov, Rustam Shamsutdinov, Marat Azimov, Nosir Otaboyev kabi rejissyorlarning amaliy ishlarini tahlil qilish va o'rganish ham fanni chuqur o'zlashtirishga asos bo'lishi mumkin.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. *«Rejissyor» so'zining lug'aviy ma'nosini ayting.*
2. *«Madaniy tadbirlarda rejissyorning funksiyalari nimalardan iborat?»*
3. *Qaysi rejissyorlar faoliyati bilan tanishsiz?*
4. *Spektaklni sahnalashtirishda rejissyorning vazifasiga nimalar kiradi?*
5. *Teatr rejissyorligi bilan tadbirlar rejissyorligi o'rtasida qanday o'xshashlik va farq qiladigan tomonlari bor?*
6. *K.S.Stanislavskiy kim?*

### **Mustaqil ish uchun mavzu va vazifalar:**

1. *Rejissyorlik san'atining taraqqiyoti mavzusida referat tayyorlang.*
2. *Mustaqillik yillarda rejissura.*
3. *Madaniy tadbirlarni tashkil etishda rejissyorning funksiyalari.*
4. *K.Stanislavskiy sistemasi.*
5. *O'zbek rejissyorlaridan birini tanlab, uning ijodini tahlil qiling.*

## Repertuar tanlash va tadbirni tayyorlashdagi ish jarayonlari

Avvalo repertuar soʻzining lugʻaviy maʼnosini aniqlab olaylik. Repertuar – (fr. repertoure, lot. repertorium) – roʻyxat, degan maʼnoni bildirib, ijro etiladigan asarlar majmuidir.

Har qanday ijodiy guruh yoki alohida olingan ijrochining salohiyati uning repertuarining u yoki bu darajada toʻlaqonliligiga bogʻliq.

Sanʼat sohasida tahsil oladigan har qanday talaba oʻzining shaxsiy repertuariga ega boʻlishi lozim. Qoʻshiqchi oʻzining chiroyli qoʻshiqlari bilan, aktyorlik sohasida shugʻullanadiganlar esa monolog, sheʼrlar, sahnaviy koʻrinishlardan parchalar ijro etib berish, taqlidchilik va boshqa imkoniyatlari bilan doʻstlari va boshqalar oldida oʻz sanʼatlarini namoyon etadilar.

Ammo sohani oʻrganish uchun repertuar jarayoni eng asosiy bosqichlardan hisoblanadi. Puxta yozilgan asar har qanday holatlarda ham oʻzining badiiyligini saqlab qoladi. Ammo ijro uslubida, sahnalashtirishda kamchiliklarga yoʻl qoʻyilsa, unda yaxshi yozilgan asar ham oʻz qimmatini yoʻqotishi mumkin.

Repertuar har qanday ijodiy guruhning salohiyatini belgilovchi omillaridan biri boʻlib, «ijodiy guruh yoki jamoaning gʻoyaviy badiiy darajasi va uning professional ijodiy kamolotini aniqlab beradigan koʻzgu hisoblanadi».<sup>31</sup>

Madaniyat va aholi dam olish markazlari qoshida tuzilgan drama toʻgaraklari repertuarlarini tuzish professional teatrlarga qaraganda ancha mushkulroq. Sababi, professional teatrlarda shtatda ishlaydigan aktyorlar bilan ish olib borilsa, toʻgaraklarda yuqorida aytib oʻtganimizdek, havaskorlar bilan ishlashga toʻgʻri keladi. Havaskor ijrochi maxsus maʼlumot yoki bilimga ega boʻlmagan, hatto maktabda yaxshi oʻqimagan boʻlishi ham mumkin. Toʻgarak rahbari oʻzi tanlagan havaskorning iqtidorini, uning ichki imkoniyatlarini «rengen»da koʻrgandek his qilmogʻi lozim. Havaskor ijrochilarni yigʻib, avvalo bu guruhning maqsadini, kelajakdagi rejalari, imkoniyatlari va mana shu asarda uning

<sup>31</sup> S.Yoʻldosheva. «Folklor-etnografik jamoalar uslubiyoiti». Fan nashriyoti. 1999-yil. 6-bet

mas'uliyati va boshqa jihatlari haqida tushuntirish ishlaridan boshlashi lozim. Xuddi shu haqda «Madaniyat uylarida havaskorlik teatr va qo'g'irchoq teatr jamoalari to'garaklarini tuzish bo'yicha tavsiyanoma»da shunday deyilgan:

«To'garak rahbari yirik repertuar rejasini jamoaning kuchiga qarab tuzishi kerak. To'garakka yangi a'zo qabul qilishda uning qaddi-qomati, sog'ligi, ovozi, tili, quloq, ko'z va yuz tuzilishi benuqson bo'lishiga alohida ahamiyat berishi lozim. She'rlar va hikoyalarni ovoz chiqarib savodxon o'qishini ham kuzatishi lozim. Rahbarning o'zi «professional aktyor mahorati» darsida topshirilgan obrazni tushunib, o'ylash, imo-ishora improvizatsiyasi holatidan chiqmay, ishonib o'ynash kabilarni puxta o'rgatmog'i, rol o'ynovchi havaskorni teatr bilimlari bilan qurollantirishi kerak. U sahnalashtiradigan postanovkalarda o'ziga yuklatilgan vazifasini yorqin yarata olsin. To'garak rahbari o'z suhbatlarida havaskorlarni aktyorlik san'atini kamolatiga erishgan atoqli xalq aktyorlarining ijodiy yo'llari bilan muntazam tanishtirishi, shu maqsadda ular bilan tez-tez uchrashuvlar o'tkazib turishni yo'lga qo'yishlari kerak bo'ladi. To'garak rahbari havaskorlarni madaniyat, san'at kollejlari, teatr-studiyalariga, aktyorlar malakasini oshirish kurslariga, teatr oliy o'quv yurtlariga tavsiya etish bilan birgalikda ularni istiqbol yo'lga boshlagan bo'ladi. Havaskorlik dramatik to'garaklarning ishi har tomonlama ko'p qirrali hamda mashaqqatli bo'lish bilan bir qatorda, ishtirokchilarning mahoratlari oshib, sahnada o'zlariga topshirilgan obrazlarni to'laqonli yaratganini ko'rganida, to'garak rahbarining mehnati zoye ketmaganini ko'rib rohatlanadi».<sup>32</sup> Repertuar tanlash – madaniyat uyi tomonidan o'tkaziladigan tadbirlar rejasidan kelib chiqqan holda ham tayyorlanib borishi lozim (masalan, mashhur olim, shoir, yozuvchining tavallud topgan kuni munosabati bilan o'tkaziladigan tomoshalar yoki «Navro'z», «Onalar» mavzusi va h.k.z.).

Shu jihatdan ham talabalarni ushbu sohaga o'rgatishda repertuar tanlashga katta e'tibor bilan qarash kerakligini doimiy uqtirib borish lozim. Yakuniy reyting nazorati uchun ham guruh o'zining

---

<sup>32</sup> «Madaniyat uylarida havaskorlik teatr va qo'g'irchoq teatr jamoalari to'garaklarini tuzish bo'yicha tavsiyanoma. T. 2010 y.12-bet.

repertuarini aniq belgilab, shu asosida repititsiyalarni belgilashlari lozim.

Ko'pincha (ayniqsa, ommaviy bayram va tomoshalarda) tadbirning mazmun va g'oyasidan kelib chiqqan holda repertuar tanlanadi. Masalan, 1-dekabr-SPIDga qarshi kurash kuniga bag'ishlangan «Asr vabosiga qarshi kurashaylik» deb nomlangan teatrlashtirilgan tomoshada jamiyatga xavf solayotgan shunday salbiy ko'rinishlarga oid materiallar yig'ilgan. Masalan, V.Rustamovning «Achchiq haqiqat» deb nomlangan sahna ko'rimshi, Sh.Jo'rayevning «Inson qasidasi», A.Mullaxonovning «Shaytanat» qo'shig'i, 3-kurs talabalari tomonidan M.Jeksonning «Tabiatni asrang» kuyiga sahnalashtirilgan musiqali-xoreografik kompozitsiyasi (rej. J.Mamatqosimov) va boshqalarni misol tariqasida keltirish mumkin.

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti, Xalqaro Bobur mukofoti sovrindori M.Abduqunduzov o'zining «O'zbek teatr san'ati: taraqqiyot bosqichlari» deb nomlangan maqolasida teatrlarimiz repertuarlari masalasiga alohida e'tibor qaratib, shunday deydi: «Teatrlarimiz repertuari haqida so'z ketganda, uni isloh etish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni yanada chuqurlashtirish va rivojlantirish zarur:

1) milliy, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni tiklash-unutilayozgan urf-odatlar va marosimlarni sahna asarlari tarkibiga singdirish yo'lida boshlangan ishlarni davom ettirish;

2) tarixiy dramaturgiyaga e'tiborni yanada chuqurlashtirish; unutilgan tarixiy allomalar va voqea-hodisalar, qatag'onga uchragan shaxslar haqida sahnaviy asarlar yaratishni rag'batlantirish;

3) bugungi kunning dolzarb muammolari – zamonamizning ijtimoiy, milliy, ruhiy qadriyatlariga e'tiborni kuchaytirish va ularni hal etish yo'llari xususida mushohadaga undovchi sahna asarlari yaratish;

4) zamonaviy qahramon obrazini yaratish masalasiga alohida e'tibor berish, dramaturglarni bu ishga yo'naltiruvchi seminarlar, uslubiy ijodiy safarlar uyushtirish va o'tkazish – bugungi kunda teatrlarimiz oldida turgan eng mas'uliyatli vazifalardandir».<sup>33</sup>

<sup>33</sup> Istiqlo'l va milliy teatr. To'plam. 2002 y. 53 bet.

Material tanlash sahnalashtirish ishlarini boshlashdan oldingi eng birinchi diqqat qaratish lozim bo'lgan jarayondir. Material tanlanib bo'lgach, sahnalashtirish ishlari boshlanadi va sahnalashtirilib tayyor bo'lgan asarlar shu teatr yoki ijodiy guruhlarning repertuari hisoblanadi.

Har qanday ijodiy guruh, kollektiv va jamoalar o'zidagi repertuarining saviyasi, tarixiyliigi, milliyliigi, tarbiyaviy ahamiyati, rejissura va ijrochilik mahorati nuqtayi nazardan baholanib, o'z salohiyatini belgilaydi.

Repertuar tanlangach, rejissyor quyidagi ishlarni amalga oshiradi: Ijrochilar bilan asarni yana bir marotaba chuqur o'rganib, shu asarga rejissyorlik tahlil yozadi. Shundan so'ng, ijrochilarning imkoniyatlariga qarab rol taqsimlanadi. Rol taqsimlangach, shu rolning avtobiografiyasi o'rganiladi. Obrazning kelib chiqish tarixi, yoshi, davri inobatga olinadi va avtobiografiyaga kiritiladi. Keyin ijrochilar bilan stol atrofida o'qish jarayoni boshlanadi. Bunda tanlangan asar to'la qismda o'qilib, rejissyor boshchiligida bo'laklarga bo'linadi. Har bir bo'lakka imkoniyati boricha nom qo'yiladi. Bundan tashqari, asardagi personajlarning matnlari ham bo'laklar va vazifalarga ajratiladi. Berilgan vazifaga qarab, ular shunga mos xatti-harakatlar topishi lozim bo'ladi. Stol atrofida o'qish jarayoni tugash arafasida maydonga ilk bor (vigorodka) chiqiladi. Maydonga chiqqach, bo'lakchalar bir-biriga mantiqiy ulanadi va shu bilan rejissyor uchun eng asosiy vazifalardan biri bo'lmish mizanssenalar ustida ish olib boriladi. Qahramonlarning ijrosidagi ichki kechinmani, uning ruhiy holatini ochib berishda musiqiy bezakning to'g'ri tanlanishi va qo'llamishi muhim rol o'ynaydi. Rejissyorning yana bir vazifasi – bu rejissyorlik planirovkadir (masalan, asosiy qahramonni birinchi planga yoki avanssenaga joylashtirish va h. k).

Asar tanlangandan keyin rejissyorning eng asosiy ishlaridan biri rassom bilan ishlash jarayonidir. Professional teatrlar sharoitida bu mas'uliyatli vazifani maxsus ma'lumot va bilimga ega bo'lgan mutaxassislar bajaradilar. Xalq teatrida ham iloji boricha shu sohani yaxshi tushunadigan mutaxassislar jalb qilinsa spektaklni muvaffaqiyatli chiqishi imkoniyatlari kengayadi.

Sahnaga qo'yilgan har bir detal «ishlashi» kerak. U faqat sahnani to'ldiribgina qolmasdan, unga mazmun va ma'no baxsh etishi kerak. Milliy teatrimiz bosh rassomi O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi Baxtiyor To'rayev O'zbekiston televideniyesining «Yoshlar maydoni» ko'rsatuviga bergan intervyusida rassomlik faoliyati haqida gapirib shunday deydi: «Sahnaga qo'yilgan har bir dekoratsiya gapirishi kerak. Ammo ba'zan dekoratsiyalar yolg'on gapirishi ham mumkin. Agar sahnaga qo'yilgan dekoratsiya asarni mazmun-mohiyatini ochmas ekan, u faqat oddiy yog'och yoki latta-puttadan iborat bo'lib qoladi». Darhaqiqat, sahnada ishlatilayotgan dekoratsiyalar aktyorlarning bevosita erkin harakat qilishi, sahnaviy muhitni yaratishga katta yordam berishi lozim. Shuning uchun rejissyor rassomning ishiga jiddiy e'tibor berishi lozim bo'ladi. Q.Xo'jayev o'zining «Sahnaga yo'l» kitobida shunday deb yozadi: «Spektaklning tashqi sahnaviy manzaralari: bezaklar, loyihalar, matolar yoki pardalar, liboslar, ijrochilarning yuz bo'yashlari-yu, yasama sochlari, mebellar, yasama jihozlar (butaforiyalar) tomoshabin zehniga haddan tashqari kuchli ta'sir qilishini rejissyor chuqur his etadi. Uning bezakchi rassom tanlashda g'oyat qattiqqo'l bo'lishiga sabab ham ana shundadir». Rassomning ishi rejissyorning nuqtayi nazariga xizmat qilishi lozim. Rejissyor, aktyor va rassom spektaklni sahna yuzini ko'rishidagi eng asosiy ijodkorlari bo'lib, ularning faoliyatlari bir-birlarini to'ldirib, boyitib, badiiy jihatdan yetuk asarning yuzaga kelishiga omil bo'la oladilar.

Madaniyat va aholi dam olish markazlarida tashkil etilgan drama to'garaklarda rassomlik faoliyati ko'p narsalarni belgilab beradigan muhim omillardan hisoblanadi. Masalan, zo'r tanlangan repertuar, a'lo darajadagi aktyorlik mahorati va rejissura sahna bezagisiz kerakli natijani bermasligi barchaga ayon. Chunki, sahnaga kerakli jihozlar, turli ranglar, dekoratsiya va butaforiyalar, kiyim-kechak, grim-parik, chiroq va boshqalar rassomning faoliyati bilan bog'liqdir. Rassomning ishi sahnada real aks etgandagina spektakl mazmuni tomoshabinga tez yetib boradi.

Rassom spektakl yaratishda madaniyat uyidagi barcha imkoniyatlardan ustalik bilan foydalana oladigan, voqea o'tadigan joyni shaklini aniqlab, yengil va mazmunli bezamog'i lozim. Buning uchun u professional teatrlarning sahna dekoratsiyalarini

yaratish bo'yicha tajribalarni muntazam ravishda o'rganib, malakasini oshirib bormog'i lozim.

Bir so'z bilan aytganda, madaniyat uylaridagi xalq teatrlarining faoliyatida repertuar masalalariga jiddiy e'tibor berish – badiiy jamoaning kelajakdagi muvaffaqiyatlarini kafolatlaydi.

Ko'pgina holatlarda madaniyat va aholi dam olish markazlarida bor ijodiy jamoalarning repertuarlaridan kelib chiqqan holda tadbirlarga tavsiya etiladi. Ijodiy jamoalarning obro'si, darajasi ko'p jihatdan ular repertuarlarining boyligi va mazmun jihatdan mukammalligiga qarab aniqlanadi.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. *«Repertuar» so'zining lug'aviy ma'nosini ayting.*
2. *Ijodiy jamoalar repertuari deganda nimani tushunasiz?*
3. *Toshkent teatrlari repertuari bilan tanishmisiz?*
4. *O'zingizning shaxsiy repertuariningiz haqida aytib bering.*
5. *Madaniy tadbirlarlarni tashkil etishda repertuarining qanday ahamiyati bor?*

### **Mustaqil ish uchun mavzu va vazifalar:**

1. *O'zingiz sevgan ijodkorning repertuarini tahlil qiling.*
2. *Toshkent teatrlaridan birini tanlab repertuari haqida ma'lumot tayyorlang va tahlil qiling.*
3. *«Ijodiy jamoalar faoliyatida repertuarining o'rni» mavzusida referat tayyorlang.*

### **Aktyorlik san'ati haqida**

Rejalashtirilgan tadbirlar tashkilotchilar tomonidan uyushtiriladi, ijrochilar tomonidan tomoshabinlarga taqdim etiladi. Shu jihatdan olib qaralganda, tadbirda bo'layotgan har bir voqelik aktyorlar tomonidan tomoshabinlarga yetkaziladi. Albatta, bu yerda «aktyorlar» tushunchasi keng ma'noda ishlatilishi kerak. Joylarda o'tkaziladigan tadbirlarda professional aktyorlik san'atidan kam hollarda foydalanadilar. Xalq ichidan chiqqan, o'ziga xos mahoratga



ega bo'lgan iqtidorlar sahnada tashkilotchilar tomonidan berilgan «vazifa» va «zakaz»ni bajaradilar Nima bo'lganda ham ular o'zlariga yuklatilgan vazifalarni matnlar, turli xatti-harakatlar va boshqa yondashuvlari bilan sahnada «rol o'ynaydilar». Ammo qay darajada tomoshabinga yetkazishi, uning havaskorlik darajasidagi «mahorat»ga bog'liq. Bundan xulosa shuki, sahnaga chiqdingmi, sen «haqiqiy professional aktyorga» aylanishing kerak, degan tushuncha ularga singdirilishi kerak. Shuning uchun ham madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish bo'limi talabalari, ya'ni bo'lajak madaniy tadbirlar tashkilotchilaridan aktyorlik mahorati va rejissurani to'liq o'zlashtirishlari talab etiladi.

Havaskorlik darajasidagi «aktyorlik» (bunday iborani ishlatish yoki ishlatmaslik to'g'risida o'ylab ko'rish kerak) –tadbirning badiiy saviyasini tushirib yuboradi, ko'pincha «bachkanagar-chilik»ka olib keladi, tomoshabinlarni «ensasini qotiradi». Masalan, Amir Temur hayotiga bag'ishlangan tadbirda Amir Temur roli ijrochisi sahnada aktyorlikning barcha talablarini bajara olmasa, ko'zlangan maqsadga erishishga ko'zi yetmasa, uning sahnaga chiqmagani ma'qul. Sahnaga chiqqan har bir qahramon bir timsol sifatida, aytilgan har bir so'z esa tarbiyaviy da'vat sifatida namoyon bo'lishi lozim, ya'ni aktyor—«timsol sifatida obraz qiyofasida qahramonning munosabatlari bilan yashaydi, uning fikri va maqsadi bilan harakat qiladi».<sup>34</sup>

Shuning uchun ham sahnaga faqat tayyor bo'lgan «mahsulotlar»nigina chiqarish maqsadga muvofiqdir. Bu bilan tayyor bo'lmasa ishlamay qo'ya qolish kerak, degan fikrga kelmaslik kerak, aksincha, uni tayyorlash uchun tinimsiz mehnat qilish orqali muvaffaqiyatga erishishligini uqtirish lozim. Aktyorlik san'atida – «mahorat» tushunchasi katta ahamiyatga ega. Mahoratli aktyorlar hamisha sahnaning ko'rki bo'lib kelganlar, aynan, o'sha mahorat sababli tomoshabinga ta'sir ko'rsatganlar. Mahorat – bu layoqatlilik va qobiliyatlikni eng yuqori va oliy cho'qqisidir. Shuning uchun ham mahorat – mehnatsevarlik natijasi bo'lib, mehnat tufayligina vujudga keladi va rivojlanadi. Haqiqatda ham fiziologik layoqatlilik bo'lsa-yu, lekin mehnatsevarlik, qat'iyat, matonatlik bo'lmasa, u

---

<sup>34</sup> Mahmudov J., Mahmudova X. Rejissura asoslari. T. O'DSI bosmaxonasi. 2008 y.

holda mahorat quruq safsataga aylanadi. Insonning erishgan barcha katta-kichik muvaffaqiyatlari, hayotining qaysi sohalarida bo'lmasin, baribir, o'sha soha mehnati bilan bog'liq va uning qonuniy natijasidir. Madaniy tadbirlar tashkilotchilari aktyorlikning barcha tamoyillarini, ishlash uslublarini bilishi zarur.

Aktyor – lotincha – «akt», «akto» so'zlaridan olingan bo'lib, harakat degan ma'noni anglatadi. Bir so'z bilan aytganda aktyor bu – xatti-harakat qiluvchi shaxsdir.

Lug'atlarda aktyor – drama, operat, balet, qo'g'irchoq teatri, sirk, teatr, kino, radio (inssenirovka, postanovka, montaj) va televideniya rollari ijro etuvchi shaxs, artist, deb ta'rif berilgan.

Aktyor teatrning asosiy figurasidir. Madaniyat uylari, saroylaridagi ijrochilar esa havaskorlardir. Aktyorlik tushunchasi professionallik tamoyillariga asoslansa, havaskorlik esa o'z-o'zidan ma'lumki xalq orasidan chiqqan iqtidorlardan tashkil topadi. Ammo unda ham bunisida ham professional darajaga intilish lozim.

Aktyorlik san'atining eng birinchi talablaridan biri bu mahoratdir.

Aktyor har safar «men tomoshabin oldiga qay maqsadda chiqmoqdaman, uni nimaga undamoqchiman, nimaga ishontirmoqchiman» degan savollarga javob axtarib topsagina tomoshabin yoki tinglovchi yuragidan joy oladi.

Aktyor xoh u professional bo'lsin, xoh havaskor bo'lsin, uning maqsadi bitta – tomoshabinga xizmat qilish. Lekin o'z mahoratining qanchalik ta'sirli, tabiiyligi bilan, tomoshabinni qanchalik larzaga sola bilishi bilan bir-biridan farq qilishi mumkin.

Odatda, sozandaning mahorati deganda, uning soz chalishtirish texnikasini qanchalik mukammal egallaganiga qarab baho beriladi. Aktyorlik mahorati ham aktyorlik texnikasini naqadar puxta o'zlashtirganligiga qarab baholanadi.

Aktyorlik texnikasi nima?

Nima uchun bu mavzu fanning amaliy qismida yoritilmoqda?

Aktyorlik texnikasi – bu aktyorning ijro mahorati, ijro usullari, sahnaviy yashash san'ati, aktyorning bir og'iz gapi-yu, uni tomoshabinga singdirish darajasi, hatto oddiy deb qaraladigan etyudlarni ijro etish mahorati, xatti-harakati va shu kabilardir.

Rejissyorlik va aktyorlik bo'limiga o'qishga kirgan talabalarga avvalo, umumiy mashqlar beriladi. Bu mashqlar talabaning tasavvurini, xotirasini, munosabatini, diqqatini, ongini rivojlantirishga xizmat qiladi. Umumiy mashqlar eng avvalo talabalar o'rtasidagi ijro intizomini, muloqot madaniyatini yaxshilashga yordam beradi. Chunki ijro madamyatisiz jamoaviy ishlarda biror narsaga erishib bo'lmaydi.

Talabalardan mutaxassislik darslarida qora rangda maxsus kiyimlar kiyish talab etiladi. Bu birinchi o'rinda gigiyena masalasida bo'lsa, ikkinchi tomonlama darsga maxsus, ya'ni ichki dunyo orqali ham tayyorgarlikni taqozo etadi. Maxsus kiyim kiygan talaba darsda o'zini erkin tutadi. Dars boshlanishda o'qituvchi ularni turli xil jismoniy mashqlar bajartirish orqali darsga tayyorlaydi. Shundan so'ng ularni yarim aylana shaklida joylashtiradi.

Talabani darsga bo'lgan diqqat-e'tibori dars davomida susayib ketmasligi uchun uni maxsus stulning (taburetk) yarmigacha, gavgani tik ushlagan holatda o'tqaziladi. Talaba stulda qanchalik bemalol o'tirsa, u shunchalik sustkashlikka beriladi. O'qituvchi tomonidan dars davomida talabalarning aktyorlik mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi mashqlar beriladi. Bu mashqlarning umumiy tasnifi keyingi mavzularda yoritiladi.

Tabiatda mo'jiza o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Uning ortida tinimsiz, mashaqqatli mehnat yotibdi. Rejissyorning har qanday rejasi, o'ylagan maqsadi mashqsiz to'satdan amalga oshmaydi. Spektakldagi har bir topilma, aktyorning qiyofa yaratishidagi xatti-harakati izlanishlar natijasida yuzaga keladi. Mashhur rejissyor Georgiy Tovstanogov «Teatr iqtidorni tarbiyalaydi, buloqning ko'zini ochganday mashqlar evaziga unga imkoniyatlar yaratadi» deb bekorga aytmagan Mashhur teatr rejissyori Anatoliy Efros «Mashq – mening muhabbatim» deydi. Darhaqiqat mashq tufayligina rejissyor ham, aktyor ham idrok qiladi, asarning mag'zini, yechimini topadi. Ko'pincha teatrdan mashq paytida ijodiy muhit hukm suradi, hech kim halal bermaydi, pashsha uchgani bilinadi. Bu ijodiy jarayon. Haqiqiy san'at ahli bu jarayonni qutlug' bir holat deb biladi. Rejissyorning stol atrofida ishlashi bo'ladimi, sahnada mizanssenalarni joylashtirish, aktyorlarning libosda, pardoza mashq o'tkazishi bo'ladimi, sahna bezagi, musiqa va ijro uyg'un-

lashgan mashq bo'ladimi, barchasida ijodiy muhit hukm surmog'i darkor.

O'qituvchi dars jarayonida talabalarga umumiy yoki yakka tartibda ularning individual xususiyatini hisobga olib turli mashqlar berishi mumkin. Masalan, talabani tasavvurini rivojlantirish uchun bir talabani sahnaga chiqarib, faraz shaklida uning keng dalada ketayotganligi, oldidan to'satdan baland tik jarlik chiqib qolganini vazifa qilib berishi va talabani o'sha sharoitda o'zini qanday tutishi kerakligi bo'yicha mashqlar o'tkazishi yoki sahnaga chizilgan to'g'ri chiziqni osmondagi dor sifatida faraz qilib, undan yurib o'tishni, ariqdan sakrashni va shu kabi mashqlarni berib, talabalarning tasavvurini boyitishi mumkin.

Talabalarga umumiy guruh uchun ham mashqlar berilishi mumkin. Masalan, guruhni ikkiga bo'lib, ular bilan arqon tortish mashqini o'tkazish mumkin. Bu mashqni arqonsiz bajarish talab etiladi. Chunki talabalar, o'z oldida turgan partnyorini sezishi, buyumni his qilishi, raqib guruh munosabatini ko'rishi kerak bo'ladi. Bu mashqlar K.S.Stanislavskiy tomonidan ta'kidlangan ko'rish, sezish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish kabi sezgi a'zolarini jonlantiradi.

Talabalarda beshta sezgi a'zolari orqali esida qolgan taassurotlarini sahnada qayta uyg'ota bilishning zarurligi shundan iboratki, aktyor doimo sahnada yasamali predmetlar bilan aloqada bo'lishi tabiiy. Spektakl davomida uning har bir predmetga o'z munosabatini bildirishi, bir nimalarni ichishi va yeyishi kerak bo'ladi. Unga esa haqiqiy ichimlik ichish o'rniga sahnaviy yasama ichimlik yoki yeyish kabilar taklif etiladi. Aktyor esa, mana shu butafor predmetlarni, hayotiylikka aylantirish uchun, ta'm bilish sezgilari orqali, esida qolgan shu ichimlik, yeyishlik taassurotlarini shartli refleks shaklida o'zida qayta uyg'otib, shuni harakatlar orqali tomoshabinlarga hayotiy va haqqoniy qilib ko'rsatib, ishontira olishi kerak bo'ladi. Yoki bo'lmasa aktyor sahnaga chiqishi bilan «oh, tabiatning go'zalligini qarang, bog'dagi gullarning hidini aytmay-sizmi...», - deyishi kerak. Lekin aslida sahnada gulning hidi emas, yelim va bo'yoqlarning hidi aktyorning nafasini bo'g'ib turishi mumkin. Mana shunday sahnaviy sharoitda, hayotiy harakat qilib, uni tomoshabinga ishonarli qilib yetkaza bilish uchun, aktyor

o'zining beshta sezgi a'zolarini, sahna talabiga javoban harakat qilishga tayyorlashi kerak. Mana shu qobiliyatning shakllanish yo'llarini aktyorlik treningi mobaynida o'rgatiladi.

Talabalar beshta sezgi a'zolari bo'yicha ishlangan mashqlarning hammasida predmetni sezishdan oldin ularning obrazlarini tasavvur qilib ko'ra bilishlari kerak. So'ngra o'z taassurotlarini esga keltirib his-tuyg'ularini o'sha paytning o'zida uyg'ota olishi oson bo'ladi. Ko'z bilan ko'rish va quloq bilan eshitish boshqa a'zolarga nisbatan ijodiy a'zolar ekanligini talabalarga eslatib o'tish kerak.

O'qituvchi trening davomida talabalarga sahna bo'ylab yurishga, chopishga, o'tirgan holatda yurishga, sahnaga yonlama yurishga ko'rsatma berishi, ularni xohlagan paytda to'xtatishi («stop» signalini nazarda tutilmoqda) mumkin. Talabalar «Stop kadr»da qolishadi. Kimdir bir oyoqda, kimdir engashgan, yana kimdir qo'llari tepada va h.k. O'qituvchi ularga «holatni oqlash» vazifasini topshiradi. «Holatni oqlash» bu to'xtagan holatni mantiqiy davom ettirishdir. Ya'ni qo'llari tepada talaba go'yoki partnyor bilan koptok o'ynayotgandek, bir oyoqda qolgan talaba o'zini xuddi cho'loqdek ko'rsatishi, engashgan talaba – to'satdan yiqilib o'zi to'xtagan holatni mantiqan davom ettirish mumkin. Bu mashqning talabaga foydasi shuki, avvalo talabaning ijro mahorati o'sadi, sahnadagi turli tasodifiy improvizatsion jihatlarga tayyor turadi. Tasavvuri va fikrlash doirasi kengayadi. Alohida jihati butun tanani tezlikda miya orqali bo'ysundirishga va harakatga keltirishga erishadi.

Aktyorlik mahoratini rivojlantirishda mashqlarning o'rni beqiyosdir. Chunki, aktyor boshqa san'atkorlarga nisbatan, tabiatning ruhiy holatining turg'unsizligini hisobga olgan holda hamisha va muntazam mashq qilishga muhtoj shaxsdir. O'z oldiga qo'ygan maqsadni bajarish uchun uning psixo-fizik holati doim ijodiy tayyor turishi kerak. Agar sozanda soatlab o'z asbobi bilan kuyni mashq qilmasa, raqqosa tinimsiz o'z ustida shug'ullanmasa, hofiz nafas sozlab turmasa, kuni bekor o'tganday, aktyor ham o'z ovozi, jussasini, mahoratini uzluksiz charxlab turishi shart.

Aktyor ham o'z ijodini chetdan turib kuzatadigan, ijodiy jara-yonni charxlaydigan nazorat qilib boradigan, yo'l-yo'riq ko'rsatadigan murabbiy rahbar rejissyorga muhtoj shaxsdir. Rejissyorning

fikri, orzu-armonlarini, badiiy reja va niyatlarini, ilmiy salohiyati va hayotiy kuzatuvlarini, tasavvuri, didi va ehtirolari, barchasini sahna harakati va vujudi orqali keng ko'lamda ro'yobga chiqarib namoyish qilib beruvchi bu aktyordir. Aktyor rejissyor irodasiga bo'ysungan materialdir.

Shunday ekan, aktyorlarni tayyorlashda, ya'ni talabalarga bilim berish jarayonida, ularning 1-kursdagi ijodiy faoliyatiga ehtiyotkorlik bilan yondashishi va kuchli nazoratga olishi kerak. Chunki bu davr aktyorlik faoliyatiga poydevor qo'yish pallasidir. Aktyorlik kasbi boshqa kasblarga qaraganda kuzatuvchanlikka o'ch kasbdir. Shu sababdan har bir talabaga «kundalik nazorat daftari» tutish topshiriladi. Unga ko'ra talabalar ko'cha-ko'yda ko'rgan e'tiborga molik voqea va hodisalarni (albatta sahnaga moslarini), turli xil xarakterdagi insonlar xatti-harakatlarini qayd etib borishi lozim. Hattoki 1-kursning dastlabki oylarida talabalarni maxsus hayvonot bog'iga ham yuboriladi. U yerda talabalar hayvonlarning harakatlarini, o'ziga xos xususiyatlarini, yurish-turishini o'rganib daftari qayd etadi. Ular etyud ishlaganda bu qaydlardan foydalanishi mumkin. Bu qaydlar daftari ham aktyorlik mahoratini rivojlantirish uchun o'ziga xos mashqdir.

Talabaning fikrlash doirasini, tasavvuri va eng muhimi so'z boyligini kuchaytirish uchun talabalarga «Mantiqiy hikoya» yozish vazifasi beriladi. Unga ko'ra o'qituvchi tomonidan bir turkumga xos predmetlar ishtirokida, talabaga hikoya janrini o'zi tanlashi ixtiyorini (fantastik, komik va h.k. yo'nalishda) bergan ravishda, kichik hajmli hikoya yozish topshiriladi. (Masalan: 2009-2010 o'quv yilida A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti «Ommaviy bayramlar rejissurasi» bo'limining 1-kurs talabalariga kurs badiiy rahbari J.Mamatqosimov tomonidan o'quv qurollari sanalmish daftar, qalam, o'chirg'ich ishtirokida «Mantiqiy hikoya» yozish vazifasi berildi. Har bir o'quv qurolining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda yondashish, sujetga e'tibor berish, hikoya janrini aniq belgilash – hikoyaning badiiy saviyasi kafolati ekanligi tushuntirildi.) Shunga o'xshash vazifalar asnosida aktyorning mahorati rivojlanib boradi. Aktyorlikni faqat Stanislavskiy tomonidan berilgan mavzular asosida emas, pedagogning

o'zining dunyoqarashidan ham kelib chiqqan holda rivojlantirishga qaratilgan topilmalar asosida ham o'rganish va o'rgatish mumkin.

Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati fani ham yuqorida aytib o'tganimizdek, aktyorlik, rejissura san'ati hamda madaniy tadbirlarni tashkil etish uslublarini o'rganishga asoslangan holda o'qitiladi.

Tadbirlarni tashkil etish, sahnalashtirish asoslarini o'rganish, sahna ko'rinishlarini tayyorlash, inssenirovkalar ustida ishlashda turli mashqlarni bajarish bu sohani yaxshi o'zlashtirishga asos bo'la oladi.

Madaniyat va san'at muassasalari tashkilotchilari, rahbarlari yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarni o'zida jo qilish bilan bir qatorda, san'atning yana bir muhim shakllaridan biri bo'lgan aktyorlik san'atini o'zlashtirishlari muhimdir. Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish bo'limi talabalarini uchun tuzilgan o'quv rejalarida aktyorlik mahorati fani deb alohida soatlar ajratilmagan. Joylarda tashkil etiladigan tadbir, bayram va tomoshalarni tomoshabin e'tiboriga havola etish, asosan sahnalashtirish ishlari orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun ham ijrochilar bilan ishlashning eng yorqin namunasi aktyorlar bilan ishlashdir. Buning uchun esa bu ta'lim yo'nalishi talabalaridan aktyorlik mahorati maktabining nazariy va amaliy asoslarini o'rganish talab etiladi.

«Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati» fanini 6 semestr davomida o'qitish rejalashtirilgan. Yuqorda qayd etib o'tganimizdek, mazkur fan 5qismdan iborat holda o'tiladi:

1. Madaniy tadbirlarning nazariy asoslari—bunda madaniy tadbirlar haqida tushuncha, madaniy tadbirlarni tashkil etishning usul va uslublari, madaniy tadbirlarda foydalaniladigan vositalar va boshqalar.

2. Madaniy tadbirlar shakllari, turlari – bunda tadbirlarning turli shakllari haqida ma'lumot beriladi, masalan, bayramlarni tashkil etish yo'l-yo'riqlari, bir so'z bilan aytganda, bayramlar madaniy tadbir sifatida qaraladi.

3. Madaniy tadbirlarni sahnalashtirish usullari bayon etiladi, ya'ni rejissura haqida gap boradi.

o'zining dunyoqarashidan ham kelib chiqqan holda rivojlantirishga qaratilgan topilmalar asosida ham o'rganish va o'rgatish mumkin.

Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati fani ham yuqorida aytib o'tganimizdek, aktyorlik, rejissura san'ati hamda madaniy tadbirlarni tashkil etish uslublarini o'rganishga asoslangan holda o'qitiladi.

Tadbirlarni tashkil etish, sahnalashtirish asoslarini o'rganish, sahna ko'rinishlarini tayyorlash, inssenirovkalar ustida ishlashda turli mashqlarni bajarish bu sohani yaxshi o'zlashtirishga asos bo'la oladi.

Madaniyat va san'at muassasalari tashkilotchilari, rahbarlari yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarni o'zida jo qilish bilan bir qatorda, san'atning yana bir muhim shakllaridan biri bo'lgan aktyorlik san'atini o'zlashtirishlari muhimdir. Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish bo'limi talabalari uchun tuzilgan o'quv rejalarida aktyorlik mahorati fani deb alohida soatlar ajratilmagan. Joylarda tashkil etiladigan tadbir, bayram va tomoshalarni tomoshabin e'tiboriga havola etish, asosan sahnalashtirish ishlari orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun ham ijrochilar bilan ishlashning eng yorqin namunasi aktyorlar bilan ishlashdir. Buning uchun esa bu ta'lim yo'nalishi talabalaridan aktyorlik mahorati maktabining nazariy va amaliy asoslarini o'rganish talab etiladi.

«Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati» fanini 6 semestr davomida o'qitish rejalashtirilgan. Yuqorda qayd etib o'tganimizdek, mazkur fan 5qismdan iborat holda o'tiladi:

1. Madaniy tadbirlarning nazariy asoslari—bunda madaniy tadbirlar haqida tushuncha, madaniy tadbirlarni tashkil etishning usul va uslublari, madaniy tadbirlarda foydalaniladigan vositalar va boshqalar.

2. Madaniy tadbirlar shakllari, turlari — bunda tadbirlarning turli shakllari haqida ma'lumot beriladi, masalan, bayramlarni tashkil etish yo'l-yo'riqlari, bir so'z bilan aytganda, bayramlar madaniy tadbir sifatida qaraladi.

3. Madaniy tadbirlarni sahnalashtirish usullari bayon etiladi, ya'ni rejissura haqida gap boradi.



4. Aktyorlik mahorati – bunda talabalarda aktyorlik mahorati elementlari turli mashqlar, etyudlar va boshqa janrlar bilan ishlash bo'yicha ko'rsatmalar beriladi.

5. Tashkilotchilik mahorati – bunda barcha tashkiliy ishlarni amalga oshirish ishlarining uslublari haqida gap boradi.

Bir narsani esdan chiqarmaslik kerakki, bu mavzularni hammasini uyg'unlikda olib borish maqsadga muvofiqdir. Amaliy va nazariy bilimlar uyg'unligi fanni o'zlashtirishga katta yordam beradi. Masalan, fanning «Aktyorlik mahorati» qismini «Rejissura» bilan bevosita bog'lagan holda o'rganish kerak. Tashkilotchilik mahorati bo'limi ham ushbu jarayonlarda ijodiy jarayonlarni tashkil etishda kerak bo'ladi va h.k.

Aktyorlik mahorati fanining o'ziga xosligi shundaki, u talabdan faqat katta mehnat talab qiladi. Qayta-qayta repetitsiya-qaytariqlar, o'zi, roli ustida ishlash, mizanssenalar ustida ishlash kabi vazifalarni 3yil davomida o'zlashtirib boradi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, aktyorlik mahoratini o'zlashtirish asnosida rejissurani, ya'ni sahnalashtirish san'atini o'rganib boradi. To'g'ri, «Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish» bo'limi talabalari uchun ushbu fan asosiy hisoblanmasa ham, rahbar sifatida ushbu masalalarni bilishi zarur bo'ladi. Shuning uchun ham bu bo'limda aynan rejissyorlik va aktyorlik kurslarida qanday talab bo'lsa, xuddi shunday qattiq talab qo'yiladi. Har bir semestr nihoyasida guruh o'z ijodiy ishlarini uslubiy kengash a'zolariga taqdim etadilar, uslubiy kengash a'zolari o'zlarining fikr-mulohazalarini aytadilar, kamchiliklar bo'lsa to'g'irlanadi, xullas, uslubiy kengash a'zolarining tasdig'idan o'tgandan so'ng ijodiy ish tomoshabinlarga ko'rsatiladi.

Olti semestrga mo'ljallangan o'qish mobaynida 6 xil ijodiy ish tayyorlanadi. Bunda aktyorlik mahoratiga oid mashqlar, hajviy janrlar (intermediya, miniatura, felyeton, latifa, komediyalardan parchalar), tasviriy masal va boshqa asarlarni sahnalashtirish ishlari orqali mashg'ulotlar olib boradilar. Undan tashqari, madaniy tadbirlar turlari bo'yicha (masalan, ko'rik-tanlov, bayramlar, tematik kechalar va h.k.), badiiy publisistik kompozitsiyalar asosida tadbirlar tayyorlashlari ham mumkin.

«Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati» fanini aktyorlik mahoratiga tegishli qismini aniq amaliy mashg'ulotlar orqali o'rganamiz. Shuning uchun ham aktyorlik va rejissyorlik kurslarida o'tilganidek, mavzularni bosqichma-bosqich, bo'limlarga ajratib o'zlashtirib boramiz.

Sahnada o'zini erkin his qilish, to'g'ri xatti-harakat qilish, xullas, aktyorlik mahorati elementlarini o'zlashtirishni quyidagi bo'limlar orqali o'rganamiz:

1. Muskullarni bo'shatish.
2. Xatti-harakat, «Agar-da», berilgan shart-sharoitda.
3. Tasavvur.
4. Sahnaviy diqqat.
5. Haqiqat tuyg'usi va ishonch.
6. Sahna soddaligi.
7. Hissiyotlarni eslab qolish qobiliyati.
8. Munosabat.
9. Xarakterlik.
10. Tempo-ritm.

11. Mizanssena va boshqa mavzular orqali o'zlashtirilib boriladi. Yuqorida qayd etilgan mavzular aktyorlik mahoratini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, barchasi bir-birlarini to'ldirib boradi. Bu mavzularni alohida yoritmaymiz, chunki bu materiallar bir qancha adabiyotlarda berilgan. Masalan, (Ahmedov F.E. «Ommaviy tadbir va bayramlar rejissurasi va aktyorlik mahorati». T. 2007), (B Sayfullayev hamda J.Mamatqosimov hamkorligida yaratilgan «Aktyorlik mahorati» darsligi, 2012), (Ismoilov M.I. «Rejissura va aktyorlik mahorati bo'yicha o'tkaziladigan amaliy mashqlar». T.O'zFAAK. 2007), (J.Mahmudov. «Aktyorlik mahorati». T.: «Bilim», 2005), (Станиславский К.С. соб. соч. 8 томах «Моё жизнь выкустве», «Работа актёра над собой», «Etika» М. «Искусств»), (J.Mamatqosimov. «Ommaviy bayramlar rejissurasi da sahna madaniyati». T.: «Fan va texnologiya». 2009) kabi adabiyotlarda ushbu mavzular to'liq berilgan.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda aktyorlik san'ati, mahoratini o'zlashtirish katta rol o'ynaydi. Guruhlarda asarlar ustida ishlash, spektakllardan parchalar tanlash va sahnalashtirish, turli dialog va

elementlar o'zlashtirilib boriladi. Shuning uchun ham etyudlarga o'tishdan oldin turli mashqlar bajariladi.

Taburetkalar bilan ishlash, qarsak mashqlari, muskullarni bo'shatish, tasavvurdagi buyumlar bilan ishlash, predmetlarni jonlantirish, pozalar (holat)ni oqlash, diqqat, tasavvur, «agar-da», berilgan shart-sharoitda, hayvonot olami kabi mashqlar bilan ishlash orqali sekin-asta aktyorlikning «poydevori»ni qurishga tayyorgarlik ko'rib boriladi, ya'ni aktyor texnikasi ustida ish boshlanadi. Etyudlar ustida ishlash esa mashqlardan keyingi bajarilishi kerak bo'lgan muhim ijodiy jarayondir, ya'ni etyudlar ustida ishlashga kirishishdan oldin aktyorlik mahoratiga oid mashqlar o'zlashtirilishi kerak bo'ladi. Mashqlarning etyuddan farqi shundaki, etyudlar tugallangan, ma'lum kompozitsion jihatdan ishlab chiqilgan asar hisoblanadi. Mashqlar esa tugallanmagan, lekin aktyorlik mahoratini o'rganishda «trenirovka» sifatida takrorlanib o'zlashtirib boriladi. Mashqlarni o'zlashtirib borgan sayin etyudlarga o'tish protsessi boshlanadi. Mashqlarni mantiqiy davom ettirgan holda etyudlarni boshlab yuborish mumkin. Masalan, predmetsiz xatti-harakat uchun topilgan «shar puflash» yoki «holatni oqlash (оправдание пози)» mashqlarini davom ettirib xohlagan mavzudagi etyudga aylantirish mumkin.

Etyud – hayotdan olingan bir ko'rinish bo'lib, dramaturgiyaning hamma komponentlarini o'z ichiga oladi. Dramaturgiya komponentlariga voqea, qarama-qarshiliklar kiradi va ular kompozitsion tuzilishga ega bo'lishi kerak, bir so'z bilan aytganda dramatik asar uchun kerakli bo'lgan barcha jihatlar etyudda mujassam bo'lishi kerak. Etyud deyarli so'zsiz harakat asosiga quriladi, ammo ba'zi hollarda bitta-ikkita so'zlarni ishlatish mumkin (masalan, salom, xo'p, allo, ha, yo'q, bo'пти kabi). Etyudlar shuning uchun ham o'rganiladiki, sahna san'atini endigina o'rganayotgan ijrochi uchun eng muhim bosqichlardan hisoblanadi. Aktyorlik sohasini egallashni o'ziga maqsad qilib qo'ygan har qanday ijrochi ijod yo'liga etyudlar orqali kirib boradi. Etyudlar esa aktyorlik mahoratini o'rganish va o'zlashtirishning asosi hisoblanib, aktyorni tarbiyalovchi vositalardan biridir.

Etyudlar ustida ishlash ikki xil usul bilan amalga oshiriladi:

1. Etyudlarni yozma holda tayyorlash (o'ylab, to'qib yozish).

## 2 Sahnalashtirish ustida ishlash.

Etyudlarni yozma holatda tayyorlash shu sohani o'rganishni endigina boshlagan (aktyorlik yoki rejissyorlik guruhlarining birinchi bosqichlarida tahsil olayotgan ) ijodkorlar uchun muhim protsess hisoblanadi. Etyudlarga o'tishdan oldin o'qituvchi talabaga turli mavzularda hikoyalar, ertaklar tuzishga vazifalar berib boradi. Talaba qo'liga ruchkani olib berilgan mavzuga mos hikoya to'qish uchun o'zining «fantaziyasini» ishga solib, aytmoqchi bo'lgan fikrini qog'ozga tushira boshlaydi. Ana shunda uning uchun ijodning ilk qadamlari boshlanadi. Ko'pgina holatlarda ba'zi talabalarda yozuvchilik layoqatini sezgan ustozlar bu ishni professional darajada davom ettirish uchun maslahatlar berib, to'g'ri yo'llanma beradilar va natijada ulardan kelajakda mohir adiblik, yozuvchilik, dramaturg va boshqa ijodkorlik qobiliyatiga ega bo'ladilarki, bu layoqat ularning rejissyorlik yoki aktyorlik ijodida katta rol o'ynaydi. Shuning uchun etyudlarni yozma shakliga ham jiddiy e'tibor berish talab etiladi.

Etyudlarni o'ylab, to'qib yozayotganda sahnani ko'z oldiga keltirgan holda yozish kerak. Chunki ba'zan qog'ozda yozilgan voqeani sahnaga ko'chirish juda qiyin kechadi. Uni yozib kelgach, talabalar bilan albatta muhokama qilish lozim. Muhokama qilingan har qanday asarning kamchilik va yutuqlari ma'lum bo'ladi va natijada talaba nima to'g'ri-yu, nima noto'g'ri, yaxshi bo'lishi uchun nima qilish kerakligini anglab boradi. Ba'zi holatlarda talabalar olib kelgan etyudlar haddan tashqari qattiq tanqid qilinadi va umuman repertuarga kiritilmaydi. Natajada talabada ijodiy jihatdan «tormozlanish» boshlanadi. Aslida esa talaba olib kelgan etyudning o'zini (agar u haqiqatan ham juda sayoz yoki mantiqsiz yozilgan bo'lsa) o'qituvchi shu guruhdagi talabalar bilan qayta ishlab uni etyud talablariga javob beradigan holatga keltirishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Talabalarga «bu etyudning nimasi to'g'ri-yu, nimasi noto'g'ri, siz shu etyuddagi voqeaga qanday yondashgan bo'ladingiz?, kabi savollarni o'rtaga tashlab, ularning fikrini rivojlantirib, eng to'g'ri javob ustida to'xtalib, aynan shu etyudni sahnaviy ko'rinishi ustida ish boshlashga imkon berish kerak.

Hech kim o'ylamagan, original etyudlarni topish har bir talaba uchun qimmatli topilmadir.

Etyudlar – aktyorlik mahoratini rivojlantirish uchun eng kerakli bo'lgan jarayon bo'lgani uchun bu protsessga jiddiy yondashish kerak. Talabani yozib kelgan etyudini har tomonlama muhokama qilib, uning kamchiligi-yu, yutug'i to'g'ri ko'rsatilib, kelajak ishlariga vazifalar to'g'ri yuklanishi kerak.

Eng e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlardan biri, etyudlarning kompozitsion jihatdan qurish aynan shu etyudni to'qib-yozish davrida amalga oshiriladigan ishdir. Etyudlar kompozitsion tuzilish jihatdan to'g'ri qurilgan bo'lishi kerak. Ya'ni har qanday voqelikning boshi, o'rtasi va nihoyasi bo'lishi kerak yoki buni ilmiy til bilan aytadigan bo'lsak, prolog, tugun, voqealar rivoji, kulminatsion nuqtasi va yechimi bo'lishi shart. Etyudlarni yozma holatlarini muhokama qilganda mana shu jihatlariga albatta e'tibor qaratish lozim.

2. Etyudlarni sahnalashtirishga kirishishdan oldin, o'qituvchi etyudlardan birini namuna sifatida ko'rsatib, nimalarga e'tibor berish kerakligi to'g'risida suhbatlashib oladi. Qog'ozda yozilgan manba sahnaga ko'chirilayotganda ishni nimadan boshlash kerak? Eng avvalo, aktyorlarni tanlab, ularga etyud tushuntiriladi va harakatga ko'chirish ishlari boshlanadi. Aktyorlarga voqea tushuntirilgach, harakatga keltirish ularning o'zlariga qo'yib beriladi. Agar o'qituvchi, sen unday qil yoki bunday qilgin, deb aytib tursa, o'rganuvchi talabani imkoniyatlarini cheklab qo'yish mumkin. Shuning uchun unga sahnaning qonun-qoidalaridan tortib, nima mumkin-u nima mumkin emasligini, sahnada qilayotgan xatti-harakatlari misolida tushuntirib borishi kerak.

Aktyorlik mahoratining ilk qadamlari etyudlar ustida ishlashdan boshlanadi. Buning yana bir muhim xususiyati borki, bu jarayon aktyorlik mahoratining poydevori bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham bu jarayonda ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak. Chunki, ustozlarimiz aytganlaridek, aktyorlikni endi boshlaganda uni qaysi yo'lga o'rgatsang shu yo'ldan yuradi, degan gaplari ham ayni haqiqatdir. Uni to'g'ri yo'lga aktyorlik mahoratining ilk elementlarini o'zlashtirayotgan paytdayoq solish kerak.

Etyudlar ustida ish boshlaganda mizanssenalar ustida ishlashga jiddiy e'tibor berish kerak bo'ladi.

Mizanssena – konfliktlarni plastik harakatga ko'chirilishidir. Mizanssenalar etyudlarning kichik-kichik epizodlari ustida ishlaganda qurilib boradi. Mizanssenalar ustida ishlash – rejissyorning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, asarning to'laqonli va mukammal chiqishini ta'minlaydi. Mizanssenalarni qurish aktyorlarning partnyorga, sahnadagi dekoratsiyalarga va voqelikka nisbatan xatti-harakatlari mobaynida o'ylab topiladi. U asar ustida ish olib borilayotganda yoki rejissyor tomonidan oldindan o'ylanib topilishi ham mumkin. Mizanssenalar ustida ish olib borish jarayoni nafaqat etyudlar ustida ishlaganda, balki spektakllarni sahnalashtirish, katta-katta bayram yoki tomoshalarni sahnalashtirishda ham muhim jarayon hisoblangani uchun etyudlar ustida ishlayotganda uning prinsiplari, amal qilish qoidalari, uni qurish yo'llarini yaxshilab o'rganib olish zarur.

Nima uchun etyudlar ustida ishlashga katta ahamiyat beriladi, degan o'rinli savol tug'ilishi tabiiydir.

Buning boisi shundaki, birinchidan, etyudlarni o'ylab topishning o'zi katta mahorat talab etiladigan vazifadir.

Ikkinchidan, aktyorning vazifasi sahnada bo'layotgan voqelik yoki boshqacha qilib aytganda, dramaturg tomonidan berilgan matnni tomoshabinga yetkazishdan iborat bo'lib qolmasligi kerak. U sahnadan turib so'zni quruq emas, ma'no va mazmun jihatdan turli xatti-harakatlar orqali voqelikni ifodalamoq'i lozim. Aynan «turli xatti-harakatlar»ni topish etyudlar ustida ishlash jarayonida o'zlashtirilib, mustahkamlanib boradi.

Uchinchidan, aktyorlik mahoratini o'zlashtirishning eng zo'r usuli etyudlar ustida ishlashdir.

Agar madaniy tadbirlarni tashkil etish nuqtayi nazaridan olib qaraladigan bo'lsa, sahnada so'z o'rnida uning ekvivalenti turli plastik «harakatlar»ni topish juda muhimdir. Chunki keng maydonlarda minglab tomoshabinlar qatnashayotganida quruq so'z ularni zeriktirib qo'yishi mumkin. Shuning uchun «harakat topish» aynan etyudlar ustida ishlash jarayonida izlanishga majbur qiladi.

Etyudlar ustida ishlashda talaba o'zi xohlagan mavzu bo'yicha etyud topishi mumkin. Ba'zan o'qituvchi o'zi mavzu berib, shu

mavzuga mos etyud tuzish, to'qish vazifasini beradi. Masalan, «Tabiatni asrang» mavzusi bo'yicha etyud tuzish vazifasi berilganda talabalar bir xil mavzuga turli xil yondashib, o'z qarashlarini namoyon etadilar va bu orqali o'zlarining fantaziyaalarini «charxlab» boradilar. Bunday usul talabani o'z ustida va roli ustida ishlashga majbur qiladi, eng asosiysi rejissyorlik faoliyat uchun muhim xususiyat fikrlash qobiliyatini rivojlantirib boradi.

Etyudlar ustida ishlash jarayoni qotib qolgan bir xil shtamp emas, uni turli rejissyor turlicha hal qilishi yoki o'rgatishi mumkin. Masalan, iste'dodli rejissyor-pedagog A.M.Grinberg «Etyudlar ustida ishlaganda turli hayvonlar yoki predmetlarni jonlantirish shart emas, ularga, asosan, «Agarda» va «Berilgan shart-sharoitda» degan savolga javob beruvchi etyudlarni berishimiz kerak, deb aytardi. Bir tomondan olib qaralganda, bunday yondashish to'g'riday tuyuladi. Ammo ikkinchi tomonidan olib qaraladigan bo'lsa, bu yondashish bir tomonlama bo'lib qoladi. Shuning uchun ham mashqlar va etyudlar uchun o'z ichiga aktyorlik mahoratining kompleks vazifalarni olgan materiallarga tayanish katta samarani beradi. Hayvonot olamim o'rganish talabalarni aktyorlik mahoratini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Chunki, unda rejissyorlik uchun eng muhim xususiyatlardan biri bo'lgan – kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantirib boradi. Masalan, biron-bir hayvon ishtirokidagi etyudni ishlash uchun uning hayotiga oid, xarakterli xususiyatlariga oid, uning o'ziga xos boshqa hayvonlarga o'xshab qolmaydigan jihatlarini o'rganilib, aynan shu hayvonning barcha xususiyatlarini kuzatib boradi va etyud harakatlariga kiritadi. Shuning uchun o'qituvchilar etyudlar bilan ishlash jarayonida talabalarni sirk, hayvonot bog'lariga borishlariga majbur qiladilar va u yerdan o'rganib kelgan hayvonlarning xatti-harakatlarini analiz qilib, etyudlar topib kelishlari uchun vazifalarni muntazam ravishda berib boradi.

Har qanday sharoitda ham etyudlar ustida ishlaganda aktyorlikning eng serharakat jihatlarini, faol harakatni, voqea rivoji davomida tomoshabinni tutib turadigan jihatlarini haqida o'ylash kerak.

Har qanday faoliyatning asosida tarbiya yotmog'i lozim. Ayniqsa, sahna san'atida asarning tarbiyaviy ahamiyatiga jiddiy

e'tibor berish zarur. Yurtboshimizning «Sahna san'ati odamlarga nafaqat zavq-shavq baxsh etishi, ayni vaqtda milliy g'urur, milliy iftixor manbai, qudratli tarbiya vositasi ham bo'la olishi – bu isbot talab qilmaydigan haqiqatdir»,<sup>35</sup> - deb aytgan so'zlari aynan shu mavzuga qaratilgan. Sahnada turib aytilgan har qanday so'z yoki xatti-harakat tomoshabin uchun qonunday bo'lib qoladi va u qahramonning so'zlari va xatti-harakatlariga o'z munosabatini bildiradi. Shuning uchun o'ylab topilgan etyudlarda tomoshabin to'g'ri xulosa chiqarishi uchun xatti-harakatlar tizimi aniq ifodalanishi va uning uchun tushunarli bo'lishi kerak.

Etyudlar mashqlardan ko'ra tugallangan bo'ladi. Kompleks mashqlar aktyorlik mahoratining barcha elementlarini o'z ichiga olgan xatti-harakatlardan iborat bo'ladi. Etyudlar esa tugallangan voqelikni xatti-harakatlar bilan amalga oshiradigan jarayondir. Etyudlarda qarama-qarshiliklar yaqqol ko'rinishi kerak. Ichki va tashqi qarama-qarshiliklar etyudlarning asosiy harakatga tushuruvchi mexanizmi sifatida namoyon bo'lmog'i lozim.

Etyudlar ustida ishlashda talabalarga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Tanlangan etyud qahramonlarining obrazlarini yaratishda ularning xarakterli xususiyatlarini o'zlashtirish.
2. Etyudni sahnalashtirishda kompozitsion tuzilishini to'g'ri belgilash.
3. Etyud aktyorning mahorat jihatdan tarbiyasiga ta'sir ko'rsatishi kerak.
4. Ko'rsatilayotgan etyud tomoshabiniga estetik zavq va ma'naviy ozuqa berishi kerak va h.k.

Talabalari bilan etyudlar ustida ishlash quyidagi yo'nalishlarda o'zlashtirib boriladi:

1. Bir kishilik (одиночный);
2. Ikki kishilik (парный);
3. Ommaviy (массовый) etyudlar;

Bir kishilik etyudlarda o'z nomi bilan ma'lum bo'lib turibdiki, bitta aktyor qatnashadi. U sahnada narsa yoki buyumlarga, shovqinlarga, turli qarshiliklarga nisbatan munosabat bildirib, uni yengish choralari izlaydi. Bir kishilik etyudlarni to'qish (topish) shuning

---

<sup>35</sup> «Istiqlol va milliy teatr». Farnonlar, qarorlar, nutqlar to'plami. T, «Yangi asr avlodi». 2002 y. 15 bet.



uchun ham murakkabki, unda ijrochining bir o'zi vazifalarni bajaradi. Konfliktlarni topish, voqealarni o'ylab bir sujet liniyasiga qo'yishda partnyorsiz «qiynaladi».

Ikki kishilik etyudlarda qahramonlar o'z partnyorlariga nisbatan munosabat bildirib, xatti-harakatlar qiladilar. Bunda partnyorni sezish, his qilish orqali ikkala tomondagi qahramonlar qarama-qarshiliklarni yengib o'tish uchun kurash olib boradilar. Partnyorlar doim bir-birlarini ijodiy ilhomlantirib, qo'llab-quvvatlashlari kerak. Ba'zi hollarda birinchi aktyor berilgan vazifani sidqidildan, ikkinchisi esa yuzaki bajarib o'z partnyorini siqib qo'yish mumkin. Etyudlarda kurashlarning jismoniy (tashqi) va psixologik (ichki) ko'rinishlari mavjud bo'lib, ikkalasi ham voqea rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ammo etyudlar ustida ishlashda ko'pincha uning soni ko'paytirishga qiziqib ketiladi. Etyudlar ustida ishlashda uning soniga emas, sifat darajasiga e'tibor berishimiz maqsadga muvofiqdir. K.S.Stanislavskiy bu haqda shunday deydi: «Ba'zi o'qituvchilar haddan tashqari etyudlarni sifatiga emas, sonini ko'paytirishga urinadilar. Ammo ular bilib qo'ysinlarki, ishning sifat darajasi muhimdir. Mayli bitta etyud bo'lsin, ammo oxirigacha yetkazilgan, tugallangan, puxta o'ylangan bo'lsin. To'liq, astoydil ishlangan etyud haqiqiy ijodga, son va tashqi jihatdan ishlangani esa xaltura, «hunarmandchilik»ka olib keladi».<sup>36</sup>

Xulosa qilib aytganda, etyudlar ustida ishlash aktyorlik mahoratini o'zlashtirishning eng zaruriy usulidir.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. *«Etyud» deganda nimani tushunasiz?*
2. *Etyudlar aktyor tarbiyasini asosi, degan tushunchani qanday izohlaysiz?*
3. *Etyudlar qanday tayyorlanadi?*

---

<sup>36</sup> Г.Кристи. Воспитание актёра школы Станиславского. М.:Искусство, 1968. 122 стр.

## **Mustaqil ish uchun mavzu va vazifalar:**

- 1. Etyudlar tushunchasi.*
- 2. Amaliy jihatdan etyud tayyorlang va uni tahlil qiling.*

### **Etyudlarda Stanislavskiy sistemasining prinsiplari**

Bir kishilik etyudlar – ijrochining individual xususiyatlarini namoyon etishga majbur qiladigan usul bo'lib, bunda u yakka holda obraz yaratishga harakat qiladi. Ikki kishilik etyudlarga qaraganda bir kishilik etyudlarni to'qish qiyinroq. Chunki ikki kishi ijrosida qarama-qarshiliklar yaqqol namoyon etiladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, bir kishilik etyudlarda qarama-qarshiliklarni «topish» qiyinroq kechadi.

«Aktyorlik mahorati» fani dasturining nazariy qismi aktyorlik mahoratining elementlarini Stanislavskiy sistemasini o'rganish orqali o'zlashtirishga bag'ishlangan. Stanislavskiyning hayoti va ijodi, sistemasi, rejissura va aktyorlik mahoratiga oid manbalar shu soha olimlari tomonidan yaratilgan bir qancha manbalarda berilganligi uchun bu mavzularga to'xtalmoqchi emasmiz. Stanislavskiy sistemasi yoki Meyerxold biomexanikasining aktyorlik mahorati va rejissuraga oid jihatlarini mashg'ulotlarning amaliy qismida o'zlashtirilib boriladi.

Avvalo aktyorlik mahoratining elementlarini bilib olish zarur. Ko'pincha talabalarimizga «Stanislavskiy sistemasini prinsiplarini aytib bering» deb savol berilsa, ular aktyorlik mahorati elementlarini sanab ketadilar. Aktyorlik mahoratining elementlariga quyidagilar kiradi:

1. Ko'rish.
2. Sezish.
3. Eshitish.
4. His qilish.

5. Ta'm bilish. Bu elementlar aktyorlik mahoratining barcha ko'rinishlarida ishtirok etadi. Masalan, sahnaga chiqqaningizdan so'ng xohlaysizmi, xohlamaysizmi albatta nimanidir ko'rasiz, sezasiz, eshitasiz va shunga munosabat bildirish uchun xatti-harakat qila boshlaysiz.

B.Zaxava o'zining, ya'ni «Aktyorlik va rejissyorlik mahorati» («Мастерство актёра и режиссёра») kitobida<sup>37</sup> Stanislavskiyning ijodiy faoliyatini o'rganib, uning sistemasini prinsiplarini quyidagicha ifodalaydi:

### 1. Hayotiy haqiqat prinsipi.

Hayotiy haqiqat aktyorlik va rejissyorlik faoliyatda eng e'tibor qaratish lozim bo'lgan qismdir. Ayniqsa birinchi kursda etyudlarni tuzishda bunga alohida ahamiyat berish kerak. Sahnada bo'layotgan har qanday voqelik va xatti-harakatlar hayotiy haqiqatga mos kelishi kerak. Sahnada «yolg'on» bilan tomoshabinni aldash – sahna san'ati ichidagi eng kechirib bo'lmaz gunohdir. Shuning uchun etyudlar ustida ish boshlaganda haqiqat tamoyillariga tayangan holda ijod qilishga o'rganib borish kerak. Masalan, mushuk hech qachon hayotda «vovullamaydi». Agar sahnada shunga o'xshash xatti-harakat namoyish etilsa, hayotiy haqiqat prinsiplari buzilgan hisoblanadi. Haqiqatni o'zini ikkita, ya'ni hayotiy (real) haqiqat va sahnaviy haqiqat ko'rinishlari nuqtayi nazardan olib qaralgan holda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Sahnaviy haqiqat – bu aktyor tomonidan yaratiladigan haqiqatdir. Sahna ko'proq shartlilikni talab qiladi. Ana shu shartlilik asosida hayotiy haqiqat yotadi. Tanlangan asar asosida etyud ishlashda, berilgan shart-sharoitlar aniqlanishi va mantiqiy uzviylik bog'lanishi analiz qilinib, hayotiy haqiqatlar bilan taqqoslanishi kerak. Tempo-ritm, ichki tempo-ritm, tashqi tempo-ritm va aktyorlik mahoratining boshqa elementlari o'z ta'sirini va harakat trayektoriyasini o'zgartirganda etyud sodir bo'ladi. Muallif, dramaturg tomonidan berilgan, aktyor tomonidan, o'sha davrdagi berilgan shart-sharoitlar asosida qurilgan voqelik uni hissiyotlarni qamrab olib, sahnaviy xatti-harakatga olib keishi, aktyor o'zi qurgan xayoliy olamga ishonganini va uni qamrab olgan hayot, haqiqiy hayotdek qabul qilinayotganini bildiradi. Demak, bu aktyor mahorat elementlarini yaxshi egallash bilan tirga sehrli «Agarda»ni ham mukammal o'zlashtirgan<sup>38</sup>. Darhaqiqat, «Agarda», «Berilgan shart-sharoitda» aktyorga sahnada to'g'ri harakat qilishi uchun aniq vazifalarni beradi.

<sup>37</sup> Б.Е.Захава. Мастерство актёра и режиссёра. М. Искусство. 1964 г.

<sup>38</sup> О.Дадамирзайев. Etyud ustida ishlashda sehrli «Agarda-da»ning ahamiyati. San'at ta'limi. Yilnoma, ikkinchi jild, 2007-y. 118 bet.

2. Uning (Stanislavskiyning) oliy maqsad to'g'risidagi ta'limoti prinsipi.

Stanislavskiy o'zining teatr san'atiga bag'ishlab yozgan «Aktyorning o'z ustida ishlashi» kitobining alohida bobini oliy maqsadni mohiyatini ochishga bag'ishlagan.<sup>39</sup> U nafaqat ushbu bobda, balki barcha sahnalashtirgan asarlari-yu, rejissyorlik ishlarining deyarli hammasida oliy maqsad tushunchasiga keng ahamiyat bergan holda yondashadi. Ba'zan, oliy maqsad bilan g'oya tushunchalarini bir-birlaridan farqini ajrata olmay qoladigan hollar ham uchrab turadi. Agar bu ikkita tushuncha bir xil mazmun-ma'noni bersa nima uchun Stanislavskiy bu terminga alohida urg'u beradi? G'oya tushunchasida - muallif yozgan asari orqali nima demoqchi bo'lgan bo'lsa, oliy maqsadda – rejissyor shu asarni sahnalashtirish orqali nima demoqchi ekanligi ifodalanadi, boshqacha qilib aytganda, muallifning fikriga u yoki bu darajada qo'shib yoki qo'shimcha fikr-mulohazalar bildirgan holda yondashadi. Masalan, «Tabiatni asrang» etyudini sahnalashtirish orqali rejissyor nima uchun shu mavzuni tanlaganini, mavzuning dolzarbligi nimada, agar tabiatga yomon munosabatda bo'lsak, qanday oqibatlariga olib kelishi mumkin, uni oldini olish uchun nimalar qilish kerak, kabi savollarga javob bo'lishi kerak. Sahnalashtirilayotgan har bir asarda rejissyorning oliy maqsadi sezilib turishi kerak. Shundagina u o'z ishini to'liq bajargan bo'ladi.

3. Faollik va harakat prinsipi (принцип активности и действия). Sahnada bo'layotgan har qanday xatti-harakat faollashib borishi kerak. Faollik prinsipining mohiyati, Stanislavskiyning so'zi bilan aytganda, obraz va ehtirolarni «o'ynash» kerak emas, balki obraz va ehtirolarda harakat qilishdir.<sup>40</sup> Aktyor sahnada harakat qilar ekan, asardagi qarama-qarshiliklar kuchayib borgan sari uning harakatlari ham asar mazmunidan kelib chiqqan holda faollashib borishi kerak. Aks holda tomosha yoki spektaklni tomoshabin tomonidan qabul qilishi susayadi va natijada asar sahnada muvaffaqiyat qozonishi qiyin bo'lib qoladi. Shuning uchun etyudlardagi qarama-qarshiliklarni kuchaytirib, qahramonlarning harakatlarini faollashib borishiga erishish lozim.

<sup>39</sup> К.С. Станиславский. «Работа актёр над собой. М. Искусство. 1985. гл. XV. 380 стр.

<sup>40</sup> К.С. Станиславский. Танlangan asalar. М. I. 3 tom, 1985 y. 349 b.

#### 4. Aktyor ijodining tabiiylik (organiklik) prinsipi.

Aktyor ijodida sun'iy va mexanik harakatlar bo'lmisligi kerak, barcha xatti-harakatlar organiklik (tabiiylik) talablariga bo'ysinmog'i lozim. Etyudlarda aktyorlik ijrosining sof tabiiy va harakatlarning aniq tizimiga erishishni maqsad qilib qo'yish kerak. «Men shu rolni bajaryapman, meni atrofdagilar qanday qabul qilishyapti ekan», degan fikrning kelishining o'zi noto'g'ridir. Ba'zan talabadan «qani sen sahnada oddiy yurishingni ko'rsat», deb vazifani bersak, aktyorlik mahorati elemenlarini yaxshi egallashni boshlaganlar sahnada erkin, bemalol harakatlanadilar. Ammo ba'zilar, meni hamma kuzatib turibdi, shuning uchun yaxshiroq yurishim kerak, deb o'ylab boshqacharoq harakat qila boshlaydilar. Natijada harakatlardagi tabiiylik yo'qoladi. Bu nafaqat etyudlarda, umuman, sahna san'atining barchasida qo'llaniladigan prinsiplaridan biri hisoblanadi.

5. Aktyorning obrazda «yashash» prinsipi». Bu yerda «неповоление» tushunchasi keng ma'noda qo'llanib, o'zbekcha tarjimasida obrazda yashash, obrazga singib ketish kabi ma'nolarni ham beradi. Bunda aktyorning rolda «yashashi» deb uni ijro talqini nazarda tutilgan. Etyudlarda ham bu prinsiplarga katta e'tibor qaratish lozim. Masalan, xo'roz obrazini yaratayotgan aktyor - xo'rozga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rganib, uning harakatlarini o'zlashtirib, xarakterli xususiyatlarini o'z ijodiga singdirgan holda sahnaga chiqishi kerak. Obrazda «yashash» prinsipi Stanislavskiy sistemasini kechinma san'atining mohiyatini anglatuvchi tushunchalardan biri hisoblanib, aktyorning rolga kirishish, unda yashash, obrazni talqin qilishda vazifalarni aniq belgilab olishiga yordam beradi.

Stanislavskiy sistemasini o'zlashtirishda kechinma san'ati asosiga qurilgan materiallarni tanlash ham bo'lajak rejissyorlardan o'ziga xos mahorat talab etadi.

Barcha etyudlar ilk sahnaga chiqayotgan talaba-aktyorda sahnaviy mardlik (сценический смелость)ni shakllantirishda katta maktab vazifasini o'taydi. Etyudlar ustida ishlash bosqichida partnyorni his qilish, sezish, eshitish, ko'rish va boshqa aktyorlik mahoratining elemenlari o'zlashtirilib boriladi. Aktyorlik mahora-

tiga oid deyarli hamma tushunchalar mana shu etyudlar ustida ishlash jarayonida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Biz aktyorlik mahorati predmetini konkret praktik (aniq) mashg'ulotlar orqali o'rganib borishimiz lozim. Shuning uchun aniq harakat va mashqlarni bir-biriga aralashtirmay, bosqichma-bosqich, bo'limlarga bo'lib, alohida mavzu sifatida o'zlashtirilib borilishi lozim.

Sahnada o'zini erkin his qilish, to'g'ri harakat qilish uchun, xullas bir so'z bilan aytganda, aktyorlik mahorati poydevorini qurish uchun muskullarni bo'shatish (освобождение мышц), xatti-harakat, «agar-da», «berilgan shart-sharoit» (действие, «если бы», «предлагаемое обстоятельство»), tasavvur (воображение), sahnaviy diqqat (сценическое внимание), haqiqat tuyg'usi va ishonch (чувство правды и вера), sahna soddaligi (сценическая наимость), hissiyotlarni eslab qolish qobiliyati (эмоциональная память), munosabat (общение), xarakterlilik (характерность), tempo-ritm, mizanssena kabi tushunchalarni o'zlashtirishlari mumkin bo'ladi.

Mashqlar musiqa san'atida asosan, texnik jihatlariga xizmat qiluvchi usullardan biri sifatida qaraladi, masalan, agar u musiqachi bo'lsa, barmoqlar harakati, bir maromda chalish, tekis, ritmga, usulga tushish kabi vazifalarni o'zlashtirish va o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Etyud esa ana shu jihatlariga ozmi-ko'pmi badiiylik nuqtayi nazardan yondashishni talab etadi. Ammo musiqa yettita notadan iborat bo'lganligi uchun aniq yozilgan nota ichidan chiqmagan holda ijro etilishi kerak. Sahnaviy etyudning esa undan farqi shundaki, u har safar turlicha ijroda namoyon bo'lishi mumkin, u asosan improvizatsiyaga asoslangan holda qo'llaniladi, ya'ni har safar sahnaga chiqqanda yangi-yangi xatti-harakatlar topilib, qo'shilib borishi mumkin.

Etyudlar artistlik texnikasi bilan sahnaviy uslublarni bir-biriga bog'lovchi vositachi sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. *K.Stanislavskiy sistemasining prinsiplarini bilasizmi (B.Zaxava)?*

2. *Hayotiy haqiqat tushunchasini izohlab bering.*
3. *Oliy maqsad deganda nimani tushunasiz?*
4. *Etyudlarda K.Stanislavskiy sistemasi tamoyillarini qanday qo'llash mumkin?*

**Mustaqil ish uchun mavzu va vazifalar:**

1. *«K.Stanislavskiy sistemasi tamoyillari» mavzusi bo'yicha referat tayyorlang.*
2. *O'zingiz to'qigan (ishlagan) etyudingizda qaysi tamoyillariga amal qilingan?*
3. *Oliy maqsad tushunchasini madaniy tadbirlarni tashkil etishda qanday qo'llaysiz?*

### III bob. AMALIY MASHG'ULOTLAR

«Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati» fani asosan amaliy mashg'ulotlardan iborat. Unda aktyorlik san'atini rivojlantirishga oid bo'lgan mashqlardan tortib, to rejissura san'atiga tegishli bo'lgan tushunchalarni amaliy ijrosigacha bo'lgan barcha jarayonlarni qamrab oladi. Unda taburetka mashqlari, muskullarni bo'shatish, sahnaviy diqqat, stol atrofida o'qish, mizanssenalar ustida ishlash, ssenariylar yaratish, inssenirovka qilish, obrazlar ustida ishlash va h.k.lar mazkur fanning amaliy jihatlarini belgilaydi. Har bir talaba o'zida aktyorlik va rejissyorlik layoqatlarini shakllantirishga oid mashqlar bajaradilar, manbalar tanlab sahnalashtiradilar. Pedagog bilan hamkorlikda tanlangan materiallarni tahlil qiladilar, g'oyaviy yo'naltiradilar hamda ijro etish usullarini o'zlashtiradilar.

Bu sohada talabalar o'zlari tanlagan manbalar, sahna materiallari (etyudlar, aktyorlik, rejissyorlikka oid mashqlar)ni tahlil qilish asnosida mashg'ulotlarni o'zlashtirib boradilar. Quyida aktyorlik mahoratini o'zlashtirishning asosi bo'lgan etyudlardan namunalar beramiz.

#### Etyudlardan namunalar

Bir kishilik etyudlar:

#### *Sayr*

*Qiz bola bog'da sayr qilib, tabiatning go'zalligidan bahra olib, quvnab gullar terib yuribdi. Gullarni terib guldasta yasay boshlaydi. O'z ishidan judayam mammun. Qo'lga gulning tikani kirgandayam xursandchilik bilan uning og'rig'ini yengilgina tan olib, harakatni davom ettiraveradi. Birdan uning ko'zi shu yerda guldand-gulga qo'nib yurgan kapalakka tushadi. Qo'lidagi gulni sekingina yerga qo'yib, kapalakni tutmoqchi bo'ladi. Butun*



*diqqatini unga qaratib, cho'chitib yubormaslik uchun judayam sekin harakat qilib uni qo'llari bilan tutaman deb turganida, kapalak uchib ketib boshqa gulga qo'nadi. Qizni qiziqishi yanada kuchayib, yana uni tutish uchun unga yaqinlashib, tutmoqchi bo'lganida u yana uchib ketadi. Qizning beg'ubor harakatlaridan o'z ishidan zavqlanayotgani bilinib turibdi. Kapalak yana bir gulga qo'ndi. Qiz endi butun vujudi bilan uni tutishga harakat qiladi va kapalakni tutib oladi. Uni tutganidan juda xursand bo'ladi va qo'li ichidagi kapalakni qulog'iga tutib, uning qanoillarini ovozi eshitmoqchi bo'ladi. Ammo kapalak ovozi eshitilmagach, u xavotirga tushib, qo'lini ochadi va kapalakni behush holda ko'radi va uni «o'ldirib qo'yibman» deb o'ylab qattiq iztirob chekadi. Boyagi xursandchilikdan asar ham qolmaydi. Qiz qilgan ishidan pushaymon bo'lib xafa bo'ladi (yoki yig'laydi) va kapalakni yerga qo'yib keta boshlaydi. Ketayotib orqasiga qaraydi. Birinchi qaraganida u qimirlamaydi. Qiz battar xafa bo'lib ketmoqchi bo'ladi. Ikkinchi marta kapalakdan «uzr» so'rash maqsadida xijolat holatda orqasiga qaraganda kapalakning sekingina qimirlaganini ko'rib qoladi va yugurib kelib uni qo'liga oladi. Qo'lini balandroq ko'tarib uni quyosh nurlariga tutib turadi. Kapalak sekin-sekin qimirlab, qanoillarini to'g'irlab, uchishga shaylanadi. Qiz uni sekingina havoga «uloqtirib» uchishga undaydi. Kapalak uchib ketadi. Qiz uning ortidan xursand bo'lib qarab qoladi.*

Endi ushbu etyudning harakatlar tizimini belgilab olamiz.

1. Qizning bog'dagi xursand holdagi kayfiyati.
2. Guldasta tayyorlash.
3. Kapalakni ko'rib qolishi.
4. Uni tutish uchun qilgan xatti-harakatlari.
5. Qiz kapalakni tutib oldi, ammo u «jonsiz».
6. Qizning kayfiyati tushib, qattiq xafa bo'lishi.
7. Qiz ketayotib ortiga qaraganda uning tirikligini sezib qoldi.
8. Uni qo'liga olib quyoshga tutib turib uchirib yuborishi.
9. Qizning kayfiyati yana ko'tarildi.

Bu etyudni nomlash kerak. Ko'pgina holatlarda imtihon dasturlari taklifnomalarida etyudlarni turli xil nomlanganini ko'ramiz. Etyuddagi xatti-harakatlar ketma-ketligiga qarab, masalan, «ovqat yeyish», «dazmol qilish», «mashina haydash» va h.k. deb nomlasak,

to'g'ri bo'lmaydi. Bu juda primitiv nomlashdir. Asarni mazmuni va ma'nosini anglatuvchi, uning g'oyasidan kelib chiqqan holda nomlash maqsadga muvofiqdir. Xuddi shuningdek, yuqoridagi etyudga ham nom qo'yish kerak. «Kapalak tutish» degandan ko'ra, masalan, «Tabiat mo'jizasi» yoki «Qayta tirilish» deb atalsa tinglovchi uchun ham, tomoshabin uchun ham «jiddiy va jozibali» tuyulsa kerak.

Rejissyor-pedagog A.M.Grinberg 1-bosqich talabasi bilan quyidagi bir kishilik etyudni ishlash uchun tasdiqlagan. Etyudning nomi «Shoshilma» deb ataladi.

*Ertalab barvaqt budilnik jiringlaydi. Talaba budilnikning ovozigga g'ashi kelib, ko'zi yumuq holda uyqusirab uni o'chiradi va yana uyquni davom ettirmoqchi bo'ladi. Birdan uning esiga bugun eng qiyin fandan imtihon borligi esiga tushib qoladi va tez yuvinish uchun vannaxonaga kirib yuvina boshlaydi. Yuzini sovunlab, endi yuvib tashlamoqchi bo'lganida birdan sovuq suv yo'q bo'lib qoladi. U issiq suvda zo'rg'a yuvinib u yerdan chiqib ketayotganida oyog'i toyib yiqilib ketadi va vannaxonadagi kiyim-kechak va boshqa narsalarni ag'darib yuboradi. Zo'rg'a o'rnidan turib oqsoqlangan holda u yerni tez yig'ishtirib, kiyinishga hozirlanadi. Shimini kiyaman desa u haddan tashqari g'ijimlangan ekan. Dazmolni zo'rg'a qidirib topadi va uni rozetkaga tiqib qizishini sabrsizlik bilan kuta boshlaydi. Kutadi-kutadi negadir dazmol qizimaydi. Dazmolni u yoq bu yog'ini tekshirib, tuzatmoqchi bo'ladi. Keyin uyda umuman chiroq o'chganligini bilib qoladi. Nima qilishini bilmay biroz kalovlanib, miyasiga «aqli» fikr keladi, ya'ni dazmolni gazda qizdirib, keyin dazmollamoqchi bo'ladi. Gazga olov yoqib, dazmolni unga tutib, qizdirganday bo'ladi va o'z ishidan xursand bo'lib, shimni tekislab dazmol qilishni boshlaydi. Dazmolni shimga bosishi bilan kuydirib qo'yadi.*

Ushbu etyudni davom ettirish ham mumkin. Masalan:

*U shimni kuydirib qo'ygach, nima qilishini bilmay, yana soatiga qarab, vaqt oz qolganligini ko'rib, yanada tezroq harakat qila boshlaydi. Hamma harakatlarini juda shoshilgan holatda bajaradi. Boshqa shimini kiyib daftar-kitobini olib chiqib ketayotganda eshikni ochmoqchi bo'ladi, ammo shoshib qulfni qattiq burab uni buzib qo'yadi va ichkarida qamalib qoladi. Eshikni ochishga rosa*

*urinadi, itarib ko'radi, tortadi, ammo ocholmaydi. Keyin o'tirib, o'zini bosib oladi, diqqatini jamlab qulfni ehtiyotkorlik bilan ochishga harakat qiladi va ochadi. Narsalarini yig'ishtirib, ehtiyotkorlik bilan eshikni yopib, sekingina chiqib ketadi.*

Bu etyudda ijrochining diqqati «shoshish» harakatlariga qaratilgandir. Ammo, bunda bajarilayotgan «shoshish» harakatlari shoshilmasdan aniq bajarilishi kerak, ya'ni ustozlarimiz aytib o'tganlaridek, sahnadagi har qanday tartibsizlik – tartibli amalga oshirilishi kerak.

Bu etyud insonlarga «har bir ishni bajarayotganda shoshilmasdan aniq bajar, aks holda turli noqulayliklarga olib kelishi mumkin», degan g'oyani beradi.

Bu etyudni ham harakatlar tizimini belgilaymiz. Har bir epizodni bo'lak va vazifalarga bo'lish va nomlash mumkin.

1. Uyg'onish.
2. Vannaxonada.
3. Kiyim dazmollash yoki «aqli fikr».
4. Eshikni qulflanib qolishi.
5. «Shoshilmaslik» fikriga kelishi va chiqib ketishi va h.k.

Bir kishilik etyudlar talabaga o'zi va roli ustida ishlash imkonini beradi. Xuddi shu etyudni hayotdagidek, uyda, oddiy sharoitda etyud sifatida bajarib ko'rish mumkin. Chunki, budilnikka munosabat, vannadagi xatti-harakatlar, qulflanib qolish va boshqa xatti-harakatlar uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. «hayotiy» dekoratsiyalar, «predmetsiz» emas, aniq buyumlar bilan ishlash imkoniyati bor va h.k.

### **Bir kishilik plastik etyud:**

*Musiqa ostida sahnaga olifta yigit chiqib keladi. Atrofni kuzatadi. Yomg'ir sevalay boshlaydi. Yigit zontigini olib, boshiga tutmoqchi bo'ladi, ammo u ochilmaydi. Yigit rosa urinib, zontikni ochadi va uni o'ziga tutadi. Birdan havo o'zgarib, shamol esa boshlaydi, shamol yigitni zontigi bilan uchirib yuborishiga sal qoladi. Shamol uni avval chap tomonga qarab, keyin o'ng tomonga qarab torta boshlaydi. Shamol kuchayib, uning zontigining bir qismini uchirib ketadi. Yigit uni zo'rg'a tutib oladi va uzilgan qismini ulamoqchi bo'ladi. Shamol unga qattiq xalaqit beradi, ammo u o'zini yomg'irdan asrash uchun rosa harakat qilib zontikni*

*amallab tuzatib oladi. Ketish uchun taksi to'xtatmoqchi bo'ladi. Bitta-ikkita taksilar to'xtamay o'tib ketadi. Shunda bitta mashinadan sachragan iflos suv uni shalabbo qilib «cho'miltirib qo'yadi». U zo'rg'a o'ziga kelib, o'tib ketgan mashinaning orqasidan nima qilishini bilmay qotib qoladi.*

Xuddi shu etyudning o'zini «Uchrashuv» etyudiga aylantirish ham mumkin:

*Yigit qo'lida bir dasta gul bilan o'z «sevgilisini» kutyapti. Ammo qiz negadir kech qolyapti. Atrofni kuzatib uni kelmayotganligiga ishonch hosil qilgach, vaqtni qanday o'tkazish haqida o'ylaydi. Qo'lida guldasta borligi uchun xuddi hamma unga qarayotganday o'zini juda noqulay seza boshlaydi. Guldastani skameykaga qo'yadi va sekin «Gaz-suv» budkasi yoniga kelib suv ichmoqchi bo'ladi. Cho'ntagidan tangalarini chiqarib, gaz-suv budkasi teshigiga pulni tashlaydi. Ammo suv tushmaydi. Yigit pulini qaytarib olmoqchi bo'lib bir-ikki uni sekin urib ko'radi, ammo pul ham, suv ham tushmagach, asabiylashib uni qattiqroq ura boshlaydi. Shunda ham tushmagach, joyiga kelib gullarini ustiga o'tirib oladi. Gullari qiyshayib, sinib ketadi, u tuzatmoqchi bo'ladi, ammo gul o'z holiga kelmaydi. Hafsalasi pir bo'lib, gulni tashlab yuboradi. Birdan ob-havo o'zgarib, yomg'ir sevalay boshlaydi va u ketish maqsadida taksi to'xtatmoqchi bo'ladi. Shunda bir mashinadan sachragan iflos suv uni ust-boshini rasvo qiladi. Shu payt yigit kutgan qizini kelayotganini ko'rib qoladi va nima qilishini bilmay qotib qoladi.*

Bunday mazmundagi etyudlarni turlicha variantlarda o'ylash va ishlash mumkin.

### **«Baliq ovi» etyudi**

*Yigit baliq tutmoqchi bo'ladi. Avvalo, qarmoqlarini tayyorlab oladi. So'ng yerni qazib chuvalchang oladi va uni qarmoqqa tiqishidan oldin urib qo'lida «o'ldirib» ilmoqqa tiqadi. Qarmoqni aylantirib, suvga tashlaydi va uni tortadi. Birdan og'riq sezadi. Qarasa, qarmoq uning kiyimiga ilinib qolib, badaniga ham ozgina jarohat yetkazibdi. Qarmoqni badaniga ilinib qolgan yeridan ajratib, yana qarmoqni suvga otadi va kuta boshlaydi. Qarmoq qimirlagach, sekin uni tortadi. Ammo qarmoqqa baliq emas, qan-*

daydir buyum ilinib chiqadi. Uni otib yuboradi va yana qaytadan qarmoqni suvga tashlaydi. Qarmoq qimirlaydi va uni tortadi. Qarmoqqa ilingan baliqni ko'rib, rosa xursand bo'ladi. Uni olmoqchi bo'lganda, u sirpanib qo'lidan tushib ketadi. Uni ushlab qolaman deb, o'zini gavdasini tuta olmay qolib suvga yiqiladi. Suvdan zo'rg'a chiqib, ust-boshini yechib, qurita boshlaydi. Shunda ham qarmog'ini qaytadan olib, yana baliq tutishga kirishadi. Baliq tutib o'tirib uyqusi kelib qoladi va sekin-sekin uyqu uni o'z domiga torta boshlaydi. U uxlab qoladi va qo'lidagi qarmog'i ham suvda oqib ketadi. Cho'chib uyg'onadi va qarmog'ini qidiradi uni oqib ketganini ko'rib, xafa bo'ladi va narsalarini yig'ishtirib, uyiga ketadi.

Bu etyudni ham davom ettirib ommaviy etyudga aylantirish mumkin. Masalan:

Yigit uxlab qolgach «tush ko'radi». Tush sahnasi musiqa jo'rligida amalga oshiriladi. Tushida ko'p baliqlar (aktyorlar) uni atrofida parvona bo'lib yuribdi. U baliqlardan xohlaganini tutib, xohlamaganini itarib yuborib, o'zini «dengiz shohi» hisoblab, ular orasida bemalol yuribdi. U baliqlar bilan xohlagan ishlarni qilishni istab qoladi. Ikkita baliqni ushlab o'rtaga itarib yuborib, raqsga tushishga majbur qila boshlaydi. Ikkitasi raqsga tushadi, qolganlar ularga jo'r bo'ladi. Yigit ham o'zini tutolmay, (chunki yigitning xayolida baliqlar oddiy baliq bo'lib emas, baliq timsolidagi qizlar sifatida namoyon bo'la boshlaydi) raqsga tusha boshlaydi. Baliqlardan birini ushlab u bilan valsqa tusha boshlaydi. Birdan musiqa ovozi o'zgaradi va negadir hamma tumtaraqay bo'lib qocha boshlaydi. Yigitning ko'zi vajohat bilan kelayotgan akulaga tushadi. Akula unga tashlanadi va yigit qattiq baqira boshlaydi. Uning baqirig'idan hamma qochib ketadi va yigit uyg'onib ancha vaqt o'ziga kelolmay turadi. Qarasa, qarshisida shoxlari qayrilgan katta buqaning suzmoqchi bo'lib turganini ko'rib qoladi. U qo'rqqanida baqira boshlaydi va qochadi.

### **«Oshxonada xira pashsha»**

Talaba oshxonaga kirib, oxirgi pullarini yig'ib, ovqatlanmoqchi bo'ladi. Patnisga ovqatlarni soladi va puli kamligi esiga tushib qolib sekingina olganlarini joyiga qo'yadi. Bittakosa ovqat oladi va

joy tanlab o'tiradi. Nonni burdalab, endi ovqat yeyman deb turganida, pashsha g'ing'ishi eshitiladi. Yigit pashshani ko'radi va uni haydab yuboradi. Yana ovqatlanishni boshlaganda boyagi pashsha kelib, atrofida g'ing'ishib uni asabiga tega boshlaydi. Talaba uni yana haydaydi. Pashsha yana «qitmirligini» boshlaydi. Talabaning asta-sekin jahli chiqqa boshlaydi. Qo'lida o'qish uchun olgan gazetasini buklab pashshani poylab turadi. Ammo pashsha kelmaydi. Talaba gazetani qo'yib qoshiqni olib endi ovqatlanishni boshlaganda yana pashsha paydo bo'ladi. Endi talabaning batamom jahli chiqib, gazetani yaxshilab buklab, pashshani poylab uni urib tushirmoqchi bo'ladi. Pashsha ham buni sezganday kelmay turadi. Talaba bir qo'lida gazeta, bir qo'lida qoshiq ovqatlanishga kirishadi. Sal o'tmay pashsha paydo bo'ladi va talaba jahl bilan pashshani qo'nishini poylab turadi. Pashsha qo'nadi. Talaba sekin borib poylab turib urmoqchi bo'lganda ofitsian qiz kelib qoladi va stoldagi ortiqcha idishlarni yig'ishtirib ketadi. Pashsha uchib ketadi. Yigit yana ovqatlanishni boshlaganda pashsha keladi, talaba endi chiday olmaydi, o'rnidan turib, tutoqib uni quvlay boshlaydi. Duch kelgan joyda uni ura boshlaydi. Birpas quvlagach, to'xtaydi va joyiga kelib o'tiradi. Yana pashsha kelib, idishiga qo'nadi. Talaba «endi qo'lga tushding» degandek, sekin gazetasini yig'ishtirib, pashshani poylab turib idish chetida qo'nib turgan pashshani uradi. Idishdagi ovqat uning ustiga to'kiladi va yigit nima qilishini bilmay kalovlanib, kiyimini sal-pal tozalagan bo'lib, jahl qilib oshxonadan chiqib ketadi.

### **«Paxta dalasida»**

Yigit dalaga shahardan paxta terish uchun kelgan. Maxsus paxta terish uchun mo'ljallangan etak (fartuk)ni taqib, terishni boshlaydi. Quyosh ko'zini qamashtirgani uchun cho'ntagidan qora ko'zoynagini olib uni artib ko'ziga taqadi. Engashib paxta terishni boshlaganda ko'zoynagi tushib ketaveradi. Paxta terishni yaxshi bilmagani uchun juda qiynalayotganligi bilinib turibdi. Paxtani tergan bo'ladi, lekin hech unmagach, etagini yechib, atrofga sekin alanglab, yerdan kesaklarni terib soladi va uni ancha og'irlashganini ko'rib xursand bo'ladi. Sal-pal ustiga bir-ikki kilo terib uni to'ldirgan bo'ladi. Tergan ozginagina paxtasini qo'li bilan

shishirgan bo'ladi va torozi oldiga zo'rg'a ko'tarib keladi. Etakni yerga qo'yadi va uni taroziga qo'ymoqchi bo'ladi. Ammo paxta juda og'ir bo'lganligi uchun uni zo'rg'a ko'tarib, amallab ko'tarib kelayotganda etak yirtilib, paxtalar to'kilib, ichidagi kesaklar sochilib ketadi. Uni tezgina yig'ishtirib, qaytadan soladi va taroziga osib o'lchatib, telejkaga ortish uchun uzatayotganda, paxta kesaklari bilan uning boshiga to'kiladi. Ust kiyim, boshi changga botadi. Juda xafa bo'lib ketadi va paxtasini yerdan terib telejkaga uzatmoqchi bo'ladi va o'ylanib qoladi. O'z qilgan ishidan uyalib paxtasini kesaklardan tozalab, yengilgina paxtasini qaytadan taroziga tortib, telejkaga paxtasini uzatadi va etagini olib sof vijdon bilan yana paxta terish uchun dalaga sho'ng'ib ketadi.

### «Ochko'z pashsha»

Pashsha ovqat izlab uchib yuribdi. Birdan ko'zi yerda yotgan taomga tushadi. Yon atrofga qarasa, hech kim yo'q. Qo'nadi. Qo'llarini bir-biriga ishqalab taomni yeyishga tushadi. Uning qorni juda ham och bo'lgani uchun ovqatni tez-tez, shoshib-pishib yeydi. Qorni biroz to'yganday bo'ladi. U yana yeya boshlaydi. To'yib ketadi. Ammo, ovqatni qoldirib ketishni xohlamayapti. Ketmoqchi bo'ladi, lekin nafsni g'olib kelib, yana ovqat yeya boshlaydi. U juda to'yib ketadi. Ketish oldidan ham bir-ikki marta yeb oladi. Endi, ketish kerak, ammo u joyidan qo'zg'ala olmay qoladi. Chunki u ovqatga ham botib, ham bo'kib qolgandi. Agar nafsini tiyib, me'yorida ovqatlanganda u bunday noqulay ahvolga tushib qolmasdi.

### «Qasos»

Ota yonida bolasi bilan dalada xashak o'ryapti. Otasi o'g'lini yoniga o'tqazib qo'yib, xashakni o'rishda davom etadi. Bola birpas o'ynagan bo'ladi va charchab dam olmoqchi bo'lib o'tiradi va uni uyqu elta boshlaydi. Boshiga ozgina ho'l xashak tashlab, ustidan belbog'chani yoyib olib boshiga qo'yadi va uxlab qoladi. Shu payt ilon kirib keladi (ilon qiyofasini talaba emaklagan holda, buralib, to'xtab, atrofni kuzatib bajaradi). Ilon uxlab yotgan bolaning atrofida aylanib kelib, unga tikilib qarab turadi. Bola bemalol uxlayveradi. Ilon bolaga tegmasdan ketib qoladi. Katta ilon ketishi

bilan ilon bolasi kirib keladi va u ham uxlab yotgan bolaga tikilib qarab turganda bolaning otasi uni ko'rib qoladi va kichkina ilonni (o'roq yoki panshaxa bilan) urib o'ldiradi va uni uloqtirib yuboradi. Katta ilon bolasini o'lganini ko'rib, bezovtalanib, g'azablangan holda kelib, boyagi uxlab yotgan bolani chaqib oladi. Ota bolasining oldiga kelib, uni hushidan ketib qolganini ko'radi va jaryod qiladi. Jahl bilan o'rnidan turib, ilonni tutmoqchi bo'lganida boya o'zi o'ldirgan ilon bolasiga ko'zi tushadi va nima qilishini bilmay qotib qoladi.

### «Ilon bilan qurbaqa»

Qurbaqa botqoqda turli hasharotlarni tamaddi qilib, mazza qilib, sayrab o'tiribdi. Bir pashshani tutmoqchi bo'ladi, u qochib ketadi. Ikkinchisini tutmoqchi bo'ladi, u ham qochib ketmoqchi bo'lganda chaqqonlik qilib uni tutib oladi. Xullas, u yoqqa bir sakrab, bu yoqqa bir sakrab pashshalarni yeb qornini to'yg'izib yuradi. Qorni juda to'yib ketsa ham nafsini tiyolmay yana pashsha ovini boshlaydi. Bitta pashsha kelib qo'nadi. Uni tutmoqchi bo'lganda qorni judayam to'qligi tufayli qimirlashi qiyin bo'lib qoladi. Shunday bo'lsa ham bor kuchini to'plab boyagi pashshani ushlash uchun to'nka ortiga sakraganda o'zi borib shu to'nkani orqasida turgan ilonga yem bo'ladi. (Aynan mana shu joyi, ya'ni qurbaqaning ilonga yem bo'ladigan sahnasi juda original topilmalardan biri bo'lgan. Qurbaqa ortiga qarab sakramoqchi bo'lganda to'nka bilan ilon (odam) o'rtasidagi bo'shliq xuddi ilon og'zini katta ochgandek bo'lib ko'rinadi. Qurbaqa (odam) orqasiga o'girilib, old tomoni bilan ilonning og'ziga kirib ketadi, xuddi ilon uni yutayotgandek. Ilon uni shunday ishtaha bilan, ammo qiynalib yutayotgandek bajaradi. Qurbaqa esa xuddi tryuk bajargan aktyordek yo to'nkaning ortida qoladi yoki ilonning orqasiga yashirilib sekin sahnadan chiqib ketishi mumkin. Bu etyud tomoshabinlarda katta taassurot qoldirishi mumkin.

### «Arava»

Ikki yigit aravani o'zlari itarib-tortib og'ir qoplarda yuk tashishyapti. Birdan shu payt bir eshak bo'shalib ketib u yoqdan bu yoqqa chopib yurganini ko'rib qolishadi. Uni amallab tutmoqchi



bo'lishadi. Rosa unnab uni zo'rg'a tutib olishadi va aravaga bog'lashadi. Unga rosa yukni solishadi. Bir marta oborib kelishadi. Ikkinchi marta undan ham ko'proq yuk solishadi. Ammo eshak uni tortolmaydi. Ular eshakni qiynab ura boshlaydilar. Ammo eshakning bu yuklarni tortishga kuchi yetmaydi. Yigitlar ozgina qarashib yuborishadi va arava o'rnidan qo'zg'oladi. Arava yurishni boshlagach, yigitlar o'zlari ham aravaga minib olishadi va eshakni «chu-chu»lab haydab, choptirmoqchi bo'lishadi. Eshak bor kuchini to'plab, aravadan chiqib, arqonlarni uzib, qattiq hangrab qochib ketadi, aravadagi qoplar esa sochilib ketadi. Yigitlar o'zlari ham yiqilib tushadilar. O'rinlaridan turib, ust-boshlarini qoqib, eshak ketgan tomonga qarab tikilib qoladilar va yuklarni aravaga solib, o'zlari zo'rg'a itarib keta boshlaydilar. Ular aravani qiynalib itarib ketayotganlarida eshak ularning oldidan xuddi ularni masxara qilib kulgandek hangrab changitib o'tib ketadi.

Bu etyudni musiqa jo'rligida, hazil tariqasida ham hal qilish mumkin. Masalan, yukni ortib, xursand holda ketayotganlarida «Tom boshida tog'ora, tog'orada zog'ora» qo'shig'ining musiqasi original tempda, o'zlari itarib ketayotgan paytda esa xuddi shu musiqani tempini sekinlashtirgan holda berilsa, ularning holatiga mos tushadi.

### **«Brokonerlar yoki qaytar dunyo»**

Brokoner ovchilar qo'llarida miltiq, durbin, ryukzak va boshqa anjomlari bilan kirib kelishadi. Qushlarni mo'ljalga olib otadi. Qush yerga qulaydi, ovchining iti yugurib borib o'ljani olib kelib egasiga beradi. Ovchi qushni itining og'zidan olib uning boshini ayovsiz ravishda qo'li bilan uzib tashlab, vahshiylarcha qopiga tashlab, o'zi qilgan ishidan mamnun bo'lib, yana bir necha jonivorlarni jonidan ayiradi. Birdan brokonerlardan biri ikkinchisini turtib qo'li bilan kiyik (yoki bug'u)ni ko'rsatadi. Ular tezda qopidan qopqonni chiqarib uni o'rnatishadi va o'zlari berkinib ularni kuzata boshlaydilar. Ona va bola kiyiklar kirib kelishadi. Avval bola kiyik, keyin ona kiyik kirib keladi. Bola kiyik sakrab, o'ynab, onasiga erkalanib sayr qilib yurishibdi. Ona kiyik atrofga xushyor qarab, uzoqlarga tikilib turganda bolasi kelib unga erkalanib, suykali, yana yugurib sahnadan chiqib ketadi (ya'ni

o'ynab ketib qoladi). Ona kiyik birdan xavfni sezib o'ynab, sakrab kirib keladilar va birpas atrofni kuzatib ko'zdan g'oyib bo'ladilar.

Ona kiyik biridan xavfni sezib o'ynab, sakrab kirib keladilar va birpas atrofni kuzatib ko'zdan g'oyib bo'ladilar. Bolasi uning oldiga yugurib keladi. Ular ketmoqchi bo'lganlarida ularning old tomonidan to'rtinchi taraf hayday boshlaydilar. Brokonerlar maqsadlariga erishadilar, ya'ni kiyik bolasi qopqonga tushadi. Brokonerlar erishadilar, kiyikning onasini ham tutish maqsadida ularga yaqinlashadilar, kiyikning onasi qochib ketishga majbur bo'ladi. Ovchilar xursand bo'lib kiyik bolasi qopqondan chiqarib uni arqon bilan bog'lab qo'yishadi. Ular kiyik bolasi uchun baribir qaytib kelishini bilib, yana qopqonni tayyorlab qo'yishadi.

Ona kiyik atrofni yana bir bor kuzatib, xavfni sezib ham juda ehtiyotkorlik bilan bolasi tomon yaqinlasha boshlaydi. Ovchilar xursand bo'lib, birinchisi ikkinchisiga qo'li bilan orqadan kelishini imo qilib, aytib, yashiringan joyidan chiqib tomondan ketayotganida o'zi, ya'ni brokoner-ovchi o'zi qo'ygan sekingina tushib qoladi. Qopqon katta va og'ir bo'lib, tishli ham bo'lgani uchun ovchining qopqondan chiqib ketishi oson bo'lmadi. Ikkinchi sherigi kelib, yordam bergach, zo'rg'a yechib olishadi. O'rnidan turib yurmoqchi bo'ladi, ammo yurolmaydi. Og'riqqa ehtiyot bilan jahl bilan bor kuchini to'plab, o'rnidan turib, pichog'i hayday olmay bog'lanib turgan kiyikning bolasidan alaminini olmoqchi bo'lib uning oldiga vajohat bilan boradi va kiyikning mo'ltirab turgan ko'ziga ko'zi tushib, nariroqda jovdirab turgan onasini ko'radi. Uning ko'ziga bir zum tikilib qoladi. Mana shu bir daqiqali tikilishda o'ylanib, hayotini unga anglatadi. U pichog'i bilan kiyik bolasi bemazmun qo'ygan arqonni kesib yechadi. Kiyikni turishiga yordam berib uni onasi taraf sekin turtib ketkazib yuboradi. Yugurib ketgan sherigi uni otmoqchi bo'lganida uni to'xtatadi. Bola yugurib otasi tarafga ketadi. Boyagi ovchi esa sekin o'rnidan turib, qopqonni otasi tarafga biroz tikilib uni uzoqqa otib yuboradi. Narsalarini to'liga olib, yig'ishtirib sahnadan chiqib ketishadi.

Bir ozdan so'ng ona kiyik va boyagi erkatoylar kiyik bolasi sekingina o'ynab, sakrab kirib keladilar va birpas atrofni kuzatib ko'zdan g'oyib bo'ladilar.

### **Xaloskor pingvin (yoki sadoqat)**

*Ona pingvin tuxumlarni bosib o'tiribdi. Ammo unga kutish yoqmayapti. Tuxumga bir qarab, atrofga bir qarab zerikib ketadi. U yoq bu yoqqa qarab «nima bo'lsa bo'ldi deb» tuxumni tashlab ketib qoladi.*

*Ota pingvin kirib keladi va tuxumlar qarovsiz qolganini ko'rib, jahli chiqib, ona pingvinni nigohlari bilan izlay boshlaydi. Ammo ona pingvindan darak yo'q. Shu payt bir to'p chag'alaylar tuxumlarga ega bo'lish uchun hujum qila boshlaydi. Shoshib qolgan ota pingvin ilojisiz bolalarini (tuxumlarni) o'z himoyasiga oladi. Chag'alaylar qanchalik urinishmasinlar o'z maqsadlariga erisha olmaydilar. Ularning beshavqat hujumidan pingvinning otalik sadoqati ustun keladi. Xavfdan xalos bo'lgan ota pingvin xursand bo'lib o'z bolalarini (tuxumlarini) bag'riga bosib turganida ona pingvin kelib qoladi. Ona pingvin qilgan ishidan xijolat bo'lib turadi. Ota pingvin esa arazlaganga o'xshab, unga qaramay xafa bo'lganligini bildiradi. Ona pingvin kelib ota pingvingga erkalanib, sekin joyiga kelib joylashmoqchi bo'ladi. Ota rozi bo'lmaydi. U yana sekingina turtadi. Ota pingvin unga «boshqa unday qilma» degan ma'noda ko'z qarash qiladi va ozgina surilib unga joy beradi. Ikkalasi ham tuxumlarni bosib boshlarini bir-birlariga tekkizib qoladilar.*

### **«Akvarium»**

*Sahna akvarium deb qabul qilinadi. Sahnaning chekkasidan ota va bola sallafan paket (yoki banka)da turli baliqlarni olib keladi va uni sahnaga, ya'ni akvariumga tashlaydilar. Ota har safar qo'lida baliq tashlaganday bo'lganda sahnaga bitta baliq (ya'ni baliq rolini ijro etayotgan talaba) sakrab tushadi va xuddi suvda suzib yurganday turli harakatlarni bajaradilar. Baliqlarni suvga tushirib bo'lgach, ota qo'lida boshqa idishda ularga yemish olib ularga bera boshlaydi. Baliqlar suzib kelishib ovqatlarni talashib-tortishib yeyishadi. Ota chiqib ketgach, bola akvariumga kelib turli harakatlarni bajara boshlaydi, masalan, ularni ushlamoqchi bo'ladi, ovqat berib tutmoqchi bo'ladi, chiroqni o'chirib tutmoqchi bo'ladi, qarmoqni amallab yig'ib tutmoqchi bo'ladi. Bolaning ko'zi choy qaynatgich (kipitilnik)ga tushib qoladi. Uni olib suvga botirib*

*tokka tiqmoqchi bo'ladi. Otasi kirib qolib uni suvdan olib tashlab, bolani koyigan bo'ladi. Bola arazlab qoladi va jahli chiqib akvariumni itarib yuboradi va akvarium ag'darilib hamma baliqlar yerda tipirchilab qoladi. Ota darrov ularni tutib, bankaga soladi (ya'ni sahnadan tashqariga joylashtirgan bo'lib, aktyor-baliqlarni sahnadan chiqarib yuboradi).*

Yuqorida berilgan etyudlarni o'zlashtirish uchun qo'yilayotgan talablarni bajarish birinchi kurs talabasi uchun majburiydir.

Har bir talabaga etyud topish vazifasi berilganda, uni tasdiqdan o'tkazish uchun turli savollarga javob berishi kerak bo'ladi. Etyudni amaliy jihatdan ijro etib bergandan so'ng ko'rsatgan etyud bo'yicha savol-javob boshlanadi. «Nima uchun bunaqa mavzu tanladingiz», «Shu etyud bilan nima demoqchisiz, g'oyangiz nima», «Uning tarbiyaviy ahamiyati nimada» va h.k. kabi savollar beriladi va bu savollarga javoblar aniq bo'lishi kerak bo'ladi. Shuning uchun asarni tahlil qilishni o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Har qanday asar singari etyudlar ham tahlil qilinadi. Bu jarayon, ya'ni etyudlar ustida ishlash aynan birinchi kursda o'zlashtirishi, ularni o'rganish uchun tahlil qilishni taqozo etadi. Etyudlarni tahlil qilish yana shuning uchun kerakki, rejissyorlikning ilk saboqlarini o'zlashtirish ana shundan boshlanadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki talabalar o'rtasida har bir asarni tahlil qilish uning yangi-yangi qirralarini kashf etilishiga asos bo'ladi. Undan tashqari, ular mutaxassislik fanlaridan fikrlay olish, o'z fikrini boshqalarga yetkazish kabi vazifalarni amalga oshira boshlaydi.

Tahlil qilganda nimalarga e'tibor berish kerak?

1. Asarning mavzusi (asarni nima haqida degan savolga javob berishi kerak).
2. Uning g'oyasi aniqlanadi (muallif nima demoqchi).
3. Konfliktlar aniqlanadi (qarama-qarshiliklar kimlar orasida).
4. Uning kompozitsion tuzilishi nimalardan iborat (prolog, tugun, voqealar rivoji, kulminatsion nuqtasi, yechim, epilog).
5. Yetakchi xatti-harakat (oliy maqsadga olib chiquvchi yo'l).
6. Oliy maqsad (shu asarni sahnalashtirish orqali rejissyor sifatida nima demoqchisiz).
7. Obrazilarga xarakteristika beriladi.

Etyud rejissyor uchun - birinchi kichik tugallangan spektakli bo‘lib, o‘zining oliy maqsadi, emotsionalligi, janr bo‘yicha hal etilganligi bilan ajralib turadi, u chiroq va musiqiy bezakli tomoshadir.

Talaba etyud ssenariysini yaratishda berilgan shart-sharoit aniq ko‘rsatishi lozim. Bular:

– harakat qaysi vaqtda bo‘lib o‘tishi. Ya’ni harakatning vaqti, tongdami, kechasi va h.k.

– harakat qayerda bo‘lib o‘tadi. Ya’ni qanday joyda, hovlidami, o‘rmondami yoki dengizda.

– kim ishtirok etadi. Har bir ishtirokchiga qisqacha tasnif beriladi. Uning yoshi, kasbi va xarakteri va h.k.

– nima bo‘lib o‘tadi. Ya’ni etyud ma’nosining qisqacha harakat mazmuni, uning fabulasi, sujeti, maqsadi ko‘rsatilib, bu harakat nima uchun amalga oshirilayotganligi hal etiladi. Qahramonlarning harakati ko‘rsatiladi.

Etyud har xil sujet asosida qurilishi mumkin. Jismoniy harakat va buyumlarsiz xatti-harakat asosida qurilgan etyudlar talabga ko‘proq javob beradi. Bu yerda sekin-astalik bilan mashqdan harakatga o‘tib, bir vaqtning o‘zida aktyorlik va rejissyorlik fikr qilish qobiliyatini faol toblaydilar.

Talaba buyumsiz xatti-harakat sifatida ketmon chopish jarayonini bajarmoqda. Mashq davomida u predmetni to‘g‘ri his qilib, uning og‘irligini, shaklini sezib, harakatda mantiqiy ketma-ketlik seziladi. Pedagog unga mana shu mashq asosida etyud tayyorlashni taklif etishi mumkin. Talabaga etyud ssenariysini yaratishda – etyud uchun harakatni qurish, etyuddagi qiziq berilgan shart-sharoitlar doirasini yaratishni, etyudni sahnalashtirishda esa – etyud mazmunini faol shakllanish yo‘nalishini kuzatib, ssenariyda ko‘zda tutilgan g‘oyani amalga oshirish, voqeaning o‘tish vaqti, voqeaning o‘tish joyi va ishtirokchining kim ekanligiga asosiy e‘tibor qaratish lozim.

Etyudni sahnalashtiruvchi rejissyor esa bevosita sahnalashtirish jarayonida quyidagilarga amal qilishi lozim<sup>41</sup>:

---

<sup>41</sup> Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasu asoslari. – T., Aloqachi 2008 y. 278-279 b.

– Ishni sahna kengligidagi o'yinni tashkil qilish, ya'ni berilgan shart-sharoitni amalga oshirish va aniqlashtirishdan boshlab, sahna kengligiga (sahna maydoniga) rejissyorlik va aktyorlik nuqtayi nazardan qarab, ular o'rtasida prinsipial farq borligini ko'zda tutish kerak, ijrochi o'z tanasining kenglikdagi harakati uchun maydonning qulayligiga qaraydi.

– Joy, vaqt harakati va muhitning obrazli yechimini izlashni boshlab, maydonni to'sib qo'ymaslikka harakat qilib, 2-3 aniq bezakning detalini topish lozim. Sahna kengligini shunday tashkil qilish lozimki, unda ta'sirchan effekt va harakat muhiti yetarlicha ta'sirchan bo'lishi lozim. Har qanday sahnalashtirish effektlaridan - tovush, musiqa, chiroq va h.k.lardan foydalanishga ruxsat berildi.

– Ijrochilar harakatiga ayniqsa katta ahamiyat berib, ularning harakatini faollashtirish lozim, buning uchun berilgan shart-sharoitni jadallashtirib, har bir parchada ijrochi uchun to'g'ri topshiriqlar topish kerak.

Pedagog va talabalar hamkorligida turli mashqlarni o'ylab topish bu sohani tez o'zlashtirishga olib keladi. Masalan, aytaylik voleybol o'yini...

Pedagog guruhni ikkita tomonga bo'lib, voleybol to'pini o'rtaga tashlab (tasavvurda-predmetsiz), o'yinni boshlash to'g'risida komanda beradi. Koptokning yo'nalishiga qarab, talabalar koptokni qabul qilib oladilar yoki oldinga otadilar. Musobaqa tarzida tanlangan bu bitta mashqda aktyorlikning bir nechta elementlarini kuzatish mumkin. Masalan, predmetsiz xatti-harakat, ko'rish, diqqatni jamlash, partnyorlar bilan ishlash, sahnaviy muhit yaratish va boshqa shu kabi elementlarni o'zlashtirishda shunga o'xshash mashqlardan foydalanish katta samara berishi mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, etyudlar ustida ishlash –aktyorning har jihatdan rivojlanishiga turki bo'ladigan ijodiy jarayondir. Shuning uchun ham uni faqat boshlang'ich kurslarda emas, balki muntazam ravishda takrorlab turish maqsadga muvofiqdir.

### **Nazorat savollari va topshiriqlar:**

1. «Etyud» so'zining ma'nosini ayting.
2. Etyudlar qanday tayyorlanadi?

3. *Etyudlarning kompozitsion tuzilishini belgilang.*
4. *Etyudlar mashqlardan qanday (nimasi bilan) farq qiladi?*
5. *K.S.Stanislavskiyning «hayotiy haqiqat»(B.Zaxava) prinsipini qanday tushunasiz?*
6. *Bir kishilik, juft va ommaviy etyudlarda ishlashning o'ziga xos xususiyatlarini aytib bering.*
7. *Biron-bir hikoya asosida etyud tuzing.*
8. *Hayvonlar hayotiga oid etyud tuzing hamda uni tahlil qiling.*

### **Fanni o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish «Klaster»**

«Klaster» – bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradigan, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradigan metod turidir.

Fikrlarning tarmoqlanishi – pedagogik strategiya bo'lib, u talabalarning biron-bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq uzviy bog'langan kema-ketlikda tarmoqlashni o'rgatadi. «Klaster» metodi muayyan mavzuning talabalar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirishga, fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu metod talabani mantiqiy fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirishga xizmat qiladi. Klasterga ajratish – talabalarga biror bir mavzu to'g'risida erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu usul ko'p variantli fikrlashni o'rganilayotgan tushunchalar o'rtasida aloqa o'rtasida aloqa o'rnatish malakalarini rivojlantiradi.

Fikrlarni tarmoqlash quyidagicha tashkil etiladi:


1. Qog'oz o'rtasiga «kalit» so'z yoki gap yoziladi.
2. Kalit so'ziga mos kelgan fikrlarni bir so'z bilan ifoda etilib, ketma-ket yoziladi.
3. Fikrlar yozilganda ular o'rtasidagi bog'lanishlar belgilanadi.
4. Fikrlar tugamaguncha yoki vaqt tamom bo'lgunicha fikrlar tarmoqlarni ko'paytirishga harakat qilinishi lozim.
5. Keltirilgan so'z va fikrlar mazmuni va yaqinligiga qarab toifalarga ajratib chiqiladi.

Klaster tuzishda talabalar bilan hamkorlikda o'qituvchining ham ishtirok etishi, g'oyalari o'zagi bo'lib xizmat qiladi. Klaster puxta o'ylangan strategiya bo'lib, unda talabalar bilan tartibda dars jarayonida foydalanish mumkin. Bu esa ilgari g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni imkoniyatini yaratadi. Dars jarayonida klasterni yana kengaytirish va to'ldirish mumkin.

- Klasterga ajratishda bir qator qoidalarga ham rioya qilish zarur:
- fikrlarni mazmuniga e'tibor berib yozish kerak;
  - iloji boricha ko'proq bog'lanishlar hosil qilish;
  - g'oyalari va so'zlar sonini cheklab qo'ymaslik;


«Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati» «Rejissyorlik tahlil» mavzusida janrlar haqida so'z bo'lganda, dramatik asarlarni tahlil qilish jarayonida «Adabiyot» tushunchasi orqali «dramaturgiya» tushunchasiga yetib borishning shaklini quyidagicha tasvirlash mumkin: (Ilmiy adabiyotlar to'xtalmasdan, asosiy e'tiborni sohaga tegishli bo'lgan adabiyot qismiga qaratdik).

### Adabiyot bo'yicha klaster





## Yoki tadbirlar turlari bo'yicha



### «Sinkveyn»

«Sinkveyn» –interfaol metodi, fransuzcha «besh qator yoki besh misra» ma'nosini anglatib, ijodiy ifoda vositasi hisoblanadi. Mazkur usuldan shoir, yozuvchi, san'atkorlar foydalansa ko'proq samaraga erishishi mumkin.

1-qator: **ot** so'z turkumi;

2-qator: **sifat**;

3-qator: **ot, sifat, fe'l**;

4-qator: **gap, ibora tuzish**;

5-qator: shu iborani **sinonimi**, bitta ma'noni anglatadigan mazmundagi so'zni topamiz.

Masalan:

1-qator: ot; **Mashina**

2-qator: sifat; **yangi**

3-qator: ot, sifat, fe'l; **yangi mashina oldim.**

4-qator: gap, ibora tuzish; **Men eng oxirgi rusumdagi oq rangli, konditsionerli, 3-pozitsiyadagi avtomobil sotib oldim.**

5-qator: shu iborani sinonimi, bitta ma'noni anglatadigan mazmundagi so'zni topamiz. **Men zamonaviy avtoullovga ega bo'ldim.**

## **Soha bo'yicha quyidagi misolni keltirish mumkin:**

1-qator: ot; **Mushuk**

2-qator: sifat, **semiz sichqon**

3-qator: ot, sifat, fe'l; **ko'rdi**

4-qator: gap, ibora tuzish; **Qorni och mushuk semizgina, momiqqina, sekingina o'rmalab kelayotgan mushukni ko'rib qoldi.**

5-qator: shu iborani sinonimi, bitta ma'noni anglatadigan mazmundagi so'zni topamiz.

Masalan: **Baroqvoyning yemishga ko'zi tushdi.**

Bu metod aktyorlikka tayyorlashda ham juda qo'l kelishi mumkin. Masalan, endigina sahnaga chiqayotgan, aktyorlik mahoratining elementlarini o'zlashtirayotgan talabaga vazifa yuklash, uning mushuk obrazida yashashga, sichqonni tutishi uchun shart-sharoitga moslashishi, obrazga kira olishi uchun imkoniyatlar yaratilishiga asos bo'lishi mumkin.

### **«Men kimman?»**

Bu usul orqali to'g'ri savol berish qobiliyati, madaniyatini shakllantiradi, obyektini to'g'ri baholay olishga qaratilgan imkoniyatlarini kengaytirishga yo'l ochiladi. Savollarni tuzish ketma-ketligi, savol berish madaniyati, savolning mavzuni ochishiga yordam beradigan jihatlarini ishlab chiqqan holda tuzishga yordam beradi.

Bu usulni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

Guruhni 3yoki 4taga ajratib, har bir jamoadan bittadan o'quvchini tashqariga chiqib kutib turishi so'raladi. Ular chiqib ketganlaridan so'ng jamoalar har biri bittadan so'z o'ylaydilar. Masalan, sohaga, kasbga oid bo'lishi mumkin. Tashqari chiqarilganlar, yana ichkariga taklif qilinadi va ularga topshiriq beriladi. Topshiriq shundan iboratki, «shu qog'oz ichida sizning qaysi kasb egasi ekanligingiz yozilgan. Siz jamoaga teskari o'tirgan holda, o'zingizni kim ekanligingizni savol berish orqali aniqlashingiz kerak bo'ladi. Siz savol berasiz, jamoa sizning savolingizga ha yoki yo'q deb javob berish kerak bo'ladi».

Masalan: Qog'oz ichida «Tashkilot rahbari» deb yozilgan.

Savol	Jamoa javobi
Men u ishni bajarishim uchun maxsus kiyinib olishim kerakmi?	Yo`q
Bir jovda o`tirib ishlaymanmi?	Ha
Odamlar bilan muloqot qilamanmi?	Ha
Telefonda ko`p gaplashamanmi?	Ha
Ish paytida uxlab olish imkoniyatlarim bormi?	Yo`q
Menga ko`p ish buyurishadimi?	Yo`q
Mendan qo`rqishadimi?	Ha
Mening xonam alohidami?	Ha
Men buyruq bera olamanmi?	Ha
Hamma meni aytganimni qilishga majburmi?	Ha

Shunga o`xshash savollarni berib u o`zining kimligini aniqlaydi. Bunda savolni to`g`ri qo`yish ham alohida mahoratni talab etadi. Har bir jamoadan tashqariga chiqib turganlar birma-bir kirib, savol berish orqali o`zlarining kim ekanliklarini aniqlaydilar.

### Keys №2

Navbatdagi diplom ishining oxirgi progoni uchun barcha tayyorgarliklar ko`rib bo`lingach, o`qituvchi talabalar (spektakl ishtirokchilari)ga 20daqiqqa tamaddi olish uchun tanaffus e`lon qildi. Mohir rejissyor deb nom olgan o`qituvchi (ya`ni **diplom ishi badiiy rahbari**) fursatdan foydalanib, kafedradagi uslubiy kengash a`zolarini (kafedrada ijodiy ishlarni tahlil qilish uchun 3 kishidan iborat uslubiy kengash tuzilgan) ham yarim soatdan keyin kelib, mazkur diplom ishini katta namoyishdan oldin ko`rib berish uchun taklif qildi. Belgilangan vaqtda barcha talabalar kirib kelishdi. Kostyum, dekoratsiya, grim va boshqa hamma narsalar progon uchun tayyorlandi. **Kafedra mudiri** boshchiligida **uslubiy kengash a`zolari** ham kirib keldilar. Ammo guruhdagi asosiy rollardan birini o`ynayotgan talaba (**Sanjar**)ning yo`qligi sababli proganni boshlash imkoni bo`lmagach, kafedra mudirining jahli chiqib, o`qituvchiga «kafedrada ish tiqilib yotgan bir paytda tayyor bo`lmagan ishga bizni nega ovora qilasiz, tushuntirish xatini yozib bering», deb jahl

bilan auditoriyadan chiqib ketdi. O'z navbatida uslubiy kengash a'zolaridan biri ham «avval tayyor qilib, keyin chaqirsangiz bo'lmaydimi?» deb piching qilib chiqib ketishdi.

Jahli chiqqan o'qituvchi «tezda talabani qayerdan bo'lsa ham topib, meni oldinga keltiringlar», deb turgan bir paytda Sanjarning o'zi kelib qoldi (u 7daqiqaga kechikdi). «Uzr kech qoldim», deb kirishga ruxsat so'radi. Uning qaytib kelganini kafedra mudiri ham, uslubiy kengash a'zolari ko'rdi. O'qituvchi ularning orqasidan chiqib, «boshlab yubora qolaylik», deganida kafedra mudiri «Maynavozchilik qilmang, eplasangiz kursni boshqaring, bo'lmasa boshqa ish bilan shug'ullaning», deb jahl bilan kafedraga kirib ketdi. Bu gapni talabalar ham eshitdi. O'qituvchining avvaliga juda qattiq jahli chiqdi. Ammo o'zini qo'lga olib, Sanjarga yuzlandi va «Qayerda eding?» deb so'radi. Mashinasi borligi uchun **dekan** uni bir ish bilan qayergadir olib borib kelishni iltimos qilganligi, Sanjar esa bunga «progonga kech qolsam bo'lmaydi», deganida, «sen meni gapimni ikki qilyapsanmi, reyting baholaringni pasaytirib tashlayman», degani uchun bormaslikning iloji bo'lmaganligini tushuntirdi.

O'qituvchi kafedraga qaytib kelganida kafedra mudiri qo'shni kafedra mudiri bilan choy ichib o'tirishgan edi. U progonning vaqtini belgilab berishini so'rganida, kafedra mudiri «endi kech bo'ldi, sizning spektaklingiz qabul qilinmadi, deb hisoblaymiz», deb ovqatlanishda davom etdi. O'qituvchi jahl ustida ishdan bo'shsh to'g'risida ariza yozib berdi.

### **Keys bo'yicha savol va vazifalar:**

1. Bunday holatda guruh rahbari nima qilishi kerak edi?
2. Bu vaziyatda guruh rahbarining aybi bormi?
3. Kafedra mudiri va dekaning o'quv jarayoniga munosabatini tahlil qiling.
4. Siz o'zingiz bunday sharoitga tushib qolsangiz, nima qilgan bo'lardingiz?
5. Shu voqeaga o'xshagan vaziyat sizning ijodiy faoliyatiningizda ro'y berganmi?

## SWOT tahlil

<p style="text-align: center;"><b>Kuchsiz (zaif) tomonlari</b></p> <p>1. Jahl ustida ishdan bo'shshah to'g'risidagi yozgan arizasi;</p> <p>2. Ishonuvchanligi, ya'ni talabalarga kafedra mudiri va uslubiy kengash a'zolarining kelishi haqida tayinlab avtmaganligi;</p>	<p style="text-align: center;"><b>Kuchli tomonlari</b></p> <p>1. Mohir rejissyor</p> <p>2. Yaxshi pedagog</p> <p>3. O'zini bosib olgan</p>
<p style="text-align: center;"><b>To'siqlar</b></p> <p>1. Kafedra mudiri bilan munosabatlarning chigallashuvi;</p> <p>2. Talabaning kech qolishi;</p> <p>2. Dekanning munosabati</p>	<p style="text-align: center;"><b>Imkoniyatlar</b></p> <p>1. Spektaklni qo'yish uchun kafedra mudirini ko'ndirishi kerak edi;</p> <p>2. Agar kafedra mudiri ko'nmasa, o'quv ishlari bo'yicha mas'ul rahbarlarga murojaat qilishi kerak edi;</p> <p>3. Spektaklni namoyish qilish mumkin edi;</p>

### Etyud tayyorlash uchun keys

Masalan: («Qasos» etyudi).

Ota dalada xashak o'ryapti. U o'zi bilan kichkina 5yoshli o'g'lini ham olib kelgan. Bola birpas o'ynagan bo'ladi va charchab dam olmoqchi bo'lib o'tiradi va uni uyqu elta boshlaydi. Boshiga ozgina ho'l xashak tashlab, ustidan belbog'chani yoyib olib boshiga qo'yadi va uxlab qoladi. Shu payt ilon kirib keladi (ilon qiyofasini talaba emaklagan holda, buralib, to'xtab, atrofni kuzatib bajaradi). Ilon uxlab yotgan bolaning atrofida aylanib kelib, unga tikilib qarab turadi. Bola bemalol uxlayveradi. Ilon bolaga tegmasdan ketib qoladi. Katta ilon ketishi bilan ilon bolasi kirib keladi va u ham uxlab yotgan bolaga tikilib qarab turganda bolaning otasi uni ko'rib qoladi va kichkina ilonni (o'roq yoki panshaxa bilan) urib o'ldiradi. Ota o'lgan kichkina ilonni o'rog'i bilan nariga surib, xashak o'rishda davom etadi. Katta ilon qaytib kelganda, bolasini o'lganini ko'rib, bezovtalanadi va g'azablangan holda kelib, boyagi uxlab yotgan bolani chaqib oladi.

Ota bolasining oldiga kelib, uni hushidan ketib qolganini ko'radi va faryod chekadi.

### **Keys bo'yicha savol va vazifalar:**

1. Bu keys (etyud)ni siz qanday nomlagan bo'lardingiz?
2. Bu voqeaning g'oyasini aniqlang.
3. Nima uchun birinchi marta kelganida ilon bolani chaqmadi-yu, nega qaytib kelganida chaqdi?
4. Otaning aybi bormi?
5. Otaning va ilonning xatti-harakatlarini tahlil qiling.
6. Shu etyudni insonlar hayotiga ham bog'lash mumkinmi, insonlarda ham shunga o'xshash voqea-hodisalar ro'y berishiga misollar keltiring.

«Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati» fani bo'yicha juda ko'p pedagogik texnologiyalarni qo'llash mumkin. «Baliq suyagi», «Breynstorming» «Aqliy hujum», «Ssenariy», «Zig-zag», «Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim», «Bumerang».

«MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH MAHORATI»  
FANI BO'YICHA GLOSSARIY

- Aktyor** - *Fr. akteur, lot. aktor*- «ijrochi, harakat qiluvchi» degan ma'noni bildiradi.
- Askiya** - *Azkiyo* - arablarning «zakovat» so'zidan olingan, «zehni o'tkir» degan ma'noni anglatadi. Askiya - ikki kishi yoki bir necha guruhlardan iborat so'z o'yinlarining muayyan mavzu ustidagi tafakkur musobaqasi - so'z jangidir.
- Analiz** - (*yun. analysis*) - qismlarga bo'lish, tahlil qilish.
- Artist** - (*fran. artiste* - san'atkor, ijodkor, *lot. ars* -san'at) - musiqa, drama va boshqa shu kabi san'at turlarini ko'pchilik o'rtasida ijro etuvchi, bajaruvchi va bu san'atni o'ziga asosiy kasb qilib olgan kishi.
- Ansambl** - (*frans. Ensemble* - birga, birgalikda; ansambl musiqada, baletda, arxitekturada qo'llaniladi) jamoaviy kuylash va musiqiy cholg'u asboblari bilan uyg'unlik.
- Akustika** - (tovush tarqalish nazariyasi) - tovush paydo bo'lishi, tarqalishi va o'zgaruvchanligini bildiradi.
- Repetitsiya** - (*lot. Repetition* - takrorlash, qaytarish) krnsler dasturini, raqs, qo'shiqlarni repetitsiya qilmoq, mashq qilmoq, tayyorlamoq, o'rganmoq.
- Bayram** - *Turkcha «to'y-marosim, xursandchilik, shodiyona»*, qadimgi yahudiy (*dr.yevr.*) tilida «xach- xachat» - raqsga tushmoq, *lot. festivus* -«bayramona» degan ma'noni anglatadi.
- Butaforiya** - Sahnalashtirish jarayonida haqqoniy predmetlar o'rnida ishlatiladigan, atayin sahna uchun yasalgan jihoz, predmet.
- Dialog** - (*yun. dialogos*) - ikki kishining o'zaro suhbatlashuvi.
- Diletant** - (*ital. dilettante* - *huzur* bermoq) - san'at yoki faning bir sohasi bilan professional holda emas, aksincha shunchaki havaskorlik yo'lida shug'ullanuvchi.

- yetakchi xatti-harakat** – oliy maqsadga olib chiquvchi yo'l.
- Janr** – (*fr. genre – tur, uslub*) asarning tuzilishi, ijrochilik tarkibi, xarakteri bilan ular turlicha bo'ladi. Masalan, dramatik asarlarning drama, komediya, tragediya turlari mavjud.
- Insseni-rovka** – *lot. insurgens* – nasriy va nazmiy asarlarni teatr uchun qayta ishlash. Adabiy asarlarni dramatik holatga keltirish.
- Improvi-zatsiya** – (*lot. improvisus*) – «to'satdan, kutilmagan, tasodifan» degan ma'noni bildiradi.
- Kulmi-natsiya** – *Lot. «culmen, culminis»* - cho'qqi, harakat rivojlanishining eng yuqori nuqtasi.
- Kompo-zitsiya** – *Lot. «qurmoq»* – asar qismlarining tuzilishi, mantiqiy joylashishi va uning o'zaro bog'lanishi.
- Korfar-mon** – Masxaraboz va qiziqchilar teatri, ijrochilar rahbari, xalq an'anaviy teatri rejissyori, ish boshi.
- Monolog** – *Gr. «mono» – bir, «logos»* - so'z, bir kishi tomonidan ijro etiladigan parcha
- Masal** – *Ar. «o'rnak, maqol, namuna»* degan ma'noni beradi. Masal – majoziy xarakterdagi qisqa hikoya bo'lib, axloqiy va tarbiyaviy fikrlarni ifodalaydi.
- Mizans-sena** – *fr. mise en scene* – sahnada joylashish. Konfliktlarni plastik harakatga ko'chirish, sahnada aktyorlarning joylashuvi, harakati, kichik sahnalar.
- Modern** – *fr. yangi, zamonaviy.*
- Publitsis-tika** – (*lot. ijtimoiy*) – keng ma'noda, ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritadigan barcha turdagi asarlar. Tor ma'noda, davlat va jamiyat hayoti masalalariga bag'ishlangan ijtimoiy-siyosiy va ilmiy adabiyot.
- Rakurs** – *fr. raccourci* – uzoqdagi buyum tasvirining kichraytirilgan ko'rinishi.
- Ssenariy** – *Ital. «scenario»* – asarning rejasi demakdir. O'tkaziladigan bayram yoki tomoshaning to'liq yozma bayoni.



- Sanʼat** – «*Sun*», yaʼni «*yaratmoq*» soʻzidan olingan boʻlib, badiiylik yaratish, voqelikni obrazlar vositasida aks ettirilishi.
- Festival** – (*ing. va fran. festival* – *xushchaqchaqlik, bayram*) – katta madaniyat va sanʼat bayrami, musiqa, teatr sanʼati tanlovi, konkurslar.
- Tadbir** – Biron-bir ishni maqsadli amalga oshirish chorasi
- Debat** – Aniq mavzu boʻyicha bahs-munozara.
- In-**
- novatsiya** – *ing. yangilik kiritish.*
- Afisha** – spektakllar, konsertlar va madaniy tadbirlar, tomoshalar toʻgʻrisida xabar beruvchi, koʻzga koʻrinarli joylarga yopishtirilgan maxsus eʼlon.

# «MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH MAHORATI» FANIDAN TEST SAVOLLARI

## «Press-reliz» nima?

\*A.Oʻtkaziladigan tadbir (tomosha, spektakl va h.k) haqida berilgan umumiy maʼlumot

B. maqola

S. Ilmiy-seminar

D. Mahorat darsi

## «Debat» nima?

A. Davra suhbatlari

B. Tematik kecha

S. Bayram

\*D. Aniq mavzu ustida munozara

## Madaniy tadbirlar turlari

A. Ilmiy seminar, konferensiya

\*B. Davra suhbatlari, tematik kecha, koʻrik-tanlovlar

S. Lektoriy, reyting

D. Raqs, ashula

## Davra suhbatlari qanday tashkil etiladi?

A. Ssenariy yoziladi

V. Repititsiya qilinadi

S. Maydonda oʻtkaziladi

\*D. Bir mavzu boʻyicha xohlagan auditoriyada tashkil etish mumkin

## «Fabula» degan termin nima maʼnoni anglatadi?

\* A. Badiiy asarning sujet asosi

B. Kompozitsiya

S. Asarning prologi

D. Asarning eng yuqori choʻqqisi

## «Remarka» deganda nimani tushunasiz?

\*A. Muallif tomonidan pyesa matniga berilgan izoh

B. Rejissyorning tushunchasi

S. Aktyorning soʻzi

D. Partnyorning soʻzi

## Rejissyor» degan soʻz nima maʼnoni anglatadi?

\*A. Yoʻl-yoʻriq koʻrsatuvchi

V. Repititsiya o'tkazuvchi

S. Musiqa o'rgatuvchi

D. Boshlovchi

**«Inssenirovka» deganda nimani tushunasiz?**

\*A. Adabiy asarga sahnaviy shakl berish

B. Biron narsani tasvirlab, alishtirish

S. Adabiy materialni tarjima qilish

D. Ssenariy yaratish

**Quyidagilarning qaysi biri dramaturgiya janriga tegishli?**

\*A. Drama, komediya, tragediya

V. Lirika, epos Adabiyot,

S. matbuot

D. Latifa, askiya

**«Repertuar» so'zining ma'nosi...**

\*A. Ro'yxat

B. Adabiyotlar to'plami

S. Mumtoz qo'shiqlar

D. Mashq qildirish

**«O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasining oylik adabiy-badiiy, axborot-reklama jurnalining nomi...**

\*A. «Teatr»

B. «Saodat»

S. «Nafosat»

D. «Darakchi»

**Drama shaklida yozilgan adabiy asarni teatr sahnasi, radio, televedeniye uchun moslab qayta ishlash qanday nomlanadi?**

\*A. Inssenirovka

B. Ssenariy

S. Improvizatsiya

D. Hikoya

**Teatrdagi qo'yish uchun mo'ljallangan dramatik asar qanday nomlanadi? \***

\*A. Pyesa

B. Hikoya

S. Roman

D. Ocherk

**«Innovatsiya» soʻzining maʼnosi...**

A. Anʼanaviy oʻqitish

B. Noanʼanaviy oʻqish

S. Texnika vositalaridan foydalanish

\*D. Yangilik kiritish

**Botir Zokirov xotirasiga bagʻishlab oʻtkazilgan yosh estrada xonandalarining koʻrik tanlovining sahnalashtiruvchi rejissyori kim?**

\*A. Baxtiyor Sayfullayev

B. Bahodir Yoʻldoshyev

S. Rustam Hamidov

D. Nosir Otaboyev

**«Kamolot», «Qiziqchi», «Toshkent malikasi», teatrlashtirilgan futbol –shou dasturlarining bosh rejissyori kim?**

A. Marat Azimov

B. \*Baxtiyor Sayfullayev

S. Bahodir Yoʻldoshyev

D. Rustam Hamidov

**Rejissyorning uchta fazilati (oyna, tushuntiruvchi, tashkilotchi) haqida qaysi rejissyor oʻz fikrini bayon etgan?**

\*A. Nemirovich-Danchenko

B. K. S. Stanislavskiy.

S. B. Yoʻldoshev

D. Vs. E. Meyerxold

**Eortologiya nima?**

A. \*Bayramlar toʻgʻrisidagi fan

B. Marosim va udumlar haqidagi fan

S. Aktyorlik mahoratini oʻrgatadi

D. Rejissyorning kundaligi

**Debyut soʻzining maʼnosi qaysi qatorda toʻgʻri koʻrsatilgan?**

\*A. Aktyorning birinchi marta sahnaga chiqishi,

B. tomosha koʻrsatish

S. Rol ijro etish

D. Raqsga tushish

**Etyud soʻzi qanday maʼnoni anglatadi? \***

A. Sahna koʻrinishi

\*B.Mashq, mashg'ulot

S.Spektakldan parcha

D.Kichik asar

«Madaniyat» bu.....

A.Kiyinish

B.Odob-axloq

S.Ovqatlanish

D.\*Moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisi

**Vazirlar Mahkamasining 178-qarori ..... haqida**

\*A.Madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari

B.Madaniyat va istirohat bog'lari

S.Maktab va kollejlarni rekonstruksiya qilish

D.Musiqa san'atini rivojlantirish

**Vazirlar Mahkamasining 322-qarori ..... haqida**

A.\*Madaniyat va istirohat bog'lari

B.Musiqa san'atini rivojlantirish

S.Madaniyat va aholi dam olish markazlari

D.Sanoatni rivojlantirish

«Tadbir» so'zining ma'nosi

A.\*Biron-bir ishni maqsadli amalga oshirish chorasi

B.Spektakl

S.Tomosha

«Ssenariy» – bu

\*A.O'tkaziladigan tadbirning to'liq yozma bayoni

B.Repitiitsiyalarni tashkil etish

S.Asarning kompozitsion tuzilishi

D.Raqamlar

**Kompozitsion tuzilish**

A.\*Prolog, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim

V.Voqealar qatori

S.Obrazlarga xarakteristika

D.Asarning g'oyaviyligi

**Respublikamizda keng nishonlanib kelinayotgan sport tadbirlarini toping**

A.Umid nihollari, kim chaqqon

\*B. «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada»

S.Universiada, barkamol avlod, kelajak umidi

D.Kelajak umidi, universiada

**Bayramlar haqidagi fan qanday nomlanadi?**

A.Rejissura

\*B.Eortologiya

S.Prazdnikovedeniye

D.Ommaviy bayramlar

**«Konsert» soʻzining lugʻaviy maʼnosini .....**

A qoʻshiq aytaman

B.xonanda

\*S.oʻzishaman

D.kuylamoq

**Tematik kecha nima?**

A.Bayram

\*V. Maʼlum mavzuga bagʻishlangan tadbir

S.Tomosha

D.Insenirovka

**Mahalliy dalillarga asoslanib yozilgan, badiiy toʻlaqonli asar bu ...**

A.Pyesa

V.Dialog

\*S. Ssenariy

D.Monolog

**«Monolog» soʻzining lugʻaviy maʼnosini toping.**

A.\*Bir kishining soʻzi

B Ikki kishining suhbat

S.Dialoglar majmuasi

D. Tomoshabin soʻzi

## **«Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati» fani bo'yicha talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezonlari**

«Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati» fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi. E'lon qilingan vaqtdan boshlab talabalar o'zlariga ma'lum bo'lgan ballarni to'plashlari lozim bo'ladi.

«Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati» fani bo'yicha talabalar joriy, oraliq va yakuniy reyting ballarini to'plash uchun o'qituvchi tomonidan berilgan mashg'ulotlarni qay darajada o'zlashtirishi, darslardagi faolligi, maxsus forma (kiyim)larni kiyishi, uyga berilgan topshiriqlarni bajarishi, obraz yaratish (rol o'ynash)da yangi qirralarini namoyon qilishi, davomati, nazariy va amaliy bilimlarni uyg'unlashtira olishi kabi xususiyatlari hisobga olinadi.

Masalan, o'tiladigan darslarda asosan madaniy tadbirlar bo'yicha umumiy tushunchalar, aktyorlik elementlarini o'zlashtirishi hamda rejissura sohasiga qadam qo'yiladi. Buning uchun talabalar bilan turli mashqlar, trenejlar, etyudlarni o'zlashtirish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkaziladi. O'qituvchi tomonidan berilgan vazifalar talabalar tomonidan dars mobaynida hamda mustaqil o'zlashtirib boriladi.

**«Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati»** fani bo'yicha talabalarining semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi **100** ballik tizimda baholanadi.

Ushbu **100** ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

**J.N.** - **40** ball;

**O.N.** - **15** ball+mustaqil ish **15** ball = **30**;

**Y.N.** - **30** ball.

72soatlik dars mobaynida (ya'ni bir semestrda) talaba eng kami bilan **56** balldan **100** ballgacha yig'ishi mumkin. Shunga ko'ra 1para darsda talabani quyidagi baholash maqsadga muvofiqdir, ya'ni:

– uyga berilgan vazifa (topshiriq)ni tayyorgarlik darajasiga qarab 0 ball dan -2 ball gacha;

– bugungi o‘tilgan mashg‘ulotning o‘zlashtirishi natijalari bo‘yicha 1 ball;

– darsdagi faolligi uchun -0,5 ball;

– maxsus forma (kiyim), o‘quv qurollari (daftar, kitob, ruchka va h.k) mavjudligi uchun -0,5 ball;

– mustaqil ish uchun -0,5 ball;

Darsga qatnashganligi, ya‘ni davomati uchun - 0,5 ball.

Ammo, darsga kelmay qolgan kuni uchun undan 3 ball olib tashlanadi.

Talaba 1 para dars mobaynida 5 ball gacha to‘plashi mumkin. Buni sxematik ravishdagi ko‘rinishi quyidagicha:

Talaba tomonidan ball to‘plash mezonlari	Eng kichik miqdordagi ball	Eng yuqori ball	izoh
uyga berilgan vazifa (topshiriq)ni bajarganligi	0	2 ball;	
o‘tilgan mashg‘ulotning o‘zlashtirishi natijalari bo‘yicha	0	1 ball.	
darsdagi faolligi uchun	0	0,5ball;	
maxsus forma (kiyim), o‘quv qurollari (daftar, kitob, ruchka va h.k) mavjudligi uchun	0	0,5ball;	
mustaqil ish uchun	0	0,5ball;	
Darsga qatnashganligi, ya‘ni davomati uchun	0	0,5ball	
<b>Umumiy</b>	0	5ball	

«Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati» fani bo‘yicha yakuniy reyting nazoratida talabalar quyidagi xususiyatlar jihatidan baholanadi:

1. Guruh ishidagi ishtiroki bo‘yicha – 0dan 10ball gacha.
2. Mustaqil ish namoyishi uchun - 0dan 5 ball gacha.



3. Semestr davomidagi darslardagi ishtiroki (yutuq va kamchiliklari, mavzularni o'zlashtirish darajasi, tanlangan repertuari, odob-axloq, forma va h.k.) uchun -0 dan 10ballgacha.

4. Tanlangan asar himoyasi bo'yicha -0dan 5ballgacha to'plashi mumkin.

Buning sxematik ko'rinishini quyidagicha ifodalash mumkin:

<b>Talaba tomonidan ball to'plash mezonlari</b>	<b>Eng kichik miqdordagi ball</b>	<b>Eng yuqori ball</b>	<b>izoh</b>
Guruh ishidagi ishtiroki	0	2 ball	
Mustaqil ish namoyishi uchun	0	1 ball	
Semestr davomidagi darslardagi ishtiroki	0	0,5 ball	
Tanlangan asar himoyasi bo'yicha	0	0,5 ball	
<b>Umumiy</b>	0	<b>30 ball</b>	

## ILOVA

Mashgulot turi		Maksimal ball	100 ball
ma'ruza, amaliy, yakka		Saralash ball	55 ball
		86-100 ball	«a'lo»
		71-85 ball	«yaxshi»
		55-70 ball	«qoniqarli»
		0-54 ball	«qoniqarsiz»

№	Baholash vaqti	Baholash usuli	Ajratilgan ball
<b>Oraliq nazorat – 15+15=30 ball</b>			
1		ma'ruza hamda amaliy	
		<b>Joriy nazorat – 10+10+10+10=40 ball</b>	
2		Amaliy	
3		Amaliy	
4		Amaliy	
<b>Yakuniy nazorat – 30 ball</b>			
5		Amaliy	

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo'yicha 55 ball va undan yuqori ballni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

**ON** va **YAN** turlari kalendar-tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. **YAN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

Talabaning har bir sahnaviy chiqishlari video tasvirga tushirilishi shart. Bu avvalo guruhda tahlil qilish uchun lozim bo'ladi. Talabaning o'zi uchun esa bu juda muhim. U o'zining yutuq va kamchiliklarini videotasvirda ko'rib, tahlil qiladi va to'g'ri xulosa chiqarib, mashqlar, rollarini to'g'ri bajarishga harakat qiladi, o'z-o'zini baholash imkonini beradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** – talabning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollektivum, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

- **oraliq nazorat (ON)** – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

- **yakuniy nazorat (YAN)** – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan «Yozma ish» shaklida o'tkaziladi.

**ON** o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YAN** ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YAN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YAN** qayta o'tkaziladi.

Talabning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

Fan bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Y.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-40 ball va O.N.-30 ball qilib taqsimlanadi.

## XULOSA

Hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri – ta’lim va tarbiyaviy jarayonlarni to’g’ri, maqsadli tashkil etishdir. Rivojlangan davlatlarning ta’lim tizimni o’rganib, ma’qul bo’lgan jihatlarini amalda qo’llash – hozirgi kun talablaridandir. Zero, yurtboshimiz aytib o’tganlaridek, «Bugungi kunda qaysi davlat yuksak taraqqiyotga erishgan bo’lsa – bu Janubiy Koreya bo’ladimi yoki Yaponiya bo’ladimi, Yevropa davlatlari bo’ladimi – bularning barchasidan o’rganish kerak. Bu borada biz uchun hech qanday mafkuraviy chegara yo’q. Biz uchun yagona mafkura – bu O’zbekistonning taraqqiyoti, O’zbekistonning ravnaqi, O’zbekistonning dunyoda hech kimdan kam bo’lmasligidir»<sup>42</sup>. Darhaqiqat, yoshlar tarbiyasi, ma’naviyat, ta’lim-tarbiya masalalari davlat darajasida muhokama etilib, tegishli ishlar amalga oshirilayotganligiga barchamiz guvohmiz. Jumladan, professor-o’qituvchilar, turli rahbarlik lavozimlarida ishlab kelayotgan xodimlar, madaniyat va san’at muassasalari xodimlariga ham bu ishlarda tegishli aniq va maqsadli vazifalarni amalga oshirish mas’uliyati yuklangan. Shu jihatdan olib qaralganda madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali insonlarga ma’naviy ozuqa berish, ularning bo’sh vaqtlarini samarali va maqsadli tashkil etish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo’shish va boshqa ijobiy xislatlarni uyg’otish kabi vazifalar – oldimizda turgan ulkan ishlardir. Madaniy tadbirlarni to’g’ri tashkil etishdagi asosiy vazifalardan biri inson tarbiyasidagi rolidir. Barcha madaniy tadbirlarni tashkil etish uchun qo’llaniladigan usul va vositalar ma’naviy hayotimizning rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Madaniy tadbirlarning tashkil etishning tarbiyaviy jihatlari, tadbirning dramaturgiyasi, tadbirlarni tashkil etishning ijodiy, tashkiliy, nazariy hamda amaliy jihatlari va jarayonlari, pedagogik va innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, kompyuter va boshqa turli vositalarni kerakli joyda qo’llash olish mahoratini shakllantirish, tadbirni tashkil etishning barcha usul va vositalarini bilish, g’oyaviy talqin va boshqa masalalar yoritish orqali madaniy

---

<sup>42</sup> I.A.Karimov: Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo’lida xizmat qilish –eng oliy saodatdir. Toshkent, O’zbekiston, 235bet

tadbirlarni tashkil etish mahoratiga ega bo'lish –mazkur fanning asosiy maqsadidir.

Kishilar ongi va qalbi uchun kurash kechayotgan bugungi kunda mamlakatimizda «milliy model» asosida ish olib borish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Bu esa targ'ibot-tashviqot ishlariga yangicha texnologiyalar, yondashuvlar, uslub va vositalarni jalb etishni talab qiladi. Joylarda tashkil etilayotgan ko'pgina madaniy tadbirlarning saviyasini yuqori darajada deb bo'lmaydi. Oddiy konsert dasturi, kuy yoki qo'shiqning o'zi insonlarga kerakli tarbiyaviy effektini bermasligi mumkin. Har qanday dasturni, har bir chiqishni ma'lum g'oyani ilgari surgan holda qo'llash maqsadga muvofiqdir. O'tkazilayotgan va tashkil etilayotgan tadbirda turli usul va vositalarning ta'sirchanlik darajasi, masalan, viloyat va qishloqlarimizda faoliyat yuritayotgan fuqarolarga odam savdosiga bag'ishlangan kompozitsiya tayyorlab uni namoyish etishda ishontirish metodlaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, yuqorida keltirib o'tganimizdek, odam savdosi masalalari hozirgi kunda katta yechimini kutayotgan masalalardan hisoblanadi. Chet ellarda mo'may daromat ishlab kelishni orzu qilayotgan fuqarolarimizga bu narsalarning hammasi safsata ekanligi ishontirish, u yerlarda pul topish oson emasligini ularning ongiga singdirish kabi maqsadlarni qo'ygan holda yondoshishni taqozo etadi.

Madaniy tadbir tashkilotchisi Vatanimizdagi buyuk o'zgarishlarni his qila olishi, zamon bilan hamnafas bo'lishi lozim. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi jamiyatni bunyod etish jarayonini yanada jadallashtirish, kishilardagi milliy g'urur tushunchasini yanada mustahkamlash, o'z taqdirini mamlakat, xalq taqdiri bilan mustahkam bog'lay oladigan, yangi jamiyatni bunyod etish jarayonida faol ishtirok etadigan yoshlarni tarbiyalash va boshqa muhim vazifalar –tadbirlarni tashkil etishdagi asosiy maqsad qilib qo'yilmog'i lozim.

Madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, madaniyat va aholi dam olish markazlarida aholiga barcha xizmat turlari bo'yicha xizmat qilish, ularni estetik va madaniy ehtiyojlarini qondirish, yangi zamonaviy madaniyat va san'at maskanlarini barpo etish kabi

ishlarni amalga oshirish va buning asnosida tarbiya o'choqlarini yaratish –davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardandir.

Mustaqillik bilimli, o'z mustaqil fikri va dunyoqarashiga ega, elu yurt taqdiriga dahldorlik tuyg'usi bilan yashaydigan, uning ravnaqi uchun astoydil intiladigan, ya'ni barkamol avlodni voyaga yetkazish bo'yicha ilgari tasavvur ham qilib bo'lmaydigan beqiyos imkoniyatlarni ochib berdi.

Mamlakatimiz tez sur'atlar bilan taraqqiy etib, jahon hamjamiyatida iqtisodiy-siyosiy mavqei kundan-kunga ortib bormoqda. Ta'lim-tarbiya sohasini texnologiyalashtirish jarayoni ham bu sohada samarali natijalarni bermoqda. Ta'lim sohasiga yangi texnologiyalar, innovatsiyalar kirib kelishi darslarni zamonaviy ruhda, ya'ni yangi usul va yangi texnikalar orqali tashkil qilish imkoniyatini yaratib bermoqda.

Tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish ko'zda tutilgan. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», ayniqsa Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning barcha chiqishlarida ta'lim-tarbiya masalalari – jamiyat tarqqiyotidagi eng muhim ishlardan ekanligi - ta'lim tizimida yangicha, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan, yangiliklarga boy, innovatsion yondashuv asnosida ish olib borishni taqozo etadi.

Quyidagi tavsiyalar «Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati» fanini yanada chuqurroq o'zlashtirishga asos bo'la oladi:

1. Talabalarga mazkur fanning mazmun mohiyatini, uning keng imkoniyatlarini to'g'ri tushuntirish.

2. Har bir pedagog va talaba interfaol metodlardan foydalanib, talaba ham professor-o'qituvchi ham o'z ustida ishlashga sabab bo'ladigan, ertangi kun uchun yangi manbalarni izlashga, yangilik yaratishga, o'qish va o'qitish, ta'sir qilishning yangi usul va vositalari haqida muntazam izlanish.

3. Professor-o'qituvchi o'zida hamda talabada bilishga bo'lgan harakat immunitetini hosil qilishi.

4. Madaniy tadbirlarni – jamiyat, davlat tomonidan qo'yilgan vazifalar, talablar asnosida tashkil etish va amalga oshirish hamda talabalarni shunga yo'naltirish.

5. Rivojlangan xorij davlatlarining ilg'or tajribalaridan unumli foydalanish.

6. Talabalarning fanni o'zlashtirish hamda mustaqil tayyorgarlik ko'rish uchun majburiy talabalarni ishlab chiqish va boshqa shu kabi muhim vazifalar - professor-o'qituvchining va talaba o'rtasidagi muloqot, bilim olish, tarbiyaviy jihatlarni uyg'unlashtira oladi, deb o'ylaymiz.

Xulosa sifatida shuni aytib o'tish joizki, mustaqillik yillarida Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan madaniyat va san'at sohasidagi strategik masalalarni hal etish, shuningdek, Madaniyat va san'at sohasida boshqaruvni to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida sohada to'planib qolgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish, yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash va ularni ish bilan ta'minlash, san'at yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan ijodiy xodimlar, o'qituvchi-professorlarni taraqqiyotning bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy himoya qilish kabi ko'plab masalalarni o'z ichiga olgan 30 ga yaqin Farmon va qarorlar qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 5-mart «O'zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasini tashkil etish to'g'risida»gi PF-1419-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 26-aprel «O'zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 163-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 9-yanvar «O'zbekiston milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirish to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 12-yanvar «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi PF-1913-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 26-mart «O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida»gi PF-1980-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 22-may «O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 223-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 26-iyun «Estrada qo'shiqchilik san'atini yanada rivojlantirish to'g'risida»gi 272-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 16-aprel «Toshkent davlat konservatoriyasini O'zbekiston davlat konserva-toriyasiga aylantirish to'g'risida»gi 3052-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 8-iyul «Bolalar musiqa va

san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009–2014-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi to'g'risida»gi PQ-910-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabr «2010 – 2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi 222-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 29-dekabr «2011 – 2015-yillarda madaniyat va istirohat bog'larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi 322-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 4-iyun «O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-1771-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 25-iyun «2013–2018-yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 178-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 9-dekabr «Konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 354-son kabi qarorlar shular jumlasidandir. Ushbu hujjatlar yurtimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy islohotlarni amalga oshirishda dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Bu hujjatlar o'zining dolzarbligini bugungi kungacha yo'qotmagan. Shu jihatdan olib qaralganda bu me'yoriy hujjatlarning ijrosini ta'minlashda madaniyat va san'at sohasi xodimlarining oldida hali bajarishi lozim bo'lgan juda ko'p ishlar turibdi.



### *O'zbekiston Respublikasi qonunlari*

1997-yil 29-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni

### *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va qarorlari*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 20-oktabrdagi «O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 26-martdagi «O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida»ga Farmoni

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 21-sentabrdagi «Hamza nomidagi O'zbek Davlat Akademik drama teatriga «Milliy teatr» maqomini berish to'g'risida»gi Farmoni

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 4-iyundagi «O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat institutini tashkil etish to'g'risida»gi Qarori

### *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari*

1998-yil 22-maydagi «O'zbekteatr ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori.

2013-yil 25-iyundagi «2013–2018-yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 178-son qarori.

### *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari*

I.A.Karimov «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida». –T.: «O'zbekiston». 2011.

I.A. Karimov. «Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajak yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir». –T., 2015.

I.A.Karimov. «Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor». –T.: «O'zbekiston». 2009.

I.A.Karimov. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». –T.: «Ma'naviyat». 2008.

### *Darslik va o'quv qo'llanmalar*

B.Sayfullayev, J.Mamatqosimov. «Aktyorlik mahorati». –T.: «Fan va texnologiya». 2012.

B.Sayfullayev. «Tomosha san'ati tarixi va nazariyasi». T., 2014.  
M.Umarov. «Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi». T.,  
«Yangi asr avlodi», 2009.

F.Ahmedov. «Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari». T.:  
«Aloqachi». 2008.

B. Sayfullayev, V.Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish  
mahorati». T.2016.

K.S.Stanislavskiy. «Aktyorning o'z ustida ishlashi». T.Xo'jayev  
tarjimasida. S.Muhamedov muharrirligida. T. Yangi asr avlodi. 2010.

H. Muhammad. «Ssenariynavislik asoslari».T., Fan va  
texnologiya, 2008.

M.Muhamedov. «Rejissura asoslari». T.: O'DSI bosmaxonasi.  
2008.

J.Mahmudov. «Sahna kompozitsiyasi alifbosi». T.: O'zbekiston  
faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2006.

J.Mahmudov. «Aktyorlik mahorati». Toshkent: Bilim, 2005.

J.Mamatqosimov. «Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna  
madaniyati». T.: «Fan va texnologiya». 2009.

Sh.Alimova. Madaniy-ma'rifiy faoliyat asoslari. T., 2007.

U.Qoraboyev. Madaniy tadbirlar. T. 2000.

U.Qoraboyev. O'zbek xalqi bayramlari. T.Sharq. 2002.

V.Q.Rustamov. «Zamonaviy bayramlar rejissurasi muam-  
molari». T.: 2013.

J.Mahmudov, X.Mahmudova. «Rejissura asoslari». T.: O'DSI  
bosmaxonasi. 2008.

V.Rustamov. «Ommaviy bayramlar rejissurasi va sahnalash-  
tirish asoslari». T.: 2008.

F.Ahmedov. «Ommaviy tadbir va bayramlar rejissurasi va  
aktyorlik mahorati». T.: «Cho'lpon». 2007.

### ***Internet saytlari***

ZiyonET – O'zbekiston ta'lim portali

<http://G`G`www.uzbekteatr.skm.uz> – «O'zbekteatr» IICHB sayti

<http://G`G`www.teatr.uz> – O'zbek Milliy Akademik drama teatri  
sayti

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot markazi  
sayti: [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)

<http://stanislavsky.by.ru>

<http://www.teatr-estrada.ru>

<http://www.teatr.com>

<http://www.aktor.ru>

<http://www.uforum.uz/>

Axborot-resurs markazi <http://www.assc.uz/>

[www.bimm.uz](http://www.bimm.uz)

[www.dsmi.markaz.uz](http://www.dsmi.markaz.uz)

[http:G'G'www.teatr.ru](http://G'G'www.teatr.ru) – Rossiya Federatsiyasining «Teatr afishasi» jurnali sayti

[http:G'G'www.teatr-stanislavsky.ru](http://G'G'www.teatr-stanislavsky.ru) – K.S.Stanislavskiy nomidagi dramatik teatr sayti

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
<b>I bob. «Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati» fanining nazariy asoslari</b>	
Madaniy tadbirlarning jamiyat ma'naviy hayotida tutgan o`mi.....	10
Madaniy tadbirlarni tashkil etishning pedagogik aspektlari.....	15
Madaniy tadbirlarda qo`llaniladigan metod va vositalar.....	29
Madaniy tadbirlar turlari va ularni tashkil etishning spetsifik xususiyatlari.....	49
Madaniy tadbirlar dramaturgiyasi.....	68
Bayramlar-madaniy tadbirlar turlaridan biri sifatida.....	83
Madaniy tadbirlarda ijodiy (badiiy) jamoalar bilan ishlash.....	88
<b>II bob. Madaniy tadbirlarda sahnalashtirish jarayonlarini tashkil etish</b>	
Rejissura.....	96
Repertuar tanlash va tadbimi tayyorlashdagi ish jarayonlari.....	106
Aktyorlik san'ati haqida.....	111
Etyudlar haqida tushuncha.....	121
Etyudlarda K.Stanislavskiy sistemasining prinsiplari.....	129
<b>III bob. Amaliy mashg'ulotlar</b>	
Etyudlardan namunalar.....	135
Fanni o`qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	150
«Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati» fani bo'yicha glossariy.....	158
«Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati» fanidan test savollari.....	161
Xulosa.....	171
Foydalanilgan adabiyotlar.....	176

**B.S. SAYFULLAYEV, V.K. RUSTAMOV**

# **MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH MAHORATI**

**Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2016**

Muharrir:	M.Hayitova
Tex. muharrir:	M.Xolmuhamedov
Musavvir:	D.Azizov
Musahhih:	N.Hasanova
Kompyuterda sahifalovchi:	Sh.Mirqosimova

**E-mail: [tipografiyacnt@mail.ru](mailto:tipografiyacnt@mail.ru) Tel: 245-57-63, 245-61-61.  
Nashr.lits. AI №149,14.08.09. Bosishga ruxsat etildi: 05.12.2016.  
Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>. «Time Uz» garniturasini.  
Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 11,5.  
Nashriyot bosma tabog'i 11,25. Tiraji 300. Buyurtma №252.**

**«Fan va texnologiyalar Markazining  
bosmaxonasi»da chop etildi.  
100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.**

